

Vilyam Shekspir



**TANLANGAN
ASARLAR**

821.111-21

LL 42	2020/54
	115

111.111.111.111

2020/54-50

3 M

Vilyam Shekspir

TANLANGAN ASARLAR



«TAMADDUN»
Toshkent — 2011

UDK: 821.512.133

BBK: 84 (4Ingl)

Sh 42

Shekspir, Vilyam.

Tanlangan asarlar / V.Shespir; ingliz tilidan tarj. J.Kamol. - T.: Tamaddun, 2011. - 380 bet.

*Yo hayot, yo mamot: masala shundoq.
Joizmikin ul jobiru jabbor falakning
Jafosiga har daqiqa chidasa yurak?..*

Insoniyatning razolat va qabohatga, xiyonat va aldovga, yovuzlik va ochko'zlikka isyoni bo'lib yangragan ushbu Hamlet monologi ulug' dramaturg Vilyam Shekspir qalamiga mansub. To'rt yarim asrdan buyon angliyalik buyuk san'atkor asarlari dunyoni hayratga solib kelmoqda. To'rt yarim asrdirki, jahon xalqlari Hamlet va Ofeliya, Otello va Dezdemon, Romeo va Juletta, Qirol Lir va Makbet bilan birga kuladi, yig'laydi, iztirob chekadi, hayajonga tushadi. Ular bilan birga sevadi, nafratlanadi, ezgulik tantanasi uchun kurashadi.

Qadrli o'quvchi! Qo'lingizdagi kitobdan qalbingizga ana shunday ezgu va yuksak tuyg'ular baxsh etadigan «Hamlet» va «Otello» asarlari o'rin olgan.

*Ingliz tilidan
O'zbekiston xalq shoiri
Jamol Kamol tarjimasi*

BBK 84 (4Ingl)

ISBN 978-9943-377-65-3

N1 32483
3

© «TAMADDUN», 2011-yil.

2020/54	Alisher Navoiy
50	O'zbekiston MK



HAMLET

Daniya shahzodasi



ISHTIROK ETUVCHILAR

Klavdiy. Daniya qirol.

H a n l e t. Avvalgi qirolning o'g'li, hozirgi qirolning jiyani.

Fortinbras. Norvegiya shahzodasi.

Horastio. Hamletning do'sti.

P o l o n i y. Saroy noziri.

Laert. Uning o'g'li.

Voltimand

Korneliy saroy a'yonlari.

Rozenkranst

Gildenstern.

Ozrik.

Aslzoda.

Ruhoniy.

Marstell

Bernardo ofitserlar.

Fransisko. Askar.

Reynaldo. P o l o n i y ning xizmatkori.

Kapitan.

Angliya elchilari.



Aktyorlar, ikki masxaraboz — go'rkov.

Gertruda. Daniya qirolichasi, Hamletning onasi.

O f e l i y a. P o l o n i y n i n g q i z i.

Lordlar, xonimlar, ofitserlar, askarlar, dengizchilar, choparlar va xizmatkorlar. Hamlet otasining arvohi.

Vogea Elsinorda bo'lib o'tadi.



BIRINCHI PARDA

1-sahna

Elsinor.¹ Qasr oldida kungirador devor bilan o'ralgan tor maydoncha: o'ng va so'l yoqda minoralar ham ularning eshiklari.² Yulduzlar charaqlab turibdi. Havo juda sovuq.

Oybolta bilan qurollangan F r a n s i s k o qorovulda turibdi; u yoqdan — bu yoqqa yurib turadi. Soat o'n ikkiga zang uradi. Qasrdan xuddi shunday qurollangan ikkinchi soqchi — B e r n a r d o chiqib keladi; u F r a n s i s k o ning qorong'ulikdagi qadam tovushlarini eshitib to'xtaydi.

B e r n a r d o

Kim bor bunda?

F r a n s i s k o

O'zing kimsan, to'xta, javob ber.

B e r n a r d o

Omon bo'lcin qirolimiz!

F r a n s i s k o

Bernardo?

¹ Daniyada bir shahar, Skandinaviya yarim orolidan ajratuvchi bo'g'oz sohilida joylashgan.

² Qasrni o'ragan maxsus aylana tekislik. Qasrga hujum qilgan dushman askarlari shu yerda qattiq zarbaga uchragan.

B e r n a r d o

Ha, men.

F r a n s i s k o

Balli, kechikmading, xuddi vaqtida kelding.

B e r n a r d o

Soat hozir o'n ikkiga zang urdi. Endi —
Borib uxla, Fransisko.

F r a n s i s k o

Rahmat. Men rosa
Sovuqqotdim va yuragim allanechuk g'ash.

B e r n a r d o

Qalay, bunda tinchlikmi?

F r a n s i s k o

Suv quygandek jimjit.

B e r n a r d o

Bo'lmasa-chi, bora qolgin, xo'p, xayrli tun.
Ha, mabodo uchrab qolsa Horatsiy, Marstell,
Sen ularni shoshiltir, to navbatlariga
Hayallamay, o'z vaqtida yetib kelishsin.

F r a n s i s k o

O'shalarmi, deyman... To'xta! Kelayotgan kim?

Horastio va Marstell kiradi.

H o r a t s i o

Yurt do'stlari.

M a r t s e l l

Va Q i r o lning xizmatkorlari.

Fransisko

Xayrli tun sizga.

Martell

Xayr, ey sodiq askar,
Sen bilan kim navbatlashdi?

Fransisko

Postda Bernardo.
Yaxshi qoling.

Ketadi.

Martell

Ey! Bernardo!

Bernardo

Labbay, birodar.
Horastio shu yerdami?

Horatsio

Har qalay, shunda.

Bernardo

Salom, Horastio; salom, og'ayni Marstell.

Martell

Anuv g'aroyibot bugun ko'rinmadimi?

Bernardo

Hozircha yo'q.

Martell

Ishonmaydi, vasvasa, deydi.
Horatsio bizga zohir bo'lgan ro'yoni,
Birmas, ikki karra hozir bo'lgan arvohni.

Ishonmasang, qani, do'stim, birga yur, dedim.
Bizlar bilan qorovulda birga tur, dedim.
Arvoh yana qarshimizda bo'larkan paydo
Yaxshilab boq, gaplashmoqqa unnab ko'r, dedim.

H o r a t s i o

Ha, u endi kelib bo'пти.

B e r n a r d o

Xo'sh, o'ltiraylik,
Ruxsat eting, batang aylab qulog'ingizni,
Ko'rganlarim yuzasidan gapiray picha.
Bular tamom teskaridir tariximizga.
Horatsio
Xayr, mana o'tirdik ham. Eshitaylik-chi,
Bernardoning vahimasini.

B e r n a r d o

Avvalgi kecha
Qutb yulduziga g'arbiy hamsoya bo'lgan
Anuv yulduz falakning bu burjiga ko'chib,
Hozirgidek jilolanib, socharkan yog'du,
Marstell bilan qorovulda turardik tanho,
Soat birga zang urganda...

Arvoh kiradi.

M a r t s e l l

Jim! Gapirma! Damingni yut! Qara, mana u!

B e r n a r d o

Savlatidan — xuddi marhum Q i r o lning o'zi.

M a r t s e l l

Sen bilag'on, unga biror so'z qot, Horatsiy.

B e r n a r d o

Xo'sh, seningcha, u qiroлга o'xshamaydimi?
Horatsio
O'xshaganda qandoq! Vahim bosmoqda meni.

B e r n a r d o

U chamamda savol kutar.¹

M a r t s e l l

Gapir, Horatsiy.

H o r a t s i o

Hey, kimdirsan, so'roqsiz, shu tun pallasida,
Daniyaning marhum shohi qiyofasida
Salobatlar to'kib, bunda kezib yuribsan?
Osmon haqqi o'tinaman, javob bergaysan!

M a r t s e l l

U ranjidi bizdan.

B e r n a r d o

Qara, ketayotir ul.

H o r a t s i o

To'xta! Yolboraman! Menga javob aylagil!

Arvoh ketadi.

M a r t s e l l

Ketib qoldi, istamadi gaplashishniyam.

B e r n a r d o

Ha, Horatsiy! Yetar, muncha qaltirayvermang.

¹ Qadimiy inonchlarga ko'ra, arvohlar birinchi bo'lib gapirmaydi, deb o'ylashgan.

Xo'sh, sizningcha yolg'iz xayol-vasvasami bu?
Endi nima deysiz, do'stim?

H o r a t s i o

Tangriga qasam,
Ishonmasdim, agar ko'zim bilan ko'rmasam.

M a r t s e l l

U qirolga o'xshaydimi?

H o r a t s i o

O'xshashdir beshak —
U qirolga, sen o'zingga o'xshaganingdek.
Va takabbur norveglarga qarshi urushda
Qanday yaroq taqqan esa, shundoq, musallah.
Yana, bir ayyomlar Polsha a'yonlarini
Jahl bilan chanalardan itqitib, qandoq
Muz ustiga otgan esa, shunday badqovoq.
Vo ajabo!..

M a r t s e l l

Ikki karra o'tdi bizning yaqinimizdan
Xuddi shu payt, shunday zalvor qadamlar bilan.

H o r a t s i o

Bu jumboqning tagiga men yetolmagayman,
Ammo mening nazarimda nishonadir bu-
Saltanatni qaqshatguvchi zilzilalardan.

M a r t s e l l

Shoshmang, bundoq o'ltiraylik, qani kim aytar,
Kechalari posbonlarni ko'paytib bundoq,
Xaloyiqni besaranjom etish ne darkor?
Nega hadeb quyilmoqda mis zambaraklar,
Va xorijdan tashilmoqda qurol-yarog'lar,
Nega usta-kemasozlar yollanib ming-ming,

Ish ketmoqda, na shanba, na yakshanba-tinim?
Nega endi jin quvgandek tirmashib barcha,
Kecha-kunduz ter to'kamiz, jadal, betinim?
Kim sharh etar bu ahvolni?

H o r a t s i o

Men unnab ko'ray.
Bu to'g'rida mish-mishlar ham bordir har qalay.
Bizlar boya arvohini uchratgan qirol
Bir zamonlar maydon aro tuzib maraka,
Norveglarning hukmdori Fortinbras-la
Solishgandir bedov surib, yakkama-yakka.
Jang oldidan ular shundoq paymon etishgan:
Mag'lub bo'lgan o'z mulkidan ayrilur beshak,
G'olib chiqqan esa — o'sha yurtga yetishgan.
O'sha maydonaro qilich sirmab betma-bet,
Raqibini tamom mag'lub aylagan Hamlet
Va marhumning davlatiga bo'lgan muyassar.
Fortinbras vorisi-chi, uning ham nomi
Fortinbras ataladi, o'sha ayyomlar
Achchiq, alam-nadomatdan ko'zni namlagan.
O'ch-intiqom da'vati-la Norvegiyadan
Kallakesarlarni yig'ib, qo'shin jamlagan.
Xufyona xabarlar ham shuni tasdiqlar,
U otasi qo'ldan berib qo'ygan yerlarni
Zo'rvonlik bilan qaytib olmoqchi bo'lar.
Shundan, deyman, bu yashirin vahim, vasvasa.
Bu taraddud, bu tahlika va bu talvasa.
Shundan, deyman, har qadamda tiqilinch, tashvish,
Butun o'lka rohatini yo'qotib qo'ymish.

B e r n a r d o

Balli, shundoq bo'lsa kerak, gapingda jon bor.
Kim bekorch-dahmaza deb aytar bularni:
O'sha jangu jadallarni qo'zg'agan qirol
Tunda ko'zdin kechirarkan qorovullarni.

H o r a t s i o

Bu – dilimning diydasiga qadalgan tikan.
Rimning gurillagan davri, zafar ayyomi
Sohibjilov Yuliy taxtdan qulamay hali,
Qabrlari bo'm-bo'sh qo'yib, ko'cha-ko'ylarda
G'udurlanib kezgan ekan suyak – murdalar.
Ko'kda uchgan yulduzlarning alangasida
Qip-qizarib ketgan ekan shabnam qatralar,
Qora dog'lar toshib ketgan quyosh yuziga;
Dengizlarni o'z amriga yuritgan oy ham
Olamaro qiyomat kun qoyim bo'lganday,
Kasal kabi qop-qorayib ketgan o'shanda...
O'sha qo'rqinch ofatlarning darakchisidek,
Falokatning fojiaiy debochasidek,
Qonli mojarolarga bir ibtido bo'lib,
Boshimizga solib tashvish-nadomatlarni,
Biz, insonlar olamiga birlashib turib,
Osmon, Zamin otar turfa alomatlarni.
Arvoh qaytib keladi.
Hay, jim bo'ling! Tag'in o'sha! Men to'xtataman!
Ne qilsa ham. Shoshma, arvoh, joyingdan jilma!
So'z aytishga agar nutqi zaboning bo'lsa,
Gapir, tilga kir!
Balki biror kori xayr lozimdir shu tob:
Senga rahmat bo'lur, bizga daryoyi savob.
Gapir, tilga kir!
Yurt qismati balki senga bo'lmishdir zohir,
Balolarni daf etmoqqa erurmiz qodir.
O, gapirsang-chi!
Ehtimolki, tirigingda ko'mgan simu zar
Halol emas, shu sababdan bezovta aylar.
Xazinalar arvohlarni chorlaydi, derlar,
Shu gap rostmi? To'xta, deyman, to'xta, hey, gapir!
Xo'roz qichqiradi.
Marstell, ushla!

M a r t s e l l

Bolta bilan chopaymi uni?

H o r a t s i o

Chap bersa, chop bolta bilan.

B e r n a r d o

Ana!

H o r a t s i o

Ana u!

Arvoh ketadi.

M a r t s e l l

Ketdi!

Uning podsholik izzat-nafsig

Og'ir botdi biz ko'targan bepisand chuvvos.

U bug' kabi daxlsizdir, bizning zarbamiz

Havoga tig' urgan kabi behuda, xolos.

B e r n a r d o

So'z qotardi agar qichqirmasaydi xo'roz.

H o r a s t i o

Shunda u bir gunohkordek seskanib tushdi

Va taraddud ichra qoldi. Eshitgandimki,

Tong jarchisi xo'roz uzun "qu-qu"lash bilan

Uyg'otarmish kun tangrisin tun uyqusidan.

Uning qichqirig'i har gal sadolanarkan,

Dengizdami yo olovda parlanib turgan,

Quruqdami yo havoda sargashta yurgan —

Sarson ruhlar yotog'iga qaytar dafatan.

Chamamda biz hozir buning guvohi bo'ldik,

Guvohimas, balki tayin ogohi bo'ldik.

M a r t s e l l

Xo'roz qichqirig'i bilan so'nib bordi u,
Deydilarki, har yil xuddi qish pallasida,
Payg'ambarning tavalludi arafasida
Tinim bilmay qichqirarmish tun bo'yi xo'roz.
Ruhlar esa sho'xlik-shumlik qilasmish sira,
Sayyoralar boqar emish sokin, mehribon.
Insu jinslar mahrum bo'lib sehru amaldan,
Ezgulikka cho'mib, asta kecharmish davron.

H o r a t s i o

Eshitganman, men ham bunga bovar qilaman.
Ana, alvon yaktagini sudrab subhidam —
Shabnam bosib, sharq ufqidan kelmoqda ildam.
Tarqalishsak bo'lar. Lekin bir maslahat bor:
Nima deysiz, yosh H a m l e t n i etsak xabardor —
Bunda sodir bo'lgan sirru sinoatlardan.
Bizga soqov bo'lib, og'iz ochmagan arvoh
Shahzodaga asrorini so'ylagay, illo.
Nima deysiz, shuni bir-bir bayon aylasak,
Do'stlik burchimizni bo'yla ayon aylasak?

M a r t s e l l

Aytish kerak. Balki shunda yechilar tugun.
Men bilaman, qayda bo'lur shahzoda bugun.

Ketishadi.

2-sahna

Qasrning qabulxona zali. Qirol, Malika, Hamlet, Poloniy, Laert, Voltimand, Korneliy, saroy a'yonlari va xos mahramlar kirishadi.

Qirol

Yuraklarni akamiz-u Hamlet qayg'usi
Yondiradi, yonishimiz joizdir garchand,
Garchand iztirobga to'lib mulku mamlakat
Hali kuyib-o'rtanishi joiz bo'lsa ham,
Tabiatni jilovlaydi lekin tafakkur,
Baski, minbad marhumni deb aza ochganda
Tiriklarning taqdirin ham o'ylamoq zarur.
Shuning uchun singlimiz va malikamizni —
Jangovar u sarhadlarning vorisasini
Rafiqqa, deb atamoqni etdik ixtiyor.
Sevinch-sururimiz xuddi og'u aralash,
Bir ko'zimiz yog'du to'kar, bir ko'zimiz yosh.
Azada jilmayib, to'yda chekib fig'onlar,
Qayg'u-quvonch posangisin tutdik barobar.
Biz bu ishga ehtiyot-la qo'yarkan qadam,
Oqil, dono kengashlarni tingladik har dam.
Ular bizning tadbirimiz ko'rishdi ma'qul,
Yaxshi gaplar, maslahatlar uchun tashakkur.
Ikkinchidan, qirolvachcha u Fortinbras
Bizni zarra nazar-pisand aylamay, hatto
Akamizning o'limidan keyin bu yurtda
Boshboshdoqlik bo'lur, degan bir xayol bilan
G'ururlanib ketdi, kibru havoga mindi
Ki, otasi qo'ldan bergan viloyatlarni,
Og'aynimiz tasarrufga olgan yerlarni
Talab qila berib, rosti, jonga ham tegdi.
Bu to'g'rida muxtasar gap mana shu. Endi
Yig'ilishdan maqsad nima — bir-ikki kalom.
Fortinbras amakisi, norveg qirolni —

Ko'pdan beri kasal bo'lib to'shakda yotgan —
Jiyan qilmishidan balki bexabar cholni,
Biz xabardor etmoqchimiz bir maktub ila.
Toki bersin o'sha fitna-fujurga barham,
Qo'shin uning izmidadir, mulku mablag' ham.
Yetkazing, deb topshiramiz ushbu maktubni
Sizga, azizim Voltimand, sizga, Korneliy.
Bizdan ta'zim bo'lsin o'sha qari qiroлга,
Vakolatingizni biling, lekin adashmang,
Unga qat'iy amal qiling, haddan ham oshmang.
Xizmatga shay ekangizni ko'rsatur shu tob
Xizmat aro ko'rsatilgan g'ayrat va shitob.

K o r n e l i y v a V o l t i m a n d
Burchimizni bajargaymiz biz bajonu dil.

Q i r o l

Biz ham ishonamiz. Xayr, sizlarga oq yo'li!
Voltimand va Korneliy ketadi.
Xo'sh ayting-chi, Layert, nechuk yangiliklar bor?
So'z borgandi qandaydir bir o'tinch haqida.
Qanday o'tinch, Layert? Nima bo'lmasin o'sha,
Biz oldindan qabul qildik, qazosi tayin.
Hali o'sha o'tinchini siz aytib bo'lmasdan,
Berishga biz shay bo'lmagan nima bor ekan?
Bir-biriga payvastadir yurak bilan bosh,
Ayon gapki, qo'l og'izga halol xizmatkor.
Ammo sizning otangizu Daniya taxti —
Robitasi bundan baland. So'rang, ne darkor?

L a e r t

Davlatpanoh, so'raydirman ijozatingiz
Qaytib ketmoq uchun tag'in Fransiya,
Siz bunda toj kiyib, taxtga minar ekansiz,
Kelgan edim marosimga qatnashmoq uchun,

Endi burchim taqozosi, fikru xayolim
Yana ortga qaytishimga da'vat etadi.
Ta'zimga bosh egib, sizdan izn so'rayman.

Q i r o l

Padaringiz Poloniy-chi, bunga ne deydi?

P o l o n i y

Shohim, so'rayverib, rosa jonimga tegdi,
Unday desam, bunday deydi, oqibati kor —
Qaytishiga oq fotiha berdim men nochor,
Lutfingizni siz ham darig' tutmang, hukmdor.

Q i r o l

Baxtingizni bersin, Layert, tole yor bo'lsin,
Yayrab yashayvering, mayli, sizda ixtiyor.
Qalay, jiyan-o'g'lonimiz Hamlet bu nafas?

H a m l e t

(Chetga)

O'g'illigi yolg'on, lekin jiyanligi rost.

Q i r o l

Ajab, hanuz arimabdi yuzingdan bulut?

H a m l e t

O, aksincha, quyoshlidir yuzim bemavrud.

M a l i k a

Oh, Hamlet, bas, tunde qovoq solganing yetar,
Ne qiladi, qirol sari boqsang do'stona.
Qachongacha marhum otang izini izlab,
Tuproqlarga ko'z tikasan ma'yus, giryona.
Bu azalning buyrug'idir: tiriklar o'lar,
Foniylkdan boqiylikka ravona bo'lar.

Hamlet

Ha, azalning buyrug'i shu.

Malika

Qayg'u-alaming

Magar senga noyob bo'lib tuyuladimi?

Hamlet

Tuyulmaydi, bekam! Balki aslida shundoq,

Har qandayin "tuyuladi" deyish menga yot.

Na bu aza saruposi, tim qora libos,

Na bezovta va hirqiroq olingan nafas,

Ne ko'zlardan oqib tushgan daryo-daryo yosh,

Na chehraning so'lg'inligi va hokazolar

Mening qayg'u-hasratimni ifsho etolmas.

Bular bari tuyulishning usullaridir,

Ular — amal, bir amallab o'ynasa bo'lur.

Mening g'amim begonadir bo'yoqqa illo,

Mana men, deb o'rtağa ham tushmagay aslo.

Qiroli

Barakalla, Hamlet, otang azasin tutib,

O'z farzandlik burching bo'yla ado etasan,

Ammo shuni o'z-o'zingga hisob etgaysan,

Sening otang va otangning otasi hatto

Judo bo'lgan bir kun padar buzrukvoridan.

Otasiga aza tutish — farzand uchun farz,

Lekin buni odat etish unga yarashmas,

Erkak kishi chekaversa betinim qayg'u,

Ezgulikdan ancha yiroq tushganidir bu.

Bu — so'qir qalb, noqis aql, tarovatsiz ta'b,

Tor va mahdud tushunchadan kelgan nishona.

O'lim axir muqarrar-ku, ravshan-ayon gap,

Iloj qancha, umr tugab, to'lsa parvona.

Unga qarshi turish, uni mazammat qilish,

Uning farmonidan bo'yin tovlamoq nima?

Bu — osmon huzurida gunohi azim,
Kufr — marhum oldida ham, xilqat oldida.
Yana aql oldida ham bir ishtibohkim,
Otalarning qismatiga bo'ysunib o'sha,
Eng birinchi murdani u qarshilab olgan.
Yana "shundoq bo'lishi haq" degan nido-la
Eng oxirgi murdani ham ko'zatib qolgan.
Bas, marhamat etib endi qayg'uni kam qil,
Otang maqomida bizni ota raqam qil,
Dunyo bilsin, toju taxtning eng yaqinisan
Va otalik mehrimiz ham faromush emas.
Vittenbergga qaytib, yana ta'lim-tahsilni
Davom ettirishing, Hamlet, bizga xush emas.
O'tinaman, o'ylab qara, qoshimizda qol,
Aziz farzand bo'lib, oliy amaldor bo'lib —
Bizning mehru muhabbatdan ulushingni ol!

M a l i k a

Meni qol deb yalinishga majbur aylama,
Vittenbergga qaytishingni endi o'ylama.

H a m l e t

Bekam, bo'ysunaman amri-farmoningizga.

Q i r o l

Mana bu xush so'zing g'oyat ma'quldir bizga.
Daniya — o'z uying. Qani, malikam, yuring,
Lutфу karam qilib, zero, o'g'limiz Hamlet
Sevinch-surur soldi hozir yuragimizga.
Buning sharafiga bazmi jamshid tuzaylik,
Qadahlarining dovrug'ini cho'ng zambaraklar —
Qahqahasi bulutlarning bag'riga eltsin.
Va samoviy guldurosalar yangrab galma-gal,
Qadahlarining jarangiga qo'shilib ketsin.
Ketdik.

H a m l e t dan bo'lak hamma ketadi.

H a m l e t

O, koshkiydi, shu zil gavda, shu bir xalta go'sht
Irib-chirib ketsa, shabnam bo'lib taralsa.
O, koshkiydi, o'z joningga o'zing qasd qilib,
Xalos bo'lsang, gunoh emas, savob sanalsa.
Yo Xudoyim! Yo Rabbano! Yo Parvardigor!
Qanday ayanch, qanday jirkanch va to'mtoq bo'lib
Ko'rinadi butun olam, butun koru bor.
Qarab-qarab ko'ngling aynab ketadi! Xuddi
G'ovlab ketgan, tashlandiq bir boqqa o'xshaydi.
Qadam qo'yish mahol, axlat, hammayoq axlat,
Shunchalar past tushish, yo Rab, shunchalar dahshat!
O'lganiga ikki oy, yo'q, ikki oy hammas,
Qanday qirol edi o'sha dono, zabardast.
Ha, manavi bilan qiyos aylaganda-chi,
Satir qarshisida Febday purviqor edi.
Va onamni sevar edi qanchalar, evoh,
Yuzlariga shamolni ham ko'rmasdi ravo.
Osmon, Zamin! Qay birini aytayin yana?
Bu ham talpinardi unga tashnadan-tashna
Lekin bir oy o'tar-o'tmas... Behuda kalom!
O, xotinlar, xiyonatdir nomingiz tamom!
Bir oy bo'lmay turib! O'sha tobut ortidan
Niobeya yanglig' ko'zyosh to'kib borarkan,
Kiygan kovushlari hali but-butun, yohu!
Yo Xudoyim! Farosatdan mahrum hayvon ham
Toqat qilib turar, bardosh etar edi-ku.
Erga tegib olmish, kimga, amakimizga;
Geraklga men qanchalar o'xshasam, zero,
Marhumga ham shuncha monand bo'lgan kimsaga.
Hali bir oy o'tar-o'tmas, hali yuzidan
Yolg'onchi ko'z yoshlar sho'ri qurimay turib,
Qovog'ining qizargani arimay turib,
Erga chiqib olmish! Shundoq bir shitob ila
O'zini bir qarindoshning qo'yniga solmish!

Yo'q, oxiri baxayr emas bu ishning beshak,
Chilpora bo'l, yurak, sukut saqlashim kerak!

(H o r a t s i o, M a r t s e l l va B e r n a r d o kirishadi.)

H o r a t s i o

Salom, shahzoda.

H a m l e t

Men shodman tashrifingizga,
Horatsiysiz — adashmasa agar xotiram.

H o r a t s i o

Xuddi o'zi, to o'lguncha sodiq qulingiz.

H a m l e t

Aziz do'stim, men ham sodiq g'ulomingizman.
Sizni Vittenbergdan bunda keltirgan nima?
Siz Marstellsiz, shundoqmasmi?

M a r t s e l l

Shundoq, shahzodam...

H a m l e t

Sizni ko'rganimdan shodman.
(B e r n a r d o ga)

Xayrli oqshom —

(H o r a t s i o ga)

Sizni Vittenbergdan bunda keltirgan nima?

H o r a t s i o

Yalqovlikka mayl bizni keltirmish rosti.

H a m l e t

Hatto dushmaningiz sizni shundoq demasdi.
O'zingizga yozg'iriqlar yog'dirish bilan

Behudadan-behudaga meni qiynamang,
Men bilaman sizni, yalqov emassiz aslo.
Elsinorda bandsiz nechuk yumushlar bilan?
Hali, shoshmang, o'rgatamiz mayxo'rlikka ham.

H o r a t s i o

Biz kelgandik otangizning janozasiga.

H a m l e t

Do'st ustidan kulish bundoq yaxshimas, do'stim,
Siz onamning nikohini aytmoqchidirsiz?

H o r a t s i o

Ha, darvoqe, o'sha nikoh: ajab, muncha tez?

H a m l e t

Hisob-kitob, Horatsiy! To'y dasturxoniga
Tortiladi darrov motam — aza chalpagi.
Bu savdoni yana bir bor tatib ko'rgandan
Men jannatda qarshilardim dushmanni xursand.
Marhum otam ro'paramda turgandek xuddi.

H o r a t s i o

Qayda, aziz shahzodam?

H a m l e t

Dil oynasida.

H o r a t s i o

O, rahmatlik qirolmisan qirol edi-da.

H a m l e t

U chinakam inson edi, muruvvatga shay,
Bunaqasin ko'rish endi nasib bo'lmagay.

H o r a t s i o

Shahzodam, u shunda edi kecha, bilsangiz.

H a m l e t

Shunda edi? Kim u?

Horastio

Qirol, sizning otangiz.

H a m l e t

Otam?!

H o r a t s i o

To'xtang, o'zni bir oz bossang,shahzodam,
Gapga quloq soling. Sizga men bayon aylay.
Mana, guvohlarim tayyor, meni qo'llagay,
Xudo bilsin, nima?..

H a m l e t

So'zlang, menda yo'q chidam.

H o r a t s i o

Manavi janoblar — Marstell bilan Bernardo
Mijja qoqmay qorovulda turishar ekan,
Tunning so'ngsiz sukunati ichra u ro'yo
Surunkasi ikki kecha ko'rinish bergan.
Boshdan-oyoq qurol-yarog' taqqan bir kimsa
Otangizga o'xshash, zalvor qadamlar bilan
Goh u yoqqa yurgan, gohi bu yoqqa yurgan.
Ulardan naq nayza bo'yi bir masofada
Suzib o'tgan nari-beri rosa uch karra.
Ular bo'lsa, har birisi bir juft ko'z bo'lib,
Tura bergan vahimadan to'ngib, muz bo'lib.
Keyin menga etisharkan bu sirni oshkor,
O'zim borib ko'rmoqlikka ayladim qaror.

Uchinchi kun qorovulda turganim soat
Eshitganlarimni atay tasdiq etganday,
Paydo bo'ldi o'sha soya, humoyun suvrat.
Padaringiz esda. Ular o'xshashdir xuddi
Naq mana shu qo'llarimdek.

H a m l e t

Qayda ko'rindi?

M a r t s e l l

Qasr oldidagi kichik maydonda, begim.

H a m l e t

Siz gap qotib ko'rdingizmi?

H o r a t s i o

Gap qotib ko'rdim.

Ammo samarasiz. O'sha hayajonli dam
Boshi bilan yelkasining burilganidan
Payqadimki, so'z aytishga moyilligi rost,
Ammo xuddi shu daqiqa qichqirdi xo'roz,
U seskanib tushdi buni eshitgan zamon
Va ko'zdan ham g'oyib bo'ldi.

H a m l e t

Suvratman tamom!..

H o r a t s i o

Shahzodam, chin gapdir, neki biz bayon qildik,
Sizga shuni yetkazmoqni sharaf deb bildik.

H a m l e t

Ha-ha shundoq, lekin bular men uchun og'ir,
Kim kechasi qorovulda turar?

M a r t s e l l v a B e r n a r d o
Biz, milord.

H a m l e t
Qurollangan dedingizmi?

M a r t s e l l v a B e r n a r d o
Balli, batamom.

H a m l e t
Boshdan-oyoq?

M a r t s e l l v a B e r n a r d o
Boshdan-oyoq.

H a m l e t
Yuzini balkim
Ko'rgandirsiz?

H o r a t s i o
Ko'rdik, dubulg'asi dol edi.

H a m l e t
Qahrlimi, qovoqlari soliqmi?

H o r a t s i o
Yo'q-yo'q,
Qahr emas, hasrat bilan boqar.

H a m l e t
Rangi-chi?
Qum o'chganmi, qizarganmi?

H o r a t s i o
Bo'z kabi oppoq.

H a m l e t
Sizdan koʻzni uzmadimi?

H o r a t s i o
Sira uzmad.

H a m l e t
Afsus, boʻlmaganim.

H o r a t s i o
Jinni qilardi sizni.

H a m l e t.
Ha, boʻlishi mumkin. Qalay, turdimi uzoq?

H o r a t s i o
Ulgurardim, gar yuzgacha sanasam sanoq.

M a r t s e l l v a B e r n a r d o
Yoʻq, ziyodroq.

H o r a t s i o
Men borimda turgani shuncha.

H a m l e t
Soqollari oqarganmi?

H o r a t s i o
Oq emas uncha,
Mosh-guruch boʻlgan. Xuddi tirikdagiday.

H a m l e t
Tunda borib, qorovulda birga turayin.
Balki, tagʻin kelar.

H o r a t s i o

Uning kelishi tayin.

H a m l e t

Agarda u ro'yo yana bo'larkan paydo,
Men u bilan gaplashaman. Hatto jahannam
Olovlarda qo'zg'alishib, og'zim yopsa ham.
Bu asrorni, iltimosim sizdan yagona,
Shu choqqacha yashirgandek, yashiring yana.
Tunda nechuk ro'y bermasin harakat-holat,
Ma'nosini chaqing, lekin jim turing faqat.
Do'stlik himmatiga loyiq javob beraman,
Soat o'n ikkiga yaqin chiqib boraman
Yoningizga.

H a m m a

Biz tayyormiz xizmatigingizga.

H a m l e t

Mehrim, sidqu sadoqatim hamisha sizga.
Xayr.

H a m l e t dan bo'lak hamma ketadi.

Qurollanib yurmish otam arvohi!
Bu yaxshilik alomati emas. Bu yerda
Aldovmi yo bir xiyonat borga o'xshaydi.
Qosh qoraysin, to ungacha sabr qil, yurak:
Fitna yerga ko'milsa ham, fosh bo'lur beshak.

Ketadi.

3-sahna

O'sha joy. P o l o n i y uyida bir xona.
L a e r t va O f e l i y a kirishadi.

L a e r t

Yuklarim kemada. Xayr, yaxshi qol, singlim.
Endi so'z ber, qulay fursat kelarkan qoyim,
Yo'lchi yellar esar ekan, g'aflatda qolma,
Menga maktub-mujda yo'lla.

O f e l i y a

Albatta, og'a.

L a e r t

Hamlet iltifotlariga aslo ishonma,
U – tentaklik yoki qonning qutqusi xolos.
U – ilk bahor fasli g'uncha ochgan binafsha,
Bemahal va nimjon, chuchmal, xazonga mahkum,
Bor-yo'g'i bir lahzalik xushbo'yi bor, bas.
Ortiq emas.

O f e l i y a

Ortiq emas?

L a e r t

Ha, ortiq emas.
Mushak rivojimas hayot kamoli faqat,
Tan to'lishar ekan, xuddi ehromga monand
Avjga chiqib borar ruhiy, aqliy ibodat.
Balki sevar seni hozir ma'sum, beg'araz,
Hali kirlanmagan, toza tuyg'ular bilan.
Ammo undan qo'rqqil, kim u, o'ylab qaragil,
Rutbasiga ko'ra, erki qo'lida emas.
Tavalludi bilan naslu nasabga asir,
Boshqalardek bo'lolmas u sohib ixtiyor.

U yor tanlar ekan, bunda avvalu oxir
Saltanatu mamlakatning manfaati bor.
U yor tanlar ekan, o'zi tanlamas sira,
Unga mahbub tanlar o'sha oliy doira.
Seni sevaman, deb mayli, takrorlayversin,
Uni tingla, ammo sira aylama bovar,
U o'z so'zlarini oqlay olmagay lekin,
Umum Daniyaning talab-amriga ko'nar.
Xullas, o'ylab qara, singlim bo'larsan badnom,
Uning ashulasin chin deb bilsang mabodo.
Yuragingni bersang, iffat mulkini tamom
Uning otash talabiga aylasang fido.
Qo'rq qil, Ofeliya singlim, qo'rq qil, hazar qil,
O'tdan qochgan kabi qochgil ehtiroslardan,
Qochgil ishqu rozlar, shirin ishva-nozlardan.
Qiz bolaga oy ham hatto oynakdan boqib,
Termulishi nojo'yadir, yaxshi anglagil.
Qiyin ishmas or-nomusni bo'htonga qo'yish.
Qurt ham qiyratadi avval yangi kurtakni,
Hayot tongotari chog'i shabnamda yursang,
Turfa kasalliklar senga ilashar chindan.
Hali yosh ekanmiz, hali ma'suma bir jon,
Tortinchoqlik o'zi bizga eng yaxshi qalqon.

O f e l i y a

Nasihatlaringni xuddi jonim ustiga
Tumorchadek osib qo'yay. Va lekin, og'am,
Diyonatni maqtab, elni samoga undab,
O'z so'ziga o'zi nuqul teskari yurgan,
Kufr-gunoh so'qmog'ida yelib-yugurgan,
El-yurtdan uyalmagan chala mulloga
O'zing o'xshab qolma tag'in.

L a e r t

Yo'q, xotirjam bo'l.
Men hayallab qoldim, mana otamiz keldi.

Yana bir bor oq fotiha olish — qo'sh savob,
Yana bir bor xayrlashmoq uchun bahona.

P o l o n i y

Hali shundamisan? Uyat emasmi, Layert!
Elkanlarning yelkasini ezmoqda shamol.
Sen bo'lsa-chi, buyoqlarda yuribsan. Oq yo'!
Shu so'zlarim qulog'ingga quyilsin mahkam,
Pinhon-pinhon niyatlaring oshkor aylama,
Noma'qul o'y-xayollarga o'zni shaylama.
Odamlarga kamtarin va dilkash bo'l, biroq
Sen ularga betakalluf do'st bo'lma zinhor.
Chin, sinashta do'stlaringni o'zingga har choq
Zanjirband qil. Duch kelganga ochmagil quchoq.
Janjal-to'polondan o'zni yiroq tut har dam,
Solishdingmi, shundoq urki, abjag'i chiqsin,
O'zgalarni tingla, o'zing og'iz och kam-kam,
Boshqani bil, o'z fikringni asra yashirin.
Yaxshi kiyin, yasan-tusan hirsiga to'lma,
Orasta bo'l, bolam, lekin olifta bo'lma.
Kishi avval ko'rinadi kiyimda zero,
Fransiya kiborlari bu ishda ziyrak.
Hech kimsadan qarz olma va qarz bera ko'rma,
Qarz berganda — ayrilarmiz do'stu aqchadan,
Qarz olganda — unutilar sarfu sarishta.
Eng muhimi: o'z-o'zingga sodiq bo'l faqat.
Shunda xuddi tun ortidan tong kelganiday,
Riyokorlik qilmagaysan hech bir kimsaga.
Xayr, oq fotiha: yo'ling bexatar bo'lsin!

L a e r t

Xayr, deyman, poyingizga bosh egib, ota.

P o l o n i y

Xo'p, boraqol. Xizmatkorlar kutib qolishdi.

L a e r t

Xayr, Ofeliya, so'zim yodingda saqla.

O f e l i y a

Yuraginga bekitaman, kalitin esa

O'zing bilan ola ket.

L a e r t

Xo'p, xayr, bo'lmasa.

Ketadi.

P o l o n i y

Ofeliya, ne gap bo'ldi bunda, bayon et.

O f e l i y a

Sizga aytsam, so'z boisi — shahzoda Hamlet.

P o l o n i y

O, shunaqa degin hali? Ayni muddao

Eshitdimki, huzuringga oshiqarmish u,

Yana deyishdiki, sening e'tiboring-la

U baxtiyor emish? Agar rost bo'lsa shu gap —

Menga tartib yuzasidan aytishdi buni,

Men ham senga shu narsani aytishim darkor:

O'z burchingni yetarlicha anglab yetmaysan,

Qizlik qadru qiymatingni pisand etmaysan.

Xo'sh, nima gap orangizda? To'g'risini ayt.

O f e l i y a

Darvoqe, men sizga aytsam, u so'nggi paytlar

Sevgisini izhor etdi menga necha bor.

P o l o n i y

Sevgisini! Hay-hay, hali g'o'rsan bu ishda
Sen nimani tushunarding? Xo'sh, nima deding
Sen o'shaning haligidek izhorlariga?

O f e l i y a

Dada, bilolmayman nima deyishimni ham.

P o l o n i y

Quloq solgin, sen bilmasang, men o'rgataman,
Aytganlari – mis chaqadir, oltin sanama.
Bundan keyin garovlarni qimmat so'ragin.
Yo'qsa, hazil-huzul bilan garovni berib,
Oqibatda axmoq bo'lib qolishing mumkin.

O f e l i y a

Dada, u o'z sevgisini nazokat bilan
Izhor etdi menga.

P o l o n i y

Oh-ho, nazokat bilan!

O f e l i y a

Aziz avliyolarni u shafe keltirib,
O'z so'zining chinligiga qasamlar ichdi.

P o l o n i y

Bu – qushchaning yo'llariga qo'yilgan tuzoq!
Qon qaynarkan, til degani qasamga mushtoq!
Yo'q, bu alangalar senga bermas harorat,
Yarq etib, ko'z qamashtirib, so'nar begumon.
Sen ularni o't o'rnida sanama hech vaqt,
Qadring bilib, qimmatingni oshirgin chandon.
Qizim, suhbatingni kutib, ilhaq bo'lishsin,
Chaqirishsa, chiqaverma hovliqib peshvoz.

Hamlet borasida shunga ishonkim, yosh u,
Bosar-tusarini hali bilmagan shovvoz.
Ishonmagin o'ziga ham, qasamiga ham.
Qasam degan dalla, u bir gumashta misol,
Sirtidan ko'rinishi tuzuk, ichdan tasqara,
Atay yuvosh ko'rinadi, chunki shu holda
Ish bitirish qulay. Yana takror aytaman,
Istamayman, minba'd o'sha shahzoda bilan
Bir daqiqa suhbat qursang va bu suhbating
Sening qizlik obro'yingga tashlasa soya.
Bor. So'zimni yodingda tut doim.

O f e l i y a

Xo'p, dada.

Ketishadi.

4-sahna

Qasr oldidagi maydoncha.

H a m l e t, H o r a t s i o, M a r t s e l l kirishadi.

H a m l e t

Muncha sovuq! Shamol xuddi sanchib o'tadi!

H o r a t s i o

Ayoz chimdib o'tayapti, qish deysan xuddi.

H a m l e t

Soat necha bo'ldi ekan?

H o r a t s i o

Sal kam o'n ikki.

M a r t s e l l

O'n ikkidan oshdi. Boya zang urdi.

H o r a t s i o

Rostmi?

Eshitmadim. Ha, unda-chi, vaqt bo'lib qoldi,
Arvoh keladigan payt ham uzoqmas endi.

(Sahna ortidan karnaylar chalinib,
zambaraklardan o'q uziladi.)

Shahzodam, bu ne bo'ldiykin?!

H a m l e t

Uxlamay qirol,
Yiqilguncha raqs tushib, javlon uradi,
To tonggacha ishrat qurib, may simiradi.
U har safar bo'shatarkan qadahni toza,
Karnaylar va nog'oralar solishib suron,
Bu mardlikni yeru ko'kka qilur ovoza.

H o r a t s i o

Bu nimadi — taomilimi?

H a m l e t

Taomil, hayhot.
Garchi menga ko'pdan tanish, odatiy bir hol,
Lekin manfur bu odatni yo'qotmoq darkor.
G'arbu Sharqqa shuhrat yoygan bu hangomalar,
Nomimizni malomatga qo'ymish naqadar.
Chet ellarda laqabimiz — sharobxo'r to'ng'iz.
Shu illatning kasofati bilan bir qadar
Kamsitilar bizning xizmat, obro' va nufuz.
Ba'zan shunday bo'ladiki, biror-bir inson
Tug'iladi ma'lum tug'ma asorat bilan.
Xo'sh, bu nima, uning gunoh, aybimidir bu —
Axir ota-onasini tanlamagan u.
Yoki fe'li atvorida g'arib bir holat,
Yoki xatti-harakatda noqis bir jihat,

Nasldanmi yoki yolg'iz o'ziga doxil.
Xullas, o'sha aytishga ham arzimas nuqson —
Uchratganning diqqatini o'ziga tortib,
Uchraganni "voy, tavba" deb qoldirar hayron.
Shu-shu uning cheksiz shavkat, sharofatlari,
Tangri ne'matidek shaffof fazilatlar
El nazdida tuban ketib, topadi zavol,
Hammasiga o'sha iflos tomchi sababkor,
Uni malomatga qo'yar.

H o r a t s i o

Qarang, shahzodam!

Arvoh kiradi.

H a m l e t

Panoh bo'ling bizga, osmon farishtalari!
Kimsan, ruhi Yazdonmisan yo zilli shayton?
Jannat nafasimi yoki do'zax hovuri,
Niyatingda savobmi yo kufrmi pinhon?
Ne bo'lmasin, larza solding tashrifing bilan,
Shu sababdan yolboraman, sendan so'rayman.
Men so'rayman sendan, aziz padarim H a m l e t,
Hukmdorim, podshohim, javob bergaysan!
G'aflat aro qolib ketmay. Javob ber menga,
Nechun zulmat makoningni bundoq tark etib,
Kafaningni yulib-yulqib otibsan nega?
Biz jasading qo'yib kelgan o'sha sag'ana
Tosh jag'larin yirib ming bir mashaqqat ila,
Nechun ozod qo'ymish seni? Nechun, izoh ber?
Jonsiz jasad yarog' taqib, nechun musallah?
Tun qo'ynini asoratga to'ldirib bundoq,
Oy nurida yoyib haryon qo'rqinch, vahima,
Nechun bizning tomirlarga larza solursen?
So'ngsiz muammolar bilan o'rab olursen?

Nechun? Ne sababdan? Gapir, farmoning nima?
Arvoh H a m l e t n i imlaydi.

H o r a t s i o

Birga yur, deb imlayapti, nazarimda u
Nimanidir yolg'iz sizga aytmoq istaydi,
Yolg'iz sizga.

M a r t s e l l

Qarang, qanday nazokat ila
Sizni da'vat etayotir, yur, deb yiroqqa,
Ammo bora ko'rmang.

H o r a t s i o

Balli, bormang sira ham.

H a m l e t

Bu yerda u og'iz ochmas. Qo'ying, boraman.

H o r a t s i o

Yo'q-yo'q, bormang, shahzodam.

H a m l e t

Xo'sh, nimadan qo'rqay?
Hayotimni bir chaqaga ko'raman qimmat.
Axir, nechuk yetkazolsin ruhimga zahmat.
Ruhim uning o'zi kabi boqiy emasmi?
Tag'in imlayapti meni. Qo'ying, boraman.

H o r a t s i o

Ha, mabodo suv bo'yiga boshlab borsa-chi,
Yoki dengiz uzra shundoq osilib turgan
Dahshatli bir qoya toshga – jar yoqasiga,
Unda mudhish bir falokat ro'y bera qolsa,
Aqlingizni olib, sizni jununga solsa,
Nima bo'lur? Bu to'g'rida o'ylab ko'ring-a?

O'sha cho'ng qoyada turib, qaragan kishi
Shusiz ham es-hushdan tamom ayrilib qolar,
Xuddi poyingizda — do'zax chuqurligida
Dengiz ko'piklanib, bo'g'iq hayqiriq solar.

H a m l e t

Yana imlayapti. Boshla! Boraman!

M a r t s e l l

To'xtang!

H a m l e t

Qo'lingni tort!

H o r a t s i o

Esingizni yig'ing, shahzodam.

H a m l e t

Qismatimning ovozidir axir, bu ovoz,
Menga arslon qudratini baxsh etgani rost.
Arvoh imlaydi.

Hamon imlar, yo'l bo'shating, menga, janoblar!
Ularning qo'lidan yulqinib chiqadi.
Yo'l to'sganni naq arvohga aylantiraman!
Qoch, nari tur, dedim! Qani, boshla, boraman.

A r v o h v a H a m l e t ketadilar.

H o r a t s i o

His-jazava hukmidadir Hamlet shu palla.

M a r t s e l l

Orqasidan bormoq kerak qorama-qora.

H o r a t s i o

Xo'p, boramiz. Ammo, ayt-chi, bu ne alomat?

M a r t s e l l

Bu — Daniya davlatiga tekkan kasofat.

H o r a t s i o

O'zing yo'lga boshla bizni, xudoyim.

M a r t s e l l

Ketdik.

Ketishadi.

5-sahna

Maydonchanning uzoqroq bir chekkasi.

A r v o h va H a m l e t kiradilar.

H a m l e t

Hey, qayoqqa boshlayapsan? Boshqa bormayman.

A r v o h

Mendan ko'zing uzma.

H a m l e t

Ko'zim senda.

A r v o h

Keldi payt

Ki, hademay men o'zimni otishim kerak
Jahannamning oloviga.

H a m l e t

Bechora arvoh!

A r v o h

Qo'y, achinma menga, lekin aytganlarimni
Jon qulog'ing bilan tingla.

H a m l e t

Qulog'im senda.

A r v o h

Hammasini eshit avval, keyin qasos ol.

H a m l e t

Nima deding?

A r v o h

Men otangning arvohidirman,
Kechalari hayron-sarson kezib yurmoqqa,
Kunduzlari jahannamda yonmoqqa mahkum.
Gunohlarim yonib ado bo'lmaguncha to
Davom etar bu mazallat, bu qora savdo.
Zindonimning sirlarini ayta olmayman,
Ammo, kichik bir hikoya so'zlasammi, bas,
Joning halqumingga kelib, qotar qonlaring,
Yulduzlar o'z mehvaridan otilgan kabi,
Ko'zlaring naq xonasidan chiqar shu nafas.
Soching tikka turib, unda har bitta mo'ying
Quturgan jayraning o'tkir nayzalariday,
Tikkayardi, xuddi sachrab otilmoqqa shay.
Boqiylik bu, foni inson buni anglamas.
Ammo, eshit, eshitib ol, eshitgil, evoh,
Sen otangni chindan sevar bo'lsang mabodo...

H a m l e t

Yo Rabbiy!

A r v o h

Shum qotillikning qasosini ol.

H a m l e t

Qotillikning?

A r v o h

Ha, qotillik o'zi — qabohat,
Ammo, mash'um qabohatning qabohati bu!

H a m l e t

So'zla, toki men shu zamon chiqazib qanot,
Tasavvur va tafakkurning tezligi bilan
Qasos sari uchay.

A r v o h

Shaysan, ko'rib turibman.
Kim bo'larding, agar shunday tug'yon urmasang?
O'lik daryo suvlarida bujmayib o'sgan,
Baqa to'ni, sassiq alaf bo'larding balkim.
Eshit, Hamlet, meni bog'da uxlab yotganda
Ilon chaqib o'ldirdi, deb etishdi e'lon.
Elni amal-taqal qilib aldashdi shundoq,
Ammo, o'sha — meni chaqib o'ldirgan ilon
Tojim kiyib o'ltiribti.

H a m l e t

O, bashoratim!
Amakim!..

A r v o h

Ha, o'sha fosiq, riyokor banda,
Makr bilan xushomadga qobil sharmanda.
(Shundoq iflos oqibatiga yetaklar ekan,
La'nat bo'lsin unday tug'ma qobiliyatga!)

Xullas, turfa nayrang bilan, xushomad bilan
Malikani xiyonatga boshladi bezbet.
Qanday og'ir bir razolat ro'y berdi, Hamlet!
Kechib mening osmon kabi muhabbatimdan,
Nikoh kuni qilgan ahdu paymondan kechib,
Mendan necha karra tuban, past va noloyiq
Bir murtadning quchog'iga kirdi!

Qancha amal ko'rsatmasin fahshu razolat,
 Qilt etmasdan turganidek fazlu fazilat,
 Hirsu haris farishtaning og'ushida ham
 Rohat-farog'atga bir kun qonib muqarrar,
 O'zni o'laksaga otar.
 Jim! Chamamda, tong nasimi g'irillab qoldi.
 Oshiqaman. O'shanda men bog' ichra tanho
 Tushki ibodatdan keyin uxlab yotarkan,
 Men tomonga pisib kirmish amaking — qotil,
 Qo'llarida la'nati u zahri halohil
 Va o'shani quymish mening qulog'imga u,
 Bilasanmi, u simobdek yovuz bir og'u,
 Qonning kushandasi, qonga chovut soladi,
 Yuguradi, bir nafasda chirmab oladi.
 Sutga sirka solinganday, qoningni shu dam
 Uvitadi. Shu baloga yo'liqdim men ham.
 Bir nafasda xuddi maxov ochgandek Lazar,¹
 Badanimni bosib ketdi yiring-yaralar.
 Ukam qo'li bilan uyqu qo'ynida shu zum,
 Molu mulkim, malikamdan etildim mahrum,
 Osiy umrim cho'rt kesildi tomiridan to,
 Na tazarru ayta oldim, na bir alvido.
 Mashhargohda jo'natishdi hovliqib, shoshib,
 Jumla jinoyatlarimni bo'ynimga osib.
 O, bu dahshat, dahshat, dahshat! Nomus ila or
 Yuragingni yondirmasa, urinma bekor.
 Daniyaning podsholari uxlagan to'shak
 Fahshu razolatga xizmat etmasin, qo'yma.
 Qodir qasos qanday qoyim bo'lmasin, faqat
 Sen ruhingni musaffo tut, onangga tegma.
 Unga odil hakam, uning loyiq javobi —
 Tangri taolo-yu, yana vijdon azobi.
 Xayr, endi fursat yetdi! Yaltiroq qurtlar
 Tongga peshvoz chiqib, asta so'nayotirlar.

¹ Injilda keltirilgan bir qissa qahramoni.

Alvido, alvido, unutmami!

Ketadi.

H a m l e t

Ey, osmon! Ey, Zamin! Qay bir qiblagoh
Yana tinglar meni? Balki, qora jahannam?
Yurak, chiqib ketma, to'xta! Yurak, bir chidam!
Oyoqlarim bukilmangiz! Tutingiz raso!
U "Unutmami" dedi. Sira unutarmanmi?
Bechora ruh, shu shikasta kallada chindan
Bir xotira yashar ekan, unutarmanmi?
Men xotiram ko'zgusidan o'chirgum tamom
Taassurotlarimning butkul alomatlarin,
Kitoblardan olgan so'zlar, hikoyatlarim,
Bolalikdan mushohada lavhiga tushgan
Tasavvurlarimu siru sinoatlarim,
Xotiramning butun daftar, butun kitobin
Olaquroq qilmay, yaksar yozib chiqarman —
Yolg'iz sening so'zing, sening farmoning bilan,
Xuddi Tangri qarshisida tikka turganday!
O, riyokor xotin! O, sen yaramas, g'addor!
O, razolat, labda kulgu o'ynagan ag'yor!
Buni yozib qo'yishim shart, qalamim qani?
Yozay, toki shirin-shirin tabassum bilan
Kulib-kulib, ablah bo'lish mustajob ekan
Boshqa joyda bo'lmasa ham, shu Daniyada.
Yozadi.
Mana tayyor, amakijon. Shiorim endi:
"Alvido, alvido! Unutmami!"
Unutmayman, unutmayman, qasam ichaman.

H o r a t s i o v a M a r t s e l l

(Sahna ortidan)

Ey, shahzoda! Ey, shahzodam!

M a r t s e l l
(Sahna ortidan)

Hamlet, shahzodam!

H o r a t s i o
(Sahna ortidan)

Falak uni panohida asrasin!

M a r t s e l l
(Sahna ortidan)

Omin!

H o r a t s i o
(Sahna ortidan)

Eh-he-ey, shahzodam, qayoqqdasiz?

H a m l e t
Eh-he-ey, jo'ralar, bu yoqqa!
H o r a t s i o bilan M a r t s e l l kirishadi.

M a r t s e l l
Qalaysiz, shahzodam?

H o r a t s i o
Nima gap, shahzodam!

H a m l e t
O, koni mo'jiza!

H o r a t s i o
Ayting, shahzodam!

H a m l e t
Yo'q-yo'q, uni og'zingizdan gullab qo'yasiz.

H o r a t s i o

Yo‘q, shahzodam, Xudo haqqi!

M a r t s e l l

Ha-ha, ishoning.

H a m l e t

Mayli, aytsam ayta qolay: shundoq bo‘lishi
Kimning xayoliga kelmish? Ammo bu gaplar
Oramizda qoladi-ya?

H o r a t s i o v a M a r t s e l l

Tangrimiz shohid.

H a m l e t

Daniyada uchraydigan har bitta nokas
Yolg‘iz nokas emas, balki, razil, yaramas.

H o r a t s i o

Shundayin bir haqiqatni aytish qasdida
Arvoh go‘rdan chiqishi shart emas.

H a m l e t

Albatta.

Keling, endi gapda ramzu ishora etmay,
Xayrlashib, tarqalaylik uy-uyimizga.
Siz o‘z yo‘lingizga keting, men o‘z yo‘limga,
Har kimning o‘z tilagi bor, ish-tashvishi bor;
Men bo‘lsam, bir ado bo‘lgan g‘arib-bechora,
Toat-ibodatga boray.

H o r a t s i o

Bu so‘zlar, milord,
Uzuq-yuluq jummlalarning girdobi, xolos.

H a m l e t

Taassufki, sizni picha ranjitdim.

H o r a t s i o
Aslo,
Bunda ranjimoqqa sira o‘rin yo‘q.

H a m l e t

Yo‘q, bor,
Bor, Horatsiy, Patrik haqi, qasam ichaman,
Bo‘lganda ham qandoq! O‘sha arvoh haqida
So‘zim shuki, u chindan ham aziz, mo‘tabar.
Ammoki bor gapni bilish tamannosidan
Siz bahar hol keching. Endi, aziz do‘stlarim,
Mening maktabdoshlarimu quroldoshlarim,
Sizdan o‘tinch.

H o r a t s i o

Bajonu dil qabul qilgaymiz.

H a m l e t

Bo‘lgan gapdan hech kimsaga og‘iz ochmaysiz.

H o r a t s i o v a M a r t s e l l

Churq etmaymiz, shahzodam.

H a m l e t

Bas, qasamyod qiling.

H o r a t s i o

Nomusimga qasamyodki, og‘iz ochmayman.

M a r t s e l l

Men ham shundoq, nomusimga qasam ichaman.

H a m l e t

Mana qilich, qasam iching.¹

M a r t s e l l

Biz qasam ichdik.

H a m l e t

Yo‘q, siz mening qilichimga qasamyod qiling.

Arvoh

(Sahna ortidan)

Qasamyod qiling!

H a m l e t

Darvoqe, chol, sen ham shundoq fikrdamisan?

U nimalar deydi sizga, tinglayapsizmi?

Ha, qasamyod qiling tezroq.

H o r a t s i o

Ayting qasamni.

H a m l e t

Bo‘lgan gapni hech kimsaga aytmaymiz, deya

Qasam iching, qo‘lingizni qilichga qo‘yib.

Arvoh

(Sahna ostidan)

Qasamyod qiling!

H a m l e t

Hie ef ubique². Qani, bu yoqqa o‘ting.

Tag‘in qilich dastasiga qo‘lingiz qo‘yib,

Qasam iching, hech kimsaga ko‘rganimizni

¹ Qilichga qasam ichish qadimiy odat bo‘lib, g‘oyat muqaddas hisoblangan.

² Lotincha: "Bu yerda va hamma joyda". Ruhlar bir vaqtning o‘zida bir necha joyda paydo bo‘lishlari mumkin, deb ishonishgan.

Aytmaymiz, deb. Ha, qilichga qasamyod qiling!
Arvoh

(Sahna ostidan)

Qasamyod qiling!

H a m l e t

Voy, sen qari kalamush-ey! Kovlashga zo'rsan!
Darrov yetib keldingmi-a? Ketdik bu yerdan.

H o r a t s i o

Ey ziyo, ey zulmat!.. Ajab, g'alati gaplar!

H a m l e t

Qabul qila bering buni xorijiyardek.¹
Horastio, dunyoda ko'p narsalar borki,
Falsafangiz tushiga ham kirmagan hali.
Ammo, ishga unnaylik. Boz qasamyod qiling,
Shafqatingiz darig' tutmang yana, men toki
Majhul tutsam o'zimni yo bir oz g'alati,
Bir oz boshqacharoq bo'lib ko'rinsam yoki
Siz holimga nazar tashlab hech vaqt, hech qachon
Qo'lingizni chalishtirib ko'krakka bundoq,
Boshingizni chayqab bundoq, dono tur bilan
Lab uchida demangizki – "Ha, biz bilamiz,
Boshqalarga qorong'i-yu, bizlarga ravshan...
Bilamiz-ku, lekin aytib nima qilamiz".
Men to'g'rimda biror narsa ma'lum deb zarra,
Na bir imo qila ko'rmang, na bir ishora,
Shu to'g'rida qasam iching, Tangri taolo
O'zi sizga madad bergay.

A r v o h

(sahna ostidan)

Qasamyod qiling!

¹ Shekspir bu yerda strange (g'alati) va stranger (xorijiy) so'zlarining ohangdoshligiga suyanib, so'z o'yini yasaydi. (Tarj.)

H a m l e t

Bezovta ruh, tinib, orom olgaysan endi!
Bundan keyin, janoblar, men o'zimni butkul
Topshiraman sizning hukmu himmatingizga.
Faqir Hamlet do'stlik lufu marhamatini
Ko'rsatadi bir kun, Xudo xohlasa, sizga.
Qani, ketdik. Churq etmaysiz, sizdan so'rayman.
Zamon izdan chiqdi, o, bu mash'um bir alam,
Uni izga solmoq uchun tug'ilgandayman!
Qani, ketdik.

Ketishadi.

IKKINCHI PARDA

1-sahna

P o l o n i y uyida bir xona.
P o l o n i y va R e y n a l d o kiradilar.

P o l o n i y

Mana unga aqcha bilan maktub, Reynaldo.

R e y n a l d o
Topshiraman, milord.

P o l o n i y
Yomon bo'lmasdi, ammo,
Bundoq iskab, o'zi bilan uchrashguncha to
Uning yurish-turishini bilib olsangiz.

R e y n a l d o
O'zim shunday qilmoqchiydim, milord.

P o l o n i y

Mana bu soz. Bilasizmi, endi, azizim,
Avval bundoq surishtirib qaramoq lozim.
Parijda ne ahvoldadir daniyaliklar,
Mulku mablag'lari nechuk, qayda turishar,
Naslu nasablari qanday, ulfatlari kim?
Shunda mening o'g'limni ham aytishar balkim.
Bas, shu zahot, taxmin-tusmol bilan ish ko'rmay,
Tikka hujum boshlayvering, tortinib turmay.
Sinashta bir ohang bilan ayting, masalan:
"Do'stlarini bilar edim, otasi bilan
Uchrashganman, o'zi bilan tanishligim bor".
Xo'sh, ma'qulmi?

R e y n a l d o

Ma'qul, milord.

P o l o n i y

"Tanishligim bor,
Lekin qo'shib qo'ying darhol: yaqin emasmiz,
Agarda men bilgan o'sha havoyi bo'lsa,
Gap undog'u bundoq" — deya bidirlayvering,
Murdalarga ba'zan bo'hton qilishgan kabi.
Er kishining obro'sini yerga urguvchi,
Tentaklikdan bo'lak, har ne mazammatki bor,
Ayamasdan chaplayvering. Yoshlik davroni,
Erk-ixtiyor bilan bog'liq baloyu battar
Qusurlarni yopishtiring, zarra ayamang.

R e y n a l d o

Misol uchun, qimor.

P o l o n i y

Balki sharobxo'rlikmi,
Janjalkashlik, deysizmi, yo og'zi buzuqlik,
Xotinlarga ishqibozlik bo'lsa ham, mayli.

R e y n a l d o

Bular uning obro'sini tushirmaydimi?

P o l o n i y

Durust, lekin hamma narsa talqinga bog'liq.
Siz biror-bir jihatini haddan oshirmang,
Toki, mana men, deb turtib chiqib turmasin.
Shundoq talqin etingizkim, aybi-qusuri
Hamma uchun ma'zur bo'lgan yoshlik-beboshlik,
Yigitchilik alomati bo'lib ko'rinsin.

R e y n a l d o

Milord, sizdan istardimki...

P o l o n i y

Sezib turibman,
Bular nega kerak, deya so'ramoqchisiz.

R e y n a l d o

Nega kerak, milord?

P o l o n i y

Mana, mo'ljal-hisobim:
Bu gap-so'zlar adashmasdan nishonga urar,
Ish ustida yengni jindek surkab olgandek,
Turgan gapki, o'zi shaxsan kuzatgan bo'lsa,
So'zingizni quvvatlagay suhbatdoshingiz.
Sizni bo'lar, balli, do'stim, yo taqsirim, deb
Bu jihati uning mavqe-martabasi-yu,
Qaydanligi, tarbiyasi bilan vobasta.

R e y n a l d o

Shak-shubhasiz, milord.

P o l o n i y

Men nima demoqchiydim? Imonimga ont ichamanki, men bir nimalar demoqchiydim? Darvoqe, qayda to'xtadim?

R e y n a l d o

Sizni bo'lib, "do'stim" yoki "taqsirim" deydi...

P o l o n i y

Ha-ha, so'zingizni bo'lib, deydiki: "Xo'sh-xo'sh...

Ha, deydiki, men taniyman u yigitchani.

Kecha yoki tunov kuni ko'ruvdim rosti,

Anuv joyda falonchi-yu, pistonchi bilan.

Ular koptok o'ynashdilar, u sarxush edi,

Oxir urish-janjal bilan ishni tugatdi".

Yo deydiki: "Men guvohman, o'zim ko'rganman,

Qatnab turar u manavi savdo uyiga,

Savdo uyigamas, balki yallo uyiga..."

Xullas kalom va hokazo, va hokazolar.

Tushundingizmi? Ha, soting yolg'on-yashiqni.

Mayda-chuyda xo'rak ilib qarmoqqa toki,

Haqiqatning semiz laqqa balig'in ovlang.

Odatda biz, ahli tamiz shundoq qilamiz.

Olis-yiroq chekka-ovloq yo'llardan yurib,

Tekis-to'g'ri yo'lga keyin tushib olamiz.

O'g'limga ham shunaqa bir usulni qo'llang.

Meni tushundingizmi?

R e y n a l d o

Ha, tushundim, milord.

P o l o n i y

Xo'sh, salomat bo'ling endi.

R e y n a l d o

Xo'p, xayr, milord.

P o l o n i y
Kuzatuvni o'zi zinhor sezib qolmasin.

R e y n a l d o
Aslo, milord.

P o l o n i y
Qo'yib bering, mayli, o'ynasin.

R e y n a l d o
Xo'p, bo'ladi, milord.

P o l o n i y
Xayr.

R e y n a l d o ketadi. O f e l i y a kiradi.
Ofeliya, nima qildi?

O f e l i y a
Voy, Xudoyim-ey!
Dada, hozir shunday qo'rqib ketdimki!

P o l o n i y
Gapir,
Nima bo'ldi? Xudo haqi!

O f e l i y a
Tikish tikardim,
Bir payt Hamlet kirib qoldi to'zg'in, boshyalang,
Yoqavayron, to'pig'iga paypog'i tushgan.
Yuzi xuddi ko'ylagining rangidek oppoq;
Biram qaltiraydi, biram qaltiraydiki,
Tizzalari bir-biriga urilar hatto.
O'zi shundoq ado, shundoq adoki, atay —
Aytmoq uchun jahannamning dahshatlarini
Hozirgina yer tagidan chiqib kelganday.

P o l o n i y

U ishqingda magar jinni bo'lganmi?

O f e l i y a

Yo'g'-ey.

Ammo yana qo'rqamanki...

P o l o n i y

Nimalar deydi?

O f e l i y a

Bilagimdan tutib qattiq, qo'limni siqdi,
Keyin bir oz chekindi-yu, boshqa qo'lini
Qosh ustiga qo'yib bundoq, menga tikildi.
Ham yuzimdan ko'zlarini uzmasdan shundoq,
Go'yoki bir suvratkashdek termuldi uzoq.
So'ng qo'lini silkib, uch bor ta'zim ayladi,
Keyin bir oh chekdi, shundoq g'alati bir oh,
O'sha chuqur xo'rsiniqqa so'nggi majoli,
So'nggi nafasini tamom sarfladi go'yo,
Panjasini yozib, keyin, qo'limni qo'ydi,
Va yelkasi osha menga tikilganicha,
Yo'lni sira adashtirmay, eshikka yurdi.
Shu alpozda eshikdan ham chiqqunicha to
Men tarafdin ko'zlarini uzmadi aslo.

P o l o n i y

Yur men bilan, uchrashaylik Qirolni topib.
Bu — savdoyi muhabbatning xurujidir, bas.
U ba'zida jazavayi jununi bilan
Yomon oqibatga eltar, o'ynashib bo'lmas.
Ha, bu yorug' olamda-chi, biz bilan nuqul
O'ynashuvchi ehtiroslar shunaqa butkul.
Ko'p taassuf. Mabodo shu so'nggi kunlarda
Unga biror achchiq-tiziq so'z aytmadimgmi?

O f e l i y a

Yo'q, valekin esda tutib nasihatingiz
Na o'zini va na maktublarini asti
Qabul qilmay qo'ydim.

P o l o n i y

Mana, aqldan ozdi!
Taassufki, o'shanda men bir oz oshiqib,
Qiziqqonlik bilan shundoq hukm etibman,
Seni badnom etguvchi bir havoyi, debman.
Tangri shohid, qarilarning mehribonligi
Yoshlardagi beparvolik kasaliday gap.
Yur, qirolga uchrab, bayon etaylik shu tob.
Yaqinlarni qutqarganda dadil bo'l, dadil,
Ishqni pinhon tutish oshkor etishdan mushkul.
Ketdik.

2-sahna

Qasrda bir xona.

Q i r o l, M a l i k a, R o z e n k r a n s t,
G i l d e n s t e r n va xos mahramlar kirishadi.

Q i r o l

Salom aziz Rozenkranst, Gildenstern!
Sizni ko'rish ishtiyoqi bilan barobar
Chaqirmoqqa majbur qildi ma'lum sabablar.
Xabardorsiz deyman balki yangi gaplardan,
Hamletdagi turlanishu tuslanishlardan;
Men boshqacha aytolmayman, negakim o'sha
Ham zohiran, ham botinan o'zgardi ancha.
Otasining o'limidan bo'lak ne firoq
Bilolmadim, uni yana qaqshatdi shundoq.
Ikkingizdan o'tinchim shul, tengdoshsiz unga
Tag'in maktabdoshsiz, o'sib-ungansiz birga.
Xo'p bilasiz uning xulqi-tabiatini

Baski, bunda qolib, bizga fido etsangiz
Ta'til vaqtingizning rohat-farog'atini.
Shahzodani davrangizga torting, toki ul,
Hushyor tortib, xalos bo'lsin balodan butkul,
Fursat topib, surishtirib sekin bilingkim,
Nechuk asror uni bundoq qiynar beomon.
Nechuk doru bo'lur uning dardiga darmon.

M a l i k a

Ha, janoblar, sizni tez-tez eslar edi u.
Men bilmayman, sizdan bo'lak qay bir kimsaga
Yana shundoq sodiq bo'lsin, samimiy tuyg'u.
Agar darig' tutmasangiz marhamatingiz,
Agar tutmasangiz bizdan vaqtingiz darig',
Bizning orzu-umidlarga madad bersangiz,
Madadkorligingizni hech qo'ymasdik quruq,
Ehsonlarga ko'mar edik.

R o z e n k r a n s t

Malikam, qulluq,
Sizga buyruq yarashadi, o'tinch yarashmas.

G i l d e n s t e r n

Biz xizmatga bajonu dil omodamiz, bas,
Xoki poyingizga fido bo'lmoqqa hozir,
Farmoyishingizga esa mudom muntazir.

Q i r o l

Rahmat sizga, Rozenkranst, Gildenster.

M a l i k a

Rahmat sizga, Gildenster, Rozenkranst.
O'g'lim Hamlet huzuriga boring shu nafas.
U shunchalar o'zgarganki! Janoblar, birov.
Mehmonlarni Hamlet sari boshlasin darrov

G i l d e n s t e r n

Niyatingiz qabuliga sazovor bo'lsin,
H a m l e t bizdan bahra topsin...

M a l i k a

Tangri yor bo'lsin.

R o z e n k r a n s t, G i l d e n s t e r n va bir necha xos
mahramlar chiqishadi. P o l o n i y kiradi.

P o l o n i y

Shohim, Norvegiya tomon ketgan elchilar
Xizmatlarin ado etib, qaytib keldilar.

Q i r o l

Xushxabarlar darakchisi eding hamisha.

P o l o n i y

Shohim, "eding" dedingizmi? Men o'sha-o'sha,
O'z jonimni asragandek Xudo oldida,
O'z burchimga safarbarman qirol oldida.
Bilasizmi, ne ajoyib yangiligim bor?
Yoki boshqa qodirmasman iztoparlikka,
Yoki Hamlet asroridan bo'ldim xabardor.

Q i r o l

O, cho'zmasdan ayta qolgin. Menda yo'q chidam.

P o l o n i y

Avvalboshi elchilarni qabul etgaylar,
Keyin hazmi taom qilib sirim aytaman.

Q i r o l

Xo'p, marhamat ayla, chiqib, o'zing qarshi ol.
P o l o n i y ketadi.

Eshitdingmi, Gertruda, o'g'ling yo'liqqan
Devonalik sababini bilib olmish u.

M a l i k a

Taassufki, bu savdoning sababi bitta:
Qirol o'limi-yu, bizning shoshilinch nikoh.

Q i r o l

Xo'p, ko'ramiz.

P o l o n i y, V o l t i m a n d va K o r n e l i y bilan
qaytib kiradi.

Salom, do'stlar! Voltimand, Korneliy qalay
Bizning norveg qirolimiz, birodarimiz?

V o l t i m a n d

Shukronalar aytib, sizga iqbol tilaydi,
Lashkar yig'ish esa tindi, taqqa to'xtadi.
O'shangacha bu tadbirlar Polshaga qarshi
Harbiy tayyorgarlik deya atalmish e'lon.
Sizga qarshi bir tadorik ekanligini
Qirol angladi-yu, darhol etdi qatag'on.
Shundoq qarigan chog'ida o'z jiyanidan
Aldaganin bilib, qahru g'azabga mindi.
Farmon ila chaqirtirdi Fortinbrasni,
Fortinbras sho'rlik toza ta'zirini yedi.
Ta'na-dashnom tinglab qari amakisidan,
Pushaymonlar qilib, qancha ichdi qasamlar,
Minba'd sizga qarshi qurol ko'tarmas bo'ldi.
Mamnun bo'lib uning tavba-tazarrusidan
Uch ming kron yillik maosh tayin etdi chol
Va jamuljam qo'shirlarni Polshaga qarshi
Boshlamoqqa vakolat ham berdi u alhol.

(Qog'ozni uzatib)

Keyin so‘rab qoldi sizning ijozatingiz,
Toki qo‘shinlari sizga tegish yerlardan
Erkin o‘ta olgay ushbu kafolat bilan.

Q i r o l

Ishning bundoq bitishidan mamnunmiz juda.
Hali o‘qib, muhokama etib bafurja,
Berajakmiz bu maktubga qat’iy bir javob,
G‘ayratingiz uchun tahsin! Endi dam oling.
Bugun kechki ziyofatga marhamat qiling.
Hozircha xayr.

V o l t i m a n d va K o r n e l i y chiqishadi.

P o l o n i y

Mana silliq bitdi bu ish ham.
Taqisirlarim, bilasizmi, bahsga tushmoq —
Masalankim, podsho kimu mulozim kimdir,
Yoki fursat degani bu — fursat degani,
Yoki kun degani kunu tun degani tun...
Bular — o‘sha fursatniyu kunu tunlarni
Sovurishdir, balki zoe etishdir butun.
Xullas, so‘zda muxtasarlik — farosatga jon,
Ha, ezmalik esa — unga tan bilan marjon.
Bas, muxtasar qilay gapni, o‘g‘lingiz jinni,
Jinni, dedim, zeroki, jin urgan kishini
Jinni deyishadi, ya’ni qi-p-qizil jinni.
Bu ham mayli.

M a l i k a

Ayta qoling bo‘yab-bejamay.

P o l o n i y

Bunda bo‘yoq nima qilsin, mening Malikam,
U aqldan ozgani — chin. Yana chindan ham

Bu taassuf bir ahvoldir va bu ahvolning
Chini bilan ko'p taassuf ekanligi chin.
Qarang, qanday bir betayin jumla-ibora.
Ha, mayliga. Ayta qolay soddaroq qilib,
U aqldan ozmish deylik. Sababi nima?
Sababini topish kerak bu fazilatning
Yoki deylik bu illatning, chunki fazilat
Zamirida sabab bo'lib yotadi illat.
Neki mavjud esa, unga bir ehtiyoj bor.
Xo'sh, xulosa nima bo'ldi?

Mening qizim bor,
Mening qizim, dedimmi, bas, demak, meniki,
Mana o'sha itoatkor qizim bergan xat,
Men o'qiyman, siz eshitib, hukm chiqaring.

"Samoviy iloham, suyukli sanamim, sohibjamol
Ofeliyaga". Bu jo'n chaynalgan ibora: "Sohibjamol" — siyqasi
chiqqan. Xo'sh, bu yog'ini eshiting.

Mana:

(O'qiydi)

"uning nafis, oppoq ko'ksiga bu..." va hokazolar.

M a l i k a

Buni Hamlet yozibdimi?

P o l o n i y

Sabr, malikam.

Men bir boshdan tartib ila izoh beraman.

(O'qiydi)

Ishonmagil yulduzga
Ishonmagil kunduzga,
Ishonma hech narsaga,
Mening ishqimga ishon.

O, azizim Ofeliya! Men she'riyatga oshno emasman.
Qofiyaga solib xo'rsinish qo'limdan kelmaydi, ammo seni
jondan sevishimga ishon, sanamim. Xayr. Shu tani

kelbatimdan jonim chiqqunga qadar senikiman, bebaho gavharim. Hamlet".

Mana, itoatkor qizim menga bergan xat.
Yana qizim aytib berdi qayerda, qachon
Hamlet izhor etmish unga ishq muhabbat.

Q i r o l

Xo'sh, qizingiz qanday qabul aylamish buni?

P o l o n i y

Shohim, ma'zur tuting, kim deb o'ylaysiz meni?

Q i r o l

O'ylaymanki, sen sadoqat bilan nomusning
Mujassam bir timsolisan.

P o l o n i y

Bo'lsaydim koshki.
Ammo, ne deb o'ylardingiz, bu hodisani
Hali murg'ak mahalida uchratib agar,
Rostin aytar bo'lsam, uni qizimdan avval
Ko'rmay qolsam edi — ne deb o'ylar edingiz,
Siz, podshohi olam va siz, aziz malikam?
Panja orasidan boqsam bu mojaroga.
Yuragimga "sukut!" amri-farmonin berib,
Xuddi qog'oz kabi jimib, indamay tursam,
Unda men haqimda ne deb o'ylar edingiz?
Yo'q, qizimni huzurimga chaqirib darhol,
Yuziga bor haqiqatni so'yladim ro'y-rost:
"Janob Hamlet — shahzodadir: sening yulduzing
Uning yulduziga sira munosib emas".
Inoyatlaridan o'zing yiroq tut, yiroq,
Iltifotlariga ko'ngil bog'lama, dedim.
Qizim menga quloq soldi, mana, oqibat:
Rad etilgach, Hamlet qayg'u-alamga cho'mdi,
Uyqu bilan ishtahasin yo'qotib qo'ydi.

Rohatini barbod berdi, kuchini barbod,
Yengil-yelpi xafaqonlik ko'chasidan so'ng
Savdoyilik guzariga yo'l soldi, hayhot...

Q i r o l

Xo'sh, siz bunga nima deysiz, aziz malikam?
Haqiqatga yaqin gap bu.

P o l o n i y

Aytingiz qachon —
Men "shundoq" deb aytganimda, shundoq bo'lmagan.

Q i r o l

Eslolmayman.

P o l o n i y

(O'zining boshi va yelkalariga ishora qilib)

Mayli, kesing, tayyorman bu dam,
Haq bo'lmasam. Kalavani qo'ymay qo'limdan,
Yer ostidan haqiqatga bir kun yetmasam.

Q i r o l

Buni qanday tekshiramiz?

P o l o n i y

Bu juda oson.
U soatlab tentiraydi bunda uzzukun,
U xonadan-bu xonaga.

M a l i k a

Mutlaqo to'g'ri.

P o l o n i y

Men ro'para etgum unga qizimni, shu dam,
Biz ikkimiz kuzatamiz parda ortidan.

Ular qanday uchrashadi, ko'rasiz, mana:
Qizimni u sevadi va shu sevgi bilan
Jinni bo'lib qolgan, yo'qsa, a'yon emasman,
Bor-yo'g'i bir eshikbon malayman, xolos.

Q i r o l

Xayr, mayli, bir kuzatib ko'raylik qani.

M a l i k a

Ana, sho'rlik o'zi kelar, qo'lida kitob.

P o l o n i y

Qani, keting! Ikkingiz ham keting, so'rayman.
Bir gaplashib ko'rmoqchiman hozir u bilan.

Q i r o l, M a l i k a va xos mahramlar chiqishadi.

Kitob o'qigan ko'yi H a m l e t kiradi.
Hamlet taqsirimning ahvollari nechuk?

H a m l e t

Durust. Xudoga shukur.

P o l o n i y

Siz meni taniyapsizmi, milord.

H a m l e t

Taniganda qandoq. Siz baliq sotasiz.

P o l o n i y

Yo'g'-ey, nimalar deyapsiz, milord.

H a m l e t

Bo'lmasa baliqfurushdek halol bo'lsangiz, ziyon qilmasdi.

P o l o n i y

Halol, deysizmi, milord?

H a m l e t

Ha, taqsir. Hozir halol kishi degani o'n mingdan bittasi bo'ladi.

P o l o n i y

Gaplaringiz ayni haqiqat, milord.

H a m l e t

Quyoshki o'limtik it go'shtiga qurt doritibdi, demak, o'pish uchun o'limtik bo'lsa ham yarayveradi... Ha, qizingiz bor-a?

P o l o n i y

Bor, milord.

H a m l e t

Quyoshga chiqara ko'rmang. Homiladorlik — dunyo ne'mati, ammo sizning qizingizga chiqarmagan uni. Tag'in g'aflatda qolib yurmang, oshnam.

P o l o n i y

(Chetga)

Aytmadimmi? Qulay keldi deguncha, gapni qizimga buraveradi. Avval meni tanimadi. Baliqfurush dedi. Aynibdi, qattiq aynibdi. Sirasini aytganda, yoshligimda men ham ishq-muhabbatdan rosa ta'zirimni yeganman. Xuddi mana shunga o'xshab. Yana bir unnab ko'ray-chi. Nima o'qiyapsiz, milord?

H a m l e t

Gap, gap, gap.

P o l o n i y

O'zi nima gap, milord?

H a m l e t

Kim bilan kim o'rtasida?

P o l o n i y

Men kitobda nimalar yozilgan, deb so'ramoqchiydim, milord?

H a m l e t

G'iybat gaplar, taqsir: bachchag'ar hajvchi yozibdiki, chollarning soqollari oq, yuzlari burushuq bo'lib, ko'zlaridan kahrabo suviyu olxo'ri shirasi sizib turarmish, o'zlari esa aqli qosirligu tizza darmonsizligidan yorilib o'lishgacha borisharmish. Men bu gaplarga, taqsir, bajonu dil ishonaman, lekin buni bostirib chiqarishni behayolik deb bilaman. Zero, marhamatli taqsirim, qisqichbaqaga o'xshab orqaga tisariladigan bo'lsangiz, bir kun mendek qarib qolasiz.

P o l o n i y

(Chetga)

Shu agar jinnidik bo'ladigan bo'lsa, o'lay agar, o'ziga xos, dono jinnilik. Bu yerda shamol esayapti, bir oz nariga o'tsakmikin, milord?

H a m l e t

Qayoqqa, go'rgami?

P o l o n i y

Darvoqe, undan nariga o'tib bo'lmaydi. (Chetga) Ba'zi javoblarining zukkologiga qarang! Ajabo, hozirjavoblik degani ko'pincha tentaklar kaftiga shundoq qo'nadi-qo'yadi, aqli butunlarga esa, ha deganda, qorasini ko'rsatavermaydi.

Tezroq borib qizimni u bilan uchrashtirish chorasini ko'ray.
Muhtaram shahzodam, ketishimga ijozat bersalar.

H a m l e t

Men jon deb sizga biror nima berardimu, lekin hech
vaqoyim yo'q — jonimdan o'zga, jonimdan o'zga,
jonimdan o'zga...

P o l o n i y

Salomat bo'lsinlar, shahzodam.

H a m l e t

Oh, jonga tegdi bu qari nodonlar!

R o z e n k r a n s t v a G i l d e n s t e r n kirishadi.

P o l o n i y

Sizga shahzoda Hamlet kerakmi? Mana u.

R o z e n k r a n s t

(P o l o n i y g a)

Tashakkur, taqsir.

G i l d e n s t e r n

Shavkatli shahzodam!

R o z e n k r a n s t

Aziz shahzodam!

H a m l e t

Mening qadrdon do'stlarim! O'zingmisan, Gildenstern?
O'zingmisan, Rozenkranst? Ahvollar nechuk?

R o z e n k r a n s t

Ahvolimiz ko'p qatori, ziyoda emas.

G i l d e n s t e r n

Baxtimizga, haddan ziyod emas baxtimiz,
Qismat qalpog'ida zarrin jig'a emasmiz.¹

H a m l e t

Ammo uning tovonini ham emassiz?

R o z e n k r a n s t

Balli, na unisi, na bunisi, shahzodam.

H a m l e t

Demak, siz uning qandaydir beliga yaqinroq bir yerida
shafqat-muruvvatlar maskanining xuddi o'zagidasiz?

G i l d e n s t e r n

Topdingiz, shahzodam, biz o'sha joyning
mahramlarimiz.

H a m l e t

Qismat asrõrxonasining mahrami-ya? Bajonidil
ishonaman. Qismat — ko'pni ko'rgan xotin. Xo'sh, ne
yangiliklar bor?

R o z e n k r a n s t

Aytarliq hech nima, faqat dunyoda insof, vijdon degan
match paydo bo'libdi.

H a m l e t

Demak, qiyomat yaqinlashibdi-da. Har qalay olgan
ma'lumotlaringiz noto'g'ri. Qani, bir boshdan tushinglar-
chi: siz, azizlarim, ne gunoh qilib qo'ydingizki, o'sha
qismat sizni bu zindonga ro'para qildi?

Ya'ni, taqdir erkatoysi emasmiz, deyilmoqchi.

G i l d e n s t e r n

Zindon, deysizmi, shahzodam?

H a m l e t

Ha, Daniya — zindon.

R o z e n k r a n s t

Unda butun dunyo — zindon.

H a m l e t

Balli, ko'plab qamoqxonalari, chohlari bo'lgan g'aroyib bir zindon, lekin eng quling o'rgilsini — shu Daniya.

R o z e n k r a n s t

Biz bundoq deb o'ylamaymiz, shahzodam.

H a m l e t

Unda sizlarga zindon emas; zero, narsalar o'z-o'zichamas, bizning nazarimizcha yaxshi yoki yomon bo'ladi. Menga u — zindon.

R o z e n k r a n s t

Demak, uni zindonga aylantirgan narsa sizning shon-shuhratga bo'lgan tashnaligingiz. Sizning talablaringizga u torlik qiladi.

H a m l e t

Yo Tangrim! Meni pista po'chog'iga joylang, o'shanda ham o'zimni sarvari koinot deb his qilaman. Faqat bu bosiriq xayollardan xalos qiling meni.

G i l d e n s t e r n

Ha, o'sha xayol deganingiz — shuhratparastlikning xuddi o'zginasi. Shuhratparastlik mohiyati o'sha xayollarning bir soyasidir, xolos.

H a m l e t

Xayol o'z-o'zicha soyadan bo'lak narsa emas.

R o z e n k r a n s t

Haq gap. Menimcha, shunday samoviy bir mavjudotning shon-shuhrati istagi — soyaning soyasidir, vassalom.

H a m l e t

Demak, bizning haqir jismimiz — soya, bizning podsholarimiz va ovozador qahramonlarimiz ham — haqir soyalar... Darvoqe, bunda gap sotgandan, saroyga borganimiz yaxshimasmi? Xudo haqi, kallam g'ovlab ketdi.

R o z e n k r a n s t va G i l d e n s t e r n
Xizimatingizga hozirmiz, milord.

H a m l e t

Buning ahamiyati yo'q. Men sizni boshqa xizmatkorlarim qatoriga qo'shmayman. Sirasini aytganda, ular shundayam meni rosa kuzatishayapti. Xo'sh, insof bilan ayting-chi, nechun Elsinordasiz?

R o z e n k r a n s t

Sizga mehmonmiz, shahzodam, bo'lak gap yo'q.

H a m l e t

Shunday faqir, shunday haqirmanki, rahmat aytishga ham ojizman. Ammo minnatdorman. Lekin ana shu minnatdorlik ham sizga hayf. Xo'sh, chaqirib olishdimi? Yoki bu o'zingizdan chiqqan tashabbusmi? O'z ixtiyoringiz bilan keldingizmi? A? Marhamat qilib, rostini ayting. Xo'sh? Qani?

G i l d e n s t e r n

Sizga nima desak ekan, milord?

H a m l e t

E, og'izga kelganini aytavering, faqat rostini aytmasangiz, bas. Sizni chaqirib olishdi. Ko'zingiz aytib turibdi, har qancha urinsangiz ham yashirolmaysiz. Men bilaman, marhamatli qirol va malika sizni chaqirib olishgan.

R o z e n k r a n s t

Qanday maqsadda, milord?

H a m l e t

Bu yog'i o'zingizga ayon. Lekin o'rtoqlik hurmati, avvalgi yakdilligimiz, mehri-oqibatimizning buzilmas ahdu paymonlari hurmati, o'rtadagi tamom ezgulik hurmati, sizdan o'tinaman, gapni chalg'itmay, ayta qoling: sizni chaqirib olishdimi yoki yo'qmi?

R o z e n k r a n s t

(G i l d e n s t e r n g a)

Siz nima deysiz?

H a m l e t

(Chetga)

Ana xolos, nishonga tegdi-ku. (*Baland ovozda*) Meni yaxshi ko'rsangiz, aytasiz.

G i l d e n s t e r n

Milord, bizni chaqirib olishdi.

H a m l e t

Sababini o'zim aytib bera qolay. Shunda mening taxminim sizning iqroringizdan o'zib tushadi va qirol bilan malikaga bo'lgan sadoqatingiz bir tukini ham yo'qotmaydi. So'nggi paytlarda negadir butun xushchaqchaqligim va mashg'ulotlarga bo'lgan maylu ishtiyoqimni yo'qotib qo'ydim. Shu qadar shikastamanki, shu koinot gulshani,

shu kurrai zamin ko'zlarimga unumsiz, tap-taqir bir qoya bo'lib ko'rinadi, samovotga tutashga mana shu cheksiz havo chodiri, ko'ryapsizmi, zarrin shu'lalar bilan muzayyan ana shu shohona gumbaz nazarimda, qo'lansa va zaharli bug'larning yig'indisidir, xolos. Tabiatning qanday ajoyib xilqatidir inson! Uning zakovati qanchalar baland! Layoqati naqadar cheksiz! Suvrat va siyrati naqadar mumtoz va mukammal! Turish-turmushi farishtalarga naqadar yaqin! Nazar-nihoyati Tangri taologa qanchalar qarın! Olamning ziynati! Tamomiy tiriklikning toji davlati! Xo'sh, mana shu xokiu g'uborning asosi — avvali men uchun nima degan gap? Erkaklar meni qiziqtirmaydi, xotinlar esa boyagidek... siz mundoq kinoyali kulmang, parvoyimga ham kelmaydi.

R o z e n k r a n s t

Shahzodam, bu narsa xayolimga ham kelmagan.

H a m l e t

Nega bo'lmasam erkaklar meni qiziqtirmaydi, desam, iljayasiz?

R o z e n k r a n s t

Men unda aktyorlarni qanday kutib olarkansiz, deb o'yladim. Biz ularni yo'lda qoldirdik. Ular o'z xizmatlarini sizga manzur etgani kelishyapti.

H a m l e t

Qirol rolini o'ynaguvchiga — ta'zim adolar. Men o'sha oliy hazratlarining sodiq fuqarolari bo'laman. Sayohatchi ritsar bu yerda qilich-qalqoniga yarashiq ermak topa oldai. Oshiqning xo'rsinishlari bekor ketmas. Darvish o'zi orzu qilgan rohatiga yetadi. Miltiq tepkisidek tortilib, qitiqlanishni kutib, zor turgan qorinlar masxarabozning boshi ustida paqillab yorilaveradi. Ma'shuqa she'r-hijo deb o'ltirmay, yurakda borini to'kaversin. Xo'sh, ular qanday aktyorlar?

R o z e n k r a n s t

O'sha, sizga bag'oyat manzur bo'lgan poytaxt tragiklari.

H a m l e t

Ularni darbadarlikka nima boshladi ekan? Muqim maskan tutish mablag' va shuhrat vajidan qulay edi-ku.

R o z e n k r a n s t

O'ylashimcha, keyingi tartib-nizomlar ularni shunga majbur etgan.

H a m l e t

Ularni hozir ham avvalgidek qadrlashadimi? Daromadlari avvalgichami?

R o z e n k r a n s t

Yo'q, hamma gap shundaki, avvalgicha emas.

H a m l e t

Nega? Ular yomon o'ynashadimi?

R o z e n k r a n s t

Yo'q, ilgarigidek mahorat bilan o'ynashadi. Lekin shaharda bir guruh jo'jaxo'rozlar paydo bo'lishgan,¹ o'zlari-ku endigina tuxumdan chiqishgan, lekin ovozlari avj pardalarga ko'tarib, behisob olqish olishyapti. Hozir o'shalar izzatda, ular o'zlari aytmoqchi, oddiy teatrlarga shunday hujumlar qilishdiki, endi qilich taqqanlar ham qalam tutganlardan cho'chib, u yoqqa qadam bosmay qo'yishdi.

H a m l e t

Nahotki, o'sha bolalar shu qadar qo'rqinchli bo'lsa. Ularni kim boqadi? Kim maosh to'laydi? Bu vaqtinchalik

¹ Shekspir davrida o'spirin yoshlardan iborat truppa katta aktyorlar bilan raqobat qilgan.

iste'dodlari bilan qayoqqa borishadi? Ertaga ovozlari yo'g'onlashib, dag'al tortgach, ular ham odatiy teatrlarning aktyorlari bo'lishadi, shunda kattalar bizni o'z istiqbolimizga qarshi qo'yibdi, deb afsus-nadomat chekishmasmikin?

R o z e n k r a n s t

Rostini aytganda, ikki tomon ham rosa g'alva ko'tardi, xaloyiq esa gij-gijlashni qo'ymaydi. Ba'zi p'esada raqib tomon bulg'alanmas ekan, tomosha uchun bir chaqa ham to'lashmaydi.

H a m l e t

Nahotki?!

G i l d e n s t e r n

O, bu orada buzilgan qonlar ozmuncha emas.

H a m l e t

Xo'sh, bolalar ustun kelishyapti, deng?

R o z e n k r a n s t

Ha, shahzodam. Ular Herkulesni ham yuki bilan ag'darishadi.¹

H a m l e t

Darvoqe, bunga ajablanmasa ham bo'laveradi. Masalan, amakim, hozirgi Daniya qirolini tirikligida tilini chiqazib, masxara qilib yurganlar hozir uning kichik bir suvrati uchun yigirma, qirq, ellik va hattoki, yuz dukat to'lashadi. Tavba, bunda qandaydir bir sir borgan o'xshaydi, qaniydi, falsafa degani buning tagiga yeta qolsa.

Sahna ortida karnaylar chalinadi.

¹ Shekspir mansub bo'lgan "Globus" teatri ko'zda tutiladi, teatr peshtoqida yer kurrasini ko'tarib turgan Herkulesning tasviri tushirilgan edi.

G i l d e n s t e r n

Ana, aktyorlar ham kelib qolishdi.

H a m l e t

Elsinorga xush kelibsiz, janoblar. Qani, qo'lingizni bering, jo'ralar. Lutfu nazokat ham mehmondo'stlik shartlariga kiradi. Ularni bir-birimizga peshkash qilaylik, toki, aktyorlar bilan uchrashgach, meni ularga ko'proq iltifot etdi, deb o'ylamang. Yana bir bor xush kelibsiz. Ammo mening amakim – otam, ona – xolam adashishadi.

G i l d e n s t e r n

Qaysi ma'noda, milord?

H a m l e t

Mening jinniligim nord-nord-vest, ya'ni: shimol, shimolu g'arb shamollari esganda qo'ziydi. Janub shamollari esganda esa lochinni dastarradan ajrata olaman.

P o l o n i y kiradi.

P o l o n i y

Salom, janoblar.

H a m l e t

Eshiting, Gildenstern, siz ham eshiting. Har quloqqa – bittadan guvoh. Ana shu ko'rib turganingiz qari go'dak hali yo'rgakdan chiqmagan.

R o z e n k r a n s t

U balki bir chiqib, qayta kirgandir. Aytishadi-ku, qarilik – bolalik, deb.

H a m l e t

Sizga aytsam, u aktyorlar kelganini xabar qilmoqchi. Ana ko'rasiz. (*Baland ovozda*) Mutlaqo to'g'ri, taqsir. Aytganingizdek, bu dushanba kuni ertalab ro'y bergan edi...

P o l o n i y

Milord, men sizga aytmoqchimanki...

H a m l e t

Milord, men sizga aytmoqchimanki, Rostiy Rimda aktyor bo'lganida...

P o l o n i y

Aktyorlar kelishdi, milord.

H a m l e t

Yo'g'-ey! Nahotki!

P o l o n i y

Xudo haqi, milord.

H a m l e t

Ular eshshak minib kelishdimi?..

P o l o n i y

Dunyoning eng yaxshi aktyorlari, istagan usulda o'ynayverishadi: tragediyami, komediyami, xronikami, pastoralmi, pastoral-komik narsalarmi, tarixiy pastoralmi, sahnabop bo'lmagan, favqulodda boshqa asarlarmi, xullas, o'ynayverishadi. Seneka vazminligiyu Plavt epchilligi ularga pisandmas.¹ Yod o'qish, badiha to'qishda benazir.

H a m l e t

Yo bani Isroil qozisi Yevfay,² qandoq xazinang bor edi-ya!

¹ Seneka — Rim shoiri, qator tragediyalar muallifi; Plavt — rimlik komediyana-
vis, XVI asr ingliz dramaturglari ularga taqlid qilishgan.

² Injilga ko'ra, Yevfay o'zining yakka-yu yagona qizini qurbon qilgan. Bu yerda Poloniy ham Hamletga qarshi kurashda qizi ofeliyani qurbon qilyapti, deyilmoqchi.

P o l o n i y

Uning xazinasini bo'lganmi, milord?

H a m l e t

Bo'lmasa-chi:

Yagona bir qizi bor edi,

Shuni o'ylab, baxtiyor edi...

P o l o n i y

(Chetga)

Yana gapni qizimga buryapti.

H a m l e t

Nima? Shundoq emasmi, qari Yevfay?

P o l o n i y

Men agar Yevfay bo'ladigan bo'lsam, milord, bu haq gap, mening qizim bor va men uni jonimdan ortiq ko'raman.

H a m l e t

Yo'q, davomi bunday emas.

P o l o n i y

Davomi qanday, milord?

H a m l e t

Bunday:

Lekin Xudo hukmini berdi,

Xazinasini mumday eridi...

Diniy oyatning birinchi bandini o'qisangiz, davomini bilib olasiz. Mening esa qisqartirishimga to'g'ri keladi.

To'rt-beshta aktyor kiradi.

Salom, janoblar. Marhamat qiling. Qadamingizga hasanot. Seni sog'-salomat ko'rish bilan bag'oyat xursandman.

Marhabo, azizlarim. Yopiray, eski qadrdon-ku. Ko'rishmaganimizdan buyon orttirganing shu soqol bo'ptida! Yoki Daniyaga mening ustimdan kulish uchun soqol yopishtirib keldingmi? Ko'rayotganim sizmisiz, oyimtilla?¹ Yo Bibi Maryam, so'nggi marta ko'rishganimizdan buyon bir qarich samoga sakrabsiz-ku. Xudo asrasin, ovozingiz soxta tilladek tovlanib qolmagay tag'in. Xush ko'rdik, janoblar. Qani, bo'lmasam, fransuz ovchilariga o'xshab birinchi o'ljagayoq tashlanamiz. Marhamat, birorta monolog. Bizga san'atingizdan namuna ko'rsating. Qani, birorta otashin monolog.

B i r i n c h i a k t y o r

Qaysi monologni istaysiz, shahzodam?

H a m l e t

Yodimda, bir gal sahnada atigi bir karra qo'yilgan yoki qo'yilmagan nomaqbul bir pyesadan parcha o'qiganding. Ko'pchilik xaloyiqqa badhazm, ammo men va mendan ham yaxshiroq hakamlar uchun sahnalari bejirim bo'linib, sodda va mohirona yozilgan ajoyib bir pyesa edi u. Esimda, she'rilarida tarovat oz, tili balandparvoz emas, deb e'tiroz etishsa-da, umuman, tahriri adosiga yetgan, yoqimtoy bir asar deb topishgan edi. Unda menga, ayniqsa, xush yoqqan bir monolog bor. Eney Didonaga o'zi haqida, xususan, Priamning o'ldirilishi xususida so'zlaydigan yeri.² Agar o'sha yodingizda bo'lsa, mana shundoq misradan boshlang. Xo'sh-xo'sh, mana hozir.

"Jurjoniya yirtqichidek o'sha yovuz Pirr..."³

¹ Hamlet xotin-qizlar rolini ijro etuvchi bolaga sundoq hazilomuz murojaat etadi.

² Troyani yunonlar bosib olgach, Troya qahramonlaridan biri Eney uzoq vaqt sarson-sargardon yurib, Karfagenga borib qoladi. Karfagen malikasi Didonani sevib, unga Troyaning halokati haqida so'zlab beradi.

³ Shekspir davrida Angliyada Kaspiy dengizining sharqida joylashgan yerlarni "Jurjoniya" deb atashgan.

Yo'q, boshqacharoq. Lekin Pirrdan boshlanadi:
"Dahshatli Pirr, qora qurol-aslahalari,
Qora qalbi qora tunni eslatguvchi Pirr,
Ot qorniga kirib avval yotib olmishdi.
Kiyimlari alvon tusga bo'yalmish endi,
Bu suvrati bilan yana dahshatli edi.
Endi boshdan-oyoq qonga botmishdi, qonga;
Erkak-ayol, o'g'illaru qizlar qoniga.
Yonayotgan devorlarning alangasida
Yana qonlar laxta-laxta qotib qolgandi.
Va devorlar yoritardi qotil yo'lini –
Maqsad sari. G'azab ila otashga to'lgan,
Qondan libos kiygan o'sha bediyonat Pirr'
Vahshat ichra o'ynatib ko'z soqqalarini,
Priamni axtarardi".
Endi o'zingiz davom eting.

P o l o n i y

Xudo haqi, milord, qotirdingiz, ohang va tuyg'u
me'yorini o'rniga qo'yib, o'qidingiz.

B i r i n c h i a k t y o r

"Uni topdi Pirr
To'satdan duch kelib qoldi Yunonistonda:
Qilichini ko'tarmoqchi bo'lgan Priam
Holdan toyib qilichini tushirar shu dam.
Shamol yanglig' uchib borar buni ko'rgan Pirr,
Priamga shiddat bilan o'qtalib shamshir.
Bu shiddat va shamshirning bu chiyillashidan
Raqib qulab tushar. Shunda og'riq-alamga
Chidayolmay, ag'darilib, yiqilar birdan
Lov-lov etib yonayotgan qasr devori,
Bu qotilni sarosima qiladi bir dam.

¹ Yunon qahramoni Axillning o'g'li. U otasining o'limi uchun troyaliklardan qasos olgan.

Pirr naq boshi uzra tikka ko'targan qilich
Shundoq qotib qolar, go'yo tikka sanchilib.
Suratlarda chizilgan u maqotil kabi
Qimir etmay, shu alfozda qotib qolar Pirr.
Bu naq bo'ron oldidagi sukunat kabi,
Sukunatki, samolar ham jimib qoladi.
Bulutlar jim, ufqlar jim, shamollar jimjit,
Zaminni ham o'lim kabi bosadi jimlik.
Biroq qay bir taraflardan yetar qaldiraq...
Xuddi shunday bir seskanib, sergaklanar Pirr,
Va otilar qon ichgali yuz karra chanqoq.
Bo'ron sandonida Marsga sovut yasagan
Bolg'alar ham shundoq shiddat bilan tushmagan.
Shundoq shiddat bilan Pirrning qonli qilichi
Priamning boshiga tushdi.
Bu savdodan uyal. Qismat, nomusga qoril!
Saltanatdan ixroj eting uni, Tangrilar,
Aravasin tortib oling, buzing-pachoqlang.
Uning tamom g'ildiragu kegaylarini
Va o'qini olib chiqib, bulut ustidan
Jahannamga uloqtiring!"

P o l o n i y

Bu judayam uzun.

H a m l e t

Buni sening soqolingga qo'shib, sartaroshga jo'natamiz.
O'tinaman, davom et. Unga raqslaru behayo latifalar bo'lsa,
bas, boshqasini eshitsa, uni uyqu bosadi. Davom et.
Hekubaga o't.¹

B i r i n c h i a k t y o r

"Kim so'raydi sochi to'ziq u malikani..."

¹ Priamning xotini, Troyaning malikasi.

H a m l e t

"Sochi to'ziq malika?"

P o l o n i y

Mana bu durust! "Sochi to'ziq malika" yaxshi!

B i r i n c h i a k t y o r

"Alangani ko'z yoshlari bilan o'chirib,
Yalang oyoq yugurardi sho'rlik har yoqqa.
Boshida-chi, toj o'rnida chirik bir latta.
Qoq-qovjiroq tanasiga yopinchiq — choyshab,
Qarg'ishlarga ko'mar edi qismat deganni.
O, Tangrilar boqib, bir zum ko'ra bilsaydi
Malikaning ko'z o'ngida tepkilab qandoq
Pirr Priam jasadini qiymalashini.
Foniy banda chorlay bilsa edi ularni —
Uning chekkan faryodlari, ko'z yoshi bilan
Samolarning diydasi to'ldirar edi,
Xudolarning yuragini kuydirar edi".

P o l o n i y

Qarang, rangi oqarib, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. Hoy, yetar, bas endi.

H a m l e t

Balli! Qolganini keyin aytasan. Muhtaram zot, aytib qo'ying, aktyorlarga yaxshilab qarashsin. Eshityapsizmi, muomalani durustroq qiling, negakim, ular — zamonning fikr-xulosasi va muxtasar hikoyatidirlar. Tirigingda ular tufayli yomon otliq bo'lgandan, o'lganingdan so'ng qabr toshingda ta'na-dashnomlar yozib qo'yishgani afzal.

P o l o n i y

Shahzodam, men ularning xizmatlariga yarasha muomala qilaman.

H a m l e t

Yo'q, yaxshisi, shayton ko'tarsin sizni, taqsim! Har kimning xizmatiga yarasha muomala etishadigan bo'lsa, kaltakdan kim qochib qutuladi? Ularga o'z sha'ningizga yarasha muomala qiling. Ularda xizmat qancha oz bo'lsa, sizda saxovat shuncha ziyoda bo'lsin. Qani, boshlang ularni.

P o l o n i y

Yuring, janoblar.

H a m l e t

Bora qoling, do'stlarim. Ertaga tomosha.

H a m l e t va b i r i n c h i a k t y o r d a n b o' l a k h a m m a ketadi.

Ayt-chi, qadrdon "Gonzagoning o'ldirilishi"ni o'ynay olasizlarmi?

B i r i n c h i a k t y o r

O'ynaymiz, milord.

H a m l e t

Ertaga oqshom shuni o'ynay qolinglar. Mabodo zarur bo'lib qolsa, o'n ikki-o'n olti qator biror narsa yozib, qo'shimcha qilsam, shuni yodlashning iloji bormikan?!

B i r i n c h i a k t y o r

Bo'ladi, milord.

H a m l e t

Juda soz. Anavi janobning huzuriga bor, ammo jig'iga tega ko'rma.

Birinchi aktyor ketadi.

(Rozenkarnst va G i l d e n s t e r n g a)

Kechgacha xayr, do'stlarim. Yana bir bor aytamanki, Elsinorga xush kelibsiz.

R o z e n k r a n s t
Marhamatli shahzodam!

H a m l e t
Xudo panohida asrasin!

R o z e n k r a n s t va G i l d e n s t e r n ketishadi.

Yop-yolg'izman, mana, nihoyat.
Oh, naqadar yaramasman, noshud bir banda.
Bu qanday gap axir: oddiy o'tkinchi aktyor
Tasavvurda to'qilgan u tuyg'ularni deb,
Idrokini xayoliga bo'yinsundirsa,
Qoni qochsa yuzlaridan, ko'zida yoshi
Charx ursa-yu, ovozlari qaltirab ketsa,
Tamom turqi-tarovati, butun a'zosi
Uning yuragini ochib, namoyon etsa.
Xo'sh, ayting-chi, bu ne uchun?
Hekuba uchun!
Hekuba kim unga? O'zi Hekubaga kim?
U bo'zlaydi. U nimalar etmasdi qoyim
Gar boshida mendek alam-savdosi bo'lsa?
U sahnani ko'z yoshlarga ko'mardi balkim.
Gunohkorni monologi shiddati bilan
Tang qoldirib, aqlu hushdan etardi mahrum.
Iffat bilan fazilatga bag'ishlardi rang,
Ko'zlar bilan quloqlarni etardi batang.
Men bo'lsam-chi:
Ahmoq, ayanch, aynigan bir jon,
Mudroq bosib, uyqu ichra yurganim-yurgan.
O'z haqimda na tadbir, na tadorikim bor,
Na jonidan qabihlarcha mahrum etilgan
Marhum qirol uchun biror harakat, a'mol.
Xo'sh, men nima, qo'rqqoqmanmi?! Qani, kim aytar?
Kim yuzimga otar achchiq ta'na-malomat?

Kim betimga ayamasdan shapaloq tortar?
Kim bolaga uqtirgandek aylar nasihat?
Kim burnimdan tortib meni kazzob, deb atar?
Qani, kim bor? Kela qoling! Mana men tayyor!
Kabutarning jigaridir jigarim mening,
Shuning uchun zardasi kam, yetishmas safro.
Bo'lmamchi, o'zni ishga shaylamasmidim,
U yovuzning murdasini allaqachonlar
Qarg'a-quzg'unlarga yemish aylamasmidim.
O, badkirdor. O, yaramas, qonxo'r, muttaham,
O, la'nati xotinboz!
O, qasos, intiqom!
Gapning po'skallasi shuki, eshshakman, eshshak!
Axir kimman, o'ldirilgan otaning o'g'li,
Do'zax, samo intiqomga chorlab tursa-yu,
Men bu yoqda fohishadek ko'zyoshi to'ksam
Va qarg'asam bir cho'riyu chuvrindi kabi!
Tuf-ey, la'nat! Uyg'on, mening idrokim, uyg'on!
Eshitgandim, kirdikori qora kimsalar
Tomoshaga tushib, monand savdoni ko'rib,
Tamom erku ixtiyorni qo'ldan boy berib,
Qilmishlari uchun iqrar bo'lur ekanlar.
Ha, qotillik jim tursa-da, so'zsiz-sadosiz
Oshkor etar o'z-o'zini. Buyuraman to:
Aktyorlar amakimning ko'zi o'ngida
Otam qatli sahnasini etsinlar ijro.
O'zim undan ko'z uzmayman. Ko'raman qani
Qanday ta'sir etar ekan. Agar mabodo
Ta'sir etar bo'lsa, unda o'zim bilaman,
Ne qilishim lozim bo'lsa, keyin qilaman.
Ehtimolki, o'sha arvoh iblisdir, ya'ni
Atay kirib olib otam qiyofasiga
Istifoda etib charchoq, ma'yusligimdan,
Meni halokatga duchor etmadimikan?!
Ha, dalillar kerak yana, dalillar ko'proq

Tomoshada gap ko'p, endi tomosha qo'yib,
Men Qirolning yuragiga solaman ilmoq...

Ketadi.

UCHINCHI PARDA

1-sahna

Qasrda bir xona

Qirol, Malika, Poloniy, Ofeliya,
Rozenkranst va Gildenster kiradilar.

Qirol

Xullasi kalom, ochiq-oydin bilolmadingiz
Jinniligi sababiyu sinoatini?
Nechun asabiydir, qo'rqmay oqibatidan
Telbalikka qurbon etar farog'atini?

Rozenkranst

Es-hushim o'zimda yo'q, majhulman, deydi,
Ne sababdan ekanini ammo aytmadi.

Gildenster

Qancha so'rab-surishtirdik, barisi bekor.
Sog'ligidan so'z ochildi deguncha nuqul
Devonaning ayyorligi bilan chap berar.

Malika

Sizni nechuk qarshi oldi?

Rozenkranst

Tanti, mardona.

Gildenster

O'zni bir oz zo'rlaganday tuyuldi yana.

R o z e n k r a n s t

Ozroq savol berdi, javob gali kelganda.
So'z ko'paydi-yu, picha cho'zildi gapi.

M a l i k a

Ko'ngil ochmoqqa siz taklif etmadingizmi?

R o z e n k r a n s t

Ha, albatta. Fursat o'zi qo'l kelib qoldi.
Yo'lda aktyorlar bizga uchradi alhol.
Bu to'g'rida eshitdi-yu, sevinib qoldi.
Aktyorlar qasrdadir hozir baharhol.
Ular bugun o'ynamoqqa buyruq ham oldi.

P o l o n i y

Chin haqiqat, kaminangiz tasdiq etadi.
Zoti oliylari, zoti oliyalarni
Hamlet tomoshaga bugun taklif etadi.

Q i r o l

Bajonu dil. Men mamnunman eshitib, magar
Topilibdi unga shundoq ermak-mayllar.
Toki yana qo'l bermasin oshiftalikka,
Havasini o'stinglar, ko'shish qilinglar.

R o z e n k r a n s t

Sarf etgaymiz tamom kuchu g'ayratimizni.

R o z e n k r a n s t v a G i l d e n s t e r n ketadilar.

Q i r o l

Gertrudam, sen ham chiqib turgaysan endi.
Biz Hamletni chaqirtirdik bu yoqqa sekin:
O'zi bundan bexabardir. Kutmagan mahal
Bunda Ofeliyaga u duch kelib qolar.

Biz samimiy hakam bo'lib Poloniy bilan
Kuzatamiz, shahzodani qiynagan balo —
Chindan ishq muhabbatmi yo bo'lak savdo?

M a l i k a

Xo'p, bo'ladi, shohim. Sizga, o, Ofeliya,
Tilagim shu: shahzodaning jinniligiga
Yolg'iz husni-jamolingiz sababchi bo'lsin;
Sharofatingizdan to'g'ri yo'lga kirsin u,
Ikkingiz ham obro' toping.

O f e l i y a

Qulluq, malikam.

M a l i k a ketadi.

P o l o n i y

Ofeliya, sen shu yerda sayr qilib tur,
Marhamatli shohim, siz ham bu yoqqa o'ting.
Qizim, sen-chi, kitob qarab turganing ma'qul,
Yakka-yolg'izlikka bu bir nishona bo'lur.
Ha, to'g'risi, biz ham jilla chakki emasmiz:
Munis chehra, mutavoze qiyofa bilan
O'rni kelsa, shaytonga ham saboq beramiz.

Q i r o l (Chetga)

Sirasini aytdi, xuddi nishonga urdi,
Kamar bilan shatillatib urganday bo'ldi.
Fohishaning yuzidagi upa-elikni
Artib boqar ersang, bo'lmas shunchalar mudhish,
Ammo mening kirdikorim bundan ham qo'rqinch,
Chiroyli so'z ostida ham. O, qanday og'ir!

P o l o n i y

U biz tomon yaqinlashib kelmoqda, shohim,
Qani, yuring, bir chekkaga o'zni olaylik.

Q i r o l v a P o l o n i y ketadilar. H a m l e t kiradi.

H a m l e t

Yo hayot, yo mamot: masala shundoq.
Joizmikin ul jobiru jabbor falakning
Jafosiga har daqiqa chidasa yurak?
Yo balolar dengiziga ko'ndalang bo'lib,
Koyishlaru tashvishlarga chek qo'ymoq kerak?
O'lish. O'zni unutish. Bas, tamom — vassalom.
Ruhiy iztiroblar, tanning azoblariga
Bilamizki, chegaradir shu og'ir uyqu.
Zotan, asil bir muddao emasmidir bu?
Ado bo'lmoq. Va adosiz uyquga cho'mmoq.
Keyin tushlar ko'rmoq. Mana, jumboqqa javob.
O'lim uyqusida — o'sha hokiy libosdan
Qutulganlar, qanday tushlar ko'rishar ekan?
Mana izoh. Mana o'sha haqiqiy sabab —
Bizning qayg'u-alamlarni yillarga cho'zgan,
Bo'lmasa-chi, kim chidardi davron tahqiri,
Quvg'inlarning mashaqqati, jaholat makri,
Muhabbatning safolati, hasrat-nadomat,
Huquqsizlik va qanchalar ranju malomat,
Davlatmandlar saltanati havolari-yu,
Yo bo'lmasam, chinakamiy xizmat ustidan
Noshudlikning puchak hukmi-da'volari-yu...
Kim chidardi bularga, bu sho'rishi savdo
Bitta xanjar zarbasi-la toparkan ado?
Kim ko'nardi, tiriklikning yuki ostida
Bukchaygancha yo'l bosishga inqillab, agar
O'lim ortidagi o'sha qora mavhumot.
Azmi safar qilib birov qaytib kelmagan

O'sha mulki mavhumotdan qo'rquv muqarrar
Irodani qayirmasa, bosib, egmasa?
Va belgisiz sohillarga o'zni urgandan,
O'sha tanish qabohatni afzal demasa?
Hammamizni qo'rqqoq qilib qo'yar tafakkur.
Noqis aql sochgan o'sha xira shu'ladan
Azmu qaror rangi o'chib, bo'zrayib qolur.
Ko'lami va zalvori zo'r niyatlar ham to
To'g'ri yo'ldan chiqib maqsad ostonasida
To'zon bo'lib ketar, tamom topar tanazzul.
Bas, kifoya! Ofeliya! Ey, go'zal pari,
Bir osiymen, duoyingda yod ayla meni.

O f e l i y a

Shu kunlarda tuzukmisiz bir oz, shahzodam?

H a m l e t

O, tashakkur, juda tuzuk, juda tuzukman.

O f e l i y a

Shahzodam, siz menga hadya bergan edingiz.
O'sharni qaytib berish — tilagim edi.
Mana, oling.

H a m l e t

Qo'ysangiz-chi, adashyapsiz,
Men umrimda sizga hadya bergan emasman.

O f e l i y a

Hadya bergandingiz, buni yaxshi bilasiz,
Har biriga shirin so'zni omuxta aylab:
Bu — ularning bahosini oshirgan edi,
U so'zlarning atri uchib — taralib ketdi,
Endi ola qoling, chunki nomusli qizlar
Bevafoning sovg'asiga nazar solmaslar.
Marhamat.

H a m l e t

O, siz nomusli qizmisiz?

O f e l i y a

Milord?

H a m l e t

Yana latofatlisiz?

O f e l i y a

Nima demoqchi bo'lasiz, shahzodam?

H a m l e t

Demoqchimanki, nomusli va latofatli bo'lsangiz, sizdagi nomusning sizdagi latofatga sira aloqasi yo'q.

O f e l i y a

Nomussiz latofatning nechuk qimmati bor, shahzodam?

H a m l e t

Barakalla. Lekin nomus latofatni tuzatishga ulgurmay, latofat uni fohishaga aylantirib qo'yadi. Ilgarilari buni g'ayritabiiy deb bilishardi, hozir esa isbot etilgan. Men bir paytlar sizni sevar edim.

O f e l i y a

Darvoqe, shahzodam, men ham ishonar edim.

H a m l e t

Chakki qilibsiz. Ishonmaslik kerak edi. Biz bandayi osiylarga qancha surkamang, bari bir oliyjanoblik yuqmaydi. Men sizni sevmaganman.

O f e l i y a

Demak, ko'proq aldanibman.

H a m l e t

Uzlatga chekin. Bola tug'ib, gunohkor bandalarni ko'paytirishdan ne foyda? Men har holda or-nomus egasiman. Lekin o'zimga shu qadar ta'na-dashnomlar yog'dira olamanki, bundan ko'ra, meni onam tug'magani afzal edi. Men g'oyat takabbur, kekchi, xudbin bir kimsaman. Qabohatlarim shu qadar behisobki, ularni o'ylab ko'rishga o'y, amalga oshirishga fursat yetishmaydi. Menga o'xshagan bandalar yeru somon oralig'ida o'ralishib, nima qilib yuribdi o'zi? Hammamiz munofiqlarmiz. Hech birimizga ishonma. Yaxshisi uzlatga chekin, uzlatga. Ha, otang qayerda?

O f e l i y a

Uyda, milord.

H a m l e t

Ustidan mahkam bekitib qo'ygan ma'qul, toki yolg'iz uydagilarni laqillatsin. Xo'p, xayr endi.

O f e l i y a

Aziz avliyolar, unga madad bering!

H a m l e t

Erga tegadigan bo'lsang, boshingga la'nat toshlari yog'ilsin. Qordek oq, muzdek musaffo bo'lsang ham, tuhmatdan qochib qutulolmaysan. Uzlatga chekin, uzlatga. Xo'p, xayr endi. Agarda judayam erga tekking kelsa, ahmoqni tanla. Oqillar ularni ne ko'ylarga solishingizni yaxshi bilishadi. Uzlatga chekin, uzlatga. Paysalga solma. Xo'p, xayr endi.

O f e l i y a

Farishtalar, unga najot bering!

H a m l e t

Suvratkashlik hunaringiz borligini ham yaxshi bilaman. Xudoyim sizlarga bir yuz berganu, boshqasini o'zingiz yasab olgansiz: dikonglaysiz, yo'rg'alaysiz, bidirlaysiz, Xudoning maxluqi degan laqabingiz bor, chopqirligingiz tufayli jaholatda yashaysiz. Yo'q, bunaqasi endi ketmaydi. Yetar, bas, boshqa chidayolmayman. Bular meni jinni qiladi. Eshitib qo'y, to'y-nikoh bo'lmaydi. To'y-nikoh qilganlarning bittasidan bo'lak, hammasining Xudo xayrini bersin. Qolganlari avvalgicha yuraversin. Uzlatga chekin, uzlatga.

Ketadi.

O f e l i y a

Halok bo'lmish qanday asl, noyob bir aql!
A'yon edi, askar edi, olim edi ul,
Ko'zga, so'zga va shamshirga sohib edi ul,
Davlat, saltanatning umid guli edi ul,
Nazokatu nafosatning timsoli edi,
Hammasiga ko'zgu edi... Hammasi butkul
Chil-chil bo'lib sindi, to'zib, tugadi endi,
Xo'sh, men-chi? Men kimman endi, badbaxt bir xotin,
Yuragimda va'dalarning asali-toti.
Azamat u tafakkurga yetibdi shikast,
Darz ketgan bir jomdek ingrab, chiqarar sado.
Uning yigit jamolini endi har nafas
Burishtirib turar shunday oshbi savdo.
Bu ne lutfu karamingdir, ey Parvardigor,
Nelar ko'rdim! Yana qanday ko'rgiligim bor?

Q i r o l v a P o l o n i y qaytib kirishadi.

Q i r o l

Muhabbat! Yo'q, bu savdoyi muhabbat emas;
Garchi yo'qdir so'zlarida tayin robita.
Lekin yo'qdir telbalikdan asar ham unda.

U qayg'uning tim-qorong'u burchaklarida
Halokatli bir qarorga kelmoqdadir, bas.
Falokatni raddi badal aylamoq uchun
Shundayin bir xulosaga keldim men bugun:
Uni darhol jo'naturmiz Angliyaga,
Boj undirish vazifasi yuklanur unga.
Ehtimolki, dengiz sayri, yangi o'lkalar
Va xorijiy odamlar-la suhbat, muloqot
Yuragini bosib yotgan qora mavhumot
G'ashlik balosidan uni musaffo etar.
Xo'sh, siz nima deysiz?

P o l o n i y

Shohim, bu yaxshi tadbir.
Valekin men ishonaman, taxminim o'sha:
Savdoyiligiga sabab — ishqu muhabbat.
Ha, aytganday, qizalog'im, ne deysan? Faqat
Hamlet aytganlarin yana takror aylama.
Biz eshitdik. Siz sohibi tadbirsiz, Hazrat.
Sizning o'rningizda bo'lsam, tomoshadan so'ng
Malikani Hamlet bilan uchrashtirardim.
Toki bekam surishtirib qarasin obdon,
Istasangiz, suhbatlarin eshitay pinhon.
Malika ham etolmasa bu jumboqni hal,
Mayli, jo'natingiz uni Angliyaga,
Yo zindonga tashlang.

Q i r o l

Shunday qilinur beshak,
Jinnilarni nazoratda saqlamoq kerak.
Ketadi.

2-sahna

Qasrda bir zal.

H a m l e t va bir necha aktyor kirishadi.

H a m l e t

O'tinaman, so'zni aytganday yengil va ravon talaffuz eting. Aksariy aktyorlarga o'xshab, dabdabali qilib gapiradigan bo'lsangiz, men yozganlarimni bajonu dil shahar jarchisiga topshirganim ma'qul. Keyin mana bundoq qilib, qo'lingiz bilan havoni qaychilayvermang, hamma narsa me'yorida bo'lsin. Hatto his-hayajonlarning toshqini, bo'roni, boringki, po'rtanasida ham o'zni tiya biling, bu sizga mavzunlik bag'ishlaydi. O, ba'zan toyloqdek bir yigit boshiga bir sarjin poxol qo'ndirib, orqa qatorda tikka turgan, imo-ishora va baqiriq-chaqiriqdan bo'lak hech narsaga tushunmaydiganlar uchun shunaqayam g'alva ko'taradiki, qarab-qarab, g'azabing qo'ziydi. Men o'zini shallaqi xotindek tutadigan bunday yigitni kaltaklashga buyurardim. Shaddod lainni uning o'zidan ham oshirib o'ynab bo'lmaydi. O'tinaman, bundaylardan o'zni yiroq tuting.

B i r i n c h i a k t y o r

Xotirjam bo'ling, shahzodam.

H a m l e t

Lekin, tortinmay-siqinmay, hamisha yurak sadosiga quloq tutib o'ynang. So'zga mos keltirib harakat qiling, harakatga monand keltirib so'zlang, faqat unutmang, bu tabiiylik doirasida bo'lsin. Me'yorni buzish har gal teatr vazifasiga xilof bo'lib tushadi. Teatr vazifasi ilgari qandoq bo'lsa, hozir ham shundoq: tabiat yuziga ko'zgu tutish, uning haqiqiy shavkatlariyu chinakam illatlarini ko'rsatish, tarixdagi har bir asr va naslning bo'yoq-bejaksiz basharasini namoyon etishdan iborat. Oshirib yoki tushirib yuborar ekansiz, g'ofillar kulib, shinavandalar ma'yus tortadi. Shinavandalar hukmining toshi ijozatingiz bilan, butun

teatrni to'ldirgan g'ofillar hukmi toshidan siz uchun vazminroq bo'lmog'i kerak. Menga shunday aktyorlar ham uchraganki, ular orasida ovozası osmonga yetganlar ham bor, xolisanillo aytganda, ovozlariyu qiliqlari bilan na nasoriyga o'xshaydilaru na olamdagi boshqa birovga. Ular shunaqangi qiliqlar qilib, shunaqangi uvvos tortishadiki, beixtiyor yoqangni ushlaysan. Inson zotini tabiatning qaysi bir malayi yaratibdi, degan andishaga borasan, ha, ular odamzodni shu qadar tasqara qilib ko'rsatishadi.

B i r i n c h i a k t y o r

O'ylashimcha, shahzodam, biz bundaylardan xalos bo'lganmiz.

H a m l e t

Batamom xalos bo'ling. Nodonlar rolining ijrochilari yozilganidan ortiq gapirmagaylar, deb ta'qiqlab qo'ying. Ayrimlar pyesaning eng nozik nuqtasida esi past tomoshabinni kuldirish uchun xoxolashga tushadi. Bu nojo'ya bir ish, o'sha masxarabozning izzat-nafsi naqadar arzon-garov ekanligini ayon etadi. Boring, hozirlaning.

Aktyorlar ketishadi.

P o l o n i y, R o z e n k r a n s t v a G i l d e n s t e r n kiradi.

G i l d e n s t e r n

Xo'sh, milord, qirol tomoshani ko'rishni istarmikin?!

P o l o n i y

Yolg'iz qirolmas, malika ham ko'rishga muntazir.

H a m l e t

Boring, aktyorlarni shoshiltiring.

P o l o n i y ketadi.

Sizlar ham yordamlashmaysizmi?

R o z e n k r a n s t v a G i l d e n s t e r n
Bosh ustiga, milord.

R o z e n k r a n s t v a G i l d e n s t e r n chiqadilar.

H a m l e t

Ey, kim bor? Horatsio!

H o r a t s i o kiradi.

H o r a t s i o

Men xizmatga shayman, shahzodam.

H a m l e t

Horatsio, men tanigan insonlar ichra
Eng asl va samimiysi tanho o'zingsan.

H o r a t s i o

Yo'g'-ey, shahzodam.

H a m l e t

Bu senga xushomad emas,
Sening butun boyliging-u, naslu nasabing —
Xushchaqchaqlik esa, nechuk xushomad qilay?
Kim qashshog'u kambag'alga xushomad qilgay?
Qo'y, boylaru kiborlarning dahlizlarida
Tiz cho'kkancha yashayversin xushomadgo'ylar,
Xushomaddan sudu samar ko'rishar ular.
Sen quloq sol. Menga mezon bo'lib yuragim,
Odamlarni tanimoqqa tushgandan buyon
Seni anis tutdi, seni tanladi, inon.
Sen — butun bir odamdiansan, yaxlit bir inson.
Jafo chekkansanu lekin jafokash emas,
Sen shukrona aytib, hozir-nozir turasan
Taqdir-azal qahrigayu inoyatiga,
Bunday odamzodning tole, iqboli baland.
Qismat uni surnay qilib chala bilmagay
Va istagan maqomiga sola bilmagay.

O'z nafsidan ustun turgan dunyoda kim bor?
Ko'rsat uni, senga qo'shib, bag'rimga bosay,
Yo'q, hattoki, jo etarman qalbim qatiga.
Bas, qirolga ko'rsatilar bugun tomosha,
Otam o'limini esa aytganman senga.
Qo'yilajak tomoshada shunday sahna bor,
O'shasahnaboshlanarkan, ki prik qoqmasdan,
Amakimga tikil, undan ko'zingni olma.
Yo o'zini fosh etar u — oshkor etar u,
Yo bo'lmasam, o'sha arvoh — iblisi g'addor.
Hozir aytish qiyin, mening miyamni bu dam
Vulqon ko'rasidek is va tutun qoplagan.
Xullas, tikilgaysan unga ko'zing uzmasdan.
Men ham ko'zim uzmagayman, keyin ikkimiz
Mushohadalarni bir-bir qiyos etamiz.

H o r a t s i o

Xo'p, kelishdik. Agar o'g'ri fosh etilmasa,
Buning jazosiga o'zim to'lay jarima.

H a m l e t

Ular kelishmoqda, ana. Men esam yana
O'zni ovsarlikka solay. Sen joyingga bor.

Daniya marshi. Karnaylar chalinadi.

Q i r o l, M a l i k a, P o l o n i y, O f e l i y a, R o z e n k r a n s
t, G i l d e n s t e r n va boshqalar kirishadi.

Q i r o l

Jiyanimiz Hamletning kayfiyatlari nechuk?

H a m l e t

Ishonasizmi — a'lo. Xuddi buqalamundek. Yemishim —
ichiga va'da to'ldirilgan havo. Axta qilingan xo'rozlarni ham
shunchalik boqishmasa kerak.

Q i r o l

Bu javobning menga daxli yo'q, Hamlet. Bu so'zlar menga aloqador emas.

H a m l e t

Endi menga ham aloqasi yo'q. (*P o l o n i y g a*) Milord, siz dorilfununda sahnaga chiqqansiz, shundoqmi?

P o l o n i y

Chiqqanman, milord va yaxshigina aktyor sanalardim.

H a m l e t

Kimni o'ynardingiz?

P o l o n i y

Yuliy Sezarni. Meni Kapitoliyda o'ldirishardi. Brut o'ldirardi.

H a m l e t

Shunday alomat buzoqni o'ldirish bilan hayvonning ishini qilarkan.¹ Aktyorlar tayyormi?

R o z e n k r a n s t

Ha, milord. Farmoningizga muntazir..

M a l i k a

Azizim, Hamlet, kel, yonimga o'tir.

H a m l e t

Yo'q, oyijon, bu yerda boshqa bir ohanrabo bor.

¹ Bu yerda Hamlet Brutus (Brut) va brute(hayvon) so'zlarining ohangdoshligiga hamda capital so'zining "Kapitoliy" va "alomat" degan ma'nolariga suyanib, so'z o'yini qiladi (Tarj).

P o l o n i y
(*Q i r o l g a , s e k i n*)

Ana, eshitdingizmi?

H a m l e t

Xonim, tizzangizga yotsam maylimi! (*O f e l i y a n i n g*
oyog'iga yastanadi.)

O f e l i y a

Yo'q, milord.

H a m l e t

Ma'zur tutasiz: mumkinmi tizzangizga bosh qo'ysam?

O f e l i y a

Ha, milord.

H a m l e t

Siz biror odobsizlik deb o'yladingiz shekilli?

O f e l i y a

Men hech narsa o'ylamadim, milord.

H a m l e t

Ha, qizning oyoqlari orasida yotish — bir dunyo huzur.

O f e l i y a

Nima dedingiz, milord?

H a m l e t

Hech narsa.

O f e l i y a

Bugun kayfiyatingiz baland ko'rinadi, shahzodam.

Hamlet

Kim, menmi?

Opheliya

Ha, milord.

Hamlet

Voy, Xudoyim, men sizni deb o'mbaloq oshishga ham tayyorman. Axir, xursandchilik qilmay bo'ladimi? Qarang, onam qanday xursand bo'lib o'tiribdi, holbuki, otamning o'lganiga atigi ikki soat bo'ldi, xolos.

Opheliya

Yo'q, shahzodam, rosa ikki karra ikki oy bo'ldi.

Hamlet

Yo'g'-ey? Nahotki, shuncha vaqt o'tgan bo'lsa? Unda shayton qora kiyib yura bersin, men mo'yna kiyaman. Yo Parvardigor! O'lganiga ikki oy bo'libdi-yu, hali unutilmabdi! Unda ulug' inson xotirasi uning o'zidan yarim yilcha ko'proq umr ko'radi, deb umid qilsa bo'ladi. Lekin, xonim, ibodatxonalar qurish shart, yo'qsa, o'yinchoq ot singari uni hech kim esga olmay qo'yadi, bilasizmi, o'yinchoq it qabriga nima deb yozishgan: "Hoppa-hop! Unutildi yog'och ot!"

Nay chalinadi. Pantomimo boshlanadi. Qirol va malika mehr-muhabbatga to'lib, kirib kelishadi. Malika qirolni, qirol malikani quchadi. Malika qirol oldida tiz cho'kib, o'z sadoqatini izhor etadi. Qirol uni o'rnidan turg'izib, yelkasiga bosh qo'yadi. Keyin gulzorga kirib, egatga cho'ziladi. Qirol uyquga ketgach, malika chiqadi. Shunda sahnaga boshqa bir kishi kiradi. U qirolning tojini olib o'padi, so'ng uning qulog'iga zahar quyib, o'zini chetga oladi. Malika qaytadi. Qirolning o'lganini ko'rib, imo-ishoralar bilan afsus-nadomat chekadi. Qotil ikki yoki uch hammol bilan qaytib kiradi, malikaga dardkashlik bildiradi. Murdani olib chiqadilar. Qotil hadyalar bilan malikaning ko'nglini olmoqchi bo'ladi. Malika boshda g'azab bilan uni rad etadi, lekin asta-sekin yumshaydi. Ular chiqishadi.

O f e l i y a

Bu nima degani, shahzoda?

H a m l e t

Tushunmadingizmi? Bu dog'uli ilon yoki qora kirdikor, degani.

O f e l i y a

Ehtimol, pantomimo ko'rilajak pyesaning mazmuni bildirar?

Boshlovchi kiradi.

H a m l e t

Hamma gapni mana shu yigitdan bilib olamiz. Aktyorlar sir saqlashmaydi, bor gapni aytib qo'yishadi.

O f e l i y a

U ko'rsatilgan narsaning ma'nosini izohlaydimi?

H a m l e t

Ha, nima ko'rsatsangiz, shuning ma'nosini izohlayveradi. Siz ko'rsatishdan uyalmasangiz bas, u tushuntirishdan tortinmaydi.

O f e l i y a

Sizga taraf yo'q. Men tomosha ko'rmoqchiman.

Boshlovchi

Biz bu tomosha uchun

Sizdan muruvvat so'rab,

Ta'zim bajo etgaymiz,

Toqat ila tinglangiz.

H a m l e t

Nima, bu, muqaddimami yoki uzuk ko'zidagi yozuvmi?

O f e l i y a

Darvoqe, qisqa ekan, milord.

H a m l e t

Xotinlarning muhabbatidek.

Ikki aktyor — qirol va malika kirishadi.

S a h n a d a g i q i r o l

Ko'nglimiz ishq, qo'limizni tangri Gimeney

Birlashtirib, bizni payvast etgandan buyon,

To'rt arg'umoq qo'shgan oltin aravasida

Tamom bahru ummonlarni, jumla dunyoni

O'ttiz karra kezib chiqdi xurshidi tobon.

Har karrada o'n ikki bor ko'rsatib chiroy,

O'ttiz karra kezib chiqdi yerimizni oy.

S a h n a d a g i m a l i k a

O, koshkiydi, oyu oftob balqib kunu tun,

Baxtimizni yana shuncha aylasa uzun!

Ammo menga alam qilar: yillar kecharkan,

Chehrangizni bir oz horg'in, so'lg'in ko'raman.

Biroq, do'stim, xavotirga o'rin yo'q sira,

Chehrangizga tashvish soya solmasin zarra.

Biz xotinlar, shunaqamiz, bilmaymiz me'yor,

Har bir gapni ko'pirtirish odatimiz bor.

Siz ishqimni bilasiz-ku, pinhon sirim yo'q,

Sevganda ham, qo'rqqanda ham ko'zlari yumuq.

Muhabbat zo'r yerda kichik gumon ham qo'rqinch,

Shubha-gumon o'sgan sayin ulg'ayadi ishq.

S a h n a d a g i q i r o l

Yaqinlashib kelar vido soati, jonim,

Kundan-kunga tugab borar kuchim-darmonim.

Ammo-lekin sen behisob davronlar osha,

Umr ko'rib, muhabbatu izzatda yasha,

Ehtimolki, boshqa bir er...

S a h n a d a g i m a l i k a

Qo'y, bekorchi gap,
Xiyonatga tengdir menga o'sha muhabbat.
Chaqmoq ursin ikkinchi bor er qilsam meni,
Birinchining qoni tutsin ikkinchi erni.

H a m l e t

(Chetga)

Achchiq, g'oyat achchiq gaplar!

S a h n a d a g i m a l i k a

Sevgi bilan kirmagaylar yangi nikohga,
Hisob-kitob va ochko'zlik tayanchdir unga.
Boshqa bilan bir yostiqqa bosh qo'yish, beshak
O'lgan erni yana bir bor o'ldirish demak.

S a h n a d a g i q i r o l

Ishonaman aytganlaring samimiy bari,
Lekin birdek tutolmasmiz mayl-rag'batni.
Ehtirosning mahsulidir ahd ila paymon.
Ammo o'sha olov bir kun so'nar begumon.
Butoqdagi meva rosa pishgandan keyin
Bir kun yerga shart uzilib tushmog'i tayin.
Yashash uchun qasamlarni unutish lozim,
Qasamlarki, shosha-pisha ichamiz doim.
Yolg'iz bitta rag'bat ila yashamaymiz, bas,
Almashinib turar bizda ishtiyoq, havas.
Alvon-alvon suvratida sevinch va qayg'u
Bir-birini sovuradi, suradi, yohu.
Sevinch degan ko'rinadi qayg'uga xira,
Qayg'uning ham sevinch bilan ishi yo'q sira.
Hamma narsa muvaqqatdir, foniyydir hayhot,
Qaydan yetsin muhabbatning umriga sabot?
Kim kimniki, buni hali yechmoq kerakdir,
Taqdirni ishq yuritarmi yo ishqni taqdir?

Yiqilganda — do'stlaring ham yuzni o'girar,
Yuksalganda — dushmanlaring do'st bo'lib turar...
Xo'sh, nimadir, ataymi yo tasodifmi bul,
Kimki do'stdan bezor esa, uning do'sti mo'l.
Do'stga muhtoj bo'lib, do'stni o'ylagan odam
Oxir dushman qilib qo'yar yolg'iz do'stni ham.
Boshlagandim, o'sha so'zga qaytaman yana
Dunyo degan — tunganmas bir tasodifxona.
Kerak payti bizning izmu ixtiyorda, bas.
Orzu qilar, istak qilar, mahsuli qolmas.
Siz ikkinchi er qilishdan etasiz hazar —
To birinchi bevalikka yetgunga qadar.

S a h n a d a g i m a l i k a

Yorug' olam ko'zlarimdan chekinsin tamom!
Harom bo'lsin menga orom-farog'at, harom!
Ko'zlarimni hasrat-alam pardasi tutsin!
Umrim faqat uqubatu uzlatda o'tsin!
Qora qyun bosib kelsin boshimga tikka,
Orzularu armonlarim sovursin ko'kka!
Balo peshvoz chiqsin har gal qo'yganda qadam —
Agarda men yana boshqa er qilar bo'lsam!

H a m l e t

Aldasa-chi?

S a h n a d a g i q i r o l

Qasaming zo'r bo'ldi. Jonim, endi bora qol,
Kunning tashvishlari bilan quridi majol,
Birpas yotib, orom olay.

Uxlaydi.

S a h n a d a g i m a l i k a

Uxla, ol rohat,
Umrimizdan yiroq bo'lsin ofat-falokat.

Ketadi.

H a m l e t

Malikam, pyesa sizga yoqdimi?

M a l i k a

Meningcha, xonim va'dani katta qildi.

H a m l e t

O, lekin u o'z va'dasida turadi.

Q i r o l

Siz pyesa mazmunidan xabardormisiz? Unda biror nojo'ya gap yo'qmi?

H a m l e t

Yo'q, yo'q. Hammasi hazil. Hattoki zaharlash ham. Nojo'ya narsa yo'q.

Q i r o l

Pyesaning nomi nima?

H a m l e t

"Qopqon". Ma'nosimi? Majoziy. Pyesa Venada yuz bergan qotillikni tasvirlaydi. Gersogning ismi – Gonzago. Xotini – Baptista. Hozir ko'rasiz. Bu qabih bir kirdikor. Lekin bizga nima? Siz oliy hazratlari bilan bizning vijdonimiz pok-pokiza ekan, bas, bizga aloqasi yo'q. Qirchang'i ot ketini qonatibdimi, jirtak otaversin. Bizning suyaklarmiz bus-butun.

Lusian kiradi.

Mana bu Lusian bo'ladi. Qirolning jiyani.

O f e l i y a

Siz xor o'rnini yaxshi bosayapsiz, milord.¹

¹ Shekspir davrida prolog o'quvchi yoki asar mazmunini qisqa bayon etuvchi "xor" rolini yolg'iz bir kishi ijro etgan.

H a m l e t

Men siz bilan xushtoringiz o'rtasida vositachi bo'la olardim, agar shu qo'g'irchoqlarni bir ko'ra olsam.

O f e l i y a

Balosiz, shahzodam, o'tkirsiz.

H a m l e t

Meni o'tmaslashtirish uchun bir oz dodlashingizga to'g'ri kelardi.

O f e l i y a

Zaharsiz, shahzodam, zaqqumsiz.

H a m l e t

Xuddi xotinlarning erga tegishidek. — Qani, boshla qotil! Voy, sen tasqarani qaray! Qiyshanglashni qo'yib, boshlay qol endi. Qani bo'l! "Qag'illagan qarg'a chorlar qasosga!"¹

Lustian

Qo'l qattiq, ruh qorong'u, og'u beomon,
Payt qulay, hech kimsa yo'q, ish bitar pinhon.
Oq, oqaver, oqaver, jazosini ber,
Hekata² ning mahrami bo'lgan, ey og'u!
Simirib jumla zahri ilon-chayonni,
Tomirlariga quykim, uzilsin joni!

Uyqudagi qirolning qulog'iga zahar quyadi.

H a m l e t

U toju taxtni egallash uchun uni bog'da zaharlaydi. Gersogning nomi Gonzago. Bu to'g'rida nafis italyan tilida

¹ Muallifi noma'lum "Richard III haqida haqiqiy fojia" asaridan bir misra. Unda jinoyatchi qirol kirdikori hikoya qilinadi (Bu yerda Hamlet Klavdiyga sha'ma qiladi).

² Qadimiy yunon mifologiyasida yovuz iloha, uni ajinalar malikasi deb bilishgan.

maxsus bir qissa ham bor. Endi-chi, qotil qanday qilib
Gonzago xotini sevgilisiga sazovor bo'lishini ko'rasiz.

O f e l i y a

Qirol o'rnidan turyapti.

H a m l e t

Ha, shaqildoqlardan cho'chidimi?

M a l i k a

A'lo hazratlariga ne bo'ldi?

P o l o n i y

Tomoshani to'xtating.

Q i r o l

Chiroq tuting. Tezroq tashqariga boshlang.

Hamma

Chiroq, chiroq, chiroq!

H a m l e t va H o r a t s i o dan bo'lak hamma ketadi.

H a m l e t

O'kiradi yarador ohu,

Qutulgani o'ynoqlar, yelar.

Unda — orom, bunda — qorovul;

Har kimsaga qismatdan kelar.

Xo'sh, taqsirim, bordi-yu, kelajak umidlarim meni tark
etib, turklarga ketib qolsa, boshimga bir quchoq par qadab,
kovushimga provans chechaklaridan taqib olsam, meni
aktyorlikka olisharmikin?!¹

H o r a t s i o

Yarim maoshga olishadi.

¹ Bu o'sha davr tragik aktyorlar kiyimining tashqi belgilari.

H a m l e t

Yo'q, to'liq maoshga.
Bilasizmi, azizim Damon¹,
Bu davlatni Yupiter beshak
Buzib ketdi, taxtida hamon
O'ltiribdi ahmoq bir eshshak.

H o r a t s i o

Siz qofiyalashga ham usta ekansiz.

H a m l e t

O, aziz Horastio! Arvohning har so'zi ming tilloga teng.
Payqadingmi?

H o r a t s i o

Payqaganda qandoq, shahzodam.

H a m l e t

Ayniqsa, zaharlash pallasida.

H o r a t s i o

Men undan ko'zimni sira uzmadim.

H a m l e t

Oh, oh! Shu tobda bir muzika eshitsak bo'lardi!
Mashshoqlar, qaydasiz?

Komediya qirolga yoqmadimi, bas,
Demak, u qirol uchun foydali emas.
Hey, muzika.

R o z e n k r a n s t v a G i l d e n s t e r n qaytib kirishadi.

G i l d e n s t e r n

Aziz shahzodam! Ikki og'iz so'z aytishga ijozat
etadilarmi?

¹ Antik afsona qahramoni, sadoatli do'st timsoli.

H a m l e t

Istasangiz, qissa ayting, taqsirim.

G i l d e n s t e r n

Qirol, taqsir...

H a m l e t

Xo'sh, taqsirim, unga nima qildi?

G i l d e n s t e r n

Qirol o'z xonasida, o'zini bag'oyat noxush his etmoqda.

H a m l e t

Sharobdanmi, taqsir!

G i l d e n s t e r n

Yo'q, taqsir, safrodan bo'lsa kerak.

H a m l e t

Taqsirim, buni qirolning tabibiga aytsangiz, joiz bo'lardi. Bordi-yu, men surgilarimni ishga solsam, safro butun badanga yoyilib ketadi, degan xavotirim bor.

G i l d e n s t e r n

Shafqatli shahzodam, so'zingizni tartibga solsangiz-u, menga yuklangan vazifa ustidan bunchalar kulmasangiz.

H a m l e t

Marhamat, taqsir. Butun jismim quloq.

G i l d e n s t e r n

Malikam, volidayi muhtaramingiz bag'oyat ranjixotir bo'lib, meni sizga yubordilar.

H a m l e t

Marhamat qilsinlar.

G i l d e n s t e r n

Yo'q, shafqatli shahzodam, hozir nazokatu nafasat paytimas. Agar menga tegishli javob bersangiz, volidangiz amrini bajo etgan bo'laman. Mabodo, yo'q, desangiz, uzru ma'zur aytaman-da, ketaveraman.

H a m l e t

Berolmayman, taqsir.

G i l d e n s t e r n

Nimani, milord?

H a m l e t

Sizga tegishli javobni. Miyam joyidamas. Lekin qanday javob bermayin, uni tartibga solib olish o'zingizga havola. Bas, kifoya. Endi ishga o'taylik. Xo'sh, aytganingizdek, onam...

R o z e n k r a n s t

Bo'lmasa, gap bundoq. Onangiz dedilarki, sizning fe'lu atvoringiz u kishini hayrat va iztirobga solmoqda.

H a m l e t

O, o'z onasini hayratga sololgan ajoyib o'g'il! O'sha hayratga biror jiddiyroq dalil ilashmaganmikin? Mana shu qiziq.

R o z e n k r a n s t

U kishi uyquga yotmasingizdan oldin o'z xonalarida siz bilan gaplashmoqchilar.

H a m l e t

Bosh ustiga, bir emas, o'n karra ona bo'lsalar ham buyruqlari bosh ustiga. Yana qanday xizmatlari bor?

R o z e n k r a n s t

Shahzodam, qachonlardir meni yaxshi ko'radingiz.

H a m l e t

(Qo'llarini ko'rsatib)

Mana shu kissavur panshaxalarga qasam ichamanki, hozir ham yaxshi ko'raman.

R o z e n k r a n s t

Shafqatli shahzodam! Betobligingiz boisi nima? Do'stingizdan sir tutib, najot yo'lini o'zingiz kesmoqdasiz.

H a m l e t

Menga balandroq bir amal kerak.

R o z e n k r a n s t

Nechuk, qirol sizni Daniya taxtiga valiahd deb e'lon etgan-ku?

H a m l e t

Ha, taqsir, biroq "Pichan unib-o'sguncha, ot ochidan o'lmasmi?" — degan naql bor.

Mashshoqlar nay ko'tarib kirishadi.

O, naylar! Qani bittasini bering-chi, bir chalib ko'ray. Hoy, nari turing. Nega hammangiz atrofiga o'ralashaverasiz, nima meni to'rga tushirmoqchimisizlar?

G i l d e n s t e r n

O, shahzodam, sizga yopishqoqligim — muhabbatim xurujidan.

H a m l e t

Jilla tushunmadim. Ha, mayli, menga bari bir. Mana, nay. Biror nima chalib bering.

G i l d e n s t e r n
Shahzodam, qo'limdan kelmaydi.

H a m l e t
Chala qoling, xo'p, deng endi.

G i l d e n s t e r n
Ishoning, qo'limdan kelmaydi.

H a m l e t
Axir, men sizdan o'tinaman.

G i l d e n s t e r n
Men buni qanday ushlashniyam bilmayman, axir.

H a m l e t
Bu yolg'on gapirishday oppa-oston. Teshiklariga barmog'ingizni bosib, og'zingiz bilan puflaysiz, xolos, alomat bir ohang yangrayveradi. Mana bu — pardalari.

G i l d e n s t e r n
Men ularni bosolmayman. Bari bir, hech narsa chiqmaydi, o'rganmaganman.

H a m l e t
Bas, meni qanday loyga qorishtirganingizni bir ko'rib qo'ying! Siz meni o'z maqomingizga solib, chalmoqchi bo'lasiz. Mening pardalarimni bosaman, deb o'ylaysiz, asrorim ohangini sitib chiqarishga ishonchingiz komil. Barcha past-baland pardalarim sizga go'yo besh panjaday ayon... Mana shu mo'jaz narsani ataylab cholg'u qilib yasashgan, nafis sadosi bor, lekin zo'rlab tilga kiritolmaysiz. Nahotki, men shu naydan ham battar bo'lsam? Meni cholg'u deb atashingiz, buzishingiz mumkin, lekin chalolmaysiz.

P o l o n i y qaytib kiradi.
Xudo xayringizni bersin, taqsim.

P o l o n i y

Milord, malika siz bilan hoziroq gaplashishni istaydilar.

H a m l e t

Tuya shaklidagi anavi bulutni ko'ryapsizmi?

P o l o n i y

Xudo haqi, ko'ryapman, xuddi tuyaning o'zi.

H a m l e t

Meningcha, sassiq kuzanga o'xshaydi.

P o l o n i y

Orqasi sassiq kuzanning baayni o'zi.

H a m l e t

Kitga o'xshamaydimi?

P o l o n i y

Xuddi kitga o'xshaydi.

H a m l e t

Xo'p, men hoziroq onam huzuriga boraman. (*Chetga*)
Bular meni aqldan ozdirishmoqchi. Men hoziroq boraman.

P o l o n i y

Shundoq deb aytaman.

H a m l e t

"Hoziroq" deb aytish oson. Meni xoli qo'ying, jo'ralar.
H a m l e t dan bo'lak hamma ketadi.
Hozir xuddi tungi afsun — jodu fursati,
Qabr yoriladi, og'u purkar jahannam.
Hozir tayyordirman hatto qon ichmoqqa ham
Ne-ne razolatga yana hozirman bu dam.

Kunduz jur'at etolmasdim boqishga balki;
Xullas, bizni huzuriga chorlar onamiz,
Yurak, qabohatingni qo'y! Ne bo'lganda ham,
Yovuz Neron ruhini sen ko'ksimga solma,¹
Beshafqat qil meni, lekin yovuz aylama;
Yo'q, tig' ishlatmasman, lekin tig'siz so'yarman.
Tilim, ruhim, mug'ombirlik qilgaysiz endi:
So'zim qancha yog'dirmasin ta'na-malomat,
Ruhim, uni qabul etma, sobit tur faqat!

Ketadi.

3-sahna

Qasrda bir xona.

Q i r o l, R o z e n k r a n s t v a G i l d e n s t e r n kiradilar.

Q i r o l

Uni xush ko'rmayman, uning jinniligiga
Bardosh berib, papalashga yo'q menda toqat.
Farmoyishga imzo chekib, Angliyaga
Jo'naturmiz sizni unga aylab rafoqat.
Axir ko'tarmagay bizning rutbai oliy
Tasodiflar ortimizdan yursa izma-iz —
Devonalik niqobida.

G i l d e n s t e r n

Yo'lga tushgaymiz.
Bu — o'z ildizi-la g'oyat qutlug' bir tadbir,
Bu — onhazrat soyasida nafas olguvchi
Minglab fuqaroga yalpi mehribonlikdir.

R o z e n k r a n s t

Tangri ato etgan aqlu zakovat bilan
Falokatdan o'zni asrash bizga farzi ayn.

¹ Neron, milodiy I asrda yashagan Rim imperatori, zolimligi bilan mashhur bo'lgan, o'z onasini o'ldirgan.

Shundoq ekan, ayon gap-ku, ko'pning hayoti —
Bog'liq bo'lgan zotga qancha zarur ehtiyot.
Oddiy o'lim emas axir shohning vafoti.
U ko'plarni olib ketar adamga, hayhot,
U jar yoqasida turgan g'ildirakdirki,
Oz emasdir kegaylari bilan tishlari,
Ag'darilsa, yakson bo'lur, sochilur bari.
Hukmdorning yuragidan oh ucharkan bot —
Xaloyiqning yuragidan yuksalur faryod.

Q i r o l

Xo'p, marhamat qilib, tezda yo'lga tushingiz.
O'z erkicha yurgan balo-ofatga endi
Kishan solish payti yetdi.

Rozenkarnst va G i l d e n s t e r n
Yo'lga tushamiz.

R o z e n k r a n s t v a G i l d e n s t e r n ketishadi.
P o l o n i y kiradi.

P o l o n i y

U onasi tomon o'tdi. Eshitmoqchiman —
Uning so'zlarini gilam ortida turib.
O'ylaymanki, onasidan ta'zirin yeydi.
Lekin sizning so'zingiz haq: ona bokaram,
Ona rahmdildir, ziyon etmasa kerak
Birov chetdan eshitsa-yu, kuzatib tursa,
Ketayapman hukmdorim, hozircha xayr,
Yangi ma'lumotlar bilan uyqu oldidan
Yana sizga yo'liqaman.

Q i r o l

Do'stim, tashakkur.

Meni bo'g'ar qabohatim qo'lansa dudi,
 Manglayimda qadim kufru malomat muhri:
 Birodarkushligim! Yonib-o'rtanib faqat,
 Talpinaman, etolmayman lekin ibodat.
 Bilamanki, bu gunohni kechirib bo'lmas,
 Xunobdirman, bilolmayman qaydan boshlashim,
 Shundoq ma'shum arosatda yashashdir ishim.
 Magar boshdan-oyoq og'am qoniga botsam,
 O'shanda ham qonga botgan shu qo'llarimni
 Qodirmasmi yuvib, shaffof aylasa falak?
 Ne qilardi yovuzliksiz ezgulik zoti,
 Zulm bo'lmas ekan, shafqat nimaga kerak?
 Biz ibodat etarmiz, to safolat qadar —
 Qulamaylik, bizni qo'lla, kushod ayla, deb,
 Yo safolat cho'nqiridan ozod ayla deb.
 O'ksinishga hali erta. Boshingni ko'tar!
 Men yiqildim, turmoq uchun yiqildim, ammo,
 Xo'sh, bu yerda joiz turur nechuk tavallo.
 "Qotilligim ma'zur ayla..." desammi ekan,
 Yo'q, bu sira mumkin emas, sira, mutlaqo.
 Qaytarmadim, axir, olgan o'ljalirimni,
 Qotil bo'lib olganman-ku, axir ularni,
 Qo'limdadir toju taxtu mulku malika.
 Najot bormi osiy bo'lib turgan kimsaga?
 Oz emasdir bizda rosti shum jinoyatchi,
 Oltin taqqan barmog'i-la dag'dag'a qilar.
 Uning qonlar to'kib, yiqqan molu davlati
 Jazoga chap bermoqqa bir vosita bo'lar,
 Yo'q, bu falak dargohiga o'xshamaydi hech,
 Unda bizning kirdikorlar yotar yalang'och.
 Biz yuzma-yuz turib qilmish-kirdikor bilan
 Javob berajakmiz unda. Ammo, ne iloj?
 Nima qildim? Magar tavba-tazarru etay?
 Deydilarki, ijobatdir tavbaning kuchi,
 Lekin tavba yo'li tamom yopiq bo'lsa-chi?

Azob, azob! O'lim yanglig' yuragim qora.
Ruhim loyga botib borar, cho'kib tobora!
Farishtalar, imdod eting! Tizzalarim, tez
Bukilingiz! Yurakdagi qo'rg'oshinim, sen,
Chaqaloqning paylaridek mayin tortgaysan!
Yo tavakkal!
Ichkariroq yurib, tiz cho'kadi. H a m l e t kiradi.

H a m l e t

U ibodat etayotir. Paytidir, ana,
Bir zarb ursam, ruhi ko'kka bo'lur ravona.
Qasos qoyim bo'lur. To'xta, o'ylagin bir dam,
Padarimdan judo etdi meni muttaham.
Buning uchun jannat sari yo'l olsunmi u,
Axir qodir qasos emas, mukofot-ku bu.
Otam sho'rlik qorni shishib bergan edi jon,
Zahar-zaqqumlardan xuddi xamirdek ko'pchib.
Kim biladi, nelar kutar uni buning-chun?
Ne bo'lsa ham mushkul bo'lur, bo'lmagay oson.
Qasosmi bu, qotil jonni bersa jabborga
Sajda chog'i, gunohlardan forig' bir mahal,
Olis yo'lga hozir-nozir turar ekan?
Yo'q!
Qayt shamshirim, dahshatli bir fursatga qadar.
Yo jahлга mingan yoki mast-alast chog'i,
Uyquda yo harom huzur, ishrat qo'ynida,
Yoki jazavasi qo'zib, quturgan asno,
Xullas, ko'kda najot yo'li bekilgan palla
Oyog'ini keltirarsan osmondan xuddi.
To umbaloq oshib, jurmi-savdosi toshib,
Qulab tushsin jahannamning qora qa'riga.
Onam chaqiribdi... Bu ham senga bir imkon,
Balki doru bo'lur, lekin bo'lmagay darmon.

Ketadi.

Q i r o l
(O'rnidan qo'zg'alib)

So'zlar baland parvoz etar, tuyg'u ketar past,
Tuyg'ularsiz so'zni osmon qabul aylamas...

Ketadi.

4-sahna

M a l i k a xonasi. M a l i k a va P o l o n i y kiradilar.

P o l o n i y

U siz tomon kelayotir. Ogohlantiring:
O'zni tiyib, qilmishlarga xotima bersin.
Ayting, qalqon bo'lib, uni joiz jazodan
Olib qolganingizni. Men burchakda turgum.
Ha, siquvga oling uni.

H a m l e t
(Sahna ortidan)

Ona! Onajon!

M a l i k a

Siz cho'chimang va bermalol menga ishoning,
U kelmoqda magar. Tezroq bekinib oling.
P o l o n i y o'zini devorga osig'liq gilam orqasiga oladi.
H a m l e t kiradi.

H a m l e t

Xo'sh, onajon, menga nechuk xizmatangiz bor?

M a l i k a

Sen otangni nega tahqir etasan, Hamlet?

H a m l e t

Siz otamni nega tahqir etdingiz, onam?

M a l i k a

Sen men bilan bir avomdek gaplashmoqdasan?

H a m l e t

Siz-chi, savol bermoqdasiz munofiqona.

M a l i k a

Bu nimasi, Hamlet?

H a m l e t

Ayting, sizga ne darkor?

M a l i k a

Eslaysanmi, kimman?

H a m l e t

Xudo haqqi, eslayman.

Malikasiz, o'z erining ukasiga yor,
Nadomatlar bo'lsin, menga onasiz yana.

M a l i k a

Bas, boshqalar gapirishsin endi sen bilan.

H a m l e t

Qimirlamang. O'tiring. Men sizni qo'ymasman.
Onajon, deb yuzingizga tutarman ko'zgu —
Kori-boringizni sizga ayon etar u.

M a l i k a

Nima qilmoqchisan! Meni o'ldirmoqchi u!
Hoy, yordam beringlar! Yordam!

P o l o n i y

(Gilam orqasidan)

Yordam beringlar!

H a m l e t

(Qilichini yalang'ochlab)

Bu nimasi? Kalamushmi? O'lganing afzal!

(Gilamga qilich tiqadi.)

P o l o n i y

(Gilam ortidan)

Oh, o'ldim!

(Yiqilib o'ladi.)

M a l i k a

Voy, Xudoyim-ey! Ne qilib qo'yding!

H a m l e t

Kimligini bilmadim men: qirolmidi u?

M a l i k a

Bir mislsiz qabohatdir hozir qilganing!

H a m l e t

Bu — qirolni makr ila o'ldirishdan va
Qayni bilan topishishdan ortiqmas, xonim.

M a l i k a

A, qirolni o'ldirishdan?

H a m l e t

Ha, xonim, shundoq.

(Gilamni yulqib, Poloniyga ko'zi tushadi.)

Alvido, ey chopqillagan, telba, jonsarak!

Seni adashtiribman-ku — mana nadomat.

Ko'rayapsan, hovliqishning oxiri yomon.

Siz o'ltiring. Qayg'u chekib, qaqshamang muncha.

Zero, qaqshatarman hali yuragingizni.

Mabodo u hamon urib turgan bo'lsa-yu

Qabih mashqu malakalar so'nggida yana

Tosh qotmagan, jezdan niqob kiymagan bo'lsa.

M a l i k a

Xo'sh, men nima qilibmanki, sen menga bu qadar
Qo'rs va qo'pol gapirasan?

H a m l e t

Qilmishlaringiz

Axloq, uyat, diyonatni yerga uradi,
Haqiqatni sharmandayu sharmisor aylab,
Ma'sum muhabbatning oppoq peshonasiga
Toshma bo'lib toshadi-yu, shundoq turadi.
Va muqaddas nikoh ahdi paymonlarini
Qimorbozning savdosiga aylantiradi.
Siz shundoq bir kirdikorlar etdingizki, to
Bekor bo'lib qoldi butkul va'dayu vafo.
Shariatning rasm-rusumi xuddi bir ermak,
Qilmishingiz ko'rib hatto qizarar falak.
Ko'k gumbazi boqib sizga, xo'mraya boshlar,
Go'yo qora qiyomat kun, go'yoki mahshar...

M a l i k a

Shuncha daromaddan keyin, mumkinmi bilsak,
Gapning asl indalloosi nimadir beshak?

H a m l e t

Mana, sizga ikki suvrat: mana va mana.
Qo'sh suvratda turar og'a-ini siymosi.
Qarang, qancha jozibalar jamdir birida.
Zevs manglayidek xuddi manglayi ochiq.
Sochi Apollonning barra sochidek quyuq.
Marsning nazaridek uning nigohi mag'rur.
Turishida bulut osha tuproqqa tushgan
Elchi Merkuriyning so'nmas salobati bor.
Fazilatlar mujassami, har nuqtasida
Ilohiylik muhabbati, muhri oshikor.
Bu — birinchi eringizdir. Mana bu esa —

Ikkinchisi. Kasal tekkan boshogga o'xshar —
Toza boshog yonida. Hoy, ko'zingiz qayda?
O'sha yuksak yaylovdan shu sassiq alafga
Qanday qilib tusholdingiz? Ko'zingiz qayda?
Sevgi demang. Sizning yoshda bo'ron bilanmas,
Kalla bilan yashagaylar. Aytingiz o'sha —
Tafovutni taniydigan kalla qayoqda?
Hisdan mahrum emasdirez, bo'lmasa-chi, siz —
Qimir etmasdirez. Demak, tuyg'ungiz falaj.
Savdoyi ham bundoq xato etmasdi ayanch.
Bundoq tafovutning asl, chin ma'nosini
Alahsirab yotganda ham bilsa bo'lardi.
Bas, qaysi bir iblis sizni kuppa-kunduzi
Yo'ldan ozdirdi-yu, shundoq ko'ylarga soldi?
Ko'zlari ko'r, quloqlari kar bo'lganda ham
Shuuriga bir ozgina suyangan odam
Bundoq adashmasdi, bo'yla qo'ymasdi qadam.
Hey, qaydasan, qayoqadasan, nomus va hayo?
Hey, vasvasa shayton, sening kuching, qudrating
Bevaniki shundoq turfa o'yinga solsa,
Qanday qilib yengsin qizlik taftini ibo?
Qo'ying, shamdek eriyversin. Olovning zo'ri
Tanda xuruj etsa — isnod, malomat emas.
Toki muz ham yonar ekan va toki idrok
Irodani qayirarkan...

M a l i k a

Hamlet, bo'ldi, bas!
Sen ko'zimning qarog'ini ko'nglimga burding,
Unda ko'ringani yolg'iz qop-qora dog'lar,
Yuvib bo'lmas dog'lar.

H a m l e t

Iflos to'shakka yotib,
Jirkanch fahshi farog'atning teriga botib,
Nahsga botib, o'pishishlar...

M a l i k a

Hamlet, rahm qil!

Har bir so'zing menga xuddi xanjar tig'idir,
Qulog'imni teshayotir...

H a m l e t

Yana kim bilan —

Qotil bilan, hayvon bilan, bir murtad bilan.

Padarimning tirnog'iga arzimaydigan

Qirol kiyimini kiygan qo'g'irchoq bilan,

Saltanatga chovut solgan qaroqchi bilan.

Tojni tokchada ko'riboq, qo'ltiqqa urgan,

Uni etak ostida so'ng o'g'irlab chiqqan —

O'g'ri bilan.

M a l i k a

Ayasang-chi!

H a m l e t

Bir olchoq bilan!

A r v o h kiradi.

Menga panoh bo'ling osmon farishtalari!

Oliy hazratlari, ayting, sizga ne darkor?

M a l i k a

Evoh, uning tutqanog'i tutdi!

H a m l e t

Ehtimol

Koyigani kelgandirsiz yalqov o'g'ilni,

Kunlar o'tib borar, qo'rqinch farmonigizni

U orqaga surib, hamon aylamas bajo?

O, gapiring!

A r v o h

Maqsad — sening miltirab turgan
Azmu qaroringni yana yoqishdir, illo.
Ammo hozir onangga boq!U xuddi qoqshol.
Uni xalos ayla bundoq qo'rquv-vahimdan.
Ojiz ruhlar bo'lur qo'rquv-vahim qurboni.
Unga biror narsa degil.

H a m l e t

Ne bo'ldi, xonim?

M a l i k a

Hay, o'zingga nima qildi? Bo'shliqqa boqib,
Nimalarni so'zlashasan bo'sh havo bilan?
Ko'zlaringni ola-kula chaqchaytirasan.
Nogahonda uyqu ichra eshitib farmon,
Sakrab turgan soqchilardek, sochlaring tikka.
Bolaginam, o'zingni sen qo'lga olgaysan,
Bosiq bo'lib, ko'zlaringga ko'ringan nima?

H a m l e t

Ana u-chi, ana u! Ha, qarang, u oppoq!
Uning sarguzashti, uning rangpar chehrasi
Hatto toshni eritadi. Yuzingni o'gir.
Yuragimni parchalaydi nigohing sening.
Senga boqsam holsizlanar yuragim mening,
Qon o'rniga yosh to'kmoqqa shaylanar xuddi.

M a l i k a

Hay, kim bilan gaplashasan?

H a m l e t

Qarang, ajabo,
Anuv yoqda siz hech nima ko'rmayapsizmi?

M a l i k a

Yo'q, hech narsa. Ko'rmoqdaman borini faqat.

H a m l e t

Eshitmaysiz?

M a l i k a

Eshitganim faqat ovozim.

H a m l e t

Ana o'zi, turibdi-ku! U yoqqa qarang,
Qarang, xuddi tirigiday turibdi otam.
Sirg'alancha eshik tomon yurmoqdadir u,
Ko'rdingizmi?

M a l i k a

Xasta ruhning samarasi bu
Arvohlarni ko'rsatishga mohir jazava!

H a m l e t

Jazavamish! Tomiringiz kabi tomirim
Urmoqdadir har zarbasi aniq va bardam.
So'zlarimda ma'no tayin, robita mahkam,
Istasangiz, so'rang, boshdan aytib berayin.
Jinni bundoq qilolmagay. Siz topgan malham
Behudadir, uloqtiring. O'ylamang illat —
Qilmishingizdamas, mening kasalimda, deb.
Bundoq malham chandiq etar yarani faqat,
Lekin yiring ado qilur ichdan yemirib.
Tavba qiling, qilmishlarga eting tazarru.
Bundan keyin hazir bo'ling, gunohga botmang.
Yomon o'tni ildizidan yulib oturlar,
Haq so'zlarim uchun sizdan so'rayman afu.
Xuddi bizning zamonada sohib fazilat
Illat egasiga aylab karam, inoyat,
Yana undan uzri ma'zur so'raganiday.

M a l i k a

Hamlet, qalbim qoq ikkiga bo'linar xuddi.

H a m l e t

Yaxshi bo'lagini asrab — e'zozlash uchun
Yomon bo'lagini oting, voz keching butun.
Xayrli tun. Amakimga bormangiz endi.
Ne qilsa ham, o'zni sohib vijdonday tuting.
Odat — jonli his-tuyg'uning dushmanidir, bas,
Lekin ba'zan do'stligi bor, dushmanligimas.
Yangi to'ndek kiyib axloq qoidasini,
Biz yaxshilik niqobida yurarkanmiz bot,
Turgan gapki, yaxshilikka eturmiz odat.
Bugun o'zni tutolsangiz, ertaga oson,
Tun o'tarkan, oson bo'lur yana begumon.
Takror degan har narsani o'zgartiradi,
Belgilarni nari urib, beri suradi.
Yana bir bor, xayrli tun. Ha, mabodo, siz
Chindan tavba-tavfiq yo'lin tutar ekansiz,
Meni ham bir duo qiling. Ammo bunga-chi.

(Poloniyni ko'rsatib)

Bunga chindan achinaman, chekib nadomat;
Ammo iloj qancha, shuni buyurmish qismat.
Uni menga, meni unga qayragan o'sha,
Unga jallod qilib meni shaylagan o'sha.
Men murdani olib chiqib, to'kilgan qonning
Javobini mas'ul turib aytaman albat.
Yana bir bor, xayrli tun! Meni kechiring,
Shafqat yuzasidan bir oz bo'ldim beshafqat.
Balo keldi, yangisiga shaylanib turing,
Yana bir gap.

M a l i k a

Endi nima qilishim kerak?

H a m l e t

Ne qilsangiz qiling, faqat aytganimnimas.
Boring, irganch qirol yana to'shakka tortsin,
Yonog'ingiz tuting, silab-siypasin sarmast.
O'pichlari bilan sizni bo'g'arkan xuddi,
Mehri karamingiz toshib, siz aytingizki,
Men aqldan ozganmasman, o'zimni-o'zim
Jinnilikka solgandirman. Shundoq deb ayting.
Malikai mohitobon bo'lib bevafo,
Shundoq maxluq, shundoq mushuk, shundoq baqadan
Sir saqlashi joizmikin?! Joizmas aslo.
Siz jo'rttaga, masaldagi maymunga o'xshab.
Qush qafasin olib, uyning tomiga chiqing.
O'sha yerdan qushchalarni bir-bir uchiring,
Keyin o'zni pastga oting, ne bo'larkan, deb.
Ha, balanddan uchgan qushga taqlid etaroq,
Uchaman, deb bo'yningizni sindiring shundoq.

M a l i k a

So'zda — nafas, nafasda — jon jo ekan, ishon,
Xo'rsinmasman, to bo'g'ilib o'lsam ham mayli,
Ammo sening asroringni sotmasman.

H a m l e t

Meni
Angliya jo'naturalar, eshitdingizmi?

M a l i k a

Ha, afsuski, unutibman. Bu masala hal.

H a m l e t

Yorliq yozilmoqda. Ikki maktabdosh do'stim,
Sadoqatda — ikki qora ilondan battar,
Maxsus maktub ila ravon eturlar yo'lim,
Meni to'ru tuzoq sari boshlab borurlar,

Ha, mayliga. Uchirmoqni o'ylagan kimsa,
Ajab emas, o'zi birdan havoga uchsa.
Men qaziyman oyoqlari ostini shundoq,
Ki muqarrar qulataman, etaman tuproq.
Ha, tomosha bo'lur deyman unda chindanam
Ahmoq qiluvchilar o'zi bo'larkan ahmoq!
Avvalboshi, manavini ko'zdan daf etay,
Ichak-uvadasin sudrab, dahlizga eltay.
Xo'p, onajon, xayrli tun. Bu maslahatchi
Endi anchayuvoshlanib, sipo tortibdi;
Tirigida qarg'adan ham qag'ildoq edi,
Xo'p, taqsirim, endi sizni o'ylamoq lozim.
Xayrli tun, onajonim.

Ikki yoqqa ketadi. Hamlet Poloniyning
jasadini sudrab chiqadi.

TO'RTINCHI PARDA

1-sahna

Qasrda bir xona.

Qirol, Malika, Rozenkranst va
Gildenstern kiradilar.

Qirol

Nimalar bor bu nihoniy xo'rsinishlarda,
Magar mumkin emasmidir etsangiz oshkor?
Hamlet qani?

Malika

Bizni xoli qo'ying, janoblar.

Rozenkranst va Gildenstern ketishadi.
Shohim, nelar bo'lganini bilsangiz edi!

Qirol

Nima bo'ldi, Gertruda? Hamlet qayoqda?

M a l i k a

Shamol bilan talashgan bo'z to'liqlar kabi
Shiddatlanib yugurmoqda, hayqirmoqda u.
Jazavasi tutgan mahal gilam ortidan
Sharpa eshitdi-yu, birdan unga otildi.
"Kalamush!" deb qichqirgancha, chiqarib qilich,
Pistirmada turgan cholni qonga botirdi,
Bir zarb ila ado qildi.

Q i r o l

Yo'g'-ey, nahotki!
Biz ham qutulmasdik, unda bo'lsaydik agar,
Uning erku ixtiyorda yurishi — xatar
Ham siz uchun, ham biz uchun, har kimsa uchun.
Xo'sh, bu qotillikning endi javobgari kim?
Kim bo'lardi, hayhot, bunga o'zim javobgar.
Cholga panoh bo'lib, uni chetga olmadim.
Hammasiga bois — bizning sevgi-muhabbat,
Bizni tadbir-farosatdan ayirgan o'sha.
Oilamiz uchun ofat-falokat bo'lgan
Sharmandali kasallikni yashirdik nega?
Uni oshkor aylamadik, ichga haydadik.
Mana, nima bo'ldi? Hozir qayga ketdi u?

M a l i k a

U murdani ko'targancha ketdi bir yoqqa,
Tuproq ichra yaraqlagan oltinga o'xshab,
Ruhi birdan ravshan tortdi qabohat osha,
U qilmishi uchun yig'lab, nadomat chekar.

Q i r o l

Ketdik, Gertruda! Quyosh ko'tarmasdan bosh,
Hamlet suzib ketar bundan, kemaga tushib.
Bu baloni xaspo'shlaymiz bir balo qilib,
Boshqa nima iloj axir. — Gildenstern!

H a m l e t

Jasad qirolida, ammo qirol jasadda emas. Qirol shunday narsaki...

G i l d e n s t e r n

Narsa, deysizmi, shahzodam?

H a m l e t

Hech narsa. Qani, boshlang meni uning huzuriga. Sichqon o'raga tushdi – guldur-gup...

Ketadilar.

3-sahna

Qasrda boshqa bir xona.

Q i r o l xos mahramlari bilan kiradi.

Q i r o l

Uni topib kelmoq uchun kishi yubordim,
Jasadni ham topingiz, deb ayladim farmon.
Erkin yurar ekan, qarang, qanday xavfli u,
Lekin qattiq jazolab ham bo'lmas begumon,
Avom unga ixlosmanddir, bilasiz, mardum
Aqli emas, ko'zi bilan chiqarar hukm.
Jazo ko'rgan joyda sharhi savol aylamas,
Bu nechun deb. Silliqqina bitsin uchun, bas,
Bu safarni kelishilgan, muqarrar bo'lgan
Xizmat yuzasidan ish deb tasvirlagaysiz.
Og'ir xastalarga o'tkir dorilar joiz.

R o z e n k r a n s t kiradi.

Xo'sh, nima gap? Topildimi, topoldingizmi?

R o z e n k r a n s t

Yo'q, podshohim, jasadni hech topolmayapmiz.

Q i r o l

O'zi qayda?

R o z e n k r a n s t

O'zi eshik ortida, shohim.

U nazorat ostidadir, amringizga shay.

Q i r o l

Xo'p, bo'lmasa, olib kiring.

R o z e n k r a n s t

Gildenstern,

Shahzodani olib kiring.

H a m l e t va G i l d e n s t e r n kiradilar.

Q i r o l

Xo'sh, Hamlet, Poloniy qayda?

H a m l e t

Ziyofatda.

Q i r o l

Ziyofatda? Nechuk ziyofatda?

H a m l e t

U shundoq bir ziyofatki, shohim, unda u emas uning o'zini yeyishadi. Hozir, hoynahoy, qurt-qumursqalarning butun bir galasi uni o'rtaga olib, talash-talash qilib yotishgandir. Jahondagi jamiki amaldorlarning podshosi, men sizga aytsam, qurtu qumursqa bo'ladi. Biz o'zimizni boqish uchun ne-ne jonivorlarni yeymiz, lekin alal-oqibat boquvdagi tanimiz bilan o'zimiz qurtlarga yem bo'lamiz. Baqaloq shohmi yoki qiltiriq gado — bari bir, bu — bitta dasturxonga tortilgan ikki xil taomdek gap, ya'ni, oqibat bitta.

Q i r o l

Hayhot! Hayhot!

H a m l e t

Qirolni yegan qurt bilan baliq tutding nima-yu, yoki qurtni yegan baliqni tutib, tanovul qilding nima.

Q i r o l

Bu bilan nima demoqchi bo'lasan?

H a m l e t

Hech narsa, faqat podsho degan gadoning ichaklarida ham sayr eta oladi, demoqchiman, xolos.

Q i r o l

Poloniy qayda?

H a m l e t

Arshi a'loda. Ishonmasangiz, chopar yuboring, ko'rib kelsin. Mabodo u yerda topilmasa, o'zingiz boshqa joyni izlab qarang. Bordi-yu, bir oygacha topilmas ekan, uni dahlizga kiraverishda dimog'ingiz bilan iskab, topa olasiz.

Q i r o l

(Xos mahramlardan biriga)
Aytgan joyini qarab ko'ring.

H a m l e t

U tashrifingizga muntazir.
Xos mahramlar chiqishadi.

Q i r o l

Ko'p nojo'ya bo'ldi qonli qilmishing, Hamlet.
Seni omon saqlamoqni aylab muddao,
Joiz ko'rdik zudlik bilan jo'natishni to,
Shu ondayoq ravona bo'l, darhol jo'nab ket,
Kema tayyor, esayotir yo'lchi shamollar,
Jamoat jam, safar uchun hamma narsa shay
Angliya tomon tezda suzib ketmoqqa.

Hamlet

Angliyagami?

Qiro l

Shundoq, Angliyaga.

Hamlet

Bu juda soz.

Qiro l

Balli, bilding niyatimizni.

Hamlet

Men niyatingizni ilg'agan farishtalarni ko'rib turibman.
Bo'pti, Angliyaga bo'lsa, Angliyaga! — Xayr, aziz onajonim!

Qiro l

Balki, aziz otajonim, demoqchidirsan, Hamlet?

Hamlet

Yo'q — onajonim. Er-xotin — ota-ona, ota-ona — bitta
tana, demak, haligidek: xayr, onajonim. Demak, Angliyaga!
Ketadi.

Qiro l

Quvib yeting. Tutib darrov kemaga torting,
To qolmasin bunda uning izi ham hatto.
Xayr. Xatda hamma gapni etganmiz insho.
Rasmiyatlar bari bajo. Qani, shoshiling!

Rozenkranstva Gildenstern ketishadi.

Ey sen, Angliya, mening muhabbatimni
Qadrlasang, baland esa so'zimning qadri,
O'sha mening shiddatimdek zo'r esa hali,
Hali Daniyaning o'tli shamshiri solgan
Jarohating yonib, shundoq tavoze bilan

Xiroj to'larkansan, chetlab o'tarman, dema
Senga yozgan farmonimning bir harfini ham...
Ha, yashirin duchor etgil, deya o'linga.
Men Hamletni farmon bilan berdim qo'lingga,
Bajo ayla, Angliya! Isitma kabi,
Qonlarimni yoqib, meni kuydirmoqqa, bas,
Bu ofatdan, falokatdan xalos et meni,
Busiz hayot hayot emas, kunim kun emas.
Ketadi.

4-sahna

Daniyada bir yalanglik.

Fortinbras, kapitan va askarlar kirishadi.

Fortinbras

Daniyaning qiroliga yo'llayman sizni,
Kapitan, to yetkazgaysiz, bitimga ko'ra,
Yurtingizdan o'tayotir Fortinbras, deb.
Yig'in joyi sizga ma'lum. Ha, aytib qo'ying,
Agar bizga tushar ekan ehtiyoji-kor,
Biz birinchi chorlovdayoq xizmatga tayyor.

Kapitan

Yetkazaman, milord.

Fortinbras

Qani, qo'shinim, olg'a!

Fortinbras askarlari bilan ketadi. Hamlet,
Rozenkranst, Gildenstern va boshqalar kirishadi.

Hamlet

Bular — kimning qo'shinlari?

Kapitan

Norveg lashkari.

H a m l e t

Yurish qayga?

K a p i t a n

Polshaga.

H a m l e t

Sarkardangiz kim?

K a p i t a n

Shahzodamiz Fortinbras, qirol jiyani.

H a m l e t

Sizning yurish sarhadgami yo ichkariga?

K a p i t a n

Gapning rosti, yurishimiz arzimaydirgan,
Tarovatsiz va unumsiz parcha yer uchun;
Yer nimasi, yer degani nomiga xolos.
Agar menga qolsa, uning ijarasiga
Hattoki besh tangani ham ravo ko'rmasdim.
Norvegiya bilan Polsha sotuvga qo'ysa,
Oladigan xaridor ham topilmas balkim.

H a m l e t

Xo'sh, polyaklar nechun uni himoya qilar?

K a p i t a n

O, u yoqqa katta qo'shin tortishgan ular.

H a m l e t

Ikki ming jon, boz ustiga, o'n minglab mablag'
Sovriladi unda, afsus bir bog' poxol deb.
Ba'zida-chi, soppa-sog'lom yurgan insonlar.
Ichki illat bilan shundoq ado bo'lishar.
Xo'p, tashakkur, taqsir!

K a p i t a n

Tangri asrasin sizni.

Ketadi.

R o z e n k r a n s t

Marhamatli, milord, yo'lga tushaylik endi.

H a m l e t

Boravering. Ortingizdan yetib olaman.

H a m l e t dan bo'lak hamma ketadi.

Hamma narsa gumonimga dalil va kafil,

Hamma narsa qasos, deya qistaydi. Ammo,

Kun o'tarkan, yolg'iz ishing, yolg'iz xohishing —

Uyqu bilan ovqat esa, bahoying nima?

Bahoying shu: hayvondirsan, odam emassan.

Zero, bizga aql ato etgan Xudovand,

O'tmish bilan istiqboldan tushuncha berib,

Bizning shuur, shu nodiru noyob tafakkur

Behudaga chirisin, deb ato etmagan.

Bas, asosiy ayb nimadir, illat qayonda?

Hayvon faromushligimi yoki insonning

Ikir-chikirgacha bo'lgan maydakashligi?

Har narsani mayda tahlil qilib qarashi —

Buning chorak qismi — fikr, qolgani qo'rquv,

Yo'qsa, nechun qasos, deya takrorlab nuqul

Imillayman, qasosimni ortga suraman,

Kuch, iroda, haq bahona tayin-ku menda?

Ahvolimning shu betayin qiyofasini

Hamma narsa ta'kidlaydi. Masalan, mana,

Norveg qo'shinlari o'tdi tantiq, erkatoiy,

Kibrli bir shahzodaning qo'li ostida.

U shuhratga oshiqadi, shuhrat deb hatto

Maydon sari, o'lim sari boradi tikka.

U xursanddir shu ishni deb jonini tiksa,

O'sha ishi bir chaqaga arzimas ammo,

Mardi maydon ulkim, qadam qo'ymas besabab.

Ammo nomus-or yo'lida jang maydoniga
Tushar sariq somonni deb tarafma-taraf.
Otam o'ldirildi, evoh, onam bulg'andi.
Yuragimda g'azab qaynar: lekin shu zamon
Chor atrofga ag'raygancha boqaman hayron,
Uyat, xijolatga botib, sharmandalarcha,
To'shakkamas, tuproqqa bosh qo'ymoqqa hozir.
Yigirma ming fidoyiga tashlayman nazar,
Borishadi bajonu dil jon bermoqqa shay.
Ha, ularni haydab borar shuhrat arvohi
Va bir parcha yer, deb xuddi qironga solar.
Jang bo'larkan, o'sha yer ham torayib qolar,
O'lganlarni ko'mishga ham yetishmas balki.
O, idrokim, qonlarga to'l, qonga to'l chanqoq,
Dahshat solib yasha yoki yashama mutloq!

Ketadi.

5-sahna

Qasrda bir xona. M a l i k a va H o r a t s i o kiradi.

M a l i k a

Uni qabul qilolmayman.

H o r a t s i o

U shovqin solar
Nazarimda bir oz asar yetganga o'xshar,
Keling, unga shafqat qiling.

M a l i k a

Unga ne bo'ldi?

H o r a t s i o

Nuqul otasidan so'ylab, ko'ksiga mushtlar,
Yolg'onchi, deb qarg'ishlarga ko'mar dunyoni.
Hech narsadan hech narsa yo'q, jahlgina minar
Ayyqash-uyqash gaplar aytar. So'zi bema'ni.

Ammo uni tinglaganlar gap ilg'ar chindan —
Bu so'zlar, bu bo'g'ilishlar, ishoratlardan.
Va taxminu tusmol qilib o'ylashar beshak,
Bejiz emas, o't bo'lmasa — tutun qayoqdan;
Bunda balki bir jinoiy sir bo'lsa kerak...

M a l i k a

Mayli, kira qolsin.

H o r a t s i o chiqadi.

Axir dushmanlar uchun
Mish-mishlarga sabab topib berishi mumkin.
Men bilaman, xasta ko'ngil, shikasta vijdon
Har narsada falokatdan nishona ko'rar,
O'z aybini yashirmoqqa urinarkan u,
Yashirolmas, asrorini — fosh qilib qo'yar.

H o r a t s i o O f e l i y a bilan kiradi.

O f e l i y a

Daniyaning malikai husni qayonda?

M a l i k a

Nima bo'ldi, Ofeliya?

O f e l i y a

(Kuylaydi.)

Qaydan bilarman kelsa
Sizning mubtalo?
Boshida qalpog'i bor,¹
Qo'lida aso.

M a l i k a

Evoh!.. Jonim, bu qo'shiqning ma'nosi nima?

¹ O'sha davr she'riyatida keng tarqalgan oshiq darvesh obraziga ishora. Ofeliya bu yerda goh Hamletni g'urbatda o'lgan deb o'ylab, u haqda qayg'u chekadi, goh otasi Poloniyni o'ylaydi.

O f e l i y a

Ma'nosimi? Yo'q-yo'q, o'tinaman eshiting.

Kuylaydi.

O'ldi, xonim, o'ldi u,

Yerga qo'yib bosh.

Boshida ko'm-ko'k tikan,

Oyog'ida tosh.

Oh-ho!

M a l i k a

Menga qarang, Ofeliya...

O f e l i y a

O'tinaman, eshiting.

Kafani qordek oppoq...

Q i r o l kiradi.

M a l i k a

Hayhot! Bu sho'rlikka nazar soling, shohim!

O f e l i y a

Chechaklar chaman,

Ko'z yoshlardan boshimni

Ko'tarolmayman.

Q i r o l

Ahvolingiz nechuk, azizim?

O f e l i y a

Tuzuk, Xudo xayringizni bersin, tuzuk. Aytishadiki, boyqush — novvoyning qizi bo'lgan ekan.¹ Bas, bizni nimalar kutishini kim bilsin. Tangri taolo rizqingizni ziyoda qilsin.

¹ Rivoyatga ko'ra novvoyning qizi Iso payg'ambarga non bermagani uchun boyqushga aylanib qolgan.

Q i r o l

(Chetga)

Otam bilan gaplashayapman, deb o'ylaydi sho'rlik.

O f e l i y a

O'tinaman, bu haqda birovga og'iz ochmang. Bordi-yu, buning ma'nosi nima, deb so'rab qolishsa, shundoq deb javob bering:

Kuylaydi.

Sevgi kuni¹ borayin
Ostoningizga.
Darcha oldida bo'lay
Jonona sizga.
U turar, eshik ochar,
Qiz chiqar hamon.
Kirganida qiz edi,
Chiqqanda — juvon.

Q i r o l

Ofeliya, azizim!

O f e l i y a

Mana, ont ichmasdanoq tugataman.

Kuylaydi.

Muncha rasvo bo'larmi
Dunyoning ishi,
Shuncha ham bag'ritoshmi
Yoshlikda kishi?
Meni yiqmasdan oldin
Qo'lim so'rdingiz...
Shundoq bo'lmasdi bir oz
Sabr qilsangiz.

¹ Sevgi kuni — originalda: Qutlug' Valentin kuni (Saint Valentines day) bo'lib, ayni ma'noni bildiradi. (Tarj.)

Q i r o l

Ko'pdan shunaqami?

O f e l i y a

Umid qilamankim, hammasi baxayr bo'ladi. Biz sabr qilishimiz kerak. Ammo uni qora yerga ko'mdilar, deb o'yladimmi, bas, yig'layveraman. Akamga xabar qilish lozim. Yaxshi maslahatingiz uchun tashakkur. Qayril, mening karetam. Xayrli tun, xonimlar. Xayrli tun, go'zal jononlar. Xayrli tun. Xayrli tun.

Ketadi.

Q i r o l

Orqasidan boring. Unga ko'z-quloq bo'ling.

H o r a t s i o ketadi.

Mana, alam asorati. Butun falokat
Otasining o'limida. Oh, Gertruda,
Tashvish-alam tanib qoldi bizlarni juda,
To'dalashib kelayotir. Birinchi ofat —
Uning otasiyu sizning quvg'indi o'g'il,
Quvg'in etilishga mutloq loyiq edi ul.
Ikkinchisi — xaloyiqdir. Butun loy-g'ubor
Tubanlardan ko'chib-qalqib, yuzaga chiqdi.
Hozir hamma Poloniyni gapirar xuddi.
Ha, biz uni yashirincha dafn etdik bekor.
Uchinchi g'am — Ofeliya borarkan so'lib,
Ko'rinarmiz unga suvrat yo yirtqich bo'lib.
Hammasidan ham yomoni: Fransiyadan
Layert yashirincha qaytib, bir chetda kutar.
Mish-mishlarga quloq tutar, turfa og'izlar
To'ldirmishlar qulog'ini g'iybatlar bilan.
Gunohkorni topib bo'lmas. Butun aybni, bas,
Bizning boshga ag'darurlar. Bu arosatlar
Meni qo'ymas, Gertruda, olmoqqa nafas,
Xuddi o'qdek har qadamda bag'rimga botar.

(Sahna ortida shovqin.)

M a l i k a

Evoh, bu ne shovqin?

Mahram kiradi.

Q i r o l

Shveysarlarim qani?¹

Eshiklarni qo'riqlashsin, ayting. Nima gap?

M a h r a m

Har daqiqa g'animatdir, qoching, hukmdor.
Dovul chog'i to'lqinlangan dengizga o'xshab,
Shiddat bilan kelayotir quturgan Layert,
Isyonchilar olomonin bu yoqqa boshlab;
Soqchilardan qurollarni tortib olmoqda,
Avom uni qo'llamoqda. To shu choqqacha
Bu tuproqqa hayot, nizom, tartib-qoida,
Tarix va totuvlik go'yo bo'lmaganidek,
Ular qichqirishar, "Layert podsho bo'lsin!" deb.
Qalpoqlarin otib xuddi bulutga qadar,
Yana qichqirishar "Layert qirol bo'lsin!" deb.

M a l i k a

Muncha baland va cho'ziqdir qichqiriqlari!
O, Daniya ko'ppaklari, quturmang muncha!

Q i r o l

Eshikni sindirishdi.

(Shovqin kuchayadi.)

Qurollangan L a e r t, uning izidan bir to'da daniyaliklar kirishadi.

L a e r t

Qirol qani? — Siz eshikka chiqing, janoblar.

¹ Shveysariyalik yollanma askarlar podsholarning shaxsiy soqchilari bo'lib xizmat qilishgan.

D a n i y a l i k l a r

Yo'q, kiramiz.

L a e r t

O'tinaman, chiqib turingiz.

D a n i y a l i k l a r

Bo'pti, chiqsak chiqibmiz-da, yuring.

(Eshikka chiqishadi.)

L a e r t

Tashakkur!

Eshiklarni qo'riqlang. Xo'sh, la'nati, qirol,

Mening otam qani?

M a l i k a

O'zni bosingiz, Layert.

L a e r t

Gar o'zimni bosa olsam shu daqiqada,

Men — haromi o'g'ildirman, padarim — shayton;

Pok, begunoh onam esa peshonasiga

Fahshu fujur muhri tushgan ayanch fohisha.

Q i r o l

Layert, ayt-chi, bu sho'rish-u olomon nadir?

Gertruda, qo'yatur, u axir beziyon.

Qirol saltanati — Tangri panohidadir,

Qancha xuruj etishmasin dushmanlar, inon,

Unga daxl qilolmaslar. Qani, iqrar et.

Nimadir bu quturishning boisi, Layert?

Qani, menga javob ber-chi? Qo'y, Gertruda.

L a e r t

Otam qani?

Q i r o l

Qabrda u.

M a l i k a

Axir bu ishda
Qirol aybdor emas-ku.

Q i r o l

Qo'y, so'rab bilsin u.

L a e r t

Xo'sh, u qanday o'ldi? Lekin laqillatish yo'q!
Men rutba-yu qasamlarni poymol etarman.
Shaytonlarga jo'naturman kiborlik burchim.
Jazo bilan qo'rqitaman demang. Ishoning:
U dunyoyu bu dunyosi bari bir endi,
Nima bo'lsa bo'lar, lekin padarim uchun
Men intiqom olajakman!

Q i r o l

Kim taqiqlaydi?

L a e r t

Hech kim taqiq etolmagay, lekin irodam
Shuni da'vat etar ekan, qurolim ham shay,
Buning uchun tashvish tortmang.

Q i r o l

Istarmidingiz?
Bilishni shu ishning asl tafsilotini?
Ammo, bilgach — alamlardan ko'zingiz tinib,
Naq bir dasta karta kabi aralashtirib:
Do'stu dushman, haq-nohaqni savamaysizmi?

L a e r t

Faqat dushmanlarni.

Q i r o l

Bilsam, deysiz, ularni?

L a e r t

Ha, do'stlarga esa doim quchoq ochaman,
Zarur bo'lsa, ular uchun qonim sochaman.

Q i r o l

Mana, endi tamkin bilan so'zlamog'dasan,
Asl o'g'il, aslzoda farzandga monand.
Otangizning o'limida gunohsizligim,
Unga o'rtanishim bo'lur quyoshdek ravshan.

D a n i y a l i k l a r

(Sahna ortidan)

Qani, unga yo'l beringiz!

L a e r t

Bu nima shovqin?

O f e l i y a kiradi.

G'azab, qurit miyamni! Ey, ko'z yoshim sho'ri,
Etti karra taxir tortib, kuydir ko'zlarim!
Tangri shohid, men munosib javob beraman
Sening so'nib, ado bo'lgan idroking uchun!
Jigarbandim, Ofeliyam, singlim, chechagim!
Qari cholning ado bo'lgan, omonat umri
Qiz aqlini sovurishin qayda ko'rmishlar?
Ha, muhabbat ishi asli fidoyilikdir,
Aziz kishisi deb aziz jonidan kechar.

O f e l i y a

Kuylaydi.

Tobutin ochib qo'yib,
Eltdilar qadam-qadam.
Yoshim tobutga tom-di,
Alvido, qumriginam!

L a e r t

Aqling butun boʻlib, qasos olganingda ham
Dilga titroq sololmasding, jonim, shunchalar.

O f e l i y a

Siz kuylang: asta-asta,
Chaqiring pastga-pastga.

Voy, charxning aylanishini qarang! Ha, bu-chi, oʻz
xoʻjayinining qizini olib qochgan shum xizmatkor.

L a e r t

Bu poyma-poy soʻzlarda ham tayin maʼno bor.

O f e l i y a

Mana bu rozmarin quvvai hofiza uchun: oling, sevib,
xotirlab yuring. Mana bu binafsha esa, fikrlashga yordam
beradi.

L a e r t

Jinnilikning hikmatini qarang: fikr va hofizani bir-biridan
ajratmaydi.

O f e l i y a

Mana bu shivit sizga, qoʻngʻiroq gullar ham. Mana sudob
chechagini ham ola qoling. Mana bular esa oʻzimga. Buni
"Bibi Maryam giyohi" desa ham boʻlaveradi. O, siz buni
boshqacharoq qilib taqing. Raʼno gullarim ham bor. Men
sizga binafsha bermoqchiydim, ammo otam oʻlgandan soʻng
ular soʻlib qolishdi. Aytishlaricha, u osongina jon beribdi.

Kuylaydi.

Goʻzal Robinjonim — mening quvonchim...

L a e r t

Qaygʻu-alam, sevgi, hatto, jinnilikka ham
U joziba bagʻishlaydi.

O f e l i y a

Kuylaydi.

Nahotki u kelmaydi?

Nahotki u kelmaydi?

Yo'q, u o'lmish,

Ko'milmish,

Endi sening navbating.

Soqoli oppoq edi,

Sochi qo'ng'iroq edi,

Ketdi,

Rahmat, topsin, deb

Duo o'qiylik endi...

Iso payg'ambarning jumla ummatlari ruhi hurmati,
shafqat qil, Xudoyim. Xayr, Tangri sizni panohida asrasin.

Ketadi.

L a e r t

Ko'rdingizmi? Yo Xudoyim!

Q i r o l

Eshiting, Layert,

Ishoningiz sizga dildan dardkashligimga

Va o'zimni oqlash uchun beringiz imkon.

Eng oqil, eng farosatli do'stlarni yig'ing,

Toki bizni tinglab, ular etishsin hukm.

Bizga qarshi biror dalil-guvoh topilsa,

Bevosita daxldor yo bilvosita, biz

Evaz olmay, toju taxtni, mulku davlatni

Hattoki shu jonimizni nisor etgaymiz.

Agar dalil topilmasa, etgaysiz sabr,

Biz bilan siz birgalashib, ittifoq bo'lib,

Topajakmiz bu mushkulga chorai tadbir.

L a e r t

Mayli. Ammo o'lim siri, pinhoniyl dafn,

Qabr toshi uzra qutlug' xonadon muhri

Va qilichning bo'lmasligi, rasmu rusumlar,
Taomilning buzilgani, bir yo'la bari —
Ko'kdan faryod-fig'on solib, tuproq-zamindan
Javob so'rar.

Q i r o l

Muqarrar u javob oladi;
Jinoyatchi jahannamga duchor bo'ladi.
Qani, yuring.

Chiqadilar.

6-sahna

Qasrda bir xona.

H o r a t s i o va xizmatkor kiradilar.

H o r a t s i o

Kim u, meni yo'qlayotgan?

X i z m a t k o r

Begim, matroslar.
Nomingizga maktub olib kelishgan ular.

H o r a t s i o

Ayt, kirishsin.
Xizmatkor chiqadi.
Ajab, maktub qayoqdan bizga?
Kim ham maktub yozar edi Hamletdan o'zga.
Matroslar kirishadi.

B i r i n c h i m a t r o s

Salom, taqsir...

H o r a t s i o

Tangrim seni salomat saqlasin.

B i r i n c h i m a t r o s

U istasa, kifoya, biz yo'q demaymiz. Mana, taqsir, sizga maktub. Bu Angliyaga jo'nab ketgan kemasidagi elchidan. Menga aytishganidek, ismingiz Horastio bo'lsa, bas.

H o r a t s i o

O'qiydi.

"Horastio, bu maktubni o'qiboq, chorasini qilkim, ushbu odamlar qirol huzuriga kirishsin. Ularda qirol nomiga nomalar bor. Dengizga chiqqanimizga hali ikki kun ham bo'lgani yo'q edi, tish-tirnog'igacha qurollangan qaroqchilar izimizga tushdi. Suzishda sur'atimiz sust kelib, ur-yiqit avjga chiqqanda, men ularning kemasiga sakradim. Lekin kemalar ajrashdi-yu, men ular qo'lida yakka-yolg'iz asir bo'lib qolaverdim. Ular menga shafqatli qaroqchilardek muomala etishdi. Shinavanda yigitlar ekan. Shunga yarasha men ham ularga xizmat qilishim kerak. Ilova etilgan maktublarni qirolga topshiru xuddi ortingdan ajal quvganday, men tomonga uch. Men qulog'ingga shunday bir gaplar aytamanki, hayratdan naq qotib qolasan, ammo bu hali xamir uchidan patir. Anavi azamatlar men turgan joyga seni boshlab kelishadi. Rozenkranst va Gildenstern esa Angliyaga qarab suzishda davom etishyapti. Ular to'g'risida ham aytadigan gaplarim talay. Xayr. Beshaku shubha senga sodiq bo'lgan Hamlet".

Yuring, qolgan maktublarni topshiraylik-da,
Maktub egasiga tomon tushaylik yo'lga.

Ketadilar.

7-sahna

Qasrda bir xona. Q i r o l va L a e r t kiradi.

Q i r o l

Endi sizning burchingizdir, meni do'st bilib,
Haydasangiz yurakdagi gina-kuduratni.
Ko'rdingizmi, otangizni halok etgan zot
Meni o'ldirmoqchi bo'ldi.

L a e r t

Ko'rib turibman,
Ammo nega shundoq jiddiy ish yuzasidan
Tadqiq etmadingiz, tergov buyurmadingiz?
Qonun-qoidani chetlab o'tdingiz?

Q i r o l

Buning ikki sababi bor: balki sizningcha,
Aytishga arzimasa, ammo men uchun muhim.
Uni alqar, uni jondan sevar malika.
Bu yaxshimi yo yomonmi — etingiz hukm.
Biz er-xotin payvastamiz bir-birga go'yo
Bitta jismu jonmiz, xuddi yulduz va samo.
Ikkinchi bir bois shuki, nega men oshkor
Topshirmadim uni darhol hoziq hakamga.
Xaloyiq ko'p ixlosmanddir, muhibdir unga,
Uning qilgan xatosini xizmatga yo'yar.
Xalq degani xuddi marmar buloqning tuzi,
Mavjlariga novda tushsa, tosh qilib qo'yar.
Shuning uchun bu baloga tegmagan ma'qul,
Yo'qsa, shiddatlanib, xuddi ko'tarib bo'ron,
O'tgan nayzangizni sizga qaytib otar ul.

L a e r t

Demak, otam o'limini unutay butkul,
Ham unutay singlim duchor bo'lgan baloni?
Bo'lgan bo'ldi, maqto'v bilan qaytarib bo'lmas,
Ammo singlim bir nodiri davron edi, bas,
Men intiqom olajakman.

Q i r o l

Xotirjam bo'ling.
O'ylaysizki, men anqaygan nodon bir banda?
Nima, shundoq ro'paramdan tahdid etishsa,
Soqolimni tortqilashsa, qo'yarmidim men?

Qolganini keyin anglab olasiz, Layert.
Gapning xulosasi shuki, sizning otangiz
Menga do'stu sodiq edi, men esam hargiz
O'z-o'zimga kushandamas, yetar, menimcha...
Chopar kiradi.
Xo'sh, nima gap? Tag'in nima?

Ch o p a r

Maktub, podshohim,
Hamletdan xat. Bu sizga, bu malikamizga.

Q i r o l

Hamletdan? Xo'sh, kim keltirdi?

Ch o p a r

Allaqanday matroslarmish. O'zim ko'rmadim.
Menga Klavdio berdi bu maktublarni,
Matroslardan o'sha olgan.

Q i r o l

Eshitdingizmi?

Layert, o'qib beray sizga. Siz chiqib turing.

Chopar chiqadi.

O'qiydi.

"Ulug' va qudratli hukmdor, ma'lum bo'lsinkim, meni
qip-yalang'och holda saltanatingiz sohillariga keltirib
tashlashdi. Ertadan nazari oliylariga ro'para bo'lishga ijozat
so'rayman, toki shafqat-marhamatlariga suyanib, mening
bu nogahoniy g'alati bir yo'sinda qaytishimning tafsilotlarini
bayon aylay. Hamlet".

Xo'sh, nima bu? Qaytganmikin hamma bir yo'la?
Yoki bu uydirma, silliq ketmoqdami ish?

L a e r t

Bu Hamletning qo'limi?

Q i r o l

Ha, uning imzosi.

Manavi "qip-yalang'och" vakeyin pastroqda
Yana "Yolg'iz o'zimman" deb etgan ilova —
Ne degani? Bular bari, sizningcha, nima?

L a e r t

Bilolmadim. Lekin unga uchrasam, deyman,
Va yuziga ta'na-dashnom toshini otsam.
Shuni o'ylab, ruhim yengil tortar halitdan.

Q i r o l

Undoq bo'lsa, tag'in bizga nima ish qoldi?
Baski, shundoq ekan, demak, ishimiz bajo.
Layert, sizni o'zim yo'lga boshlayman.

L a e r t

Boshlang,
Yarashtiraman, deb lekin o'ylamang aslo.

Q i r o l

Yarashtirish! Yo'q, aksincha. Qaytib keldi ul,
Qayta jo'natishning esa chorasi mushkul.
Shuning uchun men bir boshqa chora o'yladim,
Uni shundoq falokatga boshlab borayki,
Halok bo'lsin o'z izmi, o'z xohishi bilan.
Shunda har-xil mish-mishlar ham topadi barham,
Hatto onasi ham buni makru tuzoqmas,
Tasodif deb bilar.

L a e r t

Meni boshlang, hukmdor,
Yana soz bo'lardi, siz bir reja tuzsangiz,
Men bir qurol bo'lsam.

Q i r o l

Bo'pti, shu qat'iy qaror.
Bunda sizni unutmadik, xotirga oldik,
Hamlet huzurida ta'rif-tavsifga soldik,
Ajab sifatingiz, shoyon hunaringizni.
U sizdagi bir narsaga g'oyat havasmand,
Ammo, menga qolsa, uni shoyon demasman.

L a e r t

Xo'sh, nima u?

Q i r o l

Qalpog'ingiz burjidagi bant,
Navqironlik nishoni u, joizdir garchand
Yigitlikda yengil chakmon kiyish — bir rasm.
Ammo, qariganda salomatlikni o'ylab,
Movut-mo'yna issig'iga o'ranish lozim.
Ikki oycha muqaddam bir bekdoda normand
Bunda mehmon edi. Ne-ne fransuzlarni
Ko'rganman va ular bilan maydon surganman.
Chavandozlik hunarida ular benazir.
Ammo, bu yagona, bu — bir sehrigar shayton,
Go'yo egar bilan chippatutashib ketgan
Chir aylanar ekan, qaddi-bastiga boqib,
Ostidagi bedov bilan bittami, deysan.
Tushingga ham kirmas uning mo'jizalari,
Hunarini aytib, ado etolmagayman!
Xullas, aql bovar qilmas.

L a e r t

Xo'sh, u normandmi?

Q i r o l

Normand.

L a e r t

Hayotimni tikib aytaman: Lamond.

Q i r o l

Xuddi o'sha.

L a e r t

Hamma bilar: u noyob gavhar,
O'z elining faxri.

Q i r o l

Sizni tanishin aytdi.

Yana maqtovlarga ko'mib baholadi u

Maydonaro qilichbozlik san'atingizni.

Ayniqsa-chi, u shiddatli shamshir jangida

Yagona-yu yakto, deya atadi sizni.

U dedikim, eng jangari qilichbozlar ham

Duch kelarkan sizga, o'zni yo'qotib qo'yar,

Yashinvoriy hamlangizga berolmas chidam.

Bu maqtovlar alam qildi Hamletga rosa,

Turib-turolmadi, tinib-tinchiy olmadi,

Qani, tezroq uchrasa-yu jang qila qolsa,

Mana, istasangiz, sizga tayyor bahona.

L a e r t

Bahona? Men tushunmadim. Nechuk bahona?

Q i r o l

Xo'sh, ayting-chi, Layert, ota xotirasini

Chindan e'zozlaysizmi? Yo kori boringiz —

Shunchaki bir namoyishmi, suvrat singari

Jondan, harakatdan mahrum.

L a e r t

Ajab savollar!

Q i r o l

Otangizga mehringizni kim inkor etar?
Mehr bilan muhabbatning onasi fursat.
Hayot shohid, fursat yana o'zi ko'rsatar —
Uchqunmi yo alangami o'sha harorat.
Muhabbatning otashida modda bor shundoq,
Agarda u so'xta bo'lsa, so'nadi mutloq,
To'lib-to'lib to'lqin urish barqaror emas,
Oshib-toshib ketar esa, ado bo'lur, bas.
Xohish bormi, uni bajo aylamoq darkor.
Xohish so'nib, hafsala pir bo'lmog'i ham bor.
Istak degan ming maqomga yo'rg'alar, hayhot,
Jahondagi jumla qo'lu kalladan ziyod.
Vaqt o'tarkan, bo'lmas afsus-nadomatdan naf.
Bu mast-alast bo'lib, ko'z yosh oqizishdek gap.
Hamlet shunda. So'zdan bo'lak, nima bilan siz
Ko'rsatursiz endi asl farzandligingiz?

L a e r t

Magar butxonada ko'rsam, bo'ynin uzaman.

Q i r o l

Qotil uchun butxona-yu mehrob ne pisand?
Axir, qasos deganlari chegara bilmas.
Shundoq ekan, azizim, siz uyda o'ltiring,
Hamlet voqif bo'lar o'zi kelganingizdan.
Fransuz izidan sizni har bir qadamda
Maqtab, ko'tarishar xuddi ko'klarga, shunda,
Qarabsizki, naq ro'baro' turibsiz ikov,
Taraf bo'lib, ikkingizga tikurmiz garov.
Hamlet to'g'ri va beparvo, o'sha fursatda
Qilichlarni tekshirmaydi, siz esa shartta
To'mtog'ini keskiriga almashtirasiz,
"Yo qasos!" — deb tikkasiga qilich urasiz.

L a e r t

A'lo. Buning ustiga-chi, qilich tig'iga
Bir nimalar suraman ham, shunday dori bor.
Men bir bahonada uni sotib olganman.
Gar pichoqqa surkasangiz, barmog'ingizni
Jindek qonatasiz, yetar, masala tamom.
Oyli tunda afsun o'qib, yig'ilgan giyoh,
Malham, muolija unga etolmagay kor.
Qilichimni dorilayman shu zahar bilan,
Bas, zaharli tig'ini sal tegizib olsam,
O'ldi, deyavering.

Q i r o l

Yana o'ylaylik bir oz.
Bizni qanday tasodiflar kutishi mumkin,
Aytaylikki, niyatimiz sezilib qoldi,
Yo chippakkachiqib, butkul bo'ldi oshkor,
Unda nima qilmoq darkor? Bas, shuning uchun
Yana boshqa bir tadbiri — tadorik darkor.
Shoshmang... O'ylab ko'ray. Mana, o'yladim, tayyor.
Biz-ku qimmatbaho garov tikamiz...
Xo'sh-xo'sh.
O'rtangizda kurash qizib, olarkan xuruj —
Buning uchun hamlalarni qalashtirasiz,
Hamlet shunda suv so'raydi, qadah tutaman.
Qadah tayyor turar, uni ichdimi, tamom,
Halokatli jarohatdan omon qolsa ham,
Bundan omon qola bilmas. Bu nima shovqin?

M a l i k a kiradi.

Ha, malikam!

M a l i k a

Yana bitta falokat, Layert.
Singlingiz Ofeliya
Suvga g'arq bo'ldi.

L a e r t

G'arq bo'ldi?! O, qayerda?

M a l i k a

Soy bo'yida majnuntol bo'z yaproqlarini
To'lqinlarga solib turar. Shu yerga kelib,
Qiz boyaqish marjon tizmish binafshaguldan,
Gazandao't, qoqi, yanatoji qip-qizil
Qiyoy bor-ku, cho'ponlar ko'p qo'pol atagan,
Qizlar o'lik tirnog'i, der, ana o'shandan.
Keyin uni tol shohiga ilmoqchi bo'lgan,
Shox uzilib, sho'rlik qo'lda gulmarjon bilan
To'lqinlanib oqayotgan suvga yiqilgan,
Avvaliga suv betida ko'ylagi balqib,
Oqib borgan suv parisi singari qalqib,
Boshidagi falokatni payqamay aslo,
Qay bir eski qo'shig'ini kuylagan hatto.
Turgan gapki, uzoq davom etmagandir bu,
Va ho'l bo'lib og'irlashgan ko'ylagi qizni —
Qo'shiqning avj nuqtasidan o'lim qa'riga
Tortib ketgan.

L a e r t

Cho'kib ketgan?

M a l i k a

Cho'kib ketgan u.

L a e r t

Ofeliya, ne to'lqinlar tegrangda o'ynar,
Ko'z yoshlarim bilan seni yuvayin, desam,
Ammo, nima qilay, yoshim tiya olmasam?
Xijolatman, oqizadi tabiat o'zi,
Va lekin shu bilan bizda xotinlarga xos —
Har neki bor esa, uni ketar oqizib.

Xayr, shohim. O't olgandek yonadi jonim,
Ko'z yoshlarim tomib, yana so'nadi jonim.

Q i r o l

Gertruda, bilasanmi, qancha urindim
Uni g'azabidan picha tushirmoq uchun!
Yana tutaqmasaydi, deb qo'rqaman lekin,
Yur, ortidan boraylik-chi.

Ketadilar.

BESHINCHI PARDA

1-sahna

Qabriston. Belkurak va cho'kich ko'tarib ikki masxaraboz –
go'rkov kiradi.

B i r i n c h i g o ' r k o v¹

O'z joniga qasd qilish bilan abadiy rohat ixtiyor etganni
xristiancha ko'mish joizmi?!

I k k i n c h i g o ' r k o v

Joiz ekan-da! Sen go'ringni tezroq qaziyver! Uni
tergovchiga ko'rsatishgan ekan, xristiancha ko'milsin, deb
farmoyish beribdi.

B i r i n c h i g o ' r k o v

Shu endi qonuniy emishmi?! Jonini qutqazish uchun
o'zini suvga otgandayam, janoza ravo bo'lardi.

I k k i n c h i g o ' r k o v

Ravo bo'ptiki, shunday qilishibdi-da.

¹ Shekspir bu personajlarni "clowns" ("masxarabozlar", deb ataydi va yolg'iz bir joyda ularga nisbatan "grave-diggers" ("go'rkovlar") so'zini ishlatadi. Biz avvalgi tarjimalardan ko'pchilikka tanish shu nomni qoldirdik (Tarj.)

B i r i n c h i g o' r k o v

Buni isbotlash lozim. Yo'qsa, qonun — qonun emas. Aytaylik, men o'zimni atay suvga cho'ktirdim. Bu uch yoqlama ish. Birlamchi — shu ishni qilganim, ikkilamchi — uni ado etganim, uchlamchi — unga yo'l qo'yganim. Xulosa shuki, u o'zini atay cho'ktirgan.

I k k i n c h i g o' r k o v

Voy, sen go'rkov tushmagur-ey...

B i r i n c h i g o' r k o v

Yo'q, sen shoshma. Mana, olaylik, bu yerda suv yotibdi; xo'p yaxshi; bu yerda odam turibdi; xo'p yaxshi. Aytaylik, odam o'zini suvga cho'ktirish uchun kelyapti. Xohlaysanmi, xohlamaysanmi, u kelyapti, fahmladingmi? Suv — boshqa gap. Agar suv kelib, uni bossa, u happa-halol. Zero, o'z o'limiga javobgar bo'lmagan kishi o'z jonini rahmatullodan mahrum etmaydi.

I k k i n c h i g o' r k o v

Xo'sh, bu qonunmi?

B i r i n c h i g o' r k o v

Ana, xolos, qonun bo'lmay nima: jinoyat qidiruv moddasining xuddi o'zi.

I k k i n c h i g o' r k o v

Senga rostini aytaymi? Bu qiz aslzoda bo'lmaganda-chi, xiristiancha ko'milmasdi.

B i r i n c h i g o' r k o v

Barakalla. Ana shunisi alam qiladi-da. Aslzodalar o'zini istagancha ossa ham, cho'ktirsa ham, mayli, ammo bizdaqa fuqaroga yo'l bo'lsin. Ha, mayli. Ishga unnaylik. Aslida-chi, aslzodalikda bog'bonlar, dehqonlar, go'rkovlarning oldiga tushadigani yo'q. Ularning hunari Odam Atodan.

I k k i n c h i g o' r k o v

U kishi magar aslzoda bo'lganlarmi?

B i r i n c h i g o' r k o v

Birinchi bo'lib, qo'liga asbob olgan o'sha hazratim-da.

I k k i n c h i g o' r k o v

Qo'ysang-chi, u qo'liga asbob-masbob olmagan.

B i r i n c h i g o' r k o v

Nima, majusiymisan? Kitob so'ziga munkirmisan? O'shanda aytilganki: "Hazrati Odam yer kovladi". Xo'sh, yerni nima bilan kovlaydi, quruq qo'l bilanmi? Yana bir savol. Faqat og'zingga kelganini sayrama, yo'qsa, naq ko'rasan...

I k k i n c h i g o' r k o v

Xo'sh-xo'sh, so'ray qol.

B i r i n c h i g o' r k o v

Kim dunyoda g'ishtchi-yu, kemasozu duradgordan ham pishiqroq qilib imorat quradi?

I k k i n c h i g o' r k o v

Dor quruvchi usta. Uning imorati hamma qurbonlaridan uzoqroq umr ko'radi.

B i r i n c h i g o' r k o v

Xudo haqqi, balosan. Dor deganing — yaxshi. Ammo, kimga yaxshi? Ishi yomon bo'lganlarga yaxshi. Lekin dorni butxonadan pishiq, deganing yomon bo'ldi. Demak, dor degani senga ham yaxshi. Kel, boshidan tusha qol, bu safar sen so'ra.

I k k i n c h i g o' r k o v

Kim dunyoda g'ishtchi-yu, kemasozu duradgordan ham pishiqroq qilib imorat quradi?

B i r i n c h i g o' r k o v

Endi javobini o'zing aytib, bo'ldi qil.

I k k i n c h i g o' r k o v

Aytsam, aytaveraman.

B i r i n c h i g o' r k o v

Xo'sh?

I k k i n c h i g o' r k o v

Bilmayman.

H a m l e t bilan H o r a t s i o kirib, chetroqda turishadi.

B i r i n c h i g o' r k o v

Bu bilan boshingni minba'd qotirma. Eshakni qancha niqtalama, bari bir chopmaydi. Bordi-yu, yana so'rab qolishsa, javob ber: go'rkov, uning qurgan imorati qiyomatgacha turaveradi. Ha, bo'pti. Endi, og'ayni chopqillab, logenga borgin-da, bir shisha sharob keltir.¹

I k k i n c h i g o' r k o v ketadi.

B i r i n c h i g o' r k o v go'r qazib kuylaydi.

Yigitlik davronida,

Qizlarga qurbon edim.

Qurbon edim, o'shanda,

Qanday bearmon edim.

H a m l e t

Mana u o'zi qilayotgan ishning mohiyatini, nahotki, anglamasa? Go'r qazib, qo'shiq aytadi-ya, xumpar.

¹ logen, "Globus" teatri yonida joylashgan qovoqxona xo'jayinini shunday deb atashgan.

H o r a t s i o

Kundalik odat bu ishni jo'nlashtirib qo'ygan.

H a m l e t

Tabiiy. Qo'l ham qavarguncha sezgir bo'ladi.

B i r i n c h i g o' r k o v

Kuylaydi.

Keldi qarilik asta,

Sekin qo'limdan tutdi.

Baxtlarim, rohatlarim,

Bilmadim, qayga ketdi.

Bitta bosh suyagini irg'itadi.

H a m l e t

Balki, bu chanoqda bir paytlar til bo'lgan, zabon bo'lgandir, balki u ham kuylagandir. Manavi yaramas esa Qobilni o'ldirib, dunyoda birinchi qotillik qilgan Hobilning jag'ini irg'itganday, uni uloqtirib tashladi. Ehtimolki, manavi eshak shunchalar xor qilgan bu suyak Tangrini ham laqillatmoqchi bo'lgan bir siyosatdonning kallasidir. Shundoq emasmi?

H o r a t s i o

Ehtimol, shahzodam.

H a m l e t

Yoki bir saroy amaldorining boshimikin... U har kuni ertalab: "Saboh xayrli bo'lsin, hazratim. Kayfiyati oliylari nechuk?" — deb so'ragandir. Uni falonchi bekszoda deb atashgan, u esa in'om olish ilinjida boshqa bekszodaning otini maqtagandir. To'g'rimasmi?

H o r a t s i o

To'g'ri, shahzodam.

H a m l e t

Ha, xuddi shundoq. Mana endi bedavo ajalga uchrab, o'zi jag'idan ayrilib o'tiribdi, cherkov qorovuli belkurak bilan qanshariga tushiradi. G'aroyib bir o'zgarish. Faqat bu asrning tagiga inson yetolmaydi. Bu suyaklarni keyin soqqa qilib o'ynashlari uchun shunchalar parvarish etish joizmikin?! Shuni o'ylasam, suyaklarim zirqirab ketadi.

B i r i n c h i g o' r k o v

Kuylaydi.

Belkurak, cho'kichni ol,
Yangi kafanni shayla.
Cholga qabr qaziy qol,
Uni orasta ayla.
Boshqa bir kalla suyagini irg'itadi.

H a m l e t

Tag'in bittasi. Xo'sh, nega endi bu bir qonunshunosning boshi bo'lmasin? Uning hiylayu nayranglari, ilmoq va tuzoqlari, to'qimayu uydirmalari qayoqda qoldi? Nega endi u manavi johilning shattasini yeb, jim turadi. Uni javobgarlikka tortmaydi? Himm! Ehtimolki, u o'z vaqtida yirik bir zamindor bo'lgan, har xil vasiqalar, hukmnomalar, sud protokollari, jarima qog'ozlariga mukkasidan ketgandir. Shunchalar tiyindan-tiyin, jarimadan-jarima undirib, oxir-oqibat, kallasi balchiqqa botib, bundoq tuproqqa qorishib yotishi qandoq bo'ldi? O'sha bir yoqlama kafolatnomalar jamlanib, unga bor-yo'g'i ikki varaq qog'oz siqqudek joy olib beribdi, xolosmi? Vasiqalarning o'zi ham bu joyga sig'ishi gumon-ku. Axir, mulkdor degani kengroq yerda makon tutishga haqli emasmi?

H o r a t s i o

Yo'q, shahzodam, ortiqcha bir qarich yerga ham haqqi yo'q.

H a m l e t

Vasiqa qog'ozi qo'y terisidan qilinadi, shundoqmi?

H o r a t s i o

Shundoq, shahzodam, ayni paytda buzoq terisidan ham yasaladi.

H a m l e t

Bo'lmasam, uning boqiyiligiga e'timod etganlarni qo'ylar va buzoqlar, desa bo'lar ekan. Men manavi azamat bilan gaplashib ko'rmoqchiman. Hey, kimning go'ri bu?

B i r i n c h i g o' r k o v

Meniki, taqsir.

Kuylaydi.

Cholga qabr qaziy qol,

Uni orasta ayla...

H a m l e t

Ishonaman, seniki, zero, go'rda turib, yolg'on gapirayapsan.

B i r i n c h i g o' r k o v

Siz esa go'rdan tashqarida turib yolg'on gapirayapsiz, taqsirim, zero, go'r siznikimas. Men esam go'r ichida turib yolg'on gapirmayman: bu mening go'rim.

H a m l e t

Qanday qilib yolg'on gapirmayapsan ekan? Go'rda qaqqayib turib, go'r meniki, deysan-ku. Go'r degani o'likniki bo'ladi, tiriknikimas. Go'rdaman, deb yolg'on gapirding.

B i r i n c h i g o' r k o v

Bu yolg'on go'rda qolmaydi, taqsir. Tirilib mendan sizga o'tadi.

H a m l e t

Qaysi taqvodor er uchun qaziyapsan bu lahadni?

B i r i n c h i g o' r k o v

Er uchunmas.

H a m l e t

Bo'lmasa, qaysi ayol uchun?

B i r i n c h i g o' r k o v

Ayol uchun hammas.

H a m l e t

Bo'lmasa, kimga mo'ljallangan o'zi?

B i r i n c h i g o' r k o v

Avvaliga ayol bo'lib, endi Tangri rahmatiga yetishgan bir bekaga, taqsirim.

H a m l e t

Voy, xumpar-ey, shuncha gapdonmisan? Bu toifa bilan hazir bo'lib gaplashmasang, kinoyaga ko'mildim, deyaver. Tangriga qasamki, Horastio, keyingi uch yil ichida zamon shunchalar o'zgardiki, avom aslzodalarning jig'iga tega boshladi. Ko'pdan go'rkovmisan?

B i r i n c h i g o' r k o v

Rahmatli qirolimiz Hamlet Fortinbras ustidan g'alaba qozongan kundan buyon.

H a m l e t

Unga necha yil bo'ldi?

B i r i n c h i g o' r k o v

Nahot, bilmasangiz? Buni tentak ham biladi-ku. O'sha kuni yosh Hamlet tug'ilgan edi, hozir aqldan ozib, Angliyaga jo'natilgan Hamlet.

H a m l e t

Ana, xolos. Uni nega Angliyaga jo'natishdi ekan?

B i r i n c h i g o' r k o v

Nega bo'lardi?! Aqlini yig'ib olsin uchun. O'zini tuzatsin uchun. Ammo u yerda tuzalmasa ham bo'laveradi.

H a m l e t

Nega endi?

B i r i n c h i g o' r k o v

Negaki, buni hech kim payqamaydi. U yerda nuqul unga o'xshagan jinnilar yig'ilishgan.

H a m l e t

Xo'sh, qanday qilib u aqldan ozibdi?

B i r i n c h i g o' r k o v

Aytishlaricha, g'alati bir yo'sinda.

H a m l e t

Xo'sh, qanday yo'sinda?

B i r i n c h i g o' r k o v

Aqldan ozibdi-qo'yibdi, vassalom.

H a m l e t

Qaysi zaminda, axir?

B i r i n c h i g o' r k o v

Shu, o'zimizning Daniya zaminida. Men bolaligimdan boshlab o'ttiz yildan beri shu yerda go'rkovlik qilaman.

H a m l e t

Kishi yer ostida tez chiriydimi?

B i r i n c h i g o' r k o v

Odamiga qaraydi... Birovlar tiriklagidayoq irib-chiriy boshlaydi, dafn marosimigacha sabri chidamaydi. Hozir shunaqalar serob. Birovlar borki, yer ostida sakkiz-to'qqiz yil ham turaveradi. Masalan, ko'nchi degani to'qqiz yil o'tsa ham, miq etmaydi.

H a m l e t

Nega ko'nchi uzoqroq turadi?

B i r i n c h i g o' r k o v

Nega desangiz, taqsirim, uning terisi shu qadar oshlangan bo'ladiki, suv ta'sir qilmaydi. Ma'lumingiz bo'lsinkim, o'lib murdaga aylanar ekansiz, birinchi dushmaningiz suv bo'ladi. Mana, tag'in bitta chanoq. Bu chanoq yigirma uch yil yer tagida yotgan.

H a m l e t

Xo'sh, kimniki bu?

B i r i n c h i g o' r k o v

E, otini aytmaganim ma'qul, la'nati bor bekorchiniki. Xo'sh, siz kimniki deb o'ylaysiz?

H a m l e t

Bilmadim.

B i r i n c h i g o' r k o v

Iloyim, puchak bo'lib, o'yilib yotgani rost bo'lsin, judayam buzuqbosh edi bu! Bir gal bir shisha sharobni naq boshimdan quyib yuborgan edi xumpar. Bu chanoq qirol masxarabozi Iorikning bosh suyagi bo'ladi, taqsirim.

H a m l e t

Shu-ya?

B i r i n c h i g o' r k o v

Ha, xuddi shu.

H a m l e t

Qani, bu yoqqa ber-chi.

Bosh chanog'ini qo'liga oladi.

Hayhot! Sho'rlik Iorik! Men uni bilardim, Horastio. Bu benihoya qiziqchi, latifalarga juda usta bir kishi edi. Meni ming martalab orqasiga opichib yurgan. Endi qarasam, ko'nglim ayniydi. Mana bu yerda lablari qimirlagan, o'sha lablarni ehtimolkim, necha martalab o'pgandirman. Sening sho'xliklaring, qo'shiqlaring, hajvlaring qayoqda qoldi, oshnam? Hammaning ichagini uzadigan o'yin-kulgilaring, qahqahalaring qani? Endi mana shu kemshik og'zing ustidan kulish uchun birortasi topilarmikin! Demak, adoyi tamomsan! Qani, aslzoda bir xonimning pardozxonasiga kirib, yuzidagi bir enlik upa-elikka qaramay, uning oxiratda nima bo'lishini bir aytib ko'r-chi. Shundoq bashorating bilan uni kuldirishga bir unnab ko'r-chi. Menga qara, Horastio.

H o r a t s i o

Labbay, shahzodam?

H a m l e t

O'sha Iskandar Zulqarnayn ham yer ostida shundoq ahvoldamikin?!

H o r a t s i o

Ha, xuddi shundoq ahvolda.

H a m l e t

U ham shundoq sasib-bijg'iganmikin?! Fu!

Bosh suyakni yerga qo'yadi.

H o r a t s i o

Ha, xuddi shundoq, shahzodam.

H a m l e t

O, naqdar tubanlikka tushilar ekan, Horastio!

Iskandar xokining qismatini to oxirigacha, to pivo bochkasining teshigiga tiqin bo'lguniga qadar bir tasavvur etib qaragin-a?

H o r a t s i o

Bu narsalarga oldindan hukm etib qarash bo'ladi.

H a m l e t

Sirayam undoq emas. Aksincha, bu jism o'tgan yo'llarni hurmat-ehtirom ila mushohada etish va muqarrar qonun-qoidalarga bo'ysunish, degani bo'ladi. Taxminan shundoq: Iskandar o'ldi, Iskandarni ko'mishdi, Iskandar xok bo'ldi. Xok — bu tuproq, tuproqdan loy yasaydilar. Nega endi haligi loy pivo bochkasini suvashga xizmat etmasin?

Shamollashdan qazo qilgan Qaysari Rumdan

Loy qorishib, uy tomini suvashar bu dam.

Bir zamonlar jahon edi poyida tuproq,

Endi bo'lsa, bir teshikka o'zi loysuvoq...

Bo'ldi, jim bo'! Bir chekkaga o'taylik. Qirol.

Ruhoniy boshchiligida j a n o z a a h l i kiradi, orqada O f e l i y a
tobuti, izidan L a e r t, kuzatuvchilar, Q i r o l,

M a l i k a va xos mahramlar.

Malika ham saroy ahli. Kimni ko'mishar?

Tartib tamom buzilibdi! Ma'lum bo'ldikim,

Oʻz joniga qasd aylagan qandaydir ayol,
Qandaydir bir aslzoda. Chetroqqa chiqib,
Kuzataylik.

H o r a t s i o n i b i r c h e k a g a b o s h l a y d i .

L a e r t

Tagʻin qanday rasm-rusum qoldi, hazratim?

H a m l e t

Ana, olijanob yigit Layert ham shunda.

L a e r t

Janozaga yana qanday qoʻshimchangiz bor?

R u h o n i y

O, shundoq ham shariatdan chiqib ketdik biz.

Shaʻriy talab boshqa. Buning qazosi mavhum.

Joiz erdi goʻrda emas, nopok bir yerda

Suri Isrofilga qadar yotsa marhuma.

Oʻqilmasdi har qadamda duoyi takbir,

Kuzatishar edi uni toshboʻron bilan.¹

Va holbuki, tobutiga gullar qoʻyilgan,

Va holbuki, to birinchi qoʻraga qadar

Cherkov qoʻngʻirogʻi unga taratdi ohang.

L a e r t

Xullas, neki hukmingizda ekan, hammasin

Bajo etib tugatdingiz?

R u h o n i y

Balli, tugatdik.

Agarda-chi, boshqalarga oʻqilgan kabi,

¹ Oʻz -oʻzini oʻldirgan kishining jasadinin chuqurga tashlab, uni toshbʻron qilib koʻmishardi.

Boshi uzra marsiyai vido o'qisak,
Xor qilurmiz marosimu salotimizni.

L a e r t

Tushiringiz tobutni! To shu ma'sum tandan
Binafshalar unib chiqqay! Esingda tut, pop,
Singlim ko'kda uchar ekan farishta bo'lib,
Sen jahannam otashida bo'lursan kabob.

H a m l e t

Hoy, nima bu: Ofeliya?!

M a l i k a

(Tobut ustiga gullar sochib)

Gulga gul joiz.

Xayr, jonim, yotgan yering jannatda bo'lsin.
Seni kelin qilarman, deb orzu etgandim.
Nikoh to'shagingga gullar sochmoqchi edim,
Qabringamas.

L a e r t

La'nat uzra la'nat yog'ilgay
U zolimning boshigakim, uning dastidan
Tiniq aqling zavol topib, alamga to'ldi.
Hoy, ko'mmasdan turing. Birpas shoshilmang endi.
Qabrga sakrab tushadi.
Ko'mavering o'lik bilan tirikni qo'shib,
Tekis yerda qalashtirib, tog' yasang baland.
Baland bo'lsin Pelliondan,
Moviy Olimpdan.¹

H a m l e t

(Oldinga chiqib)

Hey, bunchalik viqor ila yig'layotgan kim?
Kim u alamlari xuddi ko'kka chirmashib,

¹ Pelion va Olimp — Yunonistondagi tog'larning nomi.

Yulduzlarni tosh qotirib qo'ymoqda tamom?
Kim bo'lmasin, xizmatiga tayyorman uning
Men — Daniya shahzodasi, Hamlet.
Sakrab qabrga tushadi.

L a e r t

Ket, yo'qol!
Iblis!

U bilan olishadi.

H a m l e t

Duo o'qishni bil. Tomog'im bo'shat.
Ancha sovuqqonman, lekin aytaman alhol,
Bilasanmi, bir alam bor menda beshafqat,
Keyin pushaymonlar yeysan. Tort, qo'lingni ol!

Q i r o l

Ajratinglar!

M a l i k a

Hamlet, Hamlet!

H a m m a

Janoblar, qo'ying!

H o r a t s i o

O'zni bosing.
Ularni ajratishadi, ular qabrdan chiqishadi.

H a m l e t

Men shu bahsning boisi uchun
Umr bo'yi olisharman u bilan hatto,
Ko'zim tirik ekan, tinim bilmasman aslo.

M a l i k a

U nechuk bahs, o'g'lim?

H a m l e t

Uni jondan sevardim.

Ofeliya, qirq ming og'ang bo'lganida ham
Mendek sevolmasdi, mendek chekmasdi alam.

(Layertga)

Ayt-chi, uning uchun qay bir ishga qodirsan?

Q i r o l

U o'zini unutibdi.

M a l i k a

Unga tegmanglar!

H a m l e t

Bilmoqchiman, qay bir ishga qodirligingni?
Ho'ngramoqmi? Yoqa yirtmoq? Yoki solishmoq?
Sirka ichmoq? Timsoh etin yemoq? Bularga
Agarda sen qodir esang, men ham qodirman.
Ko'z yoshingni oqizishga keldingmi magar?
Yo qabrga botir bo'lib sakramoq uchun?
Tiriklayin ko'milishni istarmiding yo?
Sen bularga qodir esang, men ham qodirman.
Tog' haqida bir nima deb vaysadingmi-a?
Ustimizga million botmon tuproq uyilsin.
Cho'qqisida quyosh yonsin, Ossa¹ tog'lari
Uning qarshisida xoru xasdek tuyulsin!
Bo'kirmoqqa qodirmisan? Men ham qodirman.

M a l i k a

Uning jazavasi tutdi. Birpas kutaylik,
Tutqanog'i o'tib ketar va yana beshak
Yuvosh tortib qolar ona kabutar kabi,
Qanotlarin yig'ar.

¹ Yunonistondagi bir tog'.

H a m l e t

Ammo, ayting-chi, taqsir,
Ne sababdan menga muncha xusumat? Axir,
Sizni sevar edim: mayli, ahamiyatsiz.
Keling, qo'ldan kelganini qilsin Herkules,
Mushuk miyovlaydi, lekin it ham kun ko'rar.
Ketadi.

Q i r o l

Siz u bilan birga bo'ling, Horatsiy, boring.
H o r a t s i o ketadi.

(Layertga)

Sabr qiling, aytganlarim xotirga oling,
Ishlarimiz yetayotir nihoyasiga.
Gertruda, har qadamda hushyor kuzatib,
O'g'lingizga hazir bo'lib turishsin, ayting.
Bunda marhumaga ajib haykal quramiz.
Yaqin bir fursatda balki ko'ramiz uni;
Valekin hozircha sabr aylamoq lozim.
Ketishadi.

2-sahna

Qasrda bir zal.

H a m l e t va H o r a t s i o kirishadi.

H a m l e t

Hammasi shu. Yana boshqa gap ham bor hali.
Ammo o'sha voqealar xotiringdami?

H o r a t s i o

Bo'lmasa-chi, shahzodam.

H a m l e t

Men uxlay olmadim,
Allaqanday xayollaru xavotirlardan,
Tikanakka to'lgan edi to'shagim go'yo,
Tura qoldim. Omon bo'lsin bezovtalik, o!

Ba'zan ko'rlik qutqaradi deganlari rost,
Uzoqlarni ko'rish esa baloga qo'yar.
Demak, bordir bu olamda sohibi xilqat,
Qismatimiz o'z izmicha turdi yo'llarga
Yo'llaguvchi Egam.

H o r a t s i o

O'sha, xayriyatki, bor.

H a m l e t

Kayutadan chiqdim keyin, chakmonim kiyib,
Izlab ketdim o'shalarni, qorong'u har yon.
Timirskilab-timirskilab maktubni topdim
Va qo'ltiqqa urib uni, qaytdim shu zamon.
Qo'rquv bilan dadillanib, uyatdan kechib,
Oxir buzdim qo'limdagi maktub muhrini.
Qabohatu razolatning shunday zo'rini
Uchratdimki, boshdan uchib ketdi xayolim.
O'qib bildim, Horastio, u farmonni, men
Daniya va Angliya uchun bir yo'la
Qanday qo'rqinch balo, mudhish ofat ekanman.
Xullas, aytilganki, borib yetdimmi, tamom,
Shu ondayoq boshdan judo etilsin tanam.

H o r a t s i o

Yo'g'-ey!

H a m l e t

Mana farmon, hali o'qib qaraysan,
Keyin nima qilganimni aytay, istasang.

H o r a t s i o

Ayting.

H a m l e t

To'ru tuzoqlarga chulg'angan ko'yi,
Chora izlab, xayolimni etmadim sarson.
Fikrim ishlab ketdi. Yangi maktub yozdimu
Keyin uni diqqat bilan oqqa ko'chirdim.
Bir zamonlar barcha ahli a'yonga o'xshash,
Xushxatlikni masxaralab kulardim yakkash,
Husnixatni xo'rlaganman kuchim boricha,
Falokatda esa menga asqotdi o'sha!
Ne deb yozganimni senga aytaymi?

H o r a t s i o

Ha-da.

H a m l e t

Qirol nomi bilan shundoq bitildi farmon:
Baski, Angliya bizga boj to'lar ekan,
Do'stligim bog'i xuddi chamandek yashnar,
Sulhu salohimiz bir juft boshhoqqa o'xshar,
(Men ularni qatorlatib tizdim bir yo'la)
Xatni eltuvchilar borib yetishgan asno
Behudadir taftish-so'roq, tavba-pushaymon.
Shu ondayoq tandan boshi etilsin judo.

H o r a t s i o

Xo'sh, muhr-chi, uni qanday epladingiz?

H a m l e t

Oh,
Bu ishda ham o'zi meni qo'lladi Xudo,
Eski muhr, otam muhri yonimda edi,
Hozirgisi ko'chirmadir o'shandan faqat,
Men maktubni bukib anuv maktub singari,
Muhr bosib, o'z o'rniga qo'ydim avaylab,
Xuddi chaqaloqni pinhon almashgan kabi.

Ertasiga dengiz jangi bo'ldi, bilasan —
Keyin nelar kechganini yozgan xatimdan.

H o r a t s i o

Xullas, Rozenkranst bilan Gildenstern
Muqarrar bir o'lim sari bormoqdadir chin.

H a m l e t

Shundoq. Ammo ular buni o'zidan ko'rsin,
Vijdonim pok. Muqarrar u halokat, hayhot,
Ularning shum qilmishlari uchun mukofot.
Ha, kattalar solishganda kichik jim tursin.

H o r a t s i o

Voy, qirolni qaranglar-a?

H a m l e t

O'zing hukm ayla,
Qandoq quturganman hozir. Axir bir yo'la:
U otamni halok etdi, onamni buzdi,
Meni taxtdan mahrum qildi, yo'limni to'sdi,
Lekin bular marra emas, bular unga kam,
Yashirincha qarmoq solib endi muqarrar,
Mening yigit jonimni ham olmoqchi bo'lar.
Baski, shundoq ekan, mening burchim emasmi —
Mana shu qo'llarim bilan javob aylasam?
Illat degan chuqurlashib borar ekan bot,
Qarab turaberish nomus emasmi, hayhot?

H o r a t s i o

Ammo, tez orada qirol Angliyada
Ne kechganin eshitadi.

H a m l e t

Lekin hozircha
Mening izmimdadir fursat — yana necha kun,

Garchi inson umri ko'zni ochib-yumguncha
Turish berolmagay, tugab, topadi yakun.
Biroq, Horatsio, rostdan xijolatdaman,
Layert bilan aytishganim, tortishganimdan.
Uning qayg'usida mening dardim oshkor,
Men u bilan yarashaman, ko'rishib takror.
Biroq, yuragingni bosib yotgan hasratni
Ko'z-ko'z qilib yurt oldiga yoyish ne darkor?
Shunga jahlim chiqdi.

H o r a t s i o

Jim! U kelayotgan kim?

O z r i k kiradi.

O z r i k

Daniyaga eson-omon qaytib kelishingiz muborak bo'lgay,
janobi oliylari!

H a m l e t

Tashakkur, taqsim. (*H o r a t s i o*ga sekin.) Sen bu
pashshani taniysanmi?

H o r a t s i o

(*H a m l e t*ga sekin.)

Yo'q, shahzodam.

H a m l e t

(*H o r a t s i o*ga sekin.)

Bilmaganing — baxting. Uni bilishning xosiyati kamroq.
Unda yer behisob, buning ustiga, hammasi unumdor yerlar.
Biror hayvonni hayvonlar podshosi qilib ko'tarsang, bas,
darrov o'z oxurini uniki bilan yonma-yon qo'yadi. Bu
quyib qo'ygan zag'cha, ammo hali aytganimday, uyasidagi
loy-axlatlarning ko'pligi bilan yirik, kibor zag'cha.

O z r i k

Aziz shahzodam, mabodo siz, janob oliylarida, fursat topilsa, qirol hazratlari tomonidan aytilgan bir muddaoni bayon etmoqchi edim.

H a m l e t

Taqsir, aytganlaringiz ko'nglimga jo bo'lur. Ammo qalpoqni boshqa xizmatga buyurmang. Qalpoqning o'rnida boshda.

O z r i k

Tashakkur, janobi oliylari. Havo judayam issiq...

H a m l e t

Yo'q, ishonavering, havo judayam sovuq. Shimoldan shamol esyapti.

O z r i k

Darvoqe, bir oz sovuqroq, siz haqsiz, janobi oliylari.

H a m l e t

Lekin, harholda, menga qolsa, jazirama issiq, derdim, havo nafasni bo'g'adi.

O z r i k

Shahzodam, bo'g'ish ham gapmi. Shundoq dimki, ta'riflashga til ojiz. Lekin shahzodam, a'lo hazratlarining buyruqlariga binoan ma'lum qilamankim, u kishi sizni deb garov boyladilar. Shunga ko'ra...

H a m l e t

Har holda iltimos qilamanki.... *(uni qalpog'ini kiyishga majbur qiladi.)*

O z r i k

Yo'q, qo'ying, azbaroyi Xudo. Menga shundoq ham yaxshi, ishonavering, taqsir, shu kunlarda saroyga chinakam jo'mard, barkamol fazilatlar sohibi, nafosatu nazokatlar mujassami, ko'rkam husnu jamol egasi Layert janoblari tashrif buyurmishlar. Agar oshirmay rostini aytadigan bo'lsak, u kishi kamolot majmuasi va mezonidir, negakim kibor kishiga manzur bo'larlik jamiki xislatlar ul janobda jamuljamdir.

H a m l e t

Men esam, sizga sir bo'lmasligini istardim. Garchi, u holda ham men hech nima yutmasdim. Xo'sh, taqsirim?

O z r i k

Men bilaman, sizga sir emaski, Layert qanday mahorat bilan...

H a m l e t

Bir nima deyishim qiyin, negaki u bilan o'zimni qiyoslashga to'g'ri keladi. Birovni yaxshi bildingmi, bas, o'zingni ham yaxshi bilasan.

O z r i k

Taqsir, so'z uning qurol ishlatishdagi mahorati ustida ketayotir. Ko'pchilikning fikriga ko'ra, bu ishda u beqiyos emish.

H a m l e t

Quroli qanaqa?

O z r i k

Qilich va xanjar.

H a m l e t

Qo'shaloq ekan-da. Xo'sh, keyin-chi?

O z r i k

Qirol garov o'ynab, oltita arabiy bedov tikkan, u esa eshitishimga qaraganda, oltita farangiy qilich va xanjarni qayish-kamarlari bilan garovga qo'ygan. Yana uch juft bog'ich, ya'ni, afsonaviy darajada go'zal, shamshir sopiga yarashib turadigan bog'ichlar. Favqulodda nafis, g'alati bezaklari bor.

H a m l e t

U bog'ichlaringiz nimasi o'zi?

H o r a t s i o

Sharhu izohsiz ish bitmasligini sezib turuvdim.

O z r i k

Bog'ichlarmi, taqsir, bu qayishlarga bog'lanadigan ilmoqlar-da.

H a m l e t

Biz qilich o'rniga zambarak osib yurganimizda, ta'biringiz joiz bo'lur edi. O'shangacha qayishlar bo'la qolsin. Xo'sh, alahsimaylik. Xullas, oltita arabiy tulpor — bir tomonda, oltita farangiy qilich, asbob-anjomlari bilan, uch nafar bog'ich g'alati bezaklari bilan — ikkinchi tomonda. Xo'sh, bular nega garovga qo'yilmayapti?

O z r i k

Taqsirim, qirol hisoblaydiki, orangizdagi o'n ikki olishuvning to'qqiztasi sizning foydangizga, uchitasi uning foydasiga hal bo'lur. U o'n ikkidan to'qqizi, deb garov tikiyapti. Agar janoblari xo'p deb javob bersalar, hoziroq tekshirib ko'rish mumkin bo'lur edi.

H a m l e t

Agar yo'q, deb javob bersam-chi?

O z r i k

Shahzodam, men aytmoqchiydimki, agar siz olishuv haqidagi taklifni qabul qildim, deb javob bersangiz.

H a m l e t

Taqsim, men zal bo'ylab sayr qilib yuraman. Agar a'lo hazratlari xohish etsalar, mening ayni dam oladigan paytim. Qilichlarni keltirishsin. Agar haligi yigit rozi va qirol o'z ra'yida qat'iy esa, men baholi qudrat garovni yutib berishga harakat qilaman. Agar yutolmasam, uyat va mag'lubiyat bo'ynimga tushadi.

O z r i k

Xuddi shundoq deb aytishga ijozat beradilarmi?

H a m l e t

Xuddi shundoq deb, taqsir, bo'yab-bejashi o'zingizdan.

O z r i k

O'zimni o'z sadoqatlarim bilan janobingizga havola qilaman.

H a m l e t

Salomat bo'lsinlar, salomat bo'lsinlar...

O z r i k ketadi.

Yaxshi qiladi, o'zini o'zi havola etadi. Bo'lmasa-chi, hech kim uni sadoqatli deb birovga havola etmas edi.

H o r a t s i o

Hay, qochib qolidi-ku. Tuxumdan chiqqan jo'jaday, orqa-o'ngiga qaramay...

H a m l e t

U ehtimolki, onasining ko'kragini ham xushomadlar ila og'ziga olgandir. Hozirgi xotinmijozlarning hammasi shunaqa. Ular yurish-turish, odob-nazokatning faqat tashqi

tomonlarini egallab olishgani uchun behad-behisob did va mayllar girdobida yuzaga qalqib chiqishadi, ammo bir puflasang, bas, pufakdek yorilib, g'oyib bo'lishadi.

Lord kiradi.

L o r d

Shahzodam, a'lo hazrat qirol yosh Ozrik orqali sizga salom yo'llaganlarida zalda kutishingizni aytgan ekansiz. Davlatpanoh Layert bilan kuch sinashmoq niyatingiz qat'iymi yoki uni orqaga surdingizmi, shuni bilmoq istaydilar.

H a m l e t

Men o'z qarorlarimda qat'iyman. Ular qirol xohishlariga hamohang. Hazratlari istasalar, bas, men qarzdor bo'lib qolmayman. Hozirmi yo bo'lak bir paytmi, bari bir, faqat o'zimni hozirgidek tetik his etsam bo'lgani.

L o r d

Unda qirol, malika va boshqalar hoziroq pastga tashrif buyuradilar.

H a m l e t

Qadamlariga hasanot.

L o r d

Malika musobaqa oldidan Layert bilan lutfan yarashib olishingizni maslahat beradilar.

×

H a m l e t

Xayrli maslahat.

Lord ketadi.

H o r a t s i o

Siz yutqizasiz, shahzodam.

H a m l e t

Unchalikmas. U Fransiya ketganidan buyon men muttasil mashq qildim. Buning ustiga, imtiyoz men tomonda. Men yutaman. Ammo, ishonasanmi, ko'nglim allanechuk g'ash. Ha, mayli, ahamiyatsiz.

H o r a t s i o

Yo'q, bu qanaqasi, shahzodam!

H a m l e t

G'irt tentaklik. Buning ustiga xotin kishini shashtidan qaytara oladigan tug'ish vahimasidek bir gap.

H o r a t s i o

Ko'nglingiz g'ash bo'lsa, unga quloq tutganingiz ma'qul. Men kayfiyatingiz joyida emas, deb ularga xabar qilaman.

H a m l e t

Aslo! Bid'atlardan baland turish lozim. Tangri taoloning irodasi bo'lmasa, hatoki chumchuq ham yiqilib tushmaydi. Agar qismat hozir buyurgan ekan, buni orqaga surish mahol. Orqaga surib bo'lmas ekan, demak, hozir bo'lishi muqarrar. Hozir ro'y bermagandayam bari bir qochib qutulolmaysan. Bas, hamisha tayyor turmoq kerak. Hamma gap shunda. Qachon nimadan ayrilishimizni-ku hech kim aytib berolmas ekan, oldinroq ayrilib qo'ya qolsak, nima qiladi? Ha, tavakkal.

Q i r o l, M a l i k a, L a e r t, O z r i k, xos mahramlar va qilichlarni ko'tarib xizmatkorlar kirishadi.

Q i r o l

Kel, Hamlet, kel, tutashtiray qo'llaringizni.
Layertning qo'lini Hamletning qo'liga qo'yadi.

H a m l e t

Meni ma'zur tuting, taqsir. Men haqsiz edim.
Mardlik yuzasidan meni etingiz afu.
Yig'ilganlar bilishadi, balki sizga ham,
Aytishgandir buni, ba'zan qanday qorong'u
Bosib, xira tortar hushim — xayolim mening.
Sha'ningizga til tekkizgan bo'lsam mabodo,
Ishoningkim, buning asl sababchisi shu.
Bunga Hamlet javobgarmi? Javobgar emas.
Baski, Hamlet junun chog'i unitib o'zni,
Etkazibdi Layertga chin malolat-ozor,
Aslida-chi, Hamlet tahqir etmamish uni,
Uni tahqir etgan tamom boshqa gunohkor.
Kimdir o'sha? O'sha aybdor-uning jununi.
Shunday ekan, demak, Hamlet o'zi da'vogar,
Unga uya qurib olgan illat — javobgar.
Do'st-yoronlar davrasida sizdan so'rayman,
Ko'nglingizni forig' tuting gina kudratdan.
Xudo shohid, sizni xafa qilmoqchimasdim:
Kamondan o'q uzib, uni tomdan oshirdim,
Yanglish qilib, og'aynimni yaralab qo'ydim.

L a e r t

Yuragimning eng qa'rida, aslida o'sha —
Nafrat yashaydigan joyda uzringiz qabul.
Lekin nomus ishi boshqa: qonun-qoida
Boshqachadir bunda, ma'zur tutolmasman to,
Bundoq bahsu, munoqasha bilimdonlari,
Bermaguncha, yarashing, deb tayin bar fatvo.
O'shangacha taklif etgan do'stligingizni
Qadrlayman, unga loyiq javob beraman,
Men ham shundoq do'stlik bilan.

H a m l e t

G'oyat xursandman.

Qabul etdim, musobaqa da'vatingizni,

Xo'sh, bo'lmasa, boshlaymizmi? Qilichlar qani?

L a e r t

Menga qilich bering.

H a m l e t

Sizga men qulay raqib,

No'noqligim qarshisida mahoratingiz,

Qorong'u tun yulduzidek ko'rinar balqib.

L a e r t

Siz ustimdan kulyapsiz, milord.

H a m l e t

Yo'q, rosti,

Agar yolg'on aytsam, mana, qo'limni kesing.

Q i r o l

Qani, Ozrik, qilichlarni tarqating. Hamlet,

Musobaqa sharti sizga ayonmi?

H a m l e t

Ayon

Kuchni qo'yib, zaiflikka tiqdingiz garov.

Q i r o l

Bu to'g'rimas, men ko'rganman ikkingizni ham,

U mashqini olgan, ammo sizda imtiyoz.

L a e r t

Menga boshqasini bering. Bu juda og'ir.

H a m l e t

Shu menga bop. Ikkisi teng, barobarmikin?!

O z r i k

Ha, shahzodam, ikkisi teng, barobar.

Ular jangga shaylanadilar.

Q i r o l

Qani, bizning dasturxonga sharob keltiring.

Hamlet raqibiga ikki zarba yetkazib,

Uchinchi zarbani xuddi qaytargan zamon —

Uning sharafiga barcha zambaraklardan

Bir varakay o'qlar uzib, solinsin suron.

Uning sog'ligiga qirol ko'tarur qadah,

Qadahiga solib asl, durdona-gavhar,

Bir gavharkim, Daniyaning to'rtta qirol

Tojiga qo'ndirgan o'sha yoqutdan afzal.

Qani, qadah suning. Dovrug' solib dovullar

Karnaylarga sado bersin, ular — to'plarga,

To'plar — samolarga eltsin, samolar yerga:

"Hamlet sharafiga qirol ko'tarur qadah!"

Qani boshlang. Sergak, hushyor turing, hakamlar.

H a m l e t

Boshlang, taqsir!

L a e r t

Qani, boshlang, milord.

Solishadilar.

H a m l e t

Bir.

L a e r t

Qaytardim.

Hamlet

Hakam!

Ozrik

Zarba, aniq zarba.

Laert

Bo'pti, boshqatdan.

Qiro l

Shoshmang, menga shârob bering. Hamlet, mana bu Gavhar senikidir. Sening sog'liging uchun.

Unga qadah tuting.

Sahna ortidan karnaylar chalinib, to'plar gumburlaydi.

Hamlet

Men shu davrani o'ynay.

Yo'q, hozircha qo'ya turing. Qani, boshladik.

(Solishadilar.)

Yana zarba. Nima deysiz?

Laert

To'g'ri, bu zarba.

Qiro l

O'g'limiz yengayapti.

Malika

U terga botibdi.

Hamlet, mana ro'molcha. Ol, terlaringni art.

Men, malika, g'alabangga qadah ko'taray.

Hamlet

Oh, onajon...

Q i r o l

Gertruda, mayni qo'y, ichma.

M a l i k a

Ichgim keldi. O'tinaman, izn so'rayman.

Q i r o l

(Chetga)

Qadah zaharlangan! Unga najot yo'q endi!

H a m l e t

Yo'q, onajon, hali birga ichishga erta!

M a l i k a

Kel, betingni artib qo'yay.

L a e r t

Endi men uray.

Q i r o l

Urrib bo'psiz.

L a e r t

(Chetga)

Qanday jirkanch, ayanch bu savdo.

H a m l e t

Uchinchi davrani endi boshlaymiz, Layert,
O'tinaman, hujum qiling hujumchi monand,
Hozirgacha o'yin bo'ldi ishingiz faqat.

L a e r t

Yo'g'-e, nahot? Qani, boshlang.
Solishadilar.

O z r i k

Ustma-ust xato.

Ikkisi ham bekor ketdi.

L a e r t

Mana, bo'lmasa.

Layert Hamletni yaralaydi. So'ng olishuv avjga chiqqanda, qilichlarni almashtiradilar. Hamlet ham Layertni yaralaydi.

Q i r o l

Ajratinglar. Ikkisi ham jahлга mingan.

H a m l e t

Yo'q, qaytadan.

M a l i k a yiqiladi.

O z r i k

Malikaga yordam beringlar!

H o r a t s i o

Ular qonga botishibdi. Qon qaydan, milord?

O z r i k

Qon qayerdan, Layert?

L a e r t

Qushcha qafasga tushdi.

Ozrik, raqibimga atab tuzoq qo'ygandim.

O'zim tushdim unga makri bedodim uchun.

H a m l e t

Malikaga nima bo'ldi?

Q i r o l

Qonni ko'riboq,
Ko'ngli ozib qoldi.

M a l i k a

Yolg'on, ishonma Hamlet,
Sharob! Sharob zaharlangan! Zaharli sharob!
(O'ladi.)

H a m l e t

Xiyonat — bu! Eshiklarni darrov bekiting!
Topish kerak u xoinni!

L a e r t

Shu yerdadir u.
Hamlet, o'ldirilding, endi senga najot yo'q,
Bor-yo'g'i yarim soat umring qoldi, bas.
Xiyonatning ashyolari ko'zing o'ngida,
Qilich zaharlangan, yana tig'i yalang'och.
Razolatim uchun men ham bo'lurman halok.
Malika ham ado bo'ldi. Madorim bitdi...
Hammasiga aybdor faqat qirol, qirol!

H a m l e t

Nima, qilich zaharlangan?! Bo'lmasa hozir
Vazifangni bajara qol, zaharli shamshir!
Q i r o l n i yaralaydi.

H a m m a

Xiyonat!

Q i r o l

Oh, yordam bering, do'stlarim, najot!
Faqat yaralandim, xolos. Umid bor hali.

Hamlet

Shunaqami? Ol bo'lmasa hissangni, jallod!
Qani, o'sha gavharingni o'zing yuta qol!
Bor, onamning yoniga bor!..

Qirolo'ladi.

Laert

Ha, ajab bo'ldi!
Bu sharobni uning o'zi tayyorlagandi,
Olijanob Hamlet, qani, kela qol endi,
Kechdim o'z xunimdan, yana otam qonidan,
O'tinaman o'z xuningdan sen g'am kechgaysan!
O'ladi.

Hamlet

Tangri seni ma'zur tutgay. Men ham izingdan...
Do'stim, Horatsio, endi hammasi tamom.
Xudo yarlaqasin seni! Xayr, malikam!
Siz esa, ey halokatli shu xotimaga
Tilsiz, unsiz guvoh bo'lgan qadrdonlarim,
Evoh, yana bir ozgina fursat bo'lsaydi,
Lekin ajal degan johil meni qistaydi,
Sizga yana ko'p gaplarni aytmoqchi edim...
Xayr, mayli. Hamma narsa bitdi, Horatsiy,
Sen tiriksan. Men to'g'rimda bor haqiqatni
Boshqalarga o'zing aytib bergaysan.

Horatsio

Aslo.
Daniyalik emas, qadim rimlikman, zero,
Bunda bir oz zahar qolgan.

Hamlet

Agar mard esang,
Qadahni ber menga. Qani, bera qol. Axir,
Bundagi chin haqiqatni birov bilmasa,

Men avlodlar nazarida toparman tahqir!
Do'stim, yana bitta savob, mardna ish qil,
Yerning bo'g'iq havosidan yana ol nafas.
Bu dunyoda qolib, mening sho'r yozishimni
Insonlarga hikoya qil...
Sahna ortidan marsh va o'q ovozlari eshitiladi.
Bu ne otishma?

O z r i k

Fortinbras g'olibona qaytib Polshadan,
Angliya elchilarin olqishlar bu dam.

H a m l e t

Horatsiy, men tugayapman. Zaharning kuchi
Karaxt qildi, Angliya elchilari to
Yetib kelgunicha tamom yumilar ko'zim.
Bashoratim: Fortinbras qirol bo'lg'usi,
Men ham quvvatlayman, unga ovoz beraman.
Bunda nelar kechganini o'zing aytib o't,
Tamom, ado bo'ldim. Bundan bu yog'i — sukut.
O'ladi.

H o r a t s i o

Chil-chil bo'lib sindi, evoh, noyob bir yurak,
Xayrli tun bo'lsin senga, aziz shahzodam,
Uxla, farishtalar shirin allalar aytsin.
Barabanlar chalib, bu yon kelayotgan kim?

Sahna ortida marsh sadolari.

Fortinbras va ingliz elchilari barabanlar,
bayroqlar va xos mahramlar bilan kirib kelishadi.

F o r t i n b r a s

Qayda kechdi bu mojaros?

H o r a t s i o

U qayg'uli mojaromi? Mana shu yerda.

Fortinbras

Hali bunda uchib yurar fig'onu faryod,

O'lim saroyida demak ziyofat quyuq!

Qonli suprasiga shuncha o'likni, hayhot,

Qalashtirib tashlabdi u.

B i r i n c h i e l c h i

Arosatdir bu,

Angliya xabarlari kechikdi ortiq.

Uni eshitmoqchi bo'lgan quloqlar botil.

"Farmon bajarildi", deya keltirdik xabar.

O'lim quchdi Rozenkranst, Gildenstern,

Desak, bizga buning uchun kim rahmat aytar?

H o r a t s i o

U aytishi gumon. Tirik bo'lganida ham —

Shundoq xabar uchun rahmat aytmasdi zotan.

Ular o'limini sira istamagan u.

Bu yon — Angliya, bu yon — Polshadan kelib,

Baski, shundoq qon ustidan chiqibsiz, yohu,

Farmon bering, jasadlarni qo'yishsin qator

Oshkor-ayon qilib baland tepa-qo'rg'onga.

Men so'ylayin neki ko'rgan-eshitganim bor,

Bu mojaro xususida jumla jahonga.

Men so'ylarman qonli, qo'rqinch falokatlardan,

Yovuz kirdikorlar, mudhish halokatlardan,

Qora savdolardan, iflos riyokorlikdan,

O'zi qazgan chohga o'zi yiqilib tushgan,

Misi chiqqan makkorlikni aytay nihoyat,

Hammasini birin-birin aytay hikoyat.

Fortinbras

Eshitmoqqa muntazirmiz. Tuzarmiz alhol
Buning uchun bir munosib majlisi oliy.
G'oyat qiyin kunda menga yuz ochdi iqbol,
Bu o'lkaga mening ham haq-huquqlarim bor.
O'shalarni aytmoqchiman.

Horatio

Men ham tarafdor.

So'z aytarman munavvar bir kimsa nomidan
Ki, saylovda qismatingiz hal etar chindan.
Oshiqaylik, xayollarni chulg'aish tutun,
Yana yangi bir falokat chiqmasin bugun.
Fortinbras
Hamlet jasadini yuksak so'riga elting,
To'rt kapitan eltsin, shahid jangchiga monand,
Tirik bo'lganida u qirol bo'lardi lekin
Va o'shanga loyiq edi. Uni eltarkan,
Harbiy nizom talabiga ko'ra tamoman
Cholg'u-sozlar faryod solib, jaranglab tursin.
Jasdlarni olib chiqing. Bu yerga emas,
Ular urush maydoniga yarashiqdir, bas,
To'plardan o'q uzishga ham buyruq berilsin!

Motam marshi.

Jasdlarni ko'tarib chiqadilar, keyin to'plardan yalpi o'q uziladi.



OTELLO

Venetsiyalik mavr¹



¹ Shekspir zamonida "mavr" "qora tanli" ma'nosida ishlatilgan. Shekspir tasvirida Otello – qora tanli, lablari qalin bir kishi qilib gavdalanadi (Rodrigo uni "labi do' rdoq" deb ataydi).

ISHTIROK ETUVCHILAR

Venetsiya doji.

B r a b a n s i o, senator.

Boshqa senatorlar.

G r a s t i a n o, Brabansioning ukasi.

L o d o v i k o, Brabansioning qarindoshi.

O t e l l o, aslzoda arab, Venetsiya davlatining a'yoni.

K a s s i o, uning leytenanti.

Y a g o, uning mulozimi.

R o d r i g o, venestiyalik davlatmand.

M o n t a n o, Qibrisning avvalgi hokimi.

M a s x a r a b o z, Otelloning xizmatkori.



D e z d e m o n a, Brabansioning qizi, Otelloning
xotini.

E m i l i y a, Yagoning xotini.

B i a n k a, Kassioning ma'shuqasi.

D e n g i z c h i l a r, o f i t s e r l a r, k i b o r l a r,
c h o p a r l a r, m a s h s h o q l a r, m u l o z i m l a r.

Voqea avval Venetsiyada, keyin Qibrisning dengiz portida kechadi.



BIRINCHI PARDA

1- sahna

Venetsiya. Ko'cha. Ro d r i g o bilan Yago kiradi.

R o d r i g o

Bas, gapirma! Yaramaydi bu ishing, Yago,
Hamyonimni senga shunday ochib qo'ysamu,
Sen shu ishni bilaturib, bilmadim, desang...

Y a g o

Voy, jin ursin, istamaysiz eshitishniyam!
O'lay agar, shu gap uxlab tushimga hatto
Kirgan bo'lsa, yuz o'giring mendan, roziman.

R o d r i g o

Uni jinim suymaydi, deb, o'zing aytgansan...

Y a g o

Ha, suymaydi, hazar qiling, agar aldasam.
Shaharning uch vallomati leytenantlikka
Meni o'tkazmoqchi bo'lib urindi qancha.
Gapning rosti, men bilaman o'z bahoyimni,
Men u joyga munosibman har qalay, lekin,
U bo'lsa-chi, takabbur va xudbin emasmi,
Borganlarni chalg'itibdi safsata sotib,
Tumtaroqli so'zga harbiy ifoda chatib.
Xullas kalom,

Gapni shunday tamom etibdi:
"Afandilar, men ofitser tanladim" debdi.
Xo'sh kimni deng?
Darhaqiqat, buyuk hisobdon,
Florensiyalik Mikel Kassio degan kimsani.
Go'zal bir xotinning sehri-domiga tushgan,
Biror jangga eskadronni boshlab bormagan
Va jangovar divizion nimadir, desang,
Qari bir qizchalik fikr etmaydigan zot,
Nari borsa, kitobiy bir bilim egasi,
Bashang to'nli elchilardan so'rab qaralsa,
Harbiy bilimlari undan balanddir balki;
Gap sotishga usta, lekin amaldan yiroq,
Ha, bor-yo'q askarligi mana shu. Biroq,
Kelib-kelib u tanlandi. Men esam-chi, men —
Otelloning shundoqqina ko'zi o'ngida
Rodos, Qibris yerlari¹ da va boshqa necha
Xristian va majusiy o'lkalarda ham
Ne-ne janglar qilib, kilich sirmagan odam —
Qolaberdim... Mana endi, o'sha hisobdon
Leytenant bo'ladi, mayli, xayrini bersin.
Men esam, ey falak, mavr janoblariga
Bor-yo'g'i o'sha-o'sha... bir mulozimman...

R o d r i g o

Xudo shohid, kallasini uzar edim men.

Y a g o

Xo'sh, nachora, la'nati shu mansab — vazifa
Maktub, tanish-bilish bilan olinmas endi.
Bir-biriga voris bo'lib o'rin egallash
Va surunish — ilgari bir qoida edi.
Taqsir, insof bilan endi o'zingiz ayting,
Men arabni qanday qilib sevishim mumkin?

¹ Venetsiya respublikasining harbiy dengiz bazalari bo'lmish orollar.

R o d r i g o

Men etmasdim xizmatini.

Y a g o

Xotirjam bo'ling;
Unga emas, men o'zimga xizmat qilaman.
Hamma birdek bo'lavermas xo'jayin, illo.
Hammaga ham xo'jayindek xizmat etilmas.
Bilasizki, qancha sodiq muttahaamlar bor.
Xo'jayinga xizmat qilar, tizza cho'kib, xor.
Ne uchun deng — arzimas bir yuvindi uchun,
Qariganda esa itdek quvilish uchun.
Menga qolsa, bundaylarni savalash darkor!
Lekin bordir yana boshqa mulozimlar ham —
Ko'rinishda sadoqatning timsoli, ammo
Yuraklari o'zlaridan o'zgani bilmas.
Xo'jayini uchun kuyib-pishadi go'yo,
Aslida-chi, hamyonini to'ldiradi, bas.
Boshqanimas, o'z-o'zini e'zozlaydi, ha.
O'ylaymanki, bundaylarda aqlu tamiz bor.
Taqsir, men ham shundaylarning biri bo'laman.
Bu chin gapdir, siz Rodrigo bo'lib, men esam
Arab bo'lganimda — Yago bo'lmaganimdek...
Unga atab, men o'zimga xizmat qilaman;
Xudo shohid, bu sevgiyu sadoqat emas,
Shundoq tuyuladi, lekin niqobdir, xolos.
Mumkinmidir biror xatti-harakat bilan
Yuragimning tabiati, mohiyatini
Jilla oshkor etsam, jindak sezdirib qo'ysam?
Undan ko'ra yuragimni kaftimda tutib,
Zag'chalarga cho'qitganim emasmi afzal!
Ha, aslida boshqachaman: men emasman — men.

R o d r i g o

Qanday omad nasib etar labi do'rdoqqa,
Shu ishni ham gar eplasa.

Y a g o

Borib, uyg'oting —
Qizning otasini, darhol oyoqqa tursin.
Boring, sevinch nash'asini zaharga qoting,
Ko'chalarda ayuhannos soling, hayqiring,
Boshingizga yig'ing qavmu qarindoshini,
Pashsha bo'lib, yopirilib, bosing arabni,
Toki uning quvonchlari qayg'uga do'nsin,
Alamidan oqarib ham ko'karib ketsin.

R o d r i g o

Mana, otasining uyi. Men qichqiraman.

Y a g o

Ha, baqiring ovoz qo'yib, vahima bilan,
Yarim tunda shaharga o't ketganday go'yo.

R o d r i g o

Hov, Brabansio!.. Sinor Brabansio!..

Y a g o

Brabansio! Uyg'oning tez! O'g'ri tushdi, hov!
Qarang qizingizga, molu bisotingizga!
Uyingizga o'g'ri tushdi! Uyg'oningiz, hov!
Yuqori qavatdagi darichada B r a b a n s i o ko'rinadi

B r a b a n s i o

Ha, namuncha qichqirasiz? Nima gap o'zi?

R o d r i g o

Sinor, uy ichingiz to'kis — tugalmi?

Y a g o

Sinor,
Qulflanganmi darvozayu eshiklarnngiz?

B r a b a n s i o

Xo'sh, nima gap o'zi? Ayting, nega so'raysiz?

Y a g o

Voy, jin ursin! Talandingiz! Darhol kiyining!
Uyat axir! Joningizdan judo bo'ldingiz;
Balki yotgandir ham hozir, xuddi shu nafas
Qora qo'chqor ostida oq qo'zichog'ingiz...
Ha, shoshiling! Ayyuhannos soling, bong uring,
Xurрак otgan xaloyiqni uyg'oting tezroq.
Yo'qsa, iblis bobo qilib qo'yadi sizni.
Hoy, qimirlang!

B r a b a n s i o

Magar jinni bo'lganing yo'qmi?

R o d r i g o

Sinor, meni ovozimdan taniyapsizmi?

B r a b a n s i o

Yo'q, sen kimsan?

R o d r i g o

Rodrigo deb atashar meni.

B r a b a n s i o

Otning qashqasisan; senga aytgan edim-ku,
Pashshaxo'rda bo'lma uyim atrofida deb.
Qizim sening tenging emas... Allaqaylarda
Musallasga bo'kib, yana alamga to'lib,
Eshigimga kelibsan-da?

R o d r i g o

Taqsir!

B r a b a n s i o

Bilib qo'y,
Gar istasam, ta'ziringni berib qo'ymoqqa
Kuchim yetadi, ha.

R o d r i g o

Taqsir, eshitsangiz-chi!

B r a b a n s i o

Nega qichqirasan! Bu yer — Venetsiya-ku!
Mening uyim shahardadir, dalada emas.

R o d r i g o

Ey muhtaram janob, yomon niyat bilanmas,
Ochiq ko'ngil bilan keldik ostonangizga...

Y a g o

Voy, jin ursin sizni, sinor! Siz iblis amr etsa, Tangri ibodatidan ham kechadiganlardan ekansiz. Biz sizga xolis xizmat qilamiz deb kelsagu siz bizni avbosh-bezori, deb o'ylasangiz. Demak, siz qizingizning arab ayg'iridan qochishini istaysiz. Nevaralaringiz otga o'xshab kishnasa ham mayli. Jijanlaringiz tulporlar, bedovlar bilan qarindosh-urug' kirishsa ham yo'q demaysiz?

B r a b a n s i o

Kimsan o'zing, murtad?

Y a g o

Sinor, men qizingiz bilan arab xuddi shu topda ikki boshli bir maxluq bo'lib yotishganini aytgani kelgan kimsaman.

B r a b a n s i o

Sen — yaramas iflossan!

Y a g o

Siz esa — senator.

B r a b a n s i o

Bu gaplar-chun, Rodrigo, sen javob berasan,
Men taniyman seni.

R o d r i g o

Taqsir, javob beraman.

Lekin sizdan o'tinaman, menga aytingiz:
Magar ruxsatingiz bilan go'zal qizingiz
Yarim tunda qorovulsiz¹, yakkayu yolg'iz
Uydan chiqib, yollanma bir qayiqchi bilan
Mavr og'ushiga tomon oshiqmadimi?
Shu ish bo'lgan esa sizning ijozat ila,
Qarshingizda biz gunohkor erurmiz chindan.
Agarda-chi, siz shu gapdan g'ofil bo'lsangiz,
O'rinsizdir butun ta'na-dashnomlaringiz.
Bu kalaka qilayapti meni, deb zarra,
O'tinaman, o'yingizga kelmasin sira.
So'rab-netmay, o'z boshicha ketgan bo'lsa u,
Yana aytay, ko'p nojo'ya ish bo'libdi bu.
Burchi, husni, zakovati, boyligini qiz
Bir kelgindi, sayoq bilan bog'lamish, esiz...
Ha, o'zingiz qarab ko'ring: agar qizingiz
Hozir uyda bo'lsa, mayli, meni shu zamon
Sizni aldaganim — tayin gunohim uchun
Mahkamaga sudrang.

B r a b a n s i o

Kim bor? Shamlarni yoqing!

Menga chiroq tuting! Hamma oyoqqa tursin!

¹ Shekspir zamonida nafaqat xotin-qizlar. balki erkaklar ham kechasi qorovulsiz ko'chaga chiqisholmagan. ko'chalar yoritilmagan. Har qadamda bezori, talonchilar tahdid solib turgan.

Nahot ko'rgan tushim endi o'ngidan chiqsa?
Bu gap chinga o'xshayapti, o'ylamoq — azob.
Qani, tezroq, sham keltiring! Sham keltiring, sham!
Ketadi.

Y a g o

Xayr endi, men bu yerdan ketishim darkor.
Agar qolsam, oqibati xunuk bo'ladi.
Mavr bilan to'qnashishga to'g'ri keladi.
Bilaman, u mansabidan ixroj etilmas,
Nari borsa, bir oz tanbeh oladi, xolos,
Chunki tezda boshlanajak Qibris jangida
U bag'oyat keraklidir, asqotar juda.
Uning o'rnin bosadigan boshqa birov yo'q —
Bu yurishga bosh bo'lishga. Shuning uchun men,
Garchi uni jinimdan ham yomon ko'raman,
Ne qilayki, tirikchilik siquvi bilan
Do'stlik bayrog'ini unga egaman nochor,
Bu shunchaki bir murosas, bo'lak gap emas.
Ha, agarda uni chindan topmoq bo'lsangiz,
Tikka Qurolxona tomon boshlab boringiz!
Xaloyiqni. Men ham shunda bo'laman. Xayr...

Ketadi.

B r a b a n s i o mash'al ko'targan xizmatkorlar bilan
tepadan tushib keladi.

B r a b a n s i o

G'oyat mash'um haqiqat bu: qizim uyda yo'q,
Yashash menga ortiq — hasrat-alam, vassalom.
Hoy, Rodrigo, qayda ko'rding uni? Badbaxt qiz!
Mavr bilan ko'rdingmi, a? Ota bo'lmay, o'!
Chindan o'shamidi — qanday taniding uni?
O, u meni aldar ekan, men-chi, bexabar,
Xo'sh, u nima dedi? Yana mash'al keltiring!

¹ Aslida: Sagietory — qurol-aslahas yasaladigan va saqlanadigan joy. (Tarj.)

Qavmu qarindoshim bari oyoqqa tursin!
Nikohdan ham o'tishganmi ular?

R o d r i g o

Ehtimol.

B r a b a n s i o

Yo falak! U qandoq qilib ko'chaga chiqmish!
O'z naslim, o'z qonim menga xiyonat etmish!
Ey otalar, qizingiz bor esa mabodo,
Yurish-turishiga boqib, ishonmang aslo.
Magar yo'q emishmi sarxush etib yoshlarni,
Es-hushidan ayirguvchi sehru amallar?
Bu to'g'rida o'qiganing bormi, Rodrigo?

R o d r i g o

O'qiganman, taqsir.

B r a b a n s i o

Qani, ukamni chaqir.
Aslida-ku sizga bersam bo'larkan uni.
Siz bu yoqdan yura qoling, bizlar — bu yoqdan!
Siz bilarsiz, qaydan izlash kerak ularni?

R o d r i g o

Ha, ularning qaydaligin yaxshi bilaman,
Epchil soqchilardan olib, yuring men bilan.

B r a b a n s i o

O'tinaman, boshlang, mening vakolatim bor:
Yo'l-yo'lakay posbonlardan olamiz yana.
Qani, hamma qurollarni qo'llarga olsin!
Soqchiboshilarga ayting, oyoqqa tursin,
O, Rodrigo xizimatingiz qadrlayman, ha...
Chiqadilar.

2- sahna

Boshqa bir ko'cha. O t e l l o, Y a g o va mash'al ko'targan
m u l o z i m l a r kirishadi.

Y a g o

Garchi jangda odamlarni o'ldirganim bor,
Biroq qotil bo'lishimga qo'ymadi vijdon.
Netay, ba'zan qabohatga borgim keladi,
To'qqiz, o'n bor qilichimni xuddi qorniga
Botirmoqchi bo'ldim, ammo o'zimni tiydim.

O t e l l o

Yaxshi qilibsan.

Y a g o

Lekin u janobingizni
Shundoq so'zlar bilan shundoq tahqir etdikim,
Garchi bir oz jinniligim bo'lsayam, bunga
Men har tugul tishni-tishga qo'ydim, chidadim.
Ha, darvoqe, siz chindanam uylandingizmi?
Taqsir, bilasiz-ku, axir, qizning otasi
G'oyat ardoqlidir, yana nufuzi baland.
Dojnikidan balki ustun kelar ovozi.
Ha, u sizni ajratadi bir-biringizdan,
Yo bo'lmasam, qonunlarga suyanib chindan,
Mahkamaga sudrab, rosa sarson etadi.

O t e l l o

Mayli, bilganini qilsin. Sinoriya deb
Qilgan xizmatlarim uning shikoyatlari
Ovozini o'chiradi. Bilib qo'ysin u,
Maqtanmoqchi bo'lsa naslu nasabi bilan,
Men ham kimligimni unga ayon etaman.
Podsho naslidanman, undan kamlik yerim yo'q.
Nasib etgan qismatimdan faxrlanaman.

Eshitib qo'y, Yago, senga boqiy so'zim shul,
Agar sevmasaydim go'zal Dezdemonani,
Alishmasdim men darbadar, hur hayotimni
Dengizlarning butun boylik sarvatiga ham.
Ammo, qara! Mash'al yoqib kelayotgan kim?

Y a g o

Qizning otasi va uning birodarlari.
Uyga kiring.

O t e l l o

Yo'q, yaxshisi meni topsinlar.
Mening nomim va unvonim, toza vijdonim
Menga himoyachi. Chindan o'shalarmikin?!

Y a g o

Yanus haqqi ont ichaman, boshqa kimsalar.
K a s s i o va mash'al ko'tarib bir necha ofitserlar kirishadi.

O t e l l o

Doj mulozimlari, mening leytenantim-ku.
Tun xayrli bo'lsin snzga, do'stlar! Nima gap?

K a s s i o

Salom yo'llab, doj buyurdi sizga, general,
Shu ondayoq huzurida hozir bo'lishni.

O t e l l o

Xo'sh, nima gap? Ne hodisa o'zi?

K a s s i o

Chamamda
Qibris bilan bog'liq biror gap bo'lsa kerak.
Favqulodda bir hodisa ro'y bermish magar,
Shu tundayoq yetib kelmish qancha choparlar,
Va oyoqqa turmish barcha senatorlar ham,

Ular doj oldida hozir turishibdi jam.
Sizni ko'pdan ilhaq bo'lib kutishar ular,
Uyingizdan izlab sizni topisholmadi;
Shunda senat to'rt tomonga kishi yubordi,
Axtaring, deb.

O t e l l o

Xayriyatki, meni topdingpz.
Men shu uyga kiranu chiqaman birrov,
So'ng jo'naymnz.

Chiqadi.

K a s s i o

Bunda nechuk ishi bor uning?

Y a g o

U bu kecha bir kemani qo'lga tushirdi,
Qonuniy deb topishsa, bas, ishni pishirdi.

K a s s i o

Tushunmadim.

Y a g o

U uylandi.

K a s s i o

Uylandi? Kimga?

O t e l l o qaytib kiradi.

Y a g o

Nahotki, siz... jo'nadikmi, general?

O t e l l o

Jo'nadik.

K a s s i o

Mana, tag'in kelishmoqda sizni axtarib.

Y a g o

Brabansio!.. Ha, ehtiyot bo'ling, general,

Uning yomon niyati bor, avzoyi buzuq.

B r a b a n s i o, R o d r i g o v a s o q c h i l a r q u o l l a n g a n h o l d a
mash'allar ko'tarib kirishadi.

O t e l l o

Hoy, to'xtanglar!

R o d r i g o

Mana, hozir!

B r a b a n s i o

Ur qaroqchini!

Har ikki tomondan qilichlarini yalang'ochlaydilar.

Y a g o

Salom, Rodrigo, men shayman xizmatingizga.

O t e l l o

Hoy, shu olmos qilichlarni qiniga joylang,

Tag'in shabnam qo'nib, zanglab qolmasin ular.

Bizga ta'sir etadigan quolingizmas,

Shu tabarruk yoshingizdir, muhtaram sinor.

B r a b a n s i o

Hoy, shum o'g'ri, qizim qani, qayga yashirding?

Uni jodu-amal qilib, sehrlab olding.

Aqli salim, tafakkurning tayin hukmi shu:

Qizim zanjirbanddir jodu zanjiri bilan.

Yo'qsa, shundoq ma'suma qiz, baxtli farishta

Yurtimizning ne-ne o'ktam o'g'lonlariga

Unashishga unamasdan, ustiga-ustak

O'z uyidan qochib, elga masxara bo'lib,
O'zni otarmidi shunday qora quchoqqa!
Bir quchoqki, mehr emas, vahima qo'zg'ar...
Dunyo shohid, bu aqlga sig'maydigan gap.
Jodugarlik bobida sen ustasi farang,
Qizga sehru amal qilding, doru ichirding
Va boshini aylantirding alal-oqibat
Bu ayon gap, bolaning ham aqli yetadi.
Bir menimas, bor dunyoni haqorat etding,
Bas, qonunga xilof qora qilmishing uchun
Men hoziroq seni bandi zindon etaman.
Qani, tuting uni, agar taslim bo'lmasa,
Ayab-netib turmang!

O t e l l o

Hoy, siz qo'lingiz torting!
Erk bermasin qilichiga ikki taraf ham.
Agarda ish qon to'kishga borib taqalsa,
Buni o'zim boshqalarsiz eplay olaman.
Men tayyorman qilmishimga javob bermoqqa,
Ayting, buning uchun qayga borishim zarur?

B r a b a n s i o

Turmaga borasan, keyin tayin soatda
Qilmishingga sud oldida javob berasan.

O t e l l o

Mayli, bo'ysunaman amru farmoningizga,
Unda dojga nima deysiz? Choparlar yo'llab,
Muhim davlat ishi bilan meni hoziroq
Huzuriga chaqirtirgan.

O f i t s e r

Ha, shundoq, sinor,
Doj oldida favqulodda kengash bor, balki,
Chopar jo'natilgan sizning uyingizga ham.

B r a b a n s i o

Shunaqami! Doj oldida kengashmi? Ajab
Yarim kechada-ya! Mayli, olib boringiz.
Bu ham jilla yomon emas, unda doj o'zi,
Yana boshqa senatorlar — birodarlarim
Bu qilmishni taftish etib, qilishar hukm.
Bunday qilmishlarga izn berilsa agar,
Qullar bilan majusiylar davlatga minar.

Chiqadilar.

3- sahna

Kengash zali. Doj va senatorlar stol atrofida o'tirishibdi Ofitserlar
tikka turishibdi.

D o j

Kelayotgan xabarlarda ko'p tafovut bor,
Bas, ularga ishonish ham qiyin.

B i r i n c h i s e n a t o r

Chindan ham
Ular bir-biriga to'g'ri kelmaydi; menga
Kemalarni — yuz yettita, deya yozishgan.

D o j

Menga esa — bir yuzu qirq.

I k k i n c h i s e n a t o r

Menga yetishgan
Maktublarda ular soni — xuddi ikki yuz.
Garchi muvofiqlik yo'qdir bu xabarlarda,
Chamamda yozishar ko'proq tusmol etishib.
Biroq bir narsani ular aniq tasdiqlar:
Turk floti Qibris sari bormoqda suzib.

D o j

Balli muhokama uchun shuning o'zi bas,
Tafovutlar esa meni tinchita olmas.
Zero, kelib chiqadigan asosiy ma'no —
Xatarlidir.

D e n g i z c h i

(Sahna ortidan)

Qo'ying meni! Qo'yib yuboring!

O f i t s e r

Kemalardan — chopar.

D e n g i z c h i kiradi.

D o j

Qani, gapir, ne gaplar?

D e n g i z c h i

Turk floti suzmoqdadir Radosga qarab.
Shu xabarni yetkazgil deb meni senatga
Sinor Anjello jo'natdi.

D o j

Bunga ne deysiz?

B i r i n c h i s e n a t o r

Yo'q, bo'lmagan gap bu, axir, bunga asos yo'q,
Balki bizni chalg'itishga to'qilgan hiyla.
Bilamizki, Qibris turkka qanchalar muhim
Va Radosdan ko'ra afzal, buni unutmang.
U Qibrisni osongina olishi mumkin,
Istehkomi kuchli emas, himoyasi bo'sh.
Rados esa tayyor turar mudofaaga
Maslahatim — o'ylab ko'ring shu jihatlarni,
Turk degani axir uncha anoyi emas,
Foyda nima, ziyon nima — yaxshi biladi,
Naqd turganda nasiyani nima qiladi.

D o j

Ha, chindan ham Rados uning mo'ljali emas.

O f i t s e r

Yana chopar.

Ch o p a r kiradi.

Ch o p a r

Muhtaram Doj, aziz janoblar,
Rados sari suzayotgan ottomanlarga¹
Yana o'zga bir flot ham kelib qo'shildi.

I k k i n c h i s e n a t o r

O, men shundoq bo'lishini o'ylagan edim.
Ular necha kema sizning taxminingizcha?

Ch o p a r

O'ttiz kema. Endi ular orqaga qaytib,
Ochiq-oshkor yo'l olishdi Qibrisga tomon.
Sizga botir navkaringiz sinor Montano
Sidqu sadoqat-la shuni ma'lum qiladi,
Unga ishonishingizni so'raydi chindan.

D o j

Ha, aniq gap, borishmoqda Qibrisni ko'zlab,
Mark Lukeze² qayda hozir, shahardamasmi?

B i r i n c h i s e n a t o r

Yo'q, u hozir Florensiyada.

¹ Turklar demoqchi. (Tarj.)

² Aftidan Doj dastlab qo'mondon qilib Lukezeni tayinlashni o'ylagan, ammo u bir yoqqa ketib qolganligi sababli bu mas'ul vazifani Otelloga yuklashga majbur bo'lgan.

D o j

Unga shu zamon

Maktub yozing, zudlik bilan yetib kelsin u.

B i r i n c h i s e n a t o r

Manna, Brabansio bilan shavkatli mavr.

B r a b a n s i o, O t e l l o, Y a g o,

R o d r i g o va boshqa ofitserlar kirishadi.

D o j

Shavkatli Otello, keling, sizni hoziroq

Turkka qarshi jo'natishga to'g'ri keladi.

(B r a b a n s i o g a)

Payqamabman, xush kelibsiz, muhtaram sinor,

Kengashingiz ko'p zarurdir bizga bu kecha.

B r a b a n s i o

Men sig'inib keldim, taqsir, panohingizga,

Meni ma'zur tuting, zero, meni oyoqqa –

Turg'izgan na burchimdir, na umumiy tashvish,

Og'ir bir falokat meni domiga tortmish,

Yorug' dunyo ko'zimga tor...

D o j

Ayting, ne bo'ldi?

B r a b a n s i o

Oh, qizim! Oh!..

D o j

U o'ldimi?

B r a b a n s i o

Men uchun o'ldi!

U uyimdan o'g'irlandi, haqoratlandi,

Bir lo'ttibozi sehladi nayranglar bilan.
Yo'qsa, ko'ru kar bo'lmagan, aqli raso qiz
Shundoq kunga tusharmidi?

D o j

Kim bo'lmasin u —
Jazolanur. Qonunlarning qonli kitobin
Olib o'qing va o'zingiz etingiz hukm,
Hatto o'g'lim bo'lgandayam, aralashmayman.

B r a b a n s i o

Men tashakkur deyman sizga bosh egib, sinor
Aybdor mana qarshingizda turibdi — mavr.
Davlat ishi yuzasidan huzuringizga
Hozirgina chaqirilgan kimsa.

D o j va s e n a t o r l a r

O, afsus!..

D o j

(Otelloga)

Xo'sh, siz bunga nima deysiz?

B r a b a n s i o

Nima ham derdi?
Bor gap shu.

O t e l l o

Ey izzatli, aziz janoblar,
Mening najib, oliy nasab senatorlarim!
Bu keksaning qizin olib qochganim-to'g'ri,
Yana to'g'risini aytsam, unga uylandim.
Bor aybim — avval-oxir, faqat mana shu.
So'zim dag'al, osoyishta-tinch davronlarning
Mayin lutfi-takallufi menga begona.

Shu qo'llarim yetti yoshdan hozirgacha to
(Keyingi shu to'qqiz oyni hisob etmasak)
Harbiy mashqdan boshqasiga mashg'ul bo'lmagan.
Va shu buyuk dunyoda men bilganim bir oz:
Jasoratu urush-surish so'zidir, xolos...
Shuning uchun o'z to'g'rimda so'zlagan mahal
Mehringizga noil bo'lish men uchun mahol.
Lekin sabr aylasangiz, ahli arjumand,
Muhabbatim qissasini so'zlab beraman.
Aytib beray, qiz qalbini ovlamoq uchun
Qanday doru, qanday sehru jodu qo'lladim.
Yana qanday amallarni ishga soldim men,
Meni ayblashadi shunday gunohlarda ham...

B r a b a n s i o

Axir, qizim ohu kabi hurkak qiz edi,
Yuvosh, kamtar edi, iffat, hayosi baland.
Salga qizarguvchi edi, xijolat chekib,
Shunday bir qiz o'z fe'liga o'zi g'ov tushib,
Yoshi, yurti, nomusi va burchidan kechib,
Shu kimsani sevarmidi! Axir, ilgari
Unga qarashga ham hatto qo'rqqar edi-ku!
Tabiatga xilof ish bu, faqat telbalar
Bu ahvolni tabiiy va to'g'ri deb bilar.
Yo'q, muqarrar u do'zaxiy amallar bilan
Qiz boshini aylantirgan, yaxshi bilaman.
Doru berib qiz qonini zaharlagan u,
Yo bo'lmasa, sehrlagan — shu yo'llar bilan
Uni taslim etgan.

D o j

Bular isbot bo'lolmas,
Uni ayblash uchun taxmin, tusmollar emas,
Aniq, qat'iy dalillarga suyanmoq darkor.

B i r i n c h i s e n a t o r
Ayting-chi, Otello, qizni qo'lga olarkan,
Siz mabodo doru, amal ishlatdingizmi?
Yo bu shirin suhbat chog'i yurakdan uchgan
Iltijoning mahsulimi?

O t e l l o

Sizdan so'rayman,
Buyuringiz, birov borib Qurolxonaga,
Xotinimni boshlab kelsin bu yerga hozir.
Otasining huzurida so'zlasin bir-bir
Men to'g'rimda eshitganu bilganlarini.
Agar so'zim yolg'on chiqsa, unvon-ku unvon,
Hayotimni garov qo'yay, etingiz hukm.

D o j

Borib, boshlab keling darhol Dezdemonani.

O t e l l o

(Yagoga)

Bora qoling, siz u joyni yaxshi bilasiz.
Ya g o mulozimlar bilan chiqadi.
U kelguncha, Yaratganga iqror etganday,
Izhor etay qonimning shu g'alayonini.
Aytib beray siz muhtaram oliy zotlarga —
Qanday qilib parivashga ko'ngil bog'ladim,
Va u qanday sevdi meni...

D o j

So'zlang, Otello.

O t e l l o

Qiz otasi meni sevib, izzatlar edi,
Mehmon qilib, etar edi uyiga da'vat.
So'rar edi hayotimning savdolaridan,
So'rar edi yilma-yil va faslma-fasl:

Janglar, qamallaru qonli mojarolardan.
Boshimdan ne o'tgan bo'lsa, bari-barini,
Bolalikdan shu kungacha nelar kechirdim —
So'zla, derdi barchasini so'zlar edim men.
So'zlar edim qo'rqinch, mudhish sarguzashtlarni,
Dengizda yo yerda ko'rgan uqubatlarni:
Qanday qilib qocha bildim ajal domidan,
Qanda, qilib bandi qildi meni g'addor yov,
So'ng qul qilib sotildim va qanday qutuldim,
Qancha manzil bosib, sarson-sargardon yurdim,
Ne bahaybat g'orlar ko'rdim, bo'm-bo'sh sahrolar,
Cho'ng qoyalar, boshi ko'kka tutashgan tog'lar...
Men betinim so'ylar edim, bir-birin yegan
Odamxo'rlar bormi yoki o'zga vahshiylar,
Elkalari boshidan ham baland odamlar —
Hammasini. Dezdemona tinglardi to'nib,
Har so'zimni ixlos ila, e'tibor qo'yib.
Men hikoya qilarkanman, uyda mabodo
Biror yumush chiqib, magar band etar bo'lsa,
Apil-tapil aylar edi uni saranjom,
Kelib, yana tikar edi jon qulog'ini...
Qulay topib, bir gal qizdan eshitoldim roz:
"Boshingdan shu kechganlarni menga batafsil
Boshdan-oyoq aytib bersang" degan iltimos.
Rozi bo'ldim. Va hikoya etar ekanman,
Qiz yashirmay, ko'z yoshini artadi dam-badam.
Hikoyamni aytib bo'ldim, shunda banogoh
Qiz qalbidan uchdi yoniq, otashin bir oh.
Va ont ichib aytdiki, bu ajib bag'oyat,
Ha, bag'oyat achinarli, g'amgin hikoyat.
Koshki edi eshitmasam bularni, dedi,
Koshki falak meni sizdek yaratsa edi!..
Rahmat aytib, yana shuni xitob etdi qiz:
"Agar meni sevar bo'lsa biror do'stingiz,
Ta'lim bering, qissangizni yodlab olsin u,

Keyin sizdek ayta bilsin, unga shartim shu:
Ishorani angladim va ko'nglimni ochdim,
Chekkan alamlarim haqi meni sevdi qiz,
Men ham sevdim uni munis yuragi uchun.
Mana shudir mendagi bor amal va afsun,
Ana, kelyapti, so'rang, o'zi so'zlasin.

D e z d e m o n a, Y a g o v a m u l o z i m l a r kirishadi.

D o j

Bu hikoya qarshisida mening qizim ham
Turish berolmasdi balki; Brabansio,
Siz bu ishni yaxshilikka yo'ying, azizim.
Asl erlar kurash chog'i yalang'och mushtdan
Afzal bilishadi sinq yaroqni.

B r a b a n s i o

Sizdan

O'tinaman, o'zidan ham so'rab ko'ringiz.
Agar qizim shu gaplarning yarmiga iqror —
Bo'lsa, mayli, halokatga bo'layin duchor.
Malomatim elu yurtga ovoza bo'lsin!
Qani, beri keling, mening aziz bekachim,
Shu majlisi oliy ichra hammadan avval
Kimga quloq osishingiz lozim?

D e z d e m o n a

Otajon,

Bu davrada bo'linadi ikkiga burchim;
Men burchliman sizga hayot, tarbiyam uchun.
Hayotim ham, tarbiyam ham, otajon, meni
Sizni hurmat aylamoqqa da'vat etadi.
Siz — nomusli padarsiz, men — hamon qizingiz
Ammo-lekin bu davrada erim ham hozir,
Bir mahallar onam sizga bo'ysunganday,
Men ham unga bo'ysunaman, itoatdaman.

B r a b a n s i o

Xudo xayringizni bersin! Tamom-vassalom!
Endi davlat ishlariga o'taylik, taqsir.
Asrandi qiz boqsam bundan yaxshiroq edi.
Beri kel, mavr;
Chin yurakdan berdim senga, ola qol uni,
Garchand o'zi allaqachon seningdir, lekin,
Lekin, agar menga qolsa hech qachon uni
Yaqiningga yo'latmasdim. Eshit, durdonam,
Xayriyatki, sendan o'zga zuryodim yo'qdir,
Ajab zolim qilib qo'ydi qilmishing meni,
Singling bo'lsa, kishanlarga solardim uni.
Men tugatdim, taqsir...

D o j

Ruxsat bering, men ham endi fikrimni aytay.
Shoyadki u ma'qul tushib, oshiq-ma'shuqqa
Mehringizni qozonishga bahona bo'lgay.
Er kishilar ertagi kun g'amini yerlar,
Bo'lgan bo'ldi, o'tgan ishga salovat, derlar,
Falokatni eslayversang, yosh to'kib, qarg'ab,
Bu o'shani qayta boshdan chaqirishday gap.
Qismat seni zug'umiga olarkan butkul,
Zaxarxanda bilan javob aylagan ma'qul.
Kimki o'g'ri orqasidan jilmayar, kular,
Qayg'u changalidan o'zni qutqargan bo'lar.

B r a b a n s i o

Undoq bo'lsa, bera qoling turkka Qibrisni,
Keyin kulib, qayg'udan ham qutqaring o'zni.
Nasihatchi nasihatga hamisha tayyor,
Lekin silliq so'zdan bo'lak unda nima bor?
Hasrat bosib, yuragingga qayg'u cho'kkan dam
Tilga so'z keladi, o'sha so'z bilan alam.
Bunday so'zlar zamirida yashaydi majoz,
Asalga ham, zaharga ham o'xshaydi bir oz.

So'z degani — so'zdir, yurak og'risa magar,
Qulog'idan dori quyib, tuzatmagaylar.
Keling, davlat ishlariga o'taylik, taqsir.

D o j

Turklar katta flot bilan Qıbrısqa qarab suzmoqdalar. Otello, oroldagi qal'a qudrati sizga yaxshi ma'lum. Garchi u yerda talay fazilatlar sohibi bo'lmish noibimiz bor, lekin voqealar hukmfarmosi bo'lmish ko'pchilik fikri sizni yoqlamoqda. Shuning uchun yangi baxtingiz shu'lasini ana shu mashaqqatli va sertashvish safar bilan xiralashtirishga to'g'ri keladi.

O t e l l o

Odat hukmi ko'p ayovsiz, aziz janoblar,
Harbu zarbning tikanakli tosh ko'rpasini
Aylantirmish mening uchun parqu to'shakka.
Mashaqqatlar chekish menga rohat-farog'at,
Turkka qarshi yurishga men tayyorman, faqat
Boshim egib so'raydirman, xotinim uchun
Yaratilsa yashamoqqa sharoit, chunon:
Uy-joy ila joriya va mablag'-nafqa,
Ko'rgan tarbiyasi shunga loyiqdir tamom.

D o j

Istasangiz, tura tursin otasi bilan.

B r a b a n s i o

Istamayman, men qarshiman.

O t e l l o

Men ham qarshiman.

D e z d e m o n a

Men ham istamayman, chunki otam har safar
Meni ko'rish bilan yana g'azabga minar.

Muhtaram doj, o'tinchim bor, sizdan so'rayman
Darig' tutmasangiz mendan muruvvatingiz.

D o j

Ne istaysiz, Dezdemona?

D e z d e m o n a

Men mavrni sevdim birga yashamoq uchun.
Qismatimning qanotlangan, uchqur bo'roni
Bu savdoni bor dunyoga qildi ovoza.
Yuragimni asir etdim matonatiga,
Aqlu idrokida ko'rdim uning jamolin.
Uning shavkatiga, uning shijoatiga
Qalbim bilan toleimni tikdim tamoman.
Shundoq ekan, janoblar, u urushga ketsa,
Va men bunda qolsam yolg'iz parvona kabi —
Bu firoq, bu ayriliqqa qandoq chidayman,
Men ham birga ketay, shunga izn so'rayman.

O t e l l o

Izn bering, shafqatingiz undan ayamang,
Xudo shohid, yigitchilik oshuftaligi,
Hoyu havas yo'lidas mening o'tinchim.
Yuragimni o'z izmimga solishim mumkin.
Lekin unga izn bering, erkiga qo'ying,
Men u yoqda azamat bir ishdan yuz burib,
Ishqibozlik aylamasman, Xudo saqlasin.
Ha, mabodo ishq Tangrisi bo'lmish Cupidon
Ko'zlarimni ko'r aylasa ehtiros bilan
Va jangovar burchimni men unutib qo'ysam,
Mayli, unda dubulg'amni uy bekalari
Dekcha qilib qaynatishsin, nomusim-orim
Uyat bilan malomatga ko'milsin tamom.

D o j

Qoladimi, ketadimi — o'zingizga tan,
O'zingiz hal qiling buni. Fursat juda ziq.

B i r i n c h i s e n a t o r

Shu tundayoq jo'nash lozim.

O t e l l o

Men tayyor, begim.

D o j

Biz ertalab to'planamiz soat to'qqizda,
Otello, bir ofitserni qoldirib keting.
Bizning topshiriqlar, yana har neki zarur —
Hammasini izingizdan yetkazur sizga.

O t e l l o

Oliy hazrat, mana, mening mulozimim bor,
G'oyat sidqu sadoqatli va halol odam;
Xotinimni eltishni men unga yuklayman,
Xizmatigingiz bo'lsa, bajo etishga tayyor.

D o j

Mayli, shundoq bo'la qolsin. Xo'p, xayrli tun —
Hammangizga.

(Brabansioga)

Menga qarang, muhtaram sinor,
Oliyjanoblik belgisi husnmas mutloq,
Kuyovingiz qora emas, gavhardek porloq.

B i r i n c h i s e n a t o r

Xayr senga, bahodir mavr! Tinglagil meni,
Yaxshi asrab-avaylagil Dezdemonani.

Brabansio

Ha, sen undan ko'zlaringni ayirma, magar
Otasini aldadimi — seni ham aldar...

Doj, senatorlar va mulozimlar chiqishadi.

Otello

Jonim garov bo'lsin uning sadoqatiga!
Sodiq Yago, topshiraman Dezdemonani,
Xotiningni hamroh qilib qo'ygil, ularni
Xayrli bir fursat topib, eltasan bizga.
Ketdik, Dezdemona, mening yolg'iz bir soat —
Fursatim bor sening bilan birga bo'lmoqqa:
Muhabbatu yana boshqa ishlarga butkul;
Bo'ysunamiz, zamonaning farmoyishi shul.

Otello va Dezdemona chiqadilar.

Rodrigo

Hoy, Yago!

Yago

Labbay, aslzodam.

Rodrigo

Bilasanmi, men hozir nima qilaman?

Yago

Nima qilarding, uyingga borib, maza qilib uxlaysan.

Rodrigo

Men o'zimni suvga otaman.

Yago

Unda oramizdagi oshnachiligimiz bitdi, deyaver. Odam
ham shunaqa ahmoq bo'ladimi!

R o d r i g o

Yashash azobga aylangach, yashamoq — ahmoqlik. O'limdan bo'lak chora qolmagandan so'ng, nima qilarding, o'lasan-da.

Y a g o

Voy, xumpar-ey! Men yigirma sakkiz yildan beri dunyoga boqaman. Nima foydayu nima ziyonligini bilganimdan buyon o'zi to'g'risida durustroq o'ylay oladigan bitta ham odamni uchratmadim. Men bir makiyonga ko'ngil qo'yib, o'zimni cho'ktiraman, deyishdan oldin odamligimni maymunlikka almashtirardim.

R o d r i g o

Nima qilay? Bunaqa muhabbatga muftalo bo'lish — uyat, o'zim ham bilaman. Lekin biror nima qilish qo'limdan kelmaydi.

Y a g o

Qo'limdan kelmaydi! Mana senga!.. Unaqa bo'lasanmi yoki bunaqa bo'lasan — bu o'zingga havola. Bizning vujudimiz — bog', irodamiz — bog'bon. Sassiqlik alaf o'stiramizmi yo jambilu rayhon, bir xildagi ko'katlar bilan bezaymizmi yoki anvoyi chechaklar bilan, bog'ni bog' qilamizmi yo tap-taqir sahroyi kabir — bu o'z qo'limizda. Agar hayotimiz tarozusining bir pallasida hissiyotlarimizni bosib turuvchi aql-idrok bo'lmasa, tabiatimizdagi qon va pastkashlik bizni ayanch oqibatlariga yetaklagan bo'lardi. Lekin aqdu idrok quturgan hissiyotlarimiz, shahvoniy istaklarimiz, tizginsiz hislarimizni sovutib turadi. Bas, sen sevgi deb atagan o'sha narsani men bachki butoq deb bilaman.

R o d r i g o

Bekor gap.

Y a g o

Bu qonning ko'pirishiyu irodaning susayishidan bo'lak narsa emas. Hoy, yigitmisan o'zing! O'zimni suvga otaman emish! Undan ko'ra, mushuklaru ko'zi ochilmagan kuchuklarni cho'ktira qol. Men seni do'stim deganman va e'tirof etamanki, oramizdagi do'stlik i pi judamustahkam. Hozir rosa foydam tegadigan bo'lib turibdi. Hamyoningni aqchaga to'ldir-da, bizga hamroh bo'l. Yasama soqol bilan basharangni o'zgartir. Ha, hamyonni aqchaga to'ldir. Senga aytsam, Dezdemonaning mavrga muhabbati uzoqqa bormaydi — karmonni aqchaga to'ldiraver — mavrning sevgisi ham uzoqqa cho'zilmaydi. Dezdemonaning sevgisi shiddat bilan boshlangan edi — shiddat bilan tugaydi, o'zing ko'rasan. Hamyonni aqchaga to'ldir. Bugun shakardan shirin bo'lib tuyulgan narsa hademay qalampirdan ham achchiq bo'lib qoladi. Dezdemona yosh, turlanib, tuslanaveradi. U mavrning vujudiga to'ygandan so'ng yanglishganini tushunib qoladi. Ko'ngli boshqasini tusaydi, shundoq ekan, hamyonni to'ldiraver. Agar joningga qasd qilmoqchi bo'lsang, o'zingni suvga cho'ktirma, boshqa nozikroq chorasini top. Ha, hamyonni baquvvat qil. Magar beqaror badaviy bilan makkor venestiya qizi o'rtasidagi omonat ahdu paymon mening aqlim va jahannam qudratlaridan ustun chiqmas ekan, jononni quchdim, deyaver. Demak, aqchani g'aml. G'arq bo'lishni o'ylama. Murod hosil etib, dorga osilish quruqdan-quruq suvga cho'kib o'lishdan ming marta afzal.

R o d r i g o

Agar senga ishonsam, umidlarim ro'yobga chiqarmikin?

Y a g o

Xotirjam bo'l. Bor, aqcha top. Ilgari necha bor aytganman, yana aytaman, arabni jinim suymaydi. Buning uchun kuchli asoslarim bor, ammo seniki ham menikidan oz emas. Kel,

birlashamiz, birlashib turib, qasos olamiz. Xotinini qo'lg'a tushirib, uning oldiga poxol solib ketsang, senga rohat bo'ladi, menga ermak. Zamonlar qa'rida ne-ne sir-asrorlar nihondirki, bir kuni oshkor bo'lgay. Bor, aqchani o'yla. Ertagi kundan umidimiz behisob. Xayr.

R o d r i g o

Ertaga qayda uchrashamiz?

Y a g o

Menikida.

R o d r i g o

Men ertaroq kelaman.

Y a g o

Bo'pti, xayr. Hay, menga qara, Rodrigo?

R o d r i g o

Nima deysan?

Y a g o

O'zni suvga cho'ktirish haqida boshqa gapirma. Xo'pmi?

R o d r i g o

Men fikrimdan qaytdim. Hovli-joyimni sotaman.

Y a g o

Barakalla! Xayr! Hamyonni to'ldir!..

R o d r i g o chiqadi.

Mo'may hamyon erur menga mana shu so'tak,
Manfaatim suyanchig'i, ermak nishoni.

Yo'qsa, yurarmidim unga vaqtimni sarflab.

Ayon gapki, men mavrni yomon ko'raman.

Xotinim-la don olishgan degan gaplar bor,

Aniq bilolmadim, bu gap chinmidir, yolg'on?

Lekin menga kifoyadir ana shu gumon...
Uning menga e'timodi, ishonchi baland,
Bu qo'l kelar niyatimning ijrosi uchun.
Kassio zap yigit... Shoshma, o'ylab ko'raylik:
Men o'rnini egallayman uning. Va shunda
Makrim qushi parvoz uchun taqar qo'sh qanot...
Xo'sh, keyin-chi? Keyin?.. Ha, ha, bir oz vaqt o'tib,
Otelloning qulog'iga quyaman sekin —
Kassio xotining bilan apoq-chapoq, deb...
Bunda jon bor: xo'p kelishgan, barno yigit u,
Bir qarashda chalg'itadi xotin zotini.
Mavr tabiatan sofdil, sodda emasmi,
Bu gaplarga ishonadi, laqqa tushadi.
Men esam-chi, no'xta solib unga begumon,
Eshshak kabi yo'rttiraman, etaman sarson.
Ha, muqarrar shundoq bo'lur: jahannam va tun,
Yopirilib bosar jumla jahonni butun.

(Ketadi.)

IKKINCHI PARDA

1- sahna

Qibrisda dengiz porti. Sohilga yaqin ochiq bir joy.

M o n t a n o bilan i k k i y i g i t kiradi.

M o n t a n o

Ha, tepadan biror narsa ko'roldingizmi?

B i r i n c h i y i g i t

Yo'q, hech narsa: ufqqacha to'lqin va toshqin,

Osmon va suv oralig'i ichra shu palla

Biror yelkan ko'rinmaydi.

M o n t a n o

Shiddatli shamol

Tinim bilmay solmoqdadir yerda ham suron.

Titramoqda bizning buyuk istehkom — qo'rg'on.

O'ylab qarang: dengizda ne bo'ron, po'rtana...
Tog'day to'lqinlarga bardosh berarmi kema?
Oqibati ne bo'larkin?

I k k i n c h i y i g i t

Turk kemalari
Shubhasizki, har tomonga sochilib ketdi.
Ko'piklangan qirg'oqqa bir borib, qarangiz,
Tikka to'lqin bulutlarga chovut solguday.
Shamollarda dahshatli bo'z yollarin tarab,
Etti qaroqchini ko'kdan uzib olguday,
Qutb yulduzini o'chirmoqchiday go'yo —
Yuksaklarga talpinadi, mudhish guldirab.
Bir bo'ronki, ko'rmaganman bunaqasini.

M o n t a n o

Turk floti qulay qilib, biror ko'rfazga
O'zni ololmagan bo'lsa tamom, cho'kdi, bas,
Axir, bunday bo'ron bilan o'ynashib bo'lmas.
U c h i n c h i b i r y i g i t kiradi.

U c h i n c h i y i g i t

Yigitlar, xushxabar! Bizning urush tugadi,
Bo'ron turklar flotini yakson ayladi.
Niyatlari barbod bo'ldi. Venetsiyaning
Bir kemasi kirib keldi Gavanga omon,
Ular ko'rishibdi, aniq so'zlamogdalar
Turk flotin qayda halok aylamish bo'ron.

M o n t a n o

Yo'g'-ey! Nahot?

U c h i n c h i y i g i t

"Veronalik" degan bir kema
Hozirgina bandargohda langar tashladi.

Undan tushib keldi Mikel Kassio degan
Bir leytenant — Otelloning sodiq navkari.
O'sha Otelloni hali dengizda demish,
U Qibrisga noib bo'lib kelmoqda emish.

M o n t a n o

Men xursandman, mavr bunga juda munosib.

U c h i n c h i y i g i t

Va o'sha Kassio turklar halokatini
Xursand so'zlar ekan, bir oz tashvishli boqar.
Mavr salomat bo'lgay, deb iltijo etar,
Bo'ron bir-biridan uzib qo'ymish ularni.

M o n t a n o

Uni panohingda o'zing asragil, Xudo!
Unga xizmat qilganim bor, u chin sarkarda
Va chinakam jangchi. Qani, qirg'oqqa yuring,
Kelayotgan har kemani ko'raylik toki,
Ko'rinmasmi unda bizning jasur Otello?
Moviy yiroqlarga hamma ko'z tikib, uni,
Axtaraylik nazarimiz yetgunicha to.

U c h i n c h i y i g i t

Qani, yuring, og'aynilar, fursat g'animat,
Har daqiqa yangi-yangi yo'lhilar...

K a s s i o kiradi.

K a s s i o

Rahmat,
Ey shavkatli erlar, Qibris bahodirlari.
Mavrni ta'riflab, shuncha e'zoz etdingiz.
Balolardan o'zing omon saqlagil, falak,
Dahshatli dengizda ko'zdan yo'qotdim uni.

Montano

Xo'sh, kemasi nechuk, mahkam, baquvvatmidi?

Kassio

Zo'r, baquvvat kema edi uning kemasi,
Darg'asi ham tajribali, pishiq bir odam.
Shuni o'ylarkanman, ortar umidim har dam.

Sahna ortidan "Yelkan! Yelkan ko'rindi, yelkan!" degan ovozlari.
Chopar kiradi.

Kassio

Bu ne shovqin?

Chopar

Shahar go'yo huvillab qolgan,
Va butun xaloyiq o'zni qirg'oqqa urgan.
"Yelkan! Yelkan!" deya birdek qichqirar hamma,

Kassio

Adashmasam, sarkardamiz keldi chamamda.
To'p otilgani eshitiladi.

Ikkinchi yigit

To'p otishar mehmonlarni ehtirom aylab,
Demak, do'stlar kelishibdi.

Kassio

Sizdan so'rayman,
Borib, bilib keling, qani, kim keldi ekan?

Ikkinchi yigit

Bosh ustiga.

Montano

Ha, leytenant, uylanganmi generalingiz?

K a s s i o

Uylanganda qandoq! Ajib bir pari paykar,
Go'zallikda ovozası olamga ketgan,
Ta'rifiga so'z ham ojiz, qalam ham ojiz,
Farishtadek qizga.

Ikkinchi yigit qaytib kiradi.

Ayting, kelgan kim ekan?

I k k i n c h i y i g i t

Generalning mulozimi, Yago degan zot.

K a s s i o

Qarang, qanday shitob ila yo'l bosibdi u.
Vahshiy bo'ron, bo'z to'lqinlar, uchqur shamollar
Tik qoyalar, sayoz qumlar, xavfu xatarlar,
Xullas kalom, tabiatning bebosh kuchlari
Husn ila malohatning sehriga tushib,
Yo'l bermishlar ilohiy u Dezdemonaga.

M o n t a n o

Kim ekan u?

K a s s i o

Hozirgina ta'rifladim-ku
Sardorimiz sardorasi. Ha, botir Yago
Qoldirilgan edi uni olib kelmoqqa,
U keltirmish muddatidan bir hafta oldin
Ey sen, Otelloga panoh bo'lgan Yupiter,
Uning yelkaniga o'zing ufur nafasing.
Shu ko'rfazii obod etsin kemasi bilan,
Kelib, go'zal yorini u qo'yniga olsin,
So'nik ruhimizga yana harorat solsin,
Farog'at keltirsin butun Qibrisga!
D e z d e m o n a, E m i l i y a, Y a g o, R o d r i g o va
m u l o z i m l a r kirishadi.

Qarang!

Kemaning bor xazinasini sohilga chiqmish.

Ey Qibris erlari, qani, tiz cho'kingiz tez!

Olqish, salom bo'lsin senga, go'zal malikam!

Salomat bo'l, qayda bo'lsang, qudratli falak

Boshing uzra panoh bo'lsin.

D e z d e m o n a

Rahmat, Kassio,

Ayting, nechuk xabarlar bor mening erimdan?

K a s s i o

Hali kelgani yo'q, ammo ishonchim komil,

Sog'u salomatdir, tezda yetib kelar ul.

D e z d e m o n a

Oh, qo'rqaman... Qanday qilib ajrab qoldingiz?

K a s s i o

Ko'k va suvning olishuvi ajratdi bizni,

Lekin, ana, kichqirishar "Yelkan!" deb yana.

Sahna ortidan "Yelkan! Yelkan!" degan qichqiriqlar. To'p otiladi.

I k k i n c h i y i g i t

Istehkomga salom yo'llab, to'p otdi kema,

Demak, yana do'stlar.

K a s s i o

Borib, tez xabar oling.

Y i g i t chiqadi.

Xush kelibsiz, mulozim. O, marhabo, xonim!

Bu qilg'im g'ashingizga tegmasin, Yago,

Mening ko'rgan tarbiyam o'z iltifotimni

Shunday izhor aylamoqqa da'vat etadi.

Emiliyani o'padi.

Y a g o

Tili bilan ta'zirimni bergani kabi,
Dodingizni bersa edi lablari bilan,
Holingizga boqar edim.

D e z d e m o n a

Yo'g'-ey, nahotki!
U judayam kamgap.

Y a g o

Bekam, judayam sergap.
Meni uyqu bossa, uning ochilar jag'i.
Ammo sizning oldingizdakamtarin, si po.
Yuragiga tilini sal suqib turadi,
Lekin xayolida meni so'kib turadi.

E m i l i y a

Bu gaplarning menga sira aloqasi yo'q.

Y a g o

Shunaqa deng... Ko'chada siz — misoli suvrat,
Mehmonxonangizda lekin — misli qo'ng'iroq.
Oshxonada — yovvoyi bir mushuksiz xuddi,
Avliyoga aylanasi — alam cheksangiz.
Birov ranjitsa-chi — xuddi shaytonning o'zi
Uy-ro'zg'orda — raqqosayu to'shakda — beka.

D e z d e m o n a

Hay-hay, uyat! Bo'ldi qiling, tuhmatchi.

Y a g o

Yo'q-yo'q,
Yolg'on aytsam, harna bo'lay, bular ne emish,
Turmush sizga — ermak faqat, yotish sizga — ish.

E m i l i y a

Menga boshqa madhiyalar to'qimang.

Y a g o

Aslo.

D e z d e m o n a

Menga nechuk bir madhiya to'qir edingiz?

Y a g o

O, malikam, behudaga meni qiynamang,
Men tanqidsiz turolmayman.

D e z d e m o n a

Bir unnab ko'ring.

Ha, darvoqe, bandargohga odam ketdimi?

Y a g o

Ketdi, bekam.

D e z d e m o n a

(Chetga)

Yuragim g'ash, shu ermak bilan,
Nima qilay, o'zimni sal ovutmoqchiman.
Ayting, menga ne madhiya to'qir edingiz?

Y a g o

Jindak sabr, mana hozir... Mening ijodim
Yelim kabi yopishibdi boshimga mahkam.
Miyamni ham qo'poradi ko'chiray desam...
Lekin ilhom kelib qoldi, mana, eshiting:
Qiz oqil va sohibjamol bo'lsa, har joyda
Aqli uning chiroyidan chiqazar foyda.

D e z d e m o n a

Durust, durust! Chakkimas, xo'p, yana ayting-chi,
Qiz agarda xunuk, lekin dono bo'lsa-chi?

Y a g o

Qiz oqila, ammo xunuk bo'lsa, beziyon,
Munosib bir yigitchani topar begumon.

D e z d e m o n a

Yo'q, bunisi chiqmadi.

E m i l i y a

Go'zal bo'lib, go'l bo'lsa-chi?

Y a g o

Go'zal, ammo nodon bo'lsa, bo'lur alomat,
Nodonligi tug'ishiga qo'l kelar faqat.

D e z d e m o n a

Ha, bu qovoqxona ahlini kuldirish uchun to'qilgan
eski latifalar. Xo'sh, ham xunuk — bedavo, ham go'l-
ahmoq bo'lgan qiz haqida qanday ayanchli madhiyangiz
bor?

Y a g o

Qiz xunuk va ahmoq bo'lsa, tozi bo'ladi,
Go'zal, oqil qizlar kabi nozi bo'ladi.

D e z d e m o n a

O, qanday jaholat! Eng yomonni, eng yaxshi
ta'rifladingiz. Ammo maqtovgga chindanam munosib,
qadru qiymatini hasad-adovatning o'zi ham tan oladigan
xotinni qanday ta'riflagan bo'lur edingiz?

Y a g o

U go'zaldir, ammo sira takabbur emas,
Tili biyron bo'lsa hamki, ortiq so'zlamas.
Aqchasi mo'l, lekin uni sovurmas yelga,
Ne so'rasang, "yo'q" demaydi, deydi "mayliga".
Alam yetsa, o'ch olmaydi, chidaydi faqat,
Boshingizga yog'dirmaydi ta'na-malomat.
U ma'sumdir, oqiladir, yurak hamdami,
Don qayda-yu, somon qayda – yetadi-fahmi.
U o'ylaydi, o'ylaganin aylamas oshkor,
Xushtorlari ergashganda etmas e'tibor.
U shunday zot, shunday zotki...

D e z d e m o n a

Yarar ne ishga?

Y a g o

Ahmoqlarni tug'ishgayu pivo quyishga¹.

D e z d e m o n a

O, qanday cho'ltoq va bo'lmag'ur bir xulosa bo'ldi!
Emiliya, garchi u ering bo'lsa-da, so'zlariga quloq osma.
Siz nima deysiz, Kassio? U g'oyat osiy va buzuvchi bir
maslahatchi emasmi?

K a s s i o

Xonim, u cho'rtkesar odam. Uning olim emas, askar
ekanligini hisobga olishingizga to'g'ri keladi.

Y a g o

(Chetga)

Kassio uning qo'lini kaftiga bosyapti. Ha, mayli,
shivirlashib qolinglar. Men ana shu mo'jaz to'r bilan
Kassiodek kattakon pashshani domimga tushiraman. Xo'sh,

¹ Ushbu misra G'. G'ulom tarjimasida berildi (Tarj..)

xo'sh, unga qarab iljayaver... Men seni o'z xushomadlaringga chirmab, taqdim etaman. Siz haqlisiz, begim, chindanam shunday! Bir kuni ana shu hazillaring seni leytenantlikdan mahrum qilib qo'ysa, uch barmog'ingni shu qadar intiqib o'pganlaringga pushaymon bo'lasan. Ha, xo'jayinni raqsga tortishga ishtiyog'ingiz baland. Durust, durust! O'pishlari muborak bo'lgay! Nazokatni qarang, nazokatni! Yana barmog'ingizni labingizga bosyapsiz shekilli? O'sha barmoqlar birdaniga klizmatrubkaga aylanib qolsa, yomon bo'lmasdi. (*Burg'u sadosi.*) Mavr keldi. Burg'usidan taniyman uni.

K a s s i o

Ha, o'shaning o'zi.

D e z d e m o n a

Yuring, qarshi olamiz.

K a s s i o

Yo'q, u mana, kelib bo'ldi.

O t e l l o va mulozimlar kirishadi.

O t e l l o

O, mening hur — parivashim, go'zal botirim!

D e z d e m o n a

Aziz Otello!

O t e l l o

Ko'zlarimga ishonmayman, ne saodat bu!
Mendan oldin nechuk yetding bu yerga, jonim.
Bo'rondan so'ng doim shunday farog'at kelsa,
Mayli, uvlab esaversin uchqur shamollar,
Uchirimlar to'lqinlarni ko'tarsin ko'kka.

Cho'ng kemalar to'liqlarga tirmashib xuddi,
Olimp kabi yuksaklardan, falak burjidan
Jahannamiy cho'nqirlarga otilsin tikka!
Agar o'lish kerak bo'lsa, mana, men tayyor,
Ko'z yumardim shu dunyodan men ham baxtiyor.
Qalbim quvonchlarga to'lgan shu daqiqani
Qo'rqamanki, qismat nasib etmagay takror.

D e z d e m o n a

Yo'q, Xudo asrasin!
Hali baxtimiz kulgay,
Sevgimiz ham, umrimiz ham ziyoda bo'lgay.

O t e l l o

Omin! Aytganlaring kelsin!
Men quvonchimdan,
So'z aytishga ojizdirman!.. Nafasim tutar.
Faqat bir me'yorda urmay yuraklarimiz,
Bir ajoyib ohangsizlik oshkor etar.

D e z d e m o n a n i o'padi.

Y a g o

(Chetga)

O, judayam sozlangandir yuraklaringiz,
Faqat men ularga jindak tikan sanchaman,
O'zgaradi pardasi ham, taronasi ham...

O t e l l o

Endi qasrga boraylik. Do'stlar, xushxabar:
Urush tamom! Turk floti dengizga botdi.
Oroldagi do'stlar qalay, salomatmilar?
Seni bunda ko'tarurlar boshlarga, jonim,
Meni esa sevib, juda e'zoz eturlar.
So'zlarim ham poyma-poydir, ma'zur tut meni,
Nima qilay, quvonchimdan aylanar boshim.

O'tinaman, Yago, darhol bandargohga bor,
Unda mening yuklarimni kemadan olib,
Kapitanning qo'rg'oniga tashi!.. Zo'r yigit!
Menga juda yoqar uning dovyurakligi.
Dezdemona, yonimdasan, yo'qdir armonim,
Yana bir bor xush kelibsan Qibrisga, jonim!
Qani, ketdik.

Yago va Rodrigodan bo'lak h a m m a ketadi.

Y a g o

(Xizmatkorlardan biriga)

Borib, meni bandargohda kut. (*Rodrigoga*) Beri kel. Agar chindanam yigit bo'lsang — deydilarki, muhabbat ko'rqqni ham sherga aylantirarmish — gapimga quloq sol. Leytenant bugun kechasi saroyga qorovullik qiladi. Ammo bundan ham oldin aytadigan gapim shuki, Dezdemona uni o'lgudek sevib dolgan.

R o d r i g o

Kassionimi? Yo'g'-ey, bekor gap.

Y a g o

Damingni yutib, meni oxirigacha tingla. U boshda mavrni nechog'lik oshufta bo'lib sevib qolganini bir eslab ko'r. Nima uchun — maqtanchoqligi va har turli uydirmalari uchun. Nahotki, ana shu valaqlashlarga u bir umr mahliyo bo'lib o'tsa? Yo'q, unday deb o'ylasang, yanglishasan. Ayol kishining ko'ziga ham oziqa kerak. Xo'sh, o'sha qora shaytonga tikilib, ne bahra topadi? Ishqiy ermaklardan qon sovugach, uni qayta alangalatish, yangidan karnay bo'lgan ishtahani qondirish uchun ko'rkam shaklu shamoyil, yoshlik-navqironlik, nazokatu nafosatlar kerak bo'ladi. Bular mavrda yo'q. Bu fazilatlarini topolmagan Dezdemona o'zining nozik sezgilarini tahqirlangan deb his qiladi, oh chekadi, uh chekadi, mavrni jini sevmay qo'yadi, oxir-oqibat undan jirkanadi, hazar qiladi.

Tabiatning o'zi uni boshqaga itaradi. Xo'sh, taqsirim, shundoq bo'lishi muqarrar ekan, bu ishga Kassiodan bo'lak kim muvofiq keladi? U yaramas gap deganni qiyib yuboradi, keyin o'zini yaxshi ko'rsatish uchun o'zidagi qusurlarni kim u kabi pardalay oladi? Hech kim, hech kimsa. U shunday muttahaamki, fursat to'g'ri keldi degunchao'zining foydasi uchun chippayopishadi, qulay kelmasa, qulay keltiradi. Buning ustiga xushsuvrat va yosh, hali esini o'nglab olmagan chala dumbullarni chalg'itish uchun hamma narsa unda muhayyo. Ana shunday uchchiga chiqqan muttahaam u!.. Xotin ham uni tanladi – qo'ydi.

R o d r i g o

Men bunga ishonmayman. U – oliyjanob xotin.

Y a g o

Oliyjanob emish!.. Mana senga – oliyjanob! Uning ham ichadigan sharobi uzumdan solingan shekilli. U oliyjanob bo'lganda mavrni sevmasdi. Katta xolang – oliyjanob! U Kassioning qo'lini kaftida tutib o'ynaganini payqadingmi? Nahotki payqamading?

R o d r i g o

Payqaganda-ku payqadim, lekin bu bir iltifot-da.

Y a g o

Buning otini buzuqchilik deyishadi! U qo'ldan boshlanadi, Xudo biladi, qayda tugaydi. Iflos hirsu havaslar tarixining debochasi bu! Ular lablarini shunday yaqinlashtirishdiki, hatto nafaslari ham qo'shilishib ketdi. Shayton vasvasasi bu, Rodrigo! Qo'llar topishdimi, tamom, naryog'i – asosiy ish, umumiy xulosaga o'tish qiyinmas. Hoy, taqsirim, gapimga quloq osing: men sizni Venetsiyadan bekorga boshlab kelmadim. Tunda qorovulda turasiz. Sizni tayinlashlarini men bo'ynimga olaman. Kassio

sizni tanimaydi. Men ham o'sha atrofda bo'laman. Siz bir evini qilib, uning jahlini chiqaring. Baqirib gapirasizmi yo intizomni buzasiz — bu yog'i o'zingizga havola.

R o d r i g o

Yaxshi.

Y a g o

Taqsir, u qiziqqon odam, salga jahli chiqadi, sizni shapaloqlab tushirib qolishi ham hech gapmas. Shundoq qilishiga qo'yib bering. Men shu janjalni bahona qilib, Qibris ahlini oyoqqa turg'izaman. Xalqni tinchitish uchun Kassioni ishdan olishga to'g'ri keladi. Ana shu qisqa yo'l bilan niyatingizga yetasiz, menga ham oson bo'ladi. Agar shu g'ovni o'rtadan ko'tarib tashlamasak, ishimiz yurishmaydi.

R o d r i g o

Qulayini topsam, bas, bajaraman.

Y a g o

Men seni yoqlayman. Meni qasrda kut. Otelloning yukini qirg'oqqa tashishim kerak. Xayr.

R o d r i g o

Xo'p, ko'rishguncha.

Chiqadi.

Y a g o

Kassioning sevishiga ishonchim komil.
Dezdemonaning ham unga ko'ngli yo'q emas,
Garchi jinim xushlamaydi mavrni, lekin,
U samimiy, nazokatli, oliyjanob zot,
G'oyat sadoqatli erdir Dezdemonaga,
Buni isbot etadi u, bunga shubham yo'q.
Men ham xush ko'raman go'zal Dezdemonani,
Garchi shunga o'xshash qilmish — gunohlarim ko'p,

Lekin meni qasos hissi undar bu ishga,
Xotinboz u Otelloga tushgan gumonim.
O'sha mening to'shagimda yotganmish! Shuni
O'yladimmi, yoyiladi ichimga zahar.
Xotanim-chun xotinini olmaguncha to,
Biror narsa yuragimga bermas tasallo.
Agarda-chi, eplolmasam bu ishni, unda
Mavrni rashk oloviga shunday qorayki,
Zir yugurib, topolmasin dardiga chora.
Venetsiya ko'ppagini ishga solaman,
Buning uchun Kassio bir bahona bo'lur.
Kassioni qoralayman mavrga nuqul,
Don olishgan emish u ham xotanim bilan.
Mavr menga mehr qo'yib, rahmat aytadi,
Uni xuddi eshshak qilib minganim uchun.
Judo aylab tamom rohat-farog'atidan,
Quturtirib, rosa jinni qilganim uchun...
Hay-hay, shoshma! Uyat, axir! Shu yog'i yetar,
Kartani ham yurmaguncha ko'rsatmagaylar...

Chiqadi.

2-sahna

Ko'cha.

Qo'lida yorliq ko'tarib, jarchi kiradi. Uning izidan — x a l o y i q.

J a r c h i

Oliyjanob va qahramon generalimiz Otelloning farmoyishi. Yaqinda olingan aniq ma'lumotlarga ko'ra, turk floti butkul halokatga uchragan. Ana shu munosabat bilan buyuramiz: xaloyiq shodiyona qilsin, bazm gulxanlari yoqilsin, raqslarga tushilsin. Har kim istagancha o'yin-kulgi, xursandchilik ila mashg'ul bo'lsin. Bu xushxabardan tashqari, generalimizning nikoh to'ylari ham nishonlanadi. Shuni bildirib qo'yishni generalimiz lozim topmishlar. Qasr eshiklari shodiyona uchun kechqurun beshdan o'n birgacha

ochiq. Tangri taolo Qibris oroli va uning oliyjanob hukmdori Otelloni o'z panohida asrasin!

Chiqadi.

3-sahna

Qasrda bir zal. Otello, De z d e m o n a, K a s s i o va m u l o z i m l a r kirishadi.

O t e l l o

Kassio, siz posbonlarga ko'z-quloq bo'ling, Aysh-ishratni me'yoridan oshirmasinlar.

K a s s i o

Bu to'g'rida men Yagoga topshiriq berdim, Tunda o'zim tekshiraman qorovullarni.

O t e l l o

Yago halol yigit. Bo'pti, xayr, Kassio, Erta tongda gaplashamiz yana siz bilan.

(D e z d e m o n a g a)

Ketdik, jonim! Mana, savdo-sotiq ham bitdi, Mevasini birga baham ko'raylik endi.

Xayrli tun.

O t e l l o, D e z d e m o n a va boshqa m u l o z i m l a r chiqishadi.

Y a g o kiradi.

K a s s i o

Xush ko'rdik, Yago. Hoziroq qorovullikka borishimiz zarur.

Y a g o

Hali erta-ku, leytenant, soat aqalli o'n ham bo'lmagan. Generalimiz Dezdemonaga muhabbati tufayli bizni ancha erta bo'shatdi, shuning uchun bizni ayblamasa kerak. U Dezdemona bilan hali bir kecha ham ishrat qilgan emas. O'ziyam Yupiterga luqma bo'ladigan jonon-da!

K a s s i o

G'oyat dilbar xotin.

Y a g o

Nozu karashmalarini aytmaysizmi!

K a s s i o

Chindan ham toza va nazokatli bir sanam.

Y a g o

Ko'zlarini, deng, ko'zlarini! Naq yondiraman deb ishva-
imo qilib turadi-ya!

K a s s i o

Ha, ko'zlari fatton, ammo kamtarin vasi po boqadi.

Y a g o

So'zlari-chi, so'zlaganda muhabbatga chorlab
turmaydimi?

K a s s i o

Ha, u chindan ham bir pari-paykar.

Y a g o

Xo'p, ularning omadlarini bersin! Menga qarang
leytenant, bir ko'za sharobim bor. U yoqda Qibris yigitlari
qora Otello sharafiga siz bilan mayxo'rlik qilamiz, deb
o'tirishibdi.

K a s s i o

Faqat bugun emas, do'stim Yago. Shu sharob ichishga
tobim yo'qroq. Odamlar o'ynab-kulishning boshqa bir
usulini topishsa, yomon bo'lmasdi.

Y a g o

Ular do'stlarimiz, axir. Atigi bir qadah, xolos. Men sizning sog'ligingiz uchun ichaman.

K a s s i o

Men bu oqshom bir qadah ichdim. O'shangayam suv qo'shib. Lekin boshimni aylantirib yubordi. Zaifligimga iqorman. Uni yana bir bor sinab ko'rishga hojat yo'q.

Y a g o

Qanaqa yigitsiz o'zi! Shunday ayshu ishrat oqshomida-ya. Yigitlar talab qilishayapti, axir.

K a s s i o

Ular qayerda o'zi?

Y a g o

Shundoq eshikning orqasida. O'tinaman, ularni bu yoqqa taklif eting.

K a s s i o

Xo'p, taklif etaman, ammo bu ish menga yoqmayapti. Chiqadi.

Y a g o

Ha, bu oqshom ichganing u qadah ustiga
Eplab, yana bittasini ichirolsaydim,
Bamisoli yosh xonimning laychasi kabi
Tashlanarding duch kelganga hurib, akillab...
U yoqda-chi, muhabbatdan esi aynigan
Ahmoq Rodrigo halitdan jinni, mast-alast.
Dezdemoni sog'ligiga ichibdi nokas,
O'zi tag'in qorovulda turibdi. Unga
Sherik bo'lib turar uchta Qibris botiri,
Orol ahli kabi bari mag'rur, jangari,

Yigitlik sha'nini g'oyat baland tutishar,
Ularga ham qadah tutib, ichirdim rosa.
Endi-chi, shu mast-alastlar galasiga men
Kassioni itaraman — qo'zg'asin janjal,
Butun orol oromini yo'qotsin tugal!
Kelishmoqda... Orzularim ro'yobga chiqsa,
Har qadamda hamroh bo'lib shamol va to'lqin,
Kemam yangi manzillarga suzardi jadal.

K a s s i o, M o n t a n o va yigitlar kirishadi. Ular izidan —
sharob ko'targan m u l o z i m l a r.

K a s s i o

Xudo haqqi, bular meni rosa ichirishdi.

M o n t a n o

Insof qiling, atigi bir tomchi, xolos. Kichkina bir
qadahda jichcha. Men askarman, so'zimga ishonung.

Y a g o

Qani, sharob keltiring!

Kuylaydi.

Qadah tuting, cho'qishtiray: chiq-chiq,
Qadah tuting, cho'qishtiray: chiq-chiq...
Soldat degani
Anoyi emas,
Umr — bir nafas,
Agar soldat bir bor ichsa,
Hech ziyon qilmas.
Yigitlar, sharob!..

K a s s i o

Xudo haqqi, ajoyib qo'shiq.

Y a g o

Men buni Angliyada eshitganman. U yerda ichishni
bilishadi. Daniyaliklaringiz, nemislaringiz, qorni katta
gollandlaringiz bu ishdainglizlar oldidaip esholmaydi.

K a s s i o

Ular shunaqa sharobxo'rmi?

Y a g o

Bo'lganda qandoq! Daniyaliklar o'lgudek mast bo'lganda, inglizlar miq etmay ichishaveradi. Nemislar chala o'lik bo'lib yiqilganda ham, ular ichishaveradi, lekin peshonasi yilt etmaydi. Gollandlar ko'ngli aynab, qusa boshlaganda, ular navbatdagi shishani ochishadi.

K a s s i o

Qani, generalimizning sog'lig'i uchun!

M o n t a n o

Qo'shilaman, leytenant! Va sizdan ortda qolmayman.

Y a g o

O, go'zal Angliya!

Kuylaydi.

"Ajab xasis edi qirol, Stefan,¹

Bir kron berib u tiktirdi ishton.

Olti pens ortiqcha to'labdi, qarang.

U-ku, elga mashhur bir podsho edi,

Zabun rutbang ila, o'yla, sen kimsan?

Yurtni cho'l qilganing ila mag'rursan,

Janda-choponingni yig'ishtir endi..."

Hoy, sharob keltiringlar!

K a s s i o

Bu qo'shiq haligisidan ham ajoyibroq ekan.

Y a g o

Takror eshitishni istaysizmi?

¹ Yago o'sha zamonda mashhur, tejakorlka undovchi qo'shiqni kuylaydi. Qo'shiqdaer-xotin suhbat qilib,xotin i pak vabaxmallargachukg'anmoqchi bo'lgan erini tejamkorlikka chaqiradi.

K a s s i o

Yo'q. Men ularni o'sha qilmishlari uchun o'z mavqelariga munosib kishilar emas, deb hisoblardim. Xo'p, hammamizning ham tepamizda turguvchi — Xudo. Ayrimlarga najot bor. Ayrimlarga esa — yo'q...

Y a g o

Rost aytasiz, leytenant.

K a s s i o

Masalan, menga kelsak, general yoki undan yuqori turadiganlar xafa bo'lishmasin, menga u dunyoda najot bor, deb umid qilaman.

Y a g o

Men ham shunday deb umid qilaman, leytenant.

K a s s i o

Ammo, ijozatingiz bilan, avval men... Leytenant mulozimdan avval najot topmog'i kerak. Xo'sh, bu to'g'rida endi gap tamom. Xizmat masalasiga o'taylik. Guvohimizni Tangri taoloning o'zi kechirsin! Yigitlar, qani ishga kirishaylik! Janoblar, meni mast deb o'ylamang tag'in. Manavi — mening mulozimim. Manavi o'ng qo'lim. Manavi — chap qo'lim. Men sirayam mast emasman. Mana, men tikka tura olaman, mana, men biyron gapira olaman.

H a m m a

Albatta, albatta.

K a s s i o

Demak, hammasi joyida. Demak, meni mast deb o'ylamasliklaring kerak.

Chiqadi.

M o n t a n o

Janoblar, tashqariga chiqaylik. Qorovullarni joy-joyiga qo'yish zarur.

Y a g o

Ko'rdingizmi boyagina chiqqan yigitni,
U Sezarning qo'l ostida sarkarda bo'lib,
Amru farmon yuritishga munosib edi.
Ammo, afsus, qarang, qanday qiliqlari bor,
Qusuridan ortiq emas fazilatlar.
Ajab, shunga ishonadi Otello chindan.
Lekin shuning kasri bilan bir kun orolda
Bir kori-hol ro'y bermasa, deya qo'rqaman.

M o n t a n o

U har kuni ichadimi?

Y a g o

Ichganda qandoq!
Yotolmaydi gar ichmasa uyqu oldidan.
Tun bo'yi sandiraqlab yurib chiqadi —
To xumori qonib, rosa simirmas ekan.

M o n t a n o

Buni Otelloga darhol yetkazish darkor.
Ehtimolki, u bexabar, soddalik bilan
Kassioning suvratiga baho beradi,
Siyratiga emas. Ayting, shundoq emasmi?

R o d r i g o kiradi.

Y a g o

(Rodrigoga, sekin)

Xo'sh, Rodrigo, ayt-chi, senga nima bor bunda?
Leytenantning iziga tush hoziroq, jo'na.

R o d r i g o chiqadi.

M o n t a n o

Ko'p taassuf, shunday mas'ul bir vazifani
Shunday ayanch bir kimsaga bermish Otello.
Insof yuzasidan unga bildirmoq zarur.

Y a g o

Men aytmayman —shu orolni berishganda ham:
Kassioni sevaman va bu falokatdan
Qutqaraman uni. To'xtang, bu nima shovqin?
(Sahna ortidan: "Yordam!" "Yordam bering!" degan qichqiriqlar.)

Oldin R o d r i g o, uning orqasidan quvib K a s s i o kiradi.

K a s s i o

Ablah!.. Yaramas!..

M o n t a n o

Nima gap, leytenant?

K a s s i o

Menga aql o'rgatmoqchi bo'ladi iflos!
Hay, men seni may shishaga joylab qo'yaman!

R o d r i g o

Joylab bo'psan!

K a s s i o

Hali gap ham qaytarasanmi?
Rodrigoni uradi.

M o n t a n o

(Uni to'xtatmoqchi bo'lib)

Hoy, leytenant, o'zingizni bosing, so'rayman!
Qo'lingizni torting!

K a s s i o

Meni qo'yib yuboring!
Bo'lmasa-chi, ayamayman hatto sizni ham!

M o n t a n o

Siz ichgansiz, axir!

K a s s i o

Nima? Ichganman?!
Ular yoqalashadilar.

Y a g o

(Rodrigoga, sekin)

Qani, jo'na, qoch bu yerdan, qorangni o'chir.
Dod-voy solib, xaloyiqni turg'iz oyoqqa!

R o d r i g o ketadi.

Hoy, leytenant, to'xtang! O'zni bosing, janoblar!
Yordam bering! Hoy, leytenant! Shoshmang, Montano!
Jinni bo'ldingizmi! To'xtang! Yordam beringlar!..

Bong uriladi.

Kim bo'ldi bu bemahalda bong urayotgan?
Voy, jin ursin! Shahar endi oyoqqa qalqar...
Hoy, leytenant, to'xtang! Axir, bu sharmandalik!
Otello mulozimlari bilan kiradi.

O t e l l o

Xo'sh, nima gap bunda?

M o n t a n o

Evoh, men yaralandim,
Boshdan-oyoq qonga botdim, ahvolim yomon...

O t e l l o

To'xta, joning kerak bo'lsa, joyingdan jilma!

Y a g o

Hoy, leytenant, shoshmang! To'xtang endi, Montano!
Nima balo, esingizni yeb qo'ydingizmi?
General aytayapti sizga! Uylaling axir!

O t e l l o

Xo'sh, nima gap? Bu to'polon qayoqdan chiqdi?
Yo turklarga aylanishib qoldikmi butkul?

Bunday ishdan hazar etar hattoki ular,
Nasroniylar uchun qanday sharmandalik bu!
Kimki yana g'azabiga erk bera qolsa,
Yuragini sug'uraman! Qimirlash — o'lim!
Hoy, u mash'um qo'ng'iroqni borib to'xtating!
Yarim tunda vahimaga solar orolni.
Xo'sh, nima gap o'zi, mening qadrdonlarim?
Sodiq Yago alamidan ko'karib ketmish,
Qani, gapir, kim boshladi birinchi bo'lib?

Y a g o

Bilolmadim, boyagina barcha ahli do'st
Inoq edik yangi kelin-quyovlar kabi.
Bir mahal qarasam... hamon ajablanaman,
Magar biror yulduz ko'kdan xuruj qildimi —
Qilichlar yalang'och, do'stlar qarshima-qarshi
Solishib turibdi, xullas, qonli mojarol!
Aytolmayman, janjal o'zi nimadan chiqdi.
Munosib bir ishda ajrab oyoqlarimdan,
Shu davraga kelolmasam, yaxshiroq edi.

O t e l l o

Xo'sh, Kassio, ayting, sizni nima jin urdi?

K a s s i o

O'tinaman, ma'zur tuting. Men aytolmayman.

O t e l l o

Montano, sizdagi aql-andisha qani?
Nomingiz bor edi bosiq-odobli degan.
Sizga qarab-qarab, hayron bo'laman, afsus,
Nahotki siz endi avbosh — ko'chabezori?
Nima uchun yaxshi nomni yomon nomga siz
Almashtirib o'tiribsiz? Javob beringpz.

M o n t a n o

Otello, men juda og'ir yaralanganman;
Shuning uchun jim turganim yaxshiroq, zotan,
Sizga aytib berar Yago – ofitseringiz
Mening barcha bilganimu bilmaganlarim.
Faqat bilolmadim, nechuk bir gunoh qildim
Men bu kecha so'zim yoki qilmishim bilan.
O'z-o'zimni ayaganim illatmi magar?
O'zni himoya etganim – gunohdir nahot,
Boshqalar kuch ishlatganda?

O t e l l o

Xudoyim shohid!
Qonim qaynab, chiqib borar miyamga tomon.
G'azabim ham yuragimda qo'zg'alib shu on,
Meni bir yo'llarga solmoq istaydi. Agar
Bir siltansam yoki shundoq ko'tarsam qo'lim
Va tushirsam – yanchar edim sizni beomon!
Ayting, kim boshladi dastlab bu to'polonni?
Kim o't qo'ydi unga? Ya'ni sababchisi kim?
Agarda u bir qorindan talashib tushgan
Og'am bo'lgandayam sira ayamas edim!
Bu nimasi axir, harbiy holatda turgan
Shahar aholisi bunda qo'rquv-vahimadan
O'zni o'nglashga ham hali ulgurgani yo'q...
Shunday paytda yarim tunda, yana saroyda,
Qorovullar o'rtasida janjal, mojaro!
Bu – qabohat, Yago, buni kim boshladi, ayt?

M o n t a n o

Do'stlik yuzasidan yoki xizmat vajhidan
Haqiqatni oshirsang yo tushirsang zarra,
Askar nomi senga harom.

Y a g o

G'ashimga tegma.

Men tilimni shartta kesib tashlarman, ammo
Kassioni xafa qilib qo'ymasman aslo.

Ishonaman, haqiqatni aytib bersam, u —
Ranjimaydi. Mana bundoq bo'ldi, general:

Suhbatlashib turar edik Montano bilan.

Bir mahal qarasak, kelar bir yigit chopib,
"Yordam bering! Yordam bering!" deya qichqirib.

Orqasidan — Kassio, ha, qo'lida qilich,
Uni quvib, tahdid etar. Shunda Montano

Kassioni to'xtatmoqchi bo'lib urindi,

Men esam-chi, qichqirganning iziga tushdim,
Shaharning tinch uyqusini buzmasin, dedim.

Ammo-lekin benihoya chopqir ekan u,

Yetolmadim, bir oz yurib, orqaga qaytdim.

Shunda nima eshitdim deng — qilich jarangi.

Kassioning so'kinishi... Shu mahalgacha

Eshitmagan edim uning so'kinganini.

Kelib ko'rsam, o'qtalishib qilichlarini

Bir-biriga chovut solib turar ikki do'st...

Yetib kelib, ajratdingiz ularni. Mana —

Bor gap shu. Bu yog'iga o'zingiz shohid.

Men bilganim shular. Faqat aytar edimki

Inson inson ekan, hatto eng yaxshisi ham

Jahli chnqqanida o'zni unutib qo'yar.

Montanoni xafa qilib qo'ydi Kassio.

Asli shunday bo'lar, ba'zan g'azab kelganda

Do'stingni ham ranjitasan bilib-bilmayin.

Keyin, mening nazarimda: anavi yigit

Qattiq haqorat aylagan, shunda Kassio

G'azabini bosolmagan...

O t e l l o

Bilaman, Yago,

Do'stlik burchi, muruvvatning amriga uchib,

Sen har qalay Kassioni oqlamoqdasan.
Senga mehrim baland, ammo, eshit Kassio,
Menga endi ofitserlik qilolmagaysan.

Dezdemona kanizlari bilan kiradi.

Qarang! Uyg'otdingiz hatto sevgilimni ham!

(Kassio)

Boshqalarga saboq bo'lib, xizmat qilasan.

Dezdemona

Nima bo'ldi? Ne hodisa yuz berdi?

Otello

Tinchlik,

Hammasi joyida, borib uxlagin, jonim.

Taqsir, o'zim sizga jarroh bo'laman endi.

Qani, uni olib chiqing.

Montanoni olib chiqadilar.

Yago, endi shaharga siz ko'z-quloq bo'ling,

Janjal bilan fuqaroning tinchi buzildi.

Ketdik Dezdemona, askar hayotidir bu,

Mashmashasi bilan goho buzilar uyqu.

Yago va Kassio odan bo'lak hamma ketadi.

Yago

Nima, yaralandingizmi, leytenant?

Kassio

Ha, o'ladiganman.

Yago

Yo'g'-ey, Xudo asrasin!

Kassio

Obro'yim to'kildi, obro'yim! O, men obro'yimdan judo bo'ldim! Borlig'imning boqiy qismi ketib, hayvoniy qismi qoldi, xolos. Obro'yim, Yago, obro'yim!..

Y a g o

Men — bir oqko'ngil odam, sizni yaraladingiz deb o'ylabman. Yaralanish obro'ni yo'qotishdan yomon. Obro' degani nima — bekorchi gap, g'irt uydirmaning xuddi o'zi. Hech narsadan hech narsaga keladi, hech narsadan hech narsaga ketadi. Siz obro'yingizni sirayam yo'qotmadingiz, buni o'zingiz ovoza qilmasangiz, bas. Menga qarang, og'ayni, generalga yana yaqinlashishning chorasi bor. U sizni kayfiyat ustida haydadi, g'azab yuzasidan emas, siyosat yuzasidan jazoladi. Ba'zan kuchli arslonni qo'rqitish uchun beozor itni urishadi. Yalinib-yolboring, general sizniki bo'ladi-qo'yadi.

K a s s i o

Shunday ajoyib sardorni mendek noshud, ko'rnamak, sharobxo'r, betayin bir ofitser laqillatsinmi! Undan ko'ra, meni haqorat qiling, deb yalinib-yolboraman... O'lgudek ichish!... So'ng to'tidek valaqlash... Uch pullik narsani deb janjal-to'polon ko'tarish, ko'pirib maqtanish, so'kinish!.. Keyin o'z soyang ila balanddan kelib gapdonlik qilish!.. O, sen, sharobning ko'rinmas arvohi! Noming bo'lma-ganda, seni iblis deb atasak, yaxshiroq bo'lardi!

Y a g o

Siz qilich ko'tarib, kimni quvladingiz? U sizga nima qildi?

K a s s i o

Esimda yo'q.

Y a g o

Nahotki?

K a s s i o

Ayqash-uyqash bir nimalarni arang eslayman, ammo aniq bir narsa xotiramda yo'q. Janjal bo'lgani yodimda,

ammo sababini aytolmayman. Yo Xudoyim! Aqlimizni o'g'irlasin uchun biz dushmanni og'zimizga olamiz. O'yin-kulgi, xursandchilik, bazm, chapakvozlik bilan o'zimizni hayvon qiyofasiga solamiz!

Y a g o

Ammo hozir tuppa-tuzuksiz. Qanday qilib darhol tuzala qoldingiz?

K a s s i o

Ichkilik shaytoni o'z o'rnini g'azab shaytoniga bo'shatib beradi. Bir pastkashlik boshqasini boshlab keladi. Xullas, meni tuproqqa qorishtirmaguncha tinchimaydi.

Y a g o

Judayam mutaassibsiz. Albatta, vaqt, joy va oroldagi vaziyatni hisobga olganda shu hodisaning yuz bermagani ma'qul edi. Ammo nachora, bo'lar ish bo'ldi. endi uni o'z foydangizga qarab tuzatib olishingizga to'g'ri keladi.

K a s s i o

Xo'sh, men undan o'z vazifamni qaytarib berishni so'radim ham deylik. U, sen sharobxo'rsan, deb javob qaytaradi! Agar yetti boshli ajdaho bo'lganda ham bu javob qarshisida og'iz ocholmaydi. Ajabo, hozirgina aqlu hushi butun odam bo'lsangu bir zum o'tmay, es-hushingni yo'qotib qo'ysang, so'ng hash-pash deguncha yirtqich bir hayvonga aylanib o'tirsang! Yo tavba! Har bir ortiqcha qadah — uning ichidagi ichimlik — iblis.

Y a g o

Keling endi, shu gapni qo'ying! Me'yorini bilib ichilsa, yaxshi sharob — jonga rohat. Uni hadeb qoralayvermang. Leytenant, sizni qanchalar yaxshi ko'rishimni bilasiz.

K a s s i o

Shunga ishonganimdan ichib, mast bo'lib o'tiribman-ku!

Y a g o

Siz ham boshqalarga o'xshab ba'zan ichib, mast bo'lsangiz, nimaqipti? Yigitsiz-ku, axir! Men endi nima qilishingiz kerakligini aytib beraman. Endi generalimizning xotini – general. Men buni shu ma'noda aytayapmanki, Otello uning latofatu malohatlariga termulib to'ymaydi. Dezdemonaga dardingizni ayting. Holi-joniga qo'ymang, o'tinib so'rayvering. U o'rningizni qaytarib olishingizga yordam beradi. U shu qadar saxovatli, shu qadar mehribon, shu qadar oliyjanob va tabiatan odamijonki, o'zidan qilingan iltimosni o'rniga qo'ymas ekan, ko'ngli tinchimaydi, o'zini gunohkor sanaydi. Uning eri bilan o'rtangizda uzilgan aloqani tiklab berishni so'rab, yalinib-yolboring. Men bor davlatimni garovga qo'yib aytamanki, o'rtangizdagi mehru oqibat avvalgidan ham ziyoda bo'ladi.

K a s s i o

Menga yaxshi maslahat berdingiz.

Y a g o

Men buni sizga bo'lgan samimiy muhabbatu sadoqatim yuzasidan aytayapman.

K a s s i o

Men bunga ishonaman. Ertagayoq vaqtli borib, oliyjanob Dezdemonadan men uchun o'rtaga tushishini iltimos qilaman. Omadim yurishsa – xo'p, yurishmasa, toleimdan ko'raman.

Y a g o

Barakalla. Xayrli tun, leytenant. Men endi qorovullarni ko'zdan kechirishim zarur.

K a s s i o

Xayrli tun, sodiq Yago.

Chiqadi.

Y a g o

Xo'sh, kim endi meni yovuz, iflos deb atar?
Jo'yali va halol — bergan maslahatlarim.
Otelloni yumshatish va yo'lga solish-chun
Ayting, axir bundan bo'lak nechuk chora bor?
Va Dezdemonani bunday xayrli ishga
Tortish juda o'ng'ay, ya'ni, bo'lmagay dushvor.
Yaratganda naq o'ziga o'xshatib faqat
Saxiy qilib bino etmish uni tabiat.
Uning ishq bilan mavr oshufta-hayron,
Xotin uni bog'lay olur ming tugun qilib,
Va istasa, tugunlarni yechadi bir-bir,
Xullas, uni har maqomga solur begumon!..
Shundoq ekan, Kassioni yo'lga boshlovchi
Shunday to'g'ri maslahatlar berar ekanman,
Qanday qilib razil yoki ablah bo'lay men?
Yo kitobul do'zax! Iblis, azozillar ham
Qora qilmishlarin oshkor etishdan avval
Ko'rsatishib samoviy, nur manzaralarni
Ko'zlarni chalg'itar... Men ham shunday qilaman.
Anuv ahmoq borar endi Dezdemonaga,
Yalinib-yolborar, menga yordam bering, deb;
Dezdemonaga yuzlanadi qora arabga,
Kassioning gunohini endi kechir, deb...
Otelloning qulog'iga quyaman shunda
Halokatli shu zaharni — xotining magar
Buzuqchilik yuzasidan shu gapni so'ylar...
Xullaski, xotini so'rab-yolborgan sayin
Otelloning gumonlari ortadi tayin.
Dezdemonaga nomusini loyga qoraman.
Uning fazilatlaridan to'r to'qib a'lo,

Barchasini tushiraman unga.

Rodrigo kiradi.

Rodrigo!

R o d r i g o

Men bu yerga ov qilish uchun-mas, balki hurish, akkillash uchun keltirilgan itga o'xshayman. Pullarimni sarflab bo'ldim. Bugun kechqurun durustgina kaltaklandim. Xullas, natija yomonmas: kaltaklar evaziga tajribam oshdi. Endi bir chaqasiz, ammo bir oz aqlim kirib, Venetsiyaga qaytaman shekilli.

Y a g o

Chidami yo'q odamlarga men achinaman!
Qaysi yara bita qolar bir zumda oson?
Aql bilan ishlayapmiz, sehr bilanmas.
Aql esa fursat kutib, ish ko'rar har on.
Ishimizning borishi, xo'sh, ayt-chi, yomonmi?
Kassiodan kaltak yeding bir oz, lekin u
Mansabidan haydaldi shu qilmishi uchun.
Quyosh ko'rmay o'sadigan og'ochlar ham bor,
Ammo erta pishgay erta gullagan daraxt.
Bir oz chida... Yo Xudoyim, tong otib qoldi,
Ish va ermak bilan o'tsa, sezilmas soat.
Qani, jo'na endi, qo'ngan yotog'ingga qayt,
Boshqa gaplar ham bor, bilib olarsan keyin,
Bor, jo'nab qol, xayr.

R o d r i g o chiqadi.

Endi ikki ish qoldi.
Xotinimga aytay, toki malikasidan.
Kassioni qo'llang, deya etsin iltijo.
Otelloni men bir yoqqa sudrab chiqaman,
So'ng boshlab kelaman, shunda albatta ko'rar:
Kassio Dezdemonaga yolborib turar...
Ha, buyog'i shundoq bo'lar, rejamiz tayyor,
Faqat uni imillamay bajarmoq darkor.

Chiqadi.

UCHINCHI PARDA

1- sahna

Qibris. Qasr oldida.

K a s s i o bir necha mashshoqlar bilan kiradi.¹

K a s s i o

Mashshoqlar, men haqingizni to'layman, chaling,
"Tong xayrli bo'lsin, general!" – degan navoni.

Muzika. M a s x a r a b o z kiradi.

M a s x a r a b o z

Mashshoqlar, asboblaringiz mabodo Neapolda
bo'lishmaganmi? Ular shu qadar dimog' bilan ovoz
chiqarishadi–ki...²

B i r i n c h i m a s h s h o q

Nima demoqchisiz, afandim?

M a s x a r a b o z

Meni ma'zur tutasiz, ular puflab chalinadigan
asboblarmi?

B i r i n c h i m a s h s h o q

Xuddi shunday, afandim, puflab chalinadigan.

M a s x a r a b o z

Demak, dumlari ham bor, desangiz-chi?

B i r i n c h i m a s h s h o q

Qanaqa dumlari, afandim?

¹ Shekspir zamonida kelin-kuyovlarni qutlab, ularning derazasi ostida qo'shiq aytish rasm bo'lgan.

² Bu yerda neapol lahjasida co'zlarni dimog' bilan talaffuz qilish xususiyatiga ishora etilmoqda.

M a s x a r a b o z

Ma'zur tutasiz, menga ma'lum bir talay asboblarning dumlari bo'lguvchi edi... Ha, mayli, mana, sizga aqcha. Mashqingiz generalga shu qadar manzur bo'ldiki, u kishi iltifot yuzasidan, boshqa shovqin-suron ko'tarmasinlar, deb iltimos qildilar.

B i r i n c h i m a s h s h o q

Xo'p bo'ladi, afandim, boshqa chalmaymiz.

M a s x a r a b o z

Bordiyu quloqqa chalinmaydigan muzikangiz bo'lsa, marhamat, chalavering. Ammo generalning muzika eshitishga tobu toqati yo'q.

B i r i n c h i m a s h s h o q

Bizda unaqa muzika yo'q, afandim.

M a s x a r a b o z

Unda karnay-surnaylarni xaltalarga joylang-da, tuyog'ingizni shiqillatib qoling. Qani, daf bo'ling tezroq! Jo'nang!

Mashshoqlar chiqishadi.

K a s s i o

Marhamat qilib, meni eshit, do'stim.

M a s x a r a b o z

Marhamat qilolmayman, ammo eshitish mumknn.

K a s s i o

O'tinaman, hazilingni qo'y. Mana, senga bir tanga oltin. Mabodo general xonimga xizmat qiluvchi xotin o'rnidan turib qolsa, Kassio degan yigit siz bilan bir og'iz gaplashmoqchi ekan, deb aytib qo'y. Qalay, bu ishni eplaysanmi?

M a s x a r a b o z

U oʻmidan turyapti, afandim. Agar u bu yoqqa keladigan boʻlsa, men unga shunday deb xabar qilaman.

K a s s i o

Shunday qila qol, doʻstim.

M a s x a r a b o z chiqadi.

Yago kiradi.

Ayni fursatida yetib keldingiz, Yago.

Y a g o

Siz bu kecha uxlamabsiz shekilli?

K a s s i o

Aslo.

Biz xayrlashganda oppoq tong otgan edi.

Jurʼat etdim, meni maʼzur tutgaysiz, Yago,

Men bu yoqqa chaqirtirdim xotiningizni.

Oʻtinaman, olib bersin menga ijozat

Dezdemonna huzuriga kirmogʻim uchun.

Y a g o

Men hoziroq yuboraman bu yoqqa uni

Va arabni biror yoqqa boshlab joʻnayman,

To bermalol, erkin kechsin suhbatlaringiz.

K a s s i o

Himmatingiz uchun rahmat!

Y a g o chiqadi.

Ajoyib odam!

Shunday halol va mehribon kimsani hatto

Men koʻrmadim florentlar orasida ham.

E m i l i y a kiradi.

E m i l i y a

Salom sizga, leytenant, men koʻp achinaman

Shunday boʻlib qolganiga, lekin hademay

Bari o‘z o‘rniga tushar. Bu haqda general
Va uning xotini tez-tez so‘zlashmoqdalar,
Dezdemona sizni qattiq quvvatlamogda.
General demogdaki, kecha siz yaralagan
Kishi – Qibris kiboridir, obro‘si baland.
Shu sababga ko‘ra, sizni ishdan chetlatish
Aqli salim yuzasidan muvaqqat chora.
Ha, general o‘zi sizni sevaman, dedi,
Bu o‘rinda zarurat yo‘q vositachiga.
Qulay fursat kela qolsa, bo‘ldi, vassalom,
O‘z o‘rniga yana qayta qo‘yaman, dedi.

K a s s i o

Sizdan o‘tinaman, agar iloji bo‘lsa
Va lozim topsangiz yana, shu haqda bir dam
Dezdemona bilan yolg‘iz gaplashib olsam...

E m i l i y a

O, marhamat qiling, qani, ichkari kiring,
Men gaplashib beray, mayli, yuragingizni
Bir bo‘shatib oling, sinor.

K a s s i o

Tashakkur, xonim.

2- sahna

Qasrda bir xona.

O t e l l o, Y a g o v a Q i b r i s a ‘ y o n l a r i d a n
bir necha vakillar kirishadi.

O t e l l o

Yago, ushbu maktublarni kapitanga ber,
Ayt, yetkazsin senatga u ehtiromimni.
Men qal‘ani bugun ko‘zdan kechirmoqchiman.
O‘sha yerda uchrashamiz.

Y a g o

Xo‘p bo‘ladi, general.

O t e l l o

Xo‘sh, janoblar, ko‘ramizmi istehkomlarni?

V a k i l l a r

Amringizga biz tayyormiz, boshlangiz, sardor.

3-sahna

Qasr oldida. D e z d e m o n a, K a s s i o va Emiliya kirishadi.

D e z d e m o n a

Ha, ishonimg, men siz uchun butun a‘molim
Va kuchimni sarf etaman, aziz Kassio.

E m i l i y a

Shunday qiling, malikam, ha, erim boyaqish
Shu to‘g‘rida o‘ylab, shunday qayg‘uradiki,
Go‘yoki bu savdo uning boshiga tushmish...

D e z d e m o n a

O, u halol inson! Shubha qilmang, Kassio,
Erim bilan orangizni bog‘lab qo‘yaman,
Avvalgidek do‘st bo‘lasiz.

K a s s i o

Munavvar bekam,
Hayotida ne bo‘lmasin, Mikel Kassio
Sizga sodiq navkar bo‘lib qoladi har dam.

D e z d e m o n a

Men bilaman. Tashakkur. Siz mening erimni
Chin yurakdan sevasiz va bilasiz ko‘pdan.
Ishoning, u vaqtinchalik siyosat uchun
Sizdan o‘zni uzoq olib yurar.

K a s s i o

Malikam,

Qo'rqamanki, bu siyosat uzoqqa ketar,

Yoki topar yangi-yangi ozuqa-taom.

Yoki shart-sharoit shundoq shakllanarki,

Men bir chetda, vazifam band, general unutar

Mening sidqu sadoqatim, xizmatlarimni.

D e z d e m o n a

Yo'q, ishoning, Emiliya oldida, mana,

So'z beraman — siznikidir o'sha vazifa.

So'z berdimmi — yetkazaman oxiriga ham.

Men erimni tinchitmayman, bezor qilaman,

To'shak unga — maktab bo'lur, dasturxon — mehrob,

Va bo'lmasin yana qay bir yumush bilan band —

Men bog'layman Kassioning o'tinchi bilan.

Shuning uchun siz, Kassio, xotirjam bo'ling,

Men o'rtaga tushib, shuni etolmasam hal

Uyat axir, bundan ko'ra o'lganim afzal.

Uzoqroqda O t e l l o bilan Ya g o ko'rinadi.

E m i l i y a

Begin keldi, malikam.

K a s s i o

Xo'p, men endi ketay.

D e z d e m o n a

Yo'q, shoshilmang, tinglang mening so'zimni.

K a s s i o

Bekam,

Hozir emas, boshqa bir gal. Menga noqulay,

Ishga tag'in kasri tegib qolmasin, deyman.

D e z d e m o n a

Undoq bo'lsa, bora qoling, ixtiyoringiz.

K a s s i o chiqadi.

Y a g o

Voh, menga bu yoqmadi...

O t e l l o

Ha, nimalar deysan?

Y a g o

Yo'q, hech narsa, begim. Shunday... shunchaki o'zim.

O t e l l o

Xotinim-la xayrlashgan Kassiomidi?

Y a g o

Kassio deysizmi? Yo'g'-ey, men ishonmayman,
Sizni ko'rib, o'g'ri kabi qocharmidi u?

O t e l l o

Ishonaman, o'sha edi.

D e z d e m o n a

Qalaysiz, begim!

Hozirgina gaplashdim men g'azabingizga
Uchragan bir jabrdiyda, bechora bilan.

O t e l l o

Kim ekan u?

D e z d e m o n a

Kassio u, leytenantingiz.

Qarshingizda e'tiborim bor esa zarra,
O'tinaman, siz u bilan darhol yarashing

Yo u o'zi sezmay, birdan yanglishib qo'ygan —
Ammo sizga sadoqati baland bir kimsa;
Yo men halol kishilarni taniyolmayman,
Begim, qaytib oling uni vazifasiga.

O t e l l o

O'sha emasmidi hozir bu yerdan ketgan?

D e z d e m o n a

O'sha edi, g'oyat ma'yus, juda ezilgan!
Menga to'kib soldi alam-hasratlarini.
Ahvoliga boqib, men ham achindim unga,
Jonim, qaytib oling uni vazifasiga.

O t e l l o

Hozir emas, Dezdemon, sal turib.

D e z d e m o n a

Qachon?

O t e l l o

Shu yaqin orada, faqat sen uchun, jonim.

D e z d e m o n a

Bugun kechki ovqat mahal?

O t e l l o

Yo'q-yo'q, bugunmas.

D e z d e m o n a

Ertaga tushlikda?

O t e l l o

Uyda ovqatlanmayman,
Qal'a kapitanlari-la suhbatimiz bor.

D e z d e m o n a

Mayli, unda erta oqshom bo'la qolsa-chi;
Seshanba kun ertalab yo seshanba peshin
Yo kechqurun; chorshanba kun nonushta mahal?
O'tinaman, aniq-tayin bir vaqtni ayting
Uch kundan oshmasin faqat. Axir shundoq ham
U qiynaldi, tavbasiga tayandi rosa.
Ha, harbiy holatda ba'zan jazo muqarrar,
Bu, shubhasiz, boshqalarga bir saboq bo'lar.
Lekin uning gunohini kechirish mumkin.
Arzimas bir gunoh. Ayting, qachon kelsin u?
Otello, men sizga boqib, hayronman, magar
Siz bir nima so'raganda "yo'q" deganmidim?
Yo o'ylanib-ikkilanib turganim bormi?
Begonamas, o'zimizning Kassio, axir!
Siz izimdan shaydo bo'lib yurgan kezlarda
Yurar edi hamroh bo'lib sizga har nafas.
Sha'ningizga dag'alroq bir so'z aytib qo'ysam
Yoningizni olib, sho'rlik talashardi, bas.
Endi unga bir yaxshilik qilish ham qiyin!
Men bo'lsam-chi, himmatimni ayamas edim.

O t e l l o

O'tinaman, yetar. Kelsin istagan mahal,
Ne istasang, so'ra, jonim, yo'q deymayman.

D e z d e m o n a

O, marhamat ko'rsatdim, deb o'ylamang tag'in,
Bu-chi, xuddi almashtiring qo'ldopingizni,
Ovqatlaning yo issiqroq kiyinib oling –
Deb har kuni yolg'iz sizning foydangiz o'ylab,
O'tinishim yo eslatib qo'yishimdek gap...
Yo'q, agarda men jazm etib bir kun chinakam,
Muhabbatingizni sinab ko'rmoqchi bo'lsam,
Og'ir shartlar qo'yar edim, og'ir so'rovlar,
Mashaqqatga qolar edi unda birovlar...

O t e l l o

Ne istasang, so'ra, jonim, yo'q deyolmayman,
O'tinaman, endi meni birpas xoli qo'y.

D e z d e m o n a

Men yo'q deyarmidim? Aslo. Xo'p, xayr, begim.

O t e l l o

Xayr, Dezdemon, tezda yetib boraman.

D e z d e m o n a

Ketdik, Emiliya.

(Otelloga qarab)

Begim, xayollaringiz
Yo'ldoshingiz bo'lib, saboq bersinlar sizga,
Qayda bo'lmang, bo'ysunaman farmoningizga.
E m i l i y a bilan birga chiqadi.

O t e l l o

Shirin ofat! Yuragimga yopishgan balo!
Evoh, men sevaman seni, agar sevmasam,
Bir qiyomat qo'par xuddi jahannam aro!..

Y a g o

Aziz general...

O t e l l o

Eshitaman, ne deysan, Yago?

Y a g o

Malikamga siz xaridor bo'lib yurganda
Ayting-chi, Kassio bundan xabardormidi?

O t e l l o

U xabardor edi boshdan oxirga qadar.
Xo'sh, nega so'rading buni?

Y a g o

Shundoq, o'zimcha...

Qiyoslamog uchun ba'zi taxminlarimni,
Boshqa narsa emas.

O t e l l o

Qanday taxminlar, Yago?

Y a g o

U sizgacha tanishmidi malikam bilan?

O t y e l l o

Tanish edi. Vositachi edi bizga u.

Y a g o

Chindanmi?

O t e l l o

Ha, chindan! Chindan! Xo'sh, qani, gapir,
Bu o'rtada biror taxmin – tusmoling bormi?
Sadoqatli Kassiodan bormi gumoning?

Y a g o

Sadoqatli, dedingizmi?

O t e l l o

Ha, sadoqatli!

Y a g o

Men ham bir oz bilaman.

O t e l l o

Xo'sh, ne deb o'ylaysan?

Y a g o

O'ylayman-da, begim.

O t e l l o

Yana "o'ylayman" emish!

Tavba, nima desam shuni takror etadi;

Xayolida bir qabohat borgan o'xshaydi.

Jirkanch bir qabohat! Gapir, ne demoqchisan?

Xotinimning huzuridan boya Kassio

Ketganida, bu yoqmaydi, deding — eshitdim.

Qani, ochig'ini ayt-chi, nima yoqmaydi?

Men oshig'i shaydo bo'lib yurgan kezlarda

Vositachim edi, desam, "chindanmi?" deding,

Peshonangni tirishtirib, qoshing chimirding.

Yashirin bir falokat bor magar miyangda,

Aytgil uni, meni yaxshi ko'rsang agarda.

Y a g o

Begim, bilasiz-ku, sizni yaxshi ko'raman.

O t e l l o

Men bilaman, oqibatli, nomuslidirsan,

O'ylamasdan so'ylamaysan biror so'zni ham.

Shuning uchun qo'rqinchlidir ishoratlaring.

Tovlamachi kimsalarga ular — bir odat;

Ammo asl insonlarning zabonida-chi,

Yurakdagi tugun-tugun alam mahsuli,

Chunki aytsa — tili kuyar, aytmasa — dili.

Y a g o

Ishonaman va qasamyod etmoqqa shayman,

Sizga sadoqatli erur Mikel Kassio.

O t e l l o

Men ham shundoq deb o'ylayman.

Y a g o

Bir xil bo'lur er kishida suvrat va siyrat,

Agar bir xil bo'lmas esa, unga ming la'nat.

O t e l l o

Balli, er kishida birdir suvrat va siyrat.

Y a g o

Shuning uchun Kassio ham sadoqatlidir.

O t e l l o

Yo'q-yo'q, Yago, shoshma, hali bu yerda gap bor,
O'tinaman sendan, neki dilingda bo'lsa,
Bor holicha hammasini tilingga keltir;
Yomon bo'lsa, uni yomon so'zlar bilan ayt.

Y a g o

Begim, meni ma'zur tuting. Xizmat tufayli
Garchi sizga bo'ysunaman, farmonpazirman,
Ammo bir qulchalik erku ixtiyorim bor —
Yuragimni ochaymi? Xo'sh, yurakda borim
Boshdan-oyoq razolat yo yolg'on bo'lsa-chi?
Saroylarga kirmasmi hech illat, marazlar?
Toza nafas ko'kraklarda ezguliklar-la
Tutash bo'lib yashamasmi kinlar, g'arazlar?
Haqsizliklar yo'qmi qonun mahkamasida?

O t e l l o

Do'stni agar falokatdan etmasang ogoh,
O'zing uni falokatga boshlaysan, Yago.

Y a g o

O'tinaman, o'z holimga qo'yingiz meni;
Bir yovuzlik bo'lur goho taxminlarimda,
Bir o'lat bor kabi go'yo tabiatimda —
Hamma joyda izlaganim nuqul xiyonat,
Xiyonatni ko'rgandayman har bir qadamda
Valekin siz bu gaplarga etmang e'tibor,
Uloqtiring, o'zingizni tashvishga solmang.

Na sizning tinch turmush, rohat-farog'atingiz,
Na mening nomusim, burchim, aqlu idrokim
Yo'l bermaydi — o'ylarimni etsam oshkor...

O t e l l o

Bu bilan ne demoqchisan?

Y a g o

Aziz sardorim,
Erkak uchun, ayol uchun nomus, yaxshi nom —
Avval-oxir bebaho bir gavhardir tamom!
Hamyonimni o'g'irlatsam, hech narsa emas,
Kecha meniki edi, endi bugun — uniki,
Yana minglab qo'ldan-qo'lga o'tadi balki.
Nomusimni o'g'irlatsam — bu behad yomon,
Nomusimni o'g'irlagan badavlat bo'lmas,
Ammo meni bir umrga etadi badnom.

O t e l l o

Xudo shohid, men fikringni tushungandayman.

Y a g o

Qanday qilib tushunasiz, hatto yuragim
Kaftingizda bo'lgandayam, bu sizga — mushkul.
Men bekilib turibman-ku, menikidir ul.

O t e l l o

Ha!

Y a g o

O, ehtiyot bo'ling ammo rashk balosidan!
Yashil ko'zli mahluqdir u, o'z qurbonini
Ham yeydi, ham masxaralab qah-qah kuladi.
Shunday dayus erlar borki, turmushi — rohat,
Xotining qilmishini yaxshi biladi,
Lekin o'sha bevafoi sevmaydi ortiq,

Bor-e, deydi, o'z yo'liga yuraveradi...
Biroq xotinini yeru ko'kka ishonmay,
Ham sevsa, ham shubha-gumon bilan yashasa,
Bundaylarning holi xarob...

O t e l l o

O, qanday azob!

Y a g o

Qanoatli qashshoq asli chin badavlatdir,
Ertami-kech qashshoqlashib qolishdan qo'rqib,
Qaltirab yashagan boylar — yupun, benavo,
Tangrim, avlodimni asra rashk balosidan!

O t e l l o

Nega bunday demoqdasan? Sen o'ylaysanki,
Umrim rashkda o'tar asta to'lishgan oydek —
Har kuni bir yangi shubha-gumon bilan? Yo'q!
Shubha tug'ildimi — ishni tamom qilaman.
Lekin qalbimdagi asl muhabbatimni
Alistirsam sening puchak taxminlaringga,
Mayli, meni taka bilan almashtiraver!
Ammo mening xotinimni: go'zal bir pari,
O'yin-kulgi, bazmlarni yaxshi ko'radi,
Sho'x kuylaydi va chiroyli raqs qiladi —
Deyisharkan, bular mening rashkimni yoqmas.
O'zi toza bo'lgach, demak qilig'i ham pok.
Yana, menda maqtagudek husnu jamol yo'q.
Va balki bu xotinimni mendan sovutar,
Degan andisha ham meni qo'rqita olmas.
Axir tanlar ekan meni, ko'rib tanlagan.
Yo'q-yo'q, Yago, men avvalo ko'rmoq istayman,
Avval ko'ray, shubhalarga borurman keyin.
Shubha tug'ildimi — unga isbot ham kerak.
Agar isbot etilsa-chi, boshqa yo'l qolmas,
Ishqimni ham, rashkimni ham otaman beshak!

Y a g o

Men xursandman, ko'rsataman endi bermalol
Sizga bo'lgan mehrim bilan muhabbatimni,
Samimiyatimni, sidqu sadoqatimni,
Men hozircha gapirmayman isbot haqida.
Faqat hazir bo'ling, begim, xotiningizga,
Ayniqsa u so'zlasharkan Kassio bilan.
Ko'zingizni ayirmang hech, rashk qila ko'rmang,
Ammo-lekin beparvo ham bo'lmang mutlaqo.
Istamayman, sizdek saxiy, ko'ngli musaffo,
Oliyjanob zotni aldab, laqillatishsa...
Men bilaman mamlakatim xotinlarini,
Venetsiyada, o, nimalar qilishmas ular!
Erlari-ku, g'ofil, faqat bir Xudo bilar
Ularning ishlari, turfa qilmishlarini,
Ularning vijdoni banddir, men sizga aytsam,
O'sha kirdikorlarini xaspo'shlash bilan.

O t e l l o

Shunaqami?..

Y a g o

Otasini aldadi-ku sizga tekkanda;
Yuzingizga qarashga ham qo'rqardi go'yo,
Aslida-chi, sevar ekan bag'oyat.

O t e l l o

To'g'ri.

Y a g o

Shundoq ekan, o'ylab ko'ring bu yog'ini ham.
Shundoq yosh ekan-da, shunday epchillik bilan
Otasining ko'zini u boyladi, qarang,
Chol boyaqish bildi bunt jodugarlik deb...
Ammo gunoh qilib qo'ydim, meni kechiring,
Muhabbatim uchun sizdan uzr so'rayman.

O t e l l o

Yo‘q-yo‘q, bir umrga senga sadoqatdaman.

Y a g o

Sizni xafa qilib qo‘ydim, ko‘rib turibman.

O t e l l o

Aslo.

Y a g o

To‘g‘risini aytsam, men qo‘rqayapman,
O‘ylaymanki, mening sizga aytganlarimni
Muhabbatim belgisi deb bilgaysiz, xolos.
Ko‘rayapman, siz bir qadar hayajondasiz.
O‘tinaman sizdan, bunda bayon etganim
Oddiy bir gumondir, boshqa hech narsa emas.
Siz ularni ko‘pirtirib, qat‘iy xulosa —
Natijaga olib bormang.

O t e l l o

Bundoq qilmayman.

Y a g o

Agar shunday qilsangiz-chi, mening so‘zlarim
Juda iflos yakunlarga eltadi, begim.
Bunday niyat yo‘qdir mening xayolimda ham.
Bilasiz, Kassio — mening jonajon do‘stim.
Begim, qo‘rqayapman, yana hayajondasiz...

O t e l l o

Yo‘q, unchalik emas, chunki, shubha qilmayman,
Dezdemon — toza, halol, nomusli xotin.

Y a g o

Omin, aytganingiz kelsin! Sog‘ bo‘lsin bekam,
Shunday ishonch bilan siz ham salomat bo‘ling!

O t e l l o

Kishi kecholmagay lekin tabiatidan...

Y a g o

Ha, masala shunda. Endi dadil aytaman,
O'z yurtining oliy nasab, baland rutbali
Yigitlari taklifiga qiyo boqmadi.
Haligiday tabiatning tamannosi bu.
Zamirini hidlab ko'rib faqat "puf!" deysiz;
Buzuqchilik hidi shunday anqib turadi.
Meni ma'zur tuting, begim, Dezdemonaga
Bu gaplarning hech daxli yo'q, ammo qo'rqaman:
Birdaniga hushyor tortib, qiyos etsa u
Sizni o'z yurtining barno yigitlariga —
Pushaymonlar qilasmikan?

O t e l l o

Xayr, xo'p, xayr,
Yana biror narsa sezsang, kelib, menga ayt,
Xotiningga tayinlagil, u ham kuzatsin.
Xayr endi, xayr, meni xoli qo'y, Yago.

Y a g o

Xayr, begim xayr, sizni xoli qo'yaman.
Chiqadi.

O t e l l o

O, nega uylandim? Shaksiz shu sodiq yigit
Talay gapdan xabari bor: ko'rgan, eshitgan;
Aytganidan ko'pdir hali aytmaganlari.

Y a g o

(Qaytib kirib)

Begim, o'tinaman yana janobingizdan:
Siz judayam chuqurlashib ketmang va ishni
O'z holiga qo'yib bering, fursat ko'rsatar.

Garchi Kassioni yana vazifasiga
Olish yomon bo'lmas, chunki u epchil yigit;
Lekin qo'ya turing, o'zdan uzoqroq tuting.
Shunda o'rganasiz butun kori-borini.
Va e'tibor qiling: o'tinch — iltimos bilan
Sizni qanday qistovlarga olar malikam;
Bu ham bejiz emasdir-ov!.. Lekin har qalay,
Mening vasvasaga bir oz moyilligim bor,
Sal narsa ham tuyuladi vahima bo'lib,
U pokiza xotin, menga ishoning, begim.

O t e l l o

Yo'q, sen tashvish chekma.

Y a g o

Xayr, salomat bo'ling.

Chiqadi.

O t e l l o

Bu yigitning ajab sidqu sadoqati bor,
Odamlarning butkul qilmish-qidirmishlari,
Turfa fe'lu atvorini yaxshi biladi...
O, bilib yetolsam, tayin isbot etolsam,
Sor lochinim, mendan bezib qolganligingni,
Tushovingni bo'shatardim, hattoki o'sha
Mening yurak torlarimga payvand bo'lsa ham.
Mayli, shamol uchgan yoqqa uchaver shu tob
Va qismat buyurgan o'lja — nasibangni top!..
Ha, men qop-qoraman, ba'zi oliftalardek
So'zim silliq emas, balki to'pori, dag'al.
Bir oz o'tinqirab qolgan yoshim ham magar,
Shu sababli... Yo'q, bu hali hammasi emas,
Men ayrildim undan, evoh, haqoratlandim,
Kuyib, nafratlanish endi menga qoldi, bas.
O, la'nati nikoh! Go'zal jononlarni sen

Qo'limizga qo'ndirasan, lekin bo'ysunmas
Bizga ularning istagu ishtaholari.
Men sevgan narsamni boshqa birovlar bilan
Taqqirga tan berib, birga baham ko'rgandan —
Zindon balchig'ida baqa bo'lganim afzal.
Bu — o'lat, bu — vabo, bu — bir ofat-qabohat!
Ko'p og'irdir ular menga solgan jarohat,
Tug'ilgandan o'lim kabi muqarrar ekan —
Peshonangga taqdir o'zi bitgan malomat.
Qarang! O'zi kelayapti, agar aldasa,
O'z-o'zini masxaralab kulsin osmon.
Yo'q, men bunga ishonmayman.

D e z d e m o n a bilan E m i l i y a kiradi.

D e z d e m o n a

Aziz Otello,
Ovqat tayyor, necha a'yon, aslzodalar
To'planishib turishibdp sizga muntazir.

O t e l l o

Men aybdorman.

D e z d e m o n a

Nima bo'ldi, ovozingiz past?
Magar kasal bo'lib, og'rib qolmadingizmi?

O t e l l o

Xa, peshonam bir oz og'rib-sanchib turibdi.

D e z d e m o n a

Kechalari uxlamaslik oqibati bu.
Keling, boshingizni mahkam tang'ib qo'yaman,
Bir soatda tarqaladi butun og'rig'i.

O t e l l o

Ro'molchangiz juda kichik.

Dezdemonaning qo'lini itaradi, ro'molcha yerga tushadi.

Buni qo'ying. Ichkariga yuring men bilan.

D e z d e m o n a

Afsus, begim, kasal bo'lib qoldingiz birdan...

O t e l l o bilan D e z d e m o n a chiqadi.

E m i l i y a

Qanday yaxshi, ro'molchasi qo'limga tushdi,

Bu — arabning xotiniga to'ng'ich sovg'asi.

O'jar erim, o'g'irla, deb qistardi doim.

Lekin Dezdemona uni qo'ymasdi qo'ldan,

Chunki eri, asragil, deb iltijo etgan.

Shuning uchun doim asrab-avaylardi u,

O'par edi, silab-siypab so'ylar edi roz.

Men bir nusxa ko'chiraman, keyin erimga

Topshiraman, ne qiladi — Xudo biladi,

Faqat xursand bo'lishini bilaman, xolos.

Y a g o kiradi.

Y a g o

Xo'sh, nega turibsan bunda qaqqayib yolg'iz?

E m i l i y a

Koyiyvermang, bir narsam bor, xursand bo'lasiz.

Y a g o

Bir narsa? Ha, ne bo'lardi — ma'lum...

E m i l i y a

Xo'sh, nima?

Y a g o

Ahmoq xotin.

E m i l i y a

Boshqa aytar so'zingiz yo'qmi?
Xo'sh, anavi ro'molchaga nima berasiz?

Y a g o

Qaysi ro'molcha u?

E m i l i y a

Qaysi ro'molcha emish...
Arab xotiniga sovg'a qilgan edi-ku,
O'g'irla, deb necha marta tayinlagansiz.

Y a g o

Xo'sh, o'g'irladingmi?

E m i l i y a

Yo'g'-ey, Xudo saqlasin,
Parishonlik bilan o'zi tushirib qo'ydi,
Asqotar, deb ola qoldim men ham. Mana u.

Y a g o

Barakalla, momaqaymoq! Qani, menga ber!

E m i l i y a

Avval ayting, ro'molchani nima qilasiz?
Nega qistadingiz, uni o'g'irlagin, deb.

Y a g o

Senga nima? Bu yog'iga ishing bo'lmasin.
Ro'molchani yulqib oladi.

E m i l i y a

Zarurat bo'lmasa, uni qaytarib bering,
Ro'molchaning yo'qolganin bilsa malikam,
Naq aqldan ozadi-ya!

Ya g o

Bilmadim, deb ayt.

Bu ro'molcha menga kerak. Qani, bor, jo'na!

E m i l i ya chiqadi.

Kassioning yotog'iga tashlayman buni,

U topib oladi. Va shu arziyas narsa

Rashk o'tida yonayotgan kimsaga xuddi

Injil so'zi kabi buyuk dalil bo'ladi,

Shuning o'zi ish beradi menga har qalay.

Men bergan zahardan arab o'zgarib qoldi.

Bu og'uning dahshatli bir xosiyati bor,

Avvaliga sezilmaydi mazasi — ta'mi,

Lekin qonga o'tdimi, bas, xuruj qiladi,

Oltingugurt kabi gurra olov oladi.

Ana, o'zi kelyapti.

O t e l l o kiradi.

Na bir ko'knori,

Na nash'ayi taryok va na shu dunyodagi

Bor doriyu darmon bari yig'ilganda ham

Qaytarib berolmas endi shirin uyqungni,

O'sha uyqu bilan kecha uxlar eding mast...

O t e l l o

O, xiyonat! Xiyonat!

Ya g o

Ha, qalaysiz, general!

Shu to'g'rida gaplashmaylik endi, bas qiling.

O t e l l o

Yo'qol, deyman, yo'qol! Meni azobga qo'yding.

Qasamyod qilaman, shubha bilan yashashdan

Aldanganim edi menga ming karra afzal.

Ya g o

Qo'ying endi, general.

O t e l l o

Uning qilmishidan zarra xabardormidim?
Ko'rmagandim, o'ylamasdim — parvoyi palak.
Kechalari uxlar edim to'shakda xursand.
Xotinimni o'parkanman, o'sha lablarda
Iz ko'rmasdim Kassioning o'pichlaridan.
Uyni o'g'ri urganidan bexabar kishi
O'sha o'g'ri bilan sira bo'lmaydi ishi.

Y a g o

Shunday so'zlar aytasizki... Afsus, ko'p afsus!

O t e l l o

Baxtli edim butun qo'shin, butun qarorgoh
O'ynash tushib, uning bilan aysh qilar bo'lsa
Va men g'ofil qolib, xabar topmasam zarra;
Endi bo'lsa hammasiga aytgum alvido:
Alvido, ey halovatim, tinchim, oromim,
Alvido, ey mag'rur qo'shinlarim, olov janglarim,
Xayr, uchqur arg'umog'pm, shonli ulfatim,
Gumburlagan barabanlar va quloqlarni
Batang qilib, o't purkagan zambaraklarim!
Hilpiragan bayroqlarim va boshqa barcha
Jang-jadalda yovqur yarog'-aslahalarim,
Ey siz, ajdar xalkumlar-la ishq-muhabbatga
Taqlid qilgan qurollarim, alvido endi,
Xayr, xayr! Otelloning xizmati bitdi!

Y a g o

Nahotki, general?

O t e l l o

Xotinimning buzuqligin isbot qil, iblis,
Ha, isbot qil buni aniq dalillar bilan.
Yoki o'lmas ruhimga men qasam ichaman,

G'azabimga agar javob bermasang tugal,
Bir it bo'lib tug'ilganing bo'ladi afzal.

Y a g o

Voy, shungacha yetdingizmi?

O t e l l o

Ha, isbot qil, toki biror shubha qolmasin,
Yo bo'lmasa, kunim bitdi, o'ldim, deyaver.

Y a g o

Muhtaram general...

O t e l l o

Uni badnom qilib meni qiynoqqa solsang,
Tavba qilma, kalimangni o'girmayoq qo'y,
Yog'diraman dahshatlarning ustiga dahshat,
Samovat yig'lasin, unga butun yer yuzi
Qotib qolsin, la'natlarning ustiga la'nat
Qalashsin-da, qabr bo'lsin senga!

Y a g o

Yo Xudo!

O'zing asra falokatdan meni, ey falak!
Odammisiz? Sizda yurak, tuyg'u bormi hech?
Xudo xayringizni bersin, meni bo'shating.
Ey sen, ayanch nodon! Qara. kim bo'lding endi?
Sadoqatli bo'laman deb baloga qolding.
O, ko'rib qo'y, sen ham ko'rgil, ey yovuz dunyo!
To'g'ri, halol bo'lish bugun qanday xatarli...
Saboq uchun tashakkurlar aytaman sizga,
Do'st demasman endi, do'stlik shunaqa bo'lsa.

O t e l l o

Yo'q, sen to'xta, sadoqatli bo'lsayding koshki.

Y a g o

Aqlliroq bo'lsam, yana bo'lardi yaxshi.
Halol degan ahmoq bo'lar, hamma biladi,
Halolligi bilan o'zni ado qiladi.

O t e l l o

Shu dunyoga ont ichaman, xotinim menga
Ko'rinar goh nomusli, goh benomus bo'lib.
Sen ham ba'zan haqgo'ydirsan, ba'zida olchoq.
Menga dalil kerak. Menga o'shaning nomi
Diananing chehrasidek musaffo edi,
Mening basharamdek xunuk, bedavo endi.
Axir, shu dunyoda bor-ku arqon va xanjar,
Zahar va o't, sirtmoq va dor, yuho daryolar...
Yo'q, chidayolmayman. Aniq bilishim kerak!

Y a g o

Ko'ramanki, jazavangiz qo'zipti juda,
Shu ahvolga solganimdan ko'p pushaymonman.
Demak, dalil so'raysiz?

O t e l l o

Yo'q, talab qilaman.

Y a g o

Siz olasiz uni. Lekin qanaqa dalil?
Qo'lga tushirmoqchimisiz ularni magar
Ayni ish ustida?

O t e l l o

Unga o'lim va la'nat!

Y a g o

Yo'q, meningcha bu mushkul ish, bu mumkin emas.
Kim ularning quchoqlashib yotishganini
Ko'zi bilan ko'rar bo'lsa — unga ham la'nat.

Xo'sh, bo'lmasa, nima qildik? Qanday chora bor?
Ne deb aytay? Dalillarni qaydan axtaray?
Ish ustida ko'rishingiz ularni – mahol.
Ular andishasiz taka-echkilar emas,
Maymunlar ham emas, mudom qonlari qaynoq,
Bir-biriga ilakishgan bo'rilar hammas.
Yo bo'lmasa, ichaverib, o'lasidek mast
Ahmoqlar ham emasdirki – ko'ra qolsangiz.
Lekin shunday holatlar bor, tafsilotlar bor,
Siz ularning orqasidan tushsangiz agar,
Haqiqatning eshigiga borib qolasiz,
Dalil so'rayapsiz, begim, dalil olasiz.

O t e l l o

Aniq dalil keltir uning xiyonatiga.

Y a g o

Rosti, menga bu ish uncha yoqmaydi, lekin
Qadam qo'yib halollik va do'stlik vajhidan,
Shu yo'lga kirdimmi, demak, davom etaman,
Men bir kecha uxlagandim Kassio bilan,
Tishim og'rib chiqdi, sira mijja qoqmadim.
Bir toifa odamlar bor, juda beparvo,
Tushlarida vaysashadi qilmishlarini,
Kassio ham shundaylardan bittasi ekan.
"Jonim Dezdemonah!- dedi bir payt g'o'ldirab,
Ehtiyot bo'l, sevgimizni birov bilmasin!"
Keyin qo'llarimni tutib, siqa boshladi,
"Sevgilim!" deb yig'lab-yig'lab o'pa boshladi.
Lablarimni shunday so'rib o'pardiki ul,
Sug'urganday bo'lar edi jonimni butkul.
Bir payt quymichimga asta oyoq tashladi,
Tavba deyman, dam o'padi, dam xo'rsinadi,
Goho yig'lab qichqiradi, aytgani faqat:
"Seni arabga bergan u taqdirga la'nat!"

O t e l l o

O, dahshat bu! Dahshat!

Y a g o

Bu bir tush-da, axir, tushga nimalar kirmas.

O t e l l o

Tush bo'lsa ham bir gaplardan xabar beradi,
Shubhalarni yana bir bor kuchaytiradi.

Y a g o

Yo'l ochadi boshqa nozik taxminlarga ham,
Dalillar ham balki yana topiladi.

O t e l l o

Hah!..

Xotinimni men burdalab tashlayman...

Y a g o

Yo'q-yo'q,
O'zni bosing, begim, hali to'la ma'lummas,
Bekam balki nomuslidir, lekin ayting-chi,
Qulupnay kashtali gullik ro'molchani siz
Xotiningiz qo'lida hech ko'rganmidingiz?

O t e l l o

Men berganman, xotinimga ilk sovg'am edi.

Y a g o

Xabarim yo'q, bugun shunday ro'molchani men
Kassioda ko'rib qoldim, mo'ylabin artidi.
Ishonaman, xotiningiz ro'molchasi u.

O t e l l o

O'shamikin?

Y a g o

O'shamikin. boshqa — lekin malikaniki,
Mana, sizga kerak bo'lsa, yana bir dalil.

O t e l l o

U iflosning joni birmas mingta bo'lsa ham,
Mening qahrim, qasosimga yetishmaydi — kam!
Ha, ishondim endi, bari chin ekan, Yago:
Men ko'klarga sovuraman ishqimni butkul,
Toki kul bo'lsinu tamom to'zib ketsin ul!
Qo'zg'al, bo'm-bo'sh jahannamdan, qora intiqom!
Muhabbat! Sen topshiraver toju taxtingni
G'azab bilan nafratlarga! Notavon ko'ksim,
Alamlarga to'lib endi ko'rsat kelbating!

Y a g o

Hoy, o'zingizni bosing.

O t e l l o

Qon, qon, qon!..

Y a g o

Sabr qiling, axir, balki fikringiz, begim,
O'zgarib qoladi hali.

O t e l l o

Yago, hech qachon!
Qora dengiz qo'ynidagi sovuq to'lqinlar
Hech teskari qaytmas sobit bir oqim bo'lib,
Propont va Hellespontga qarab oqqanday,
Mening qonli niyatlarim shiddatga to'lib,
Olg'a tomon oqar, endi ortiga qaytmas.
Endi nozu navozishlar etolmagay band,
Qalbim taskin topar faqat intiqom bilan!
Tiz cho'kadi.

Ey zangori falak, senga qasam ichaman!
Pok tutaman qasamimni, bergan so'zimni
Va men bajaraman uni!

Y a g o

Qo'zg'almay turing.

U ham tiz cho'kadi.

Siz guvohim bo'ling, mangu yoniq mash'allar!
Muallaq ko'k, sen ham menga guvoh bo'lgaysan!
Ki men — Yago, aqlim, qo'lim, qalbimni butun
Bag'ishladim tahqirlangan Otello uchun,
U buyursin, men hozirman amriga har dam,
Mayli, hatto qon to'kishga to'g'ri kelsa ham.

Ikkalasi oyoqqa turadi.

O t e l l o

Qasamingni bajonu dil qabul qilaman,
Quruq rahmat bilan emas, saxovat bilan.
Shoshilinch bir xizmatim bor, uni bajo et.
Menga uch kun ichidayoq xabar qilgaysan,
Kassio shu yer yuzidan gumdon bo'ldi, deb.

Y a g o

Do'stim o'ldi, gumdon bo'ldi — amringiz vojib,
Dezdemon qolsin, uni o'ldirmang faqat.

O t e l l o

O, u tannoz fohishaga yana ming la'nat!
Qani, bu yoqqa yur. O'sha go'zal mal'unni
Tezroq o'ldirish chorasini o'ylashim kerak.
Yago, mening leytenantim o'zingsan endi.

Y a g o

Bir umrga qulingizman, begim.
Chiqadilar.

4- sahna

Qasr oldida.

De z d e m o n a, E m i l i y a va M a s x a r a b o z kiradi.

D e z d e m o n a

Hoy, menga ayt-chi, leytenant Kassio qayerda yotib turadi?

M a s x a r a b o z

Buni aytishga tilim bormaydi.

D e z d e m o n a

Nega endi?

M a s x a r a b o z

U harbiy kishi. Uning qayda yotishini aytib berish sotqinlik qilishga barobar.

D e z d e m o n a

Voy, gapingni qara-yu! Men u qayda turadi, deb so'rayapman, xolos.

M a s x a r a b o z

Uning qayda turishini aytish mening qayda yotishimni aytishning xuddi o'zi bo'ladi-qo'yadi, ya'ni turgan-bitgani qip-qizil aldoqchilik.¹

D e z d e m o n a

Bu so'zlaringdan biror ma'no chiqarmikin?

M a s x a r a b o z

Uning qayda turishini bilmayman-ku, bordi-yu u yoqda turadi yoki bu yoqda turadi, deb o'zimcha to'qib-bichadigan bo'lsam, boshimdan ajrab qolishim muqarrar.

¹ Shekspir bu yerda lie so'zining "yotish" va "aldash" ma'nolariga suyanib, so'z o'yini qiladi. (Tarj.)

D e z d e m o n a

Bir gap aytsam, surishtirib topib, unga yetkaza olasanmi?

M a s x a r a b o z

Men uni jumla dunyodan so'rab surishtiraman va
inchunin savollar berib, javoblar olaman.

D e z d e m o n a

Uni topib ayt, mening huzurimga kelsin. Xabardor qil:
men erimni uning tomoniga ag'dardim va umid qilamanki,
hamma ishlari yurishib ketadi.

M a s x a r a b o z

Bular bari inson aqlu idroki doirasidagi gaplar, bas,
shuning uchun men ularni bajarishga harakat qilaman.

(Chiqadi)

D e z d e m o n a

Ajab, ro'molchani qayda yo'qotdim ekan, Emiliya?

E m i l i y a

Xabarim yo'q sira, malikam.

D e z d e m o n a

Oh, koshkiydi, men jon deya rozi bo'lardim —

Oltin to'la hamyonimni yo'qotib qo'ysam.

Erim menga ishonadi, ba'zilar kabi

Behudaga rashk qilmaydi, lekin har qalay

Bir oz shubha-gumonlarga borishi mumkin.

E m i l i y a

U rashk qilmaydimi?

D e z d e m o n a

Aslo! Mening fikrimcha,

U tug'ilgan yurt quyoshi kuydirgan tamom

Undagi bu sifatni.

E m i l i y a

Voy! Kelyapti u.

D e z d e m o n a

Kassioni qayta ishga olmaguncha to —

Uni tinchitmayman.

O t e l l o kiradi.

Begim, ahvollar qalay?

O t e l l o

Tuzukman.

(Chetga)

O, riyokorlik qilishim qiyin,

Xo'sh, o'zing-chi, Dezdemona?

D e z d e m o n a

Shukr, yaxshiman.

O t e l l o

Qo'lingni ber, jonim. Qo'ling juda namiqqan.¹

D e z d e m o n a

Chunki hali yoshdir, yana tashvishdan yiroq.

O t e l l o

Bu-chi, serpusht, saxovatli yurakka dalil,

O'ta issiq va namiqqan: bu qo'l tufayli

Har qandayin ozodlikning rangi o'chadi,

Hech bo'ladi so'ngra butun toat-ibodat,

Taqvodorlar taqvosidan butkul kechadi.

Yosh, terlagan shayton bunda in qurib olgan

Ki har lahza xuruj qilar, isyon etar ul,

G'oyat ochiq qo'l bu, g'oyat saxovatli qo'l.

¹ O'sha davrda keng tarqagan frga ko'ra, issiq va namiqqan qo'l shahvoniylilik belgisi hisoblangan.

D e z d e m o n a

Bu gaplarni aytishga siz haqlisiz, begim,
Chunki bu qo'l tortiq etgan sizga qalbimni.

O t e l l o

Avvallari qo'lga qo'shib berilardi qalb,
Endi bo'lsa qo'l berilar, yurak berilmas.

D e z d e m o n a

Men bir nima deyo olmayman. Darvoqe endi
Va'dangizga o'ta qolsak, yaxshi bo'lardi.

O t e l l o

Qanday va'da edi u, jonim?

D e z d e m o n a

Boyagina Kassioga kishi yubordim,
Kelib, sizga uchrashsin deb.

O t e l l o

Shamollab goldim,
Tumov bezor qildi, menga ro'molchangni ber.

D e z d e m o n a

Mana, begim.

O t e l l o

Bergil o'zim sovg'a qilganni.

D e z d e m o n a

Yonimda yo'q.

O t e l l o

Yo'q, dedingmi?

D e z d e m o n a

Ha, chindanam yo'q.

O t e l l o

O, bu sira yaxshi emas, u ro'molchani
Misrlik bir ayol mening onamga bergan.
Chamasi u lo'li, ya'ni jodugar bo'lgan.
O'qir ekan yuzlarga-yu ko'zlarga boqib,
Odamlarning asrorini, dilda borini...
Xullas, o'sha ro'molchani onamga bermish...
Berar ekan, ehtiyot qil, avayla, demish.
Ro'molchani ehtiyotlab saqlay olsang gar,
Ering seni sevar, senga itoat aylar.
Lekin uni yo'qotsang yo birovga bersang,
Boshdan-oyoq nafratlarga qoldim deyaver,
Boshqasini sevar, sendan jirkanadi er...
Onam vafot etib, menga qoldirib ketgan:
Taqdir nasib etib, agar uylanar bo'lsang,
Xotiningga berarsan, deb vasiyat etgan.
Onam vasiyatini men bajo ayladim,
Sen ham ko'zing qorasidek uni asragil,
Gar yo'qotib qo'ysang yoki birovga bersang.
Juda mudhish bir falokat yuz beradi, bil,
To'yu nikoh deganlaring bo'ladi bir pul!

D e z d e m o n a

Chindanmi?

O t e l l o

Ha, chindan, balki muqarrar gap bu.
Chunki uning arqog'iga o'rilgan jodu.
O'rishini ikki yuz yil quyoshda yurgan
Bashoratgo'y bibi duo aytib, to'qigan.
Ipagini o'ramishlar muqaddas qurtlar,
Yillar osha qabr ichra mo'miyolangan
Qiz qalbining qoni bilan bo'yalmishdir u...

D e z d e m o n a

Nahotki u shundoq bo'lsa?

O t e l l o

Ha, xuddi shundoq.

Shu sababli ehtiyot qil, avayla ko'proq.

D e z d e m o n a

Ey Xudoyim, koshki edi ko'rmasam uni!

O t e l l o

A! Xo'sh, nechun?

D e z d e m o n a

Begim, men bilan

Nega bundoq jahl qilib gaplashmoqdasiz?

O t e l l o

Yo'qoldimi? Yo'qotdingmi? Yashirdingmi? Ayt!

D e z d e m o n a

Yo Xudoyim, o'zing asra!

O t e l l o

Nimalar deysan?

D e z d e m o n a

Yo'qolganmas. Xo'sh, yo'qolsa, nimaqilipti?

O t e l l o

Nima deding?

D e z d e m o n a

Yo'qolganmas, dedim-ku.

O t e l l o

Keltir,
Ko'rsat uni, ko'zim bilan ko'ray.

D e z d e m o n a

Xo'p, mayli,
Ko'rsataman uni, begim, lekin hozirmas,
Siz shu bahonada meni chalg'itmoqchisiz.
O'tinaman, Kassioni qaytarib oling.

O t e l l o

Ro'molchani keltir: qora, mubham xayollar
Yuragimda qo'zg'almoqda...

D e z d e m o n a

Bo'ldi, bas endi,
Axir, topolmaysiz undan munosibini.

O t e l l o

Ro'molcha!

D e z d e m o n a

O'tinaman, Kassiodan so'zlashaylik, xo'p?

O t e l l o

Ro'molcha!

D e z d e m o n a

Butun hayotini, axir, sizga bog'ladi,
Sizga sadoqatni qismat toji deb bildi,
Xavfu xatarlarda sizga sherik bo'ldi u...

O t e l l o

Ro'molcha!

D e z d e m o n a

Insof bilan aytganda-chi, aybingiz ham bor.

O t e l l o

Yo'qol! Qorangni o'chir!..

Chiqadi.

E m i l i y a

Yana rashkchi emas emish!

D e z d e m o n a

Hech ko'rmaganman

Uni shunday bir holatda. Balki chindanam

Ro'molchada sehr-jodu borga o'xshaydi,

O'sha yo'qoldi-yu, mana, baloga qoldim.

E m i l i y a

Er deganni bilish uchun bir-ikki yil oz,

Ular — me'da, bizlar esa — ovqatmiz, xolos.

Och qolganda yesam, deydi, ko'zni yoshlaydi,

To'ygunicha yeydi, keyin qusib tashlaydi.

Qarang, kelishmoqda erim bilan Kassio.

Ya g o bilan K a s s i o kiradi.

Y a g o

Sizga yolg'iz Dezdemona yordam beradi,

Ana o'zi... Qani, boring, so'rang-o'tining.

D e z d e m o n a

Xo'sh, Kassio, keling, qanday yangiliklar bor?

K a s s i o

Iltilimosim o'sha-o'sha, aziz malikam;

Himmatigingiz bilan, o'zim yurak-yurakdan

Shuncha sevib ardoqlagan muhtaram zotning

Mehr-ishonchiga noil bo'lsaydim yana...

Istamasdim men bu ishni kechiktirishni,
Qilgan gunohimni agar yuva olmasa —
Na kechagi xizmatim, na hozirgi kunim,
Chekayotgan tashvishlarim, achchiq alamim,
Na kelajak niyatlarim, bular barchasi
Ishonch-e'tiborga meni noil etmasa,
Buni hozirdanoq aniq bilganim afzal.
Taqqdirga tan beraman-da, boshqa bir yoqdan
Baxtimni izlayman.

D e z d e m o n a

Evoh, aziz Kassio,
Bekor ketdi shuncha qilgan himoyatlarim.
Erim go'yo erim emas, o'zgarib qoldi.
Agar o'zgarsaydi shaklu shamoyili ham
Uni tanib olishim ham qiyin bo'lardi.
Sizni deb etganim o'tinch-iltimoslardek,
Istaymanki, farishtalar yonimni olsin,
Uning yuragiga shafqat-muruvvat solsin,
G'azabiga loyiq biror ish qilmadim men.
Yana bir oz sabr qilpng, ko'rasiz hali,
Ayamayman, bor kuchimni ishga solaman,
O'zinga ham qilmaganni sizga qilaman,
O'ylaymanki, shu so'zlarim berar tasalli.

Y a g o

Nima bo'ldi? Begimizning jahli chiqdimi?

E m i l i y a

Ha, shu yerda edi, hozir chiqib ketdi u,
G'oyat tajang, tushuniksiz kayfiyat bilan.

Y a g o

Uning jahli chiqarmidi? O'zim ko'rganman:
To'p zarbasi jangchilarni havoga otib,

Shayton kabi uchib, necha saflarni yorib,
Akasigatekkandaham — kiprikqoqmagan.
Jahli chiqibdimi, demak, jiddiy sabab bor,
Men hoziroq huzuriga borishim darkor.

D e z d e m o n a

O'tinaman, bora qoling.

Ya g o chiqadi.

Ehtimolki bu —

Venetsiya bilan bog'liq davlat ishidir.

Yo Qibrisda unga qarshi biror fitna bor,
Shu fitnadan balki bugun bo'lgan xabardor,
Shundan uning yuragiga bir alam yetgan.

Erkaklarning tabiati o'zi ma'lum-ku,
Kattalarning alamini olar kichikdan.

Ha, ha, shunday. Barmog'imiz og'risa agar,
Bilamizki, og'riq butun tanga yoyilar.

Yo'q, erlarni Xudolar deb o'ylamoq xato,
Allaqachon o'tib bo'ldi kuyovlikdan ham.

Shuning uchun menga bir oz iltifoti kam.

Rostin aytsam, bir oz no'noq jangchi ekanman,
Dag'al muomala qildi, ozor berdi, deb
Behudadan-behudaga uni aybladim.

E m i l i y a

Xudoyimdan so'rayman, shu, aytganingizday
Rashk balosi emas, davlat tashvishi bo'lsin.

D e z d e m o n a

Rashk qilishga biror bois-bahona yo'q-ku.

E m i l i y a

Bu gap bilan yengolmaysiz rashkchi odamni,
Rashk etar u sababsiz ham, bahonasiz ham.
Rashk etar u faqat rashkchi bo'lgani uchun.

U shunday bir mahluqdirki, o'zidan tug'ib,
O'z-o'zidan ko'payadi.

D e z d e m o n a

Xudo asrasin
Otelloni bu ofatdan.

E m i l i y a

Omin, malikam.

D e z d e m o n a

Men-chi borib, izlab ko'ray uni, Kassio —
Siz shu yerda tura turing, agar topolsam,
Kayfiyati yaxshi bo'lsa, butun kuchimni
Ishga solib, ado etay o'tinchingizni.

K a s s i o

Tashakkur, malikam.

D e z d e m o n a bilan E m i l i y a chiqadi.
B i a n k a kiradi.

B i a n k a

Salom, aziz Kassio!

K a s s i o

Qanday qilib kelib qolding, go'zal Bianka?
Bilasanmi, parivashim, zebo sanamim,
Hozirgina men uyingga bormoqchi edim.

B i a n k a

Men ham hozir uyingizga borayotgandim,
Hazil gapmi: yetti kecha va yetti kunduz,
Bir hafta bu — bir yuz oltmish soat degan so'z.
Bilasizmi, ayriliqda kechgan har soat
Bir yilga barobar!

K a s s i o

Meni kechir, go'zalim.
Ish-tashvishlar chiqaverib, juda band bo'ldim.
Hijron emas, visol bo'lar ishimiz endi,
Hissasini chiqaramiz. Mana, Bianka.

D e z d e m o n a ning ro'molchasini uzatadi.
Shundan nusxa ko'chir.

B i a n k a

Buni qaydan oldingiz?
Biror yangi jonon bergan bo'lsa, ajabmas,
Shuncha mahal dom-daraksiz bo'lib ketdingiz
Mana, endi ma'lum bo'ldi. Durust.

K a s s i o

Qo'ysang-chi!
Ahmoqona bu shubhangni shaytonga oshir.
Seni shunday xayollarga boshlagan o'sha,
Sen rashk qilayapsan, balki biror oyimcha
Esdalikka buni sovg'a qilgandir deb. Yo'q,
Ont ichaman, Bianka...

B i a n k a

Xo'sh, ayting bo'lmasa,
Kimnikidir bu ro'molcha?

K a s s i o

Bilmadim, jonim,
Men uyimdan topib oldim, kashtasi go'zal,
To egasi chiqib, qaytib olgunga qadar
Shundan nusxa ko'chir. Endi yolg'iz qo'y meni.

B i a n k a

Yolg'iz qo'yay? Nega endi?

K a s s i o

Jonim, bu yerda
Men general bilan hozir ko'rishmoqchiman.
Meni ayol kishi bilan ko'rsa, yaxshimas,
Haligiday...

B i a n k a

Nima bo'пти? Kassio, ayting?

K a s s i o

Bu-chi, seni sevmay qo'ydim, deganim emas.

B i a n k a

Ammo-lekin meni sevmay qo'yganingiz rost.
O'tinaman, meni bir oz kuzatib qo'ying,
Bugun oqshom kelasizmi ertaroq? Ayting!

K a s s i o

Bundan nari kuzatishim qiyin. Shu yerda
Otelloni kutishimga to'g'ri keladi.
Biz hademay ko'rishamiz, xayr hozircha.

B i a n k a

Nima derdim, xo'p demasdan ilojim qancha...
Chiqadi.

TO'RTINCHI PARDA

1-sahna

Qibris. Qasr oldida. O t e l l o bilan Y a g o kiradi.

Y a g o

Siz shundoq deb o'ylaysizmi?

O t e l l o

Shundoq deb, Yago!

Y a g o

Xilvat qilib, o'pishishgan bo'lsa, xo'sh nima?

O t e l l o

O'pishishgan boshdan-oyoq haromga botib.

Y a g o

Xushtor bilan bir to'shakda yalang'och yotib,
Yana sof-musaffo qolish mumkin emasmi?

O t e l l o

Qip-yalang'och yotib, yanamusaffo qolish?
Bu – shaytoni lainga ham pand berishdek gap.
Kimki halollikni o'ylab, haromga botsa,
Bundaylarni shayton yo'ldan ozdirgan bo'lar,
Keyin ular falakni ham yo'ldan ozdirar.

Y a g o

Gunoh qilishmagan bo'lsa – hech ziyoni yo'q.
Masalan, men xotinimga ro'molcha berdim...

O t e l l o

Xo'sh, keyin-chi?

Y a g o

Shu ro'molcha uniki bo'ldi.
Endi, begim, o'zining shu ro'molchasini
U istagan bir erkakka berishi mumkin.

O t e l l o

Nomusi ham unikidir, bundan chiqdiki,
O'shani ham beraverish mumkin ekan-da?

Y a g o

Hadeganda ko'rolmaymiz nomus deganni,
Odatda u ko'proq bo'lar benomuslarda.
Lekin ro'molchaga kelsak...

O t e l l o

Ey parvardigor,
Sevinardim, agar shuni unuta olsam,
Sen gapirib, yana qayta yodimga solding,
Vabo tekkan uy ustidan quzg'un uchganday,
Falokatlar belgisidir, timsolidir u —
Uning qo'lidagi o'sha mening ro'molcham.

Y a g o

Xo'sh, qo'lida bo'lsa nima?

O t e l l o

Bu yaxshi emas.

Y a g o

Tavba, uning sha'ningizni yerga urguvchi
Biror yomon ish qilganin ko'rdim, dedimmi?
Yo dedimmi magar, biror eshitganim bor?
To'g'ri, shunday ablahlar ham uchraydi goho
Xotinlarni avrab turfa xushomad bilan,
Yoki xonimlarning erku xohishi bilan,
Bir ishlarni qilib, keyin uyalmay-netmay,
Valaqlashib yurishadi maqtanib rosa.

O t e l l o

U bir nima dedimi?

Y a g o

Ha, u aytdi, begim,
Lekin bitta qasam ichib, o'z aytganidan
Qaytishi ham mumkin...

O t e l l o

Gapir, u nima dedi?

Y a g o

O'sha ishni qilganini...

O t e l l o

Xo'sh, qaysi ishni?

Y a g o

Yotganini...

O t e l l o

Yotganini... Ya'ni yonma-yon?

Y a g o

Yonma-yon yotganmi, ustiga chiqibmi — bu yog'i o'zingizga havola.

O t e l l o

U bilan yotdimi? Uning ustiga chiqib yotdimi? Unga bo'hton qilishganda, biz ustiga chiqib yotdi deymiz. U bilan yotdi. Bunisiga chidayolmayman! Ro'molcha — isbot, dalil — ro'molcha! Iqror qilaman, keyin qilmishi uchun osaman. Yo'q-yo'q, avval osaman, keyin iqror qilaman. Men qaltirayapman. Shuncha qahru g'azab bergan tabiat o'zi yo'l-yo'riq ham ko'rsatar... Hech narsa meni shu qadar titratmagan. Tufey! Burunlar, quloqlar va lablar. Mumkinmi shu? Dalil, isbot kerak? Ro'molcha! O iblis!..

Hushdan ketib yiqiladi.

Y a g o

Ha, kuchingni ko'rsataver, mo'tabar og'u!
Har aytilgan so'zga laqqa tushaberguvchi
Soddadillar tumshug'idan shunday ilinar.
Shu yo'l bilan aslzoda xonimlar hatto
Behudadan-behudaga badnom qilinlar.

Begim, ko'zingizni oching! Sizga ne bo'ldi!
Hoy, general Otello!..

K a s s i o kiradi.

Salom, keling, Kassio.

K a s s i o

Xo'sh, nima gap?

Y a g o

Tutqanog'i tutib, yiqildi,
Tunov kun ham tutgan edi, bu — ikkinchisi.

K a s s i o

Chakkasini uqalang.

Y a g o

Yo'q, tegmagan ma'qul.
Kasallik o'z maromida kechmog'i kerak,
Bo'lmasa-chi, ko'pik chiqib og'zidan xuddi,
Quturadi, vahshiy tentak bo'lib qoladi.
Ana, qimirlayapti u. Siz bo'lsa endi
Hov nariga o'tib turing, uzoqqa ketmang.
U o'ziga kelsin, uni jo'natay, keyin,
Gaplashamiz, aytadigan bir gaplarim bor.

K a s s i o chiqadi.

Nima bo'ldi sizga, general? Ahvollar nechuk?
Magar peshonangiz bir oz yorilmadimi?

O t e l l o

Meni mayna-mazax qilib, kulayapsanmi?

Y a g o

Sizni mazax qilib? Yo'g'-ey, Xudo saqlasin!
Erkak bo'lib bo'yin eging qismatingizga.

O t e l l o

Go'sxo'r bo'lgan erkak maxluq, hayvon bo'ladi.

Yag o

Shaharlarda oz emasdir bunday maxluqlar,
Orasida nazokatli hayvonlar ham bor.

O t e l l o

U iqror bo'ldimi?

Yag o

Begim, siz erkak bo'ling.
Har erkakning boshidadir axir bu savdo,
Soqol-mo'ylabi bor ne-ne erkaklar bari,
Sizga safdosh bo'lib, tortar aravasini.
Va million erkak borki, kechasi yotib,
Bu mening pok to'shagim, deb qasam ichadi.
Shukr, sizning ahvolingiz unchalik emas.
Shundaylar ham borki, juda parvoyi falak,
Buzuq xotinini har dam o'pib, silaydi,
Uni gunohlardan tamom forig' sanaydi.
Bundaylarga shayton kular, do'zax o'rtanar.
Menga qolsa, qilmishini avval bilaman,
Avval bilay, ne istasam, keyin qilaman.

O t e l l o

O, sen dono odamsan!

Yag o

Siz bekinib turing,
O'zingizni qo'lga oling, bardoshli bo'ling.
Boya siz alamdan hushsiz yotganingizda
(Bunday bo'lish er kishiga yarashmas lekin)
Kassio kelgandi, uni nari jo'natdim.
Ahvolingiz tushuntirdim, bahona to'qib.
Qaytib kel, deb buyurdim, u qaytib keladi,
Eshitasiz, o'rtamizda suhbat bo'ladi.

Yashirinib turing, lekin e'tibor qiling:
Zaharxandasiga, kulgu, kinoyasiga,
Yuzining har uzvidagi ifodasiga.
Ayttiraman unga eski hangomasini.
Xotiningiz bilan qanday, qayerda, qachon,
Yotganligi va yotmoqchi ekanligini —
Yashirmasdan u birma-bir aytib beradi.
Diqqat bilan boqing imo-ishorasiga,
Ammo-lekin zinhor bosiq, bardoshli bo'ling,
Yo'qsa, jahli chiqaverib, erkakligidan
Mahrum bo'lib qolgan deyman sizni, vassalom.

O t e l l o

Tinglaysanmi, Yago! Mayli, chidab beraman,
Chidamimda munofiqlik bo'lar ziyoda.
Eshitib qo'y, ammo keyin qonga qoraman.

Y a g o

Yomon emas. Har bir ishning vaqti bor lekin,
Qani endi bir chekkaga o'ting, bekining.

O t e l l o bir chetga o'tadi.

Kassiodan Biankani surishtiraman.

U so'qqabosh xotin o'zni bozorga solib,
O'ziga non, kiyim-kechak sotib oladi.

Kassioni jinnilarcha sevib qolgan u,
Boshqalarni laqillatib yurguvchi maraz
Ba'zan o'zi shunday laqqa tushib yuradi.
Kassio-chi, shu to'g'rida gap ochdingmi, bas,
O'zini hech tutolmaydi, kulaveradi,
Ana, o'zi kelyapti.

K a s s i o qaytib kiradi.

Uning kulgusi,
Shubha yo'qki, Otelloni quturtiradi.
Hamda uning johil rashki bu kulgularda,
Kassioning yurish-turish, xulq-atvorida,

O'zi uchun juda mash'um ma'no ko'radi.
Qalaysiz, leytenant?

K a s s i o

Qo'ying, kesatavermang,
Shuning tashvishida axir o'lib bo'ldim-ku.

Y a g o

Siz Dezdemonani holi-joniga qo'ymang,
Ishingizni u albatta o'nglab beradi.

(Yarim ovozda)

Shu ish bog'liq bo'lsa bormi Bianka bilan,
Ishingiz tez o'nglanardi.

K a s s i o

O, sho'rlik xotin!

O t e l l o

Uni qarang, halitdanoq kula boshladi!

K a s s i o

Ha, chindan ham u yaramas meni sevadi.

O t e l l o

Buni qarang, rad etmaydi, tag'in kuladi.

Y a g o

Menga karang, hoy, Kassio...

O t e l l o

Mana endi u

Hamma gapni aytdiradi. Yaxshi, ko'p yaxshi.

Y a g o

U Kassio uylanmoqchi menga deb ro'y-rost
Aytib yurgan emish. Rostdan uylanasizmi?

K a s s i o

Xo-xo-xo!

O t e l l o

Rim urug'i, sen tantana qilayapsanmi?!

K a s s i o

O'shanga uylanamanmi? Olib sotarga-ya! Hoy, menga bir oz rahmingiz kelsin. Nima, meni jinni deb o'ylayasizmi? Xo-xo-xo!

O t e l l o

Ha, shunaqa, shunaqa... G'olib chiqqanlar kuladi...

Y a g o

Hamma joyda duv-duv gap: siz o'shanga uylanarmishsiz...

K a s s i o

Qo'ysangiz-chi, yolg'on gapirmang.

Y a g o

Yolg'on aytsam, yana bir bor muttaham bo'lay.

O t e l l o

Men hisobda yo'qman shekilli? Durust.

K a s s i o

Bu gapni o'sha maymunning o'zi tarqatib yuribdi. U menga uylanadi, deb umid qiladi. Lekin men va'da bermaganman.

O t e l l o

Yago, menga imo qilyapti. Demak, u endi hangomaga o'tadi.

K a s s i o

U boyagina shu yerda edi; hamma joyda soyadek izimdan izg'ib yuradi. Tunov kun dengiz bo'yida bir necha venestiyaliklar bilan gaplashib turuvdim. Allaqayoqdan o'sha qo'g'irchoq yetib keldi. O'zini mana bundoq qilib tashlab, bo'ynimga osilib oldi...

O t e l l o

Balki: "O, jonim Kassio!"- deb qichqirgandir. Uning ishorati shuni ko'rsatib turibdi...

K a s s i o

Osilib oldi deng: dam yalinadi, dam yig'laydi, dam sudraydi, dam turtkilaydi. Xo-xo-xo!..

O t e l l o

Hoynahoy, mening yotog'imga qanday sudraganini ham aytib qolsa kerak. O, men burunlaringizni ko'rib turibman! Faqat o'sha burunlarni kesib, irg'itganimda ularni kemirib tashlovchi itlarni ko'rmayapman, xolos.

K a s s i o

Men undan qutulishim kerak.

Y a g o

Qutulib bo'psiz! Ana, o'zi kelyapti.

K a s s i o

Ha, tag'in o'sha sassiqko'zan! Faqat atir-upa sepib olgan...

B i a n k a kiradi.

Hoy, menga qara, nega hadeb izimdan ergashib yurasan?

B i a n k a

Izingdan shayton bilan uning katta buvisi ergashsin! Mana, menga boya bergan ro'molchangiz. Men ahmoq bo'lib buni ola qolibman. Nusxa ko'chir emish. Uylaridan topib

olganmishlar! Egasi kimliginiyam bilmasmishlar! Birorta satangning sovg'asi bo'lsa kerak. Men endi shundan nusxa ko'chirarmishman!.. Buni oling-da, o'sha baytalingizga eltib bering. Qaydan olgan bo'lmang, men bundan nusxa-pusxa ko'chirmayman.

K a s s i o

Hoy, Bianka, seni nima jin urdi, jonim? Nima gap o'zi?

O t e l l o

Xudo haqi, bu mening ro'molcham bo'lsa kerak.

B i a n k a

Kechqurun ovqatlanishga kelsangiz — marhamat, kelmasangiz — boshqa bir gal kelarsiz...

(Ketadi.)

Y a g o

Orqasidan boring, ha, bora qoling. -

K a s s i o

Rostdanam, bormasam bo'lmaydi shekilli. Ko'cha-ko'yda valdirab yurmasin tag'in.

Y a g o

Kechqurun unikiga ovqatlanishga borasizmi?

K a s s i o

Borsam deb turibman.

Y a g o

Yaxshi bo'lardi, o'sha yerda sizni uchratib, suhbatingizni olardim.

K a s s i o

Marhamat, kela qoling. Xo'sh, kelasizmi?

Y a g o

Xotirjam bo'ling, boraman.

K a s s i o ketadi.

O t e l l o

(Oldinga chiqib)

Men uni qandoq qilib o'ldirsam ekan-a, Yago?

Y a g o

Uning o'z qilg'iligi ustidan qanday kulganini payqadingizmi?

O t e l l o

Oh!.. Yago!..

Y a g o

Ro'molchaniyam ko'rdingizmi?

O t e l l o

Chindanam o'sha mening ro'molchammidi?

Y a g o

Qo'limni shartta kesishga ham tayyormanki, sizning ro'molchangiz edi. Xotiningizni ahmoq sanab, ikki pulga ham olmaganiga e'tibor qildingizmi? U bunga o'z ro'molchasini beribdi, bu esa uni o'ynashiga taqdim etibdi.

O t e l l o

Men Kassioni surunkasiga to'qqiz yil o'ldirishga ham tayyorman. O, go'zal xotin!.. O, parivash xotin!.. O, huriliqo xotin!..

Y a g o

Yo'q, siz buni unutishingiz darkor.

O t e l l o

Yo'q, uning o'lib, irib-chirib ketgani afzal. Ha, bu kecha u xuddi jahannamga ravona bo'ladi. Mening yuragim tosh bo'lib ketdi: musht tushirsam, qo'lim zirqiraydi... O, bu dunyoda undan go'zalroq vujud yo'q. U podsho bilan yonma-yon yotib, unga buyruq bera olardi.

Y a g o

Yo'q, bu sizga to'g'ri kelmaydi.

O t e l l o

Men uni osaman! Ha, osaman, ammo fazilatlarini ham aytaman. Kashta tikkandagi nazokatini demaysizmi? Soz chalgandagi nafosati-chi. O, u qo'shiq aytib, vahshiy ayiqni ham rom eta olardi. Naqadar yuksak va boy aql sohibasi edi u!..

Y a g o

Ana shu fazilatlari bilan ham u yanada yomonroq-da.

O t e l l o

O, ming marta, million marta yomon! Lekin shu bilan birga u shu qadar munis, shu qadar mehribonki...

Y a g o

Nimasini aytasiz, judayam mehribon...

O t e l l o

Yo'q, chindanam shundoq, shuning uchun judayam taassuf, Yago! Judayam taassuf!

Y a g o

Shuncha qilg'iligi ustiga uni yana shu qadar sevadigan bo'lsangiz, yaxshisi, unga ishonch qog'ozi berib qo'ya qoling: bilganini qilib, ayshini surib yura bersin. Siz parvo qilmasangiz, bas, boshqalarning nima ishi bor.

O t e l l o

Men uni burdalab tashlayman. Meni go'sxo'r qiladimi!
Meni-ya!..

Y a g o

O, u chindanam xunuk ish qilgan.

O t e l l o

Yana mening ofitserim bilan-a?

Y a g o

Bunisiga chidab bo'lmaydi.

O t e l l o

Menga bir oz zahar topib ber, Yago. Shu kecha! Men unga pand-nasihat qilib o'tirmayman. Uning badani, uning go'zalligi xayolimni yana o'g'irlab qo'yishi mumkin. Shu kecha, Yago.

Y a g o

Uni zaharlab o'tirmang. Yaxshisi, uni o'z to'shagida, o'sha o'zi bulg'atgan to'shakda bo'g'ib o'ldiring.

O t e l l o

Yaxshi, yaxshi. Bu adolatli fikr menga yoqadi. Juda yaxshi.

Y a g o

Kassioga kelsak, uni men o'zim gumdon qilaman. Qolgan gapni yarim kechada eshitasiz.

O t e l l o

Ayni muddao.

Burg'u sadosi eshitiladi.

Bu nechuk burg'u sadosi?

Y a g o

Venetsiyadan biror xabar borgan o'xshaydi;
Doj vakili L o d o v i k o kelmoqda, unga
Hamroh bo'lib kelayotir xotiningiz ham.

L o d o v i k o, D e z d e m o n a va mulozimlar kirishadi.

L o d o v i k o

Salom sizga, aziz general!

O t e l l o

Xush, kelibsiz, bek.

L o d o v i k o

Doj va senatorlar sizga salom yo'llashdi.
Unga paket beradi.

O t e l l o

Himmatlari bosh ustiga.
Xatni ochib o'qiydi.

D e z d e m o n a

Tog'ajon, ayting,
Qanday yangiliklar bilan keldingiz?

Y a g o

Sinor,
Sizni ko'rganimdan juda shodman. Marhabo!

L o d o v i k o

Rahmat sizga. Xo'sh, leytenant Kassio qalay?

Y a g o

U yuribdi, begim.

D e z d e m o n a

Tog'a, erim-la uning
Oralari buzilishib qolgan ko'p yomon,
Siz tuzatib qo'yarsiz, deb umid qilaman.

O t e l l o

Sizning ishonchingiz shunga komilmi?

D e z d e m o n a

Begim?

O t e l l o

"Siz bu ishni qila ko'rmang, lekin agarda..."

L o d o v i k o

Sizga emas. U maktubni o'qish bilan band,
Shunday qilib, oralari buzilishgan deng?

D e z d e m o n a

Ha, shunaqa bir noxushlik ro'y berib qoldi.
Ne qilsa ham men ularni yarashtirardim,
Kassioni men chindanam sevaman, axir.

O t e l l o

O'lat, jahannam!

D e z d e m o n a

Otello?

O t e l l o

Esing joyidami o'zi?

D e z d e m o n a

Nima? Jahlingiz chiqdimi?

L o d o v i k o

U maktubni o'qib, bir oz ranjidi balki:
Lekin unda Kassioqa ishini topshirib,
Venetsiyaga qayting, degan buyruq bor, xolos.

D e z d e m o n a

Voy, ishonimg bu xabardan juda xursandman.

O t e l l o

Shunaqami hali?

D e z d e m o n a

Nima, aziz Otello?

O t e l l o

Men ham shodman: jinni bo'lib qolibsiz tamom.

D e z d e m o n a

Nega endi, aziz Otello?

O t e l l o

Shayton!

Uni uradi.

D e z d e m o n a

Voy, men nima qildim? Mening gunohim nima?

L o d o v i k o

O'zim ko'rdim, deya qasam ichganimda ham
Birov ishonmasdi bunga Venetsiyada.
Yo'q, yaxshimas. Uzi so'rang, yig'layapti u.

O t e l l o

O, shayton! O, lain! O, sen iblis, kasofat!
Er xotinlar ko'z yoshidan tug'a bilsaydi,

Har qatrasi tug'ilardi bir timsoh bo'lib.
Yo'qol! Qorangni o'chir!..

D e z d e m o n a

Jahlingiz chiqmasin mayli, ketaman, begim.
Keta boshlaydi.

L o d o v i k o

O, naqadar yuvosh xotin. Sizdan so'rayman,
Uni qaytaring.

O t e l l o

Malikam!

D e z d e m o n a

Ha, labbay, begim?

O t e l l o

Uni nima qilmoqchisiz?

L o d o v i k o

Kim? Menmi?

O t e l l o

Ha, siz.

Axir, istadingiz uni qaytarishimni.

U qaytishi, ammo yana ketishi mumkin.

Istasangiz, yig'lab-yig'lab yana qaytadi.

Begim, u yuvoshdir. Mayli, siz yig'layvering;

Buni o'qib chiqdim. O, siz ustasi farang;

Qaytishimga buyruq bo'pti. Keting bu yerdan;

Sizga kishi yuboraman hali. Buyruqqa

Bo'ysunaman va qaytaman Venetsiyaga.

Yo'qol, daf bo'!

D e z d e m o n a ketadi.

Vazifamni men Kassioga
Topshiraman. Bugun oqshom kechki taomga
Biznikiga o'ting, birga ko'raylik baham.
Siz Qibrisga xush kelibsiz. Taka, maymunlar!
Chiqadi.

L o d o v i k o

Tavba, nahot, burun senat yakdillik bilan
Kamolotning timsoli deb bilgan arab shu?
Vazmin edi, unga na bir tasodif o'qi,
Na taqdir nayzasi ta'sir etmas edi-ku?

Y a g o

Ha, taassuf, u judayam o'zgarib qoldi.

L o d o v i k o

Miyasi joyida, aqli butunmi o'zi?.

Y a g o

Bo'lgani shu, men bir nima deyishim qiyin.
Shu turishda u o'ziga o'xshamaydi hech,
Istardimki, Tangri unga kushoyish bersin.

L o d o v i k o

Tavba deyman! Xotinini qanday urdi-ya!

Y a g o

Ha, judayam chakki qildi. Uning qilmishi
Ishning chappa ketishidan darak beradi.

L o d o v i k o

Xo'sh, bu uning odatimi yoki maktubdan
Bir oz jahli chiqib, shunday qiliqlar qildi?

Y a g o

Hayhot! Hayhot! Men ko'rgan va bilganlarimni
Aytib berolmasman, chunki sadoqatim bor.
Siz yaxshisi zehn qo'yib, kuzating uni,
Shunda hamma narsa o'zi bo'lur oshkor.

L o d o v i k o

Afsus, adashibman, ixlos qo'yibman bekor...
Chiqadilar.

2-sahna

Qasrda bir xona. O t e l l o bilan E m i l i y a kiradi.

O t e l l o

Xullaski, siz biror narsa ko'rmadingiz?

E m i l i y a

Yo'q,
Va shubhali biror narsa eshitmadim ham.

O t e l l o

Xo'sh, Kassio bilan uni ko'rgansiz balkim?

E m i l i y a

Ha, ko'rganman, ammo ular orasida hech
Biror nojo'ya ish yoki so'z kechgan emas.

O t e l l o

Shivirlashib so'zlashgandir?

E m i l i y a

Hech qachon, begim.

O t e l l o

Sizni yuborishmaganmi bir yoqqa?

E m i l i y a

Aslo.

O t e l l o

Yelpug'ich yo qo'lqop, niqob olib kelishga?

E m i l i y a

Bunaqasi hech bo'lmagan, begim.

O t e l l o

Taajjub.

E m i l i y a

U pokiza xotin, yaxshi anglangiz shuni,
Yuragimni garov qo'yib, aytaman buni.
Gar boshqacha o'ylasangiz, xato qilasiz,
Ayamasdan uloqtiring bunday fikrni,
Shu o'y bilan o'zingizni tahqir etasiz.
Xotiningiz nopok, deya biror muttaham
Sizni ishontirgan bo'lsa, istayman hamon —
Bir ilondek jazosini bersin osmon!
Agarda u nomusli va halol bo'lmasa,
Yer yuzida baxtli erlar topilmaydi, rost,
Va ularning xotinlari bo'htondek iflos.

O t e l l o

Bor, bu yoqqa chaqirib kel.

E m i l i y a ketadi.

Rosa vaysadi;

Quyib qo'ygan qo'shmachi bu, makkor fohisha,
Iflos siru asrorlarning qulfu kaliti;

Kerak bo'lsa, tiz cho'kadi, qasam ichadi,

Shunday hunarlari ham bor — ko'rganman necha.

E m i l i y a D e z d e m o n a bilan qaytib kiradi.

Bir ozgina sabru bardosh topa olaman,
Evoh, agarda-chi, jonsiz bir haykal kabi
Tahqir, mazax, dashnomlarga nishona bo'lsam,
Chidar edim bunday og'ir ko'rgilikka ham.
Ammo-lekin yuragimning shu xazinasini,
Xazinaki, u men uchun hayot va mamot —
Tirikligim chashmasidir, oqib ketsa u
Yoki qurib qolsa, uni tark etganim xo'p!
Mayli, sassiq hovuz qilib saqlay men uni,
Qurbaqalar ko'payishib, vaqirlab yotsin!
Sen ham endi shu tomonga yuzingni o'gir,
Qara unga, ey lablari guldek farishtam,
Yuzing mash'umlikda xuddi qora jahannam!

D e z d e m o n a

Begim, sofligimga axir shubhangiz yo'qdir?..

O t e l l o

Balli, yozda juft-juft bo'lib urchib yotguvchi
Qushxonaning pashshasidek sofsan, musaffo.
O, sen, alaf, xush bo'ying bor, tarovating bor,
Aqlni ham, tuyg'uni ham taslim etasan,
Koshki edi shu dunyoga kelmagan bo'lsang.

D e z d e m o n a

Evoh, nima qildim, ayting, gunohim nima?

O t e l l o

Mana bu oq qog'oz va shu bejirim daftar
"Fohisha" deb yozish uchun chiqarilganmi?
Nima qildim emish! Eh, sen avom — sharmanda!
Nima qildim?! Qilmishingni agar so'ylasam,
Temirchining qo'rasidek lovullar yuzim.
Ko'k burnini jiyiradi, oy jirkanadi,
Duch kelganni quchib-o'pib yurguvchi shamol

Eshitmay, deb o'ngirlarga o'zni uradi.
Nima qildim emish! Iflos, uyatsiz, buzuq!

D e z d e m o n a

Siz nohaqsiz, Xudo shohid, qasam ichaman.

O t e l l o

Ha, sen buzuq emasmisan?

D e z d e m o n a

Xristianman.
Erga sadoqatli bo'lish, or-nomusni
Boshqalardan ehtiyotlab, musaffo tutish,
Buzuqchilik sanalmasa — men pokizaman.

O t e l l o

Fohisha ham emassan?

D e z d e m o n a

Yo'q, Xudo saqlasin!

O t e l l o

O, nahotki?

D e z d e m o n a

O'zing asra bizni, ey falak!

O t e l l o

Undoq bo'lsa, ma'zur tuting. Sizni hamisha
Otelloni hiyla bilan ko'lga tushirgan
Venetsiyalik fohisha deb chamalar edim.
Siz avliyo Pyotrning dushmanidirsiz,
Jahannamning darvozaboni!..

E m i l i y a qaytib kiradi.

Siz, siz, siz!..

Biz tugatdik ishni. Mana, xizimatingiz-chun
Bu aqchani oling, endi eshikni oching,
Gullab qo'ymang tag'in, bari shu yerda qolsin.
Chiqadi.

E m i l i y a
Tavba deyman! Xo'jayin ne istaydi o'zi?
Ha, qalaysiz, malikam? Voy, ne bo'ldi, bekam?

D e z d e m o n a
Men karaxtman.

E m i l i y a
Xo'jayinga nima bo'ldi, aziz malikam?

D e z d e m o n a
Kimga?

E m i l i y a
Xo'jayinimga-da.

D e z d e m o n a
Xo'jayining kim?

E m i l i y a
Sizning xo'jayiningiz-da, munavvar bekam.

D e z d e m o n a
Emiliya, endi mening xo'jayinim yo'q,
Qo'y, so'rama; men hattoki yig'lay olmayman.
Senga javob berar unsiz ko'z yoshim faqat.
O'tinaman, bu kechqurun to'shagimga sen
Nikoh to'shagini yozib qo'ygil, unutma.
Bor, eringni chaqirib kel.

E m i l i y a

Ajab o'zgarish!

Chiqadi.

D e z d e m o n a

Bo'yla ko'rgulikni menga buyurmish qismat,
Ammo shuncha tahqir qaysi gunohim uchun?
Qaysi aybim uchun shuncha dashnom – haqorat?

E m i l i y a bilan Ya g o qaytib kiradi.

Ya g o

Labbay, bekam, buyuring. Ha, sizga ne bo'ldi?

D e z d e m o n a

Aytolmayman. Bolalarga ta'lim berganda
Yo'lga solishardi yengil tanbehlar bilan.
U ham menga shundoq tanbeh bersa bo'lardi,
Insof bilan aytganda-chi, men ham bolaman.

Ya g o

Xo'sh, o'zi nima gap, malikam?

E m i l i y a

Fohisha deb tahqirladi xo'jayin uni.
Qahru g'azab bilan shunday so'zlar aytdiki,
Eshitganning o'takasi yorilar.

D e z d e m o n a

Yago,
Nahotki men shunday nomga munosib esam?

Ya g o

Qaysi nomga, bekam?

D e z d e m o n a

Hozir eshitdingiz-ku...

E m i l i y a

Eri uni buzuq dedi, hattoki gado
Shundoq so'zni xotiniga ko'rmasdi ravo.

Y a g o

Nega shundoq qildi ekan?

D e z d e m o n a

Bilolmadim men,
Faqat bilamanki, sira undoq emasman...

Y a g o

Kasofat kun ekan o'zi, qo'ying, yig'lamang!

E m i l i y a

Sovchi qo'ygan ne-ne asl erlardan kechib,
Otasidan, do'stlaridan, yurtidan kechib,
Fohisha deb nom ko'tarsa, yig'lamaydimi?

D e z d e m o n a

Ha, peshonam sho'r ekan...

Y a g o

Voy, jin ursin uni!
Nega shunday qiladi-ya?

D e z d e m o n a

Xudo biladi.

E m i l i y a

Mayli, meni ossalar ham, bilganim bilgan.
Ishonaman: qay bir ablah, ayanch muttaham,

Pastkash bir qul mansab yoki martaba uchun
Shunday bo'hton-uydirmani to'qib chiqargan.
Agar yolg'on aytsam, meni osa qolsinlar.

Y a g o

E, qo'ysang-chi! Unaqasi bu atrofda yo'q...

D e z d e m o n a

Agar bo'lsa, mayli, Xudo xayrini bersin!

E m i l i y a

Xudo emas, sirtmoq uning xayrini bersin,
Suyaklari jahannamning o'tida yonsin!
Fohisha deb atadi-ya! Qani, kim bilan,
Qaydako'ripti u? Qachon? Qaysi holatda?
Ha, ayon-ku axir: bitta yaramas olchoq,
Muttahamning ig'vosiga uchiydi arab.
Ey osmon! Shundaylarning niqobini yirt,
Halol insonlar qo'liga o'zing qamchi ber.
Toki ular mal'unlarni yalang'och qilib,
Dunyo bo'ylab urib-surib, savalasinar,
Tirqiratib Mag'ribdan to Mashriqqa qadar!

Y a g o

Hoy, qichqirma!..

E m i l i y a

Undaylarga tupuraman men.
O'shalardan bittasi-ku ig'volar qilib,
Boshingizni aylantirdi, shubhaga soldi,
Meni gap qildingiz qancha Otello bilan.

Y a g o

Voy, ahmog'-ey! Jo'na endi bu yerdan.

D e z d e m o n a

Yago,
Qandoq qilsam, erim menga ishonar yana?
Do'stim, uning huzuriga boring. Shu osmon
Ravshanligi – Quyosh haqqi qasam ichaman,
Uning sevgisiga zarra dog' tushirmadim,
Na o'y-xayollarim va na ishlarim bilan.
Na ko'zim, na qulog'im, na hislarim bilan
Boshqalarga zig'ircha ham parvo qilmadim;
Uni doim sevib, e'zoz aylamadimmi?
Gado kabi bir chekkaga itqitib, otib,
Tashlab ketgan bo'lsa hamki, sevaman uni!
Qahru g'azab ko'p ishlarni qilishga qodir,
Hayotimni sovursa-da, uning g'azabi.
Muhabbatim qarshisida ojizdir lekin.
"Fohisha" deb aytish menga qiyin naqadar,
Jirkanaman aytishga ham bu so'zni hatto.
Dunyo molin oyog'imga mayli to'ksinlar,
Men unaqa bo'lolmayman, bo'lmasman aslo.

Y a g o

O'tinaman, siz tinchlaning, bu narsa uning
Tabiatidagi o'ta injiqlik, xolos.
Yoki davlat ishlaridan jahli chiqqanu
Alamini sizga to'kkan.

D e z d e m o n a

Bo'lsa, kosHKiydi.

Y a g o

Ha, ishoning, men kafilman
Burg'u chalinadi.
Eshiting, ana,
Kechki dasturxonga bizni etishar da'vat,
Venetsiya elchilari uchun ziyofat.

Siz boring, yig'lamang, bari o'nglanar yana.
Dezdemonaga va Emiliya chiqadilar. Rodrigo kiradi.
Keling, qalaysiz, Rodrigo?

R o d r i g o
Sen menga insofsizlik qilyapsan.

Y a g o
Masalan?

R o d r i g o
Har kuni bir gap bilan boshimni qotirasan, Yago. Menga shunday tuyuladiki, umidlarimni jindak bo'lsa-da ro'yobga chiqazish o'rniga, meni barcha qulayliklardan nari surib, sarson-sargardon qilasan. Men ortiq chidayolmayman va shu qadar ahmoq bo'lib chekkan tashvishlarim alamini ham olmay qo'ymayman.

Y a g o
Meni eshitasizmi, Rodrigo?

R o d r i g o
Eshitaverib, quloqlarim bitdi. So'zingiz boshqa-yu, ishingiz boshqa.

Y a g o
Meni nohaq ayblayapsiz.

R o d r i g o
Yo'q, men haqman. Men bor-budimni sovurib bo'ldim. Dezdemonaga beraman deb mendan olgan javohirotni yarmiga ham oyisi o'pmagan qizni qo'lga tushirsa bo'lardi. Siz, ularni Dezdemonaga oldi, beradigan va'dasini berdi, deb meni umidvor qildingiz. Ammo haligacha hech gapdan darak yo'q.

Y a g o

Yaxshi, davom eting, juda yaxshi.

R o d r i g o

Davom eting, juda yaxshi emish!.. Hoy, inson, men davom etolmayman, keyin bu sirayam yaxshi emas. Uchchiga chiqqan ablahlik bu! Ana shu qo'llarimga qasam ichib aytamanki, meni laqillatishganiga endi aqlim yetib turibdi.

Y a g o

Shuda yaxshi.

R o d r i g o

Yana takror aytamanki, bu hech ham yaxshi emas. Hamma gapni Dezdemonaga aytib beraman. Javohirotni qaytarib bersa, xo'p, da'voyimdan kechib, qilmishimga tavba-tazarru qilaman. Bermasa, shuni bilingki, o'zingizdan undirib olaman.

Y a g o

Xo'p, gapingiz tugadimi?

R o d r i g o

Men bajarishim qat'iy bo'lgan qarorimni aytdim.

Y a g o

Barakalla, senda ham azmu iroda borligini, mana endi ko'rib turibman. Shu daqiqadan e'tiboran sen to'g'ringda fikrim o'zgardi, endi avvalgicha o'ylamayman. Qo'lingni ber, Rodrigo. Meni ayblashlaring to'g'ri, hammasida haqsan. Ammo shuni ham aytib qo'yay: seni deb ozmuncha jon kuydirganim yo'q.

R o d r i g o

Ko'rinmayapti.

Y a g o

To'g'ri, ko'rinmayapti, keyin shubhalarida ham jon bor. Biroq, Rodrigo, haligidek yigitliging chin bo'lsa, men uning chinligiga ishonaman, yuragingda ahdu qaror, azmu jasorating bor bo'lsa, bu kecha ko'rsatasan uni. Agar ertagayoq Dezdemonaning qo'yniga kirmasang, mayli, shu dunyodan mening qoramni o'chir, xoin deb jonimni olaver.

R o d r i g o

Xo'sh, nima gap o'zi? Bajarsa bo'ladigan ishmi?

Y a g o

Afandim, Kassioni Otelloning o'rniga tayinlash xususida Venetsiyadan maxsus buyruq keldi.

R o d r i g o

Rostdanmi? Unda Otello bilan Dezdemona Venetsiyaga qaytishar ekan-da...

Y a g o

Yo'q! U Marokashga jo'naydi, o'zi bilan Dezdemonani olib ketadi. Biror tasodif ro'y bermas ekan, shundoq bo'lishi muqarrar. O'sha tasodif ro'y bersin uchun Kassioni oradan surib tashlash kerak, bo'lak chora yo'q.

R o d r i g o

Siz oradan surish deganda nimani ko'zda tutasiz?

Y a g o

Shunday qilish kerakki, u Otelloning o'rnini egallay olmasin. Ya'ni, miyasini yorib, qatig'ini oqizish kerak.

R o d r i g o

Shu ishni menga topshirasizmi?

Y a g o

Ha, agar o'z foydangiz va haq-huquqingizni o'ylasangiz shuni ado etasiz. Bu kecha u anavi o'ynashining uyida ovqatlanadi. Men ham u bilan ko'rishmoq uchun o'sha yerga boraman. U hali baland martabaga ko'tarilganidan bexabar. Agar uning qaytishini poylab tursangiz –men shunday qilamanki, u chamasi o'n ikki bilan bir orasida qaytadi – siz uni osongina qo'lga tushirasiz. Men ham o'sha atrofda bo'laman, qarab turmayman, ikkimizga bas kelolmaydi. Endi angrayib turavermang, yuring men bilan. Uning o'limiga shunday dalillar keltirayki, men uni daf etishim kerak, deb o'zingiz beixtiyor o'ylab qolasiz. Hozir kechki ovqatning ayni fursati. Qosh qorayib qoldi. Qani, ketdik.

R o d r i g o

Men o'sha dalillarni eshitishim kerak.

Y a g o

Aytaman, eshitasiz, o'zingiz ishonch hosil qilasiz.
Chiqadilar.

3-sahna

Qasrda boshqa bir xona. O t e l l o, L o d o v i k o,
D e z d e m o n a, E m i l i y a va m u l o z i m l a r kirishadi.

L o d o v i k o

O'tinaman, begim, boshqa ovora bo'lmang.

O t e l l o

Hechqisi yo'q, bir oz sayr qilib, qaytaman.

L o d o v i k o

Xayrli tun, bekam. Sizga yana tashakkur.

D e z d e m o n a

Xayr, xush kelibsiz.

O t e l l o

Siz ham sayr etasizmi?

D e z d e m o n a

Labbay, begim?

O t e l l o

Borib, oʻrningga yot. Men tezda qaytaman. Emiliyaga ruxsat ber. Aytganlarimni bajar.

D e z d e m o n a

Xoʻp, boʻladi, begim.

O t e l l o, L o d o v i k o v a m u l o z i m l a r c h i q i s h a d i.

E m i l i y a

Qalay endi? Avvalgidan koʻra birmuncha Yumshagan shekilli?

D e z d e m o n a

Tezda qaytaman, dedi,

Oʻzing borib, uxlayver, deb menga buyurdi,

Tayinladi senga ruxsat berishimni ham.

E m i l i y a

Menga ruxsat ekan-da!..

D e z d e m o n a

Ha, uning amri shu.

Emiliya, menga tungi libosimni ber,

Keyin senga xayrli tun, mayli, ketaver.

Ne boʻlsa ham, biz gʻashiga tegmaylik endi.

E m i l i y a

Siz oʻshani koʻrmasangiz, yaxshi boʻlardi...

D e z d e m o n a

Undoq dema, u bari bir menga suyakli,
O'jarlik qilsa ham, qahru g'azab etsa ham,
Bu tugmamni yechib qo'y — men sevaman uni.

E m i l i y a

Aytgan choyshablaringizni to'shakka yozdim.

D e z d e m o n a

Ha, bari bir. Voy, tavba-ey, qanday jinniman!
Sendan oldin o'lar bo'lsam, o'sha choyshabning
Bittasini menga o'zing kafan qil, xo'pmi...

E m i l i y a

Qo'ysangiz-chi, issiq qiling nafasingizni.

D e z d e m o n a

Onamning bir joriyasi bo'lar edi, ha,
Oti Barbara, birovga ko'ngil beribdi,
Sevgani jinni deb uni tashlab ketibdi,
Qo'shig'i bor edi bitta o'sha sho'rlikning,
"Majnuntol" deb atalardi, qadim bir qo'shiq.
Sho'rlik shuni kuylab-kuylab, joni uzildi.
O'sha qo'shiq xotiramga tushib bu oqshom,
Nimagadir xayolimdan ketmay turibdi.
Sho'rlik Barbaraga o'xshab men ham boshimni
Bir tomonga solintirib, o'sha qo'shiqni
Kuylagim keladi, nuqul... Qani, bo'la qol.

E m i l i y a

Malikam, beraymi tungi ko'ylagingizni?

D e z d e m o n a

Yo'q, tugmani yechib qo'ysang bo'ldi... Aytmoqchi,
Lodoviko ko'p kelishgan yigit ekanmi?

E m i l i y a

Ha, judayam barno yigit.

D e z d e m o n a

So'zgayam chechan.

E m i l i y a

Venetsiyada bir xonim uning pastki labidan bir o'pish uchun Falastingacha yalangoyoq, yayov borishga rozi edi.

D e z d e m o n a

Kuylaydi.

Daraxt ostida sho'rlik o'ltirardi soch yoyib,

Kuyla, yashil majnuntol;¹

Ikki qo'li ko'ksida, tizzasiga bosh qo'yib,

Kuyla, kuyla majnuntol.

Muzdek tiniq to'lqinlar oqizardi yoshlarni,

Kuyla, kuyla, majnuntol;

Achchiq ko'z yoshi oqib, eritardi toshlarni...

Buni qo'yatur — kuyla, kuyla, majnuntol...

Tezroq bo'lsang-chi, u hozir kelib qoladi.

Shu yam-yapshi majnuntol gulmarjon bo'lsin menga,

Uni hech ayblamanglar, sevmasa ham mayliga —

Yo'q, bu emas. Hov, birov taqillatayaptimi?

E m i l i y a

Yo'q, shamol.

D e z d e m o n a

Sevgimni soxta desam, nima deydi u beor?

Men boshqalarga bordim, sen ham boshqalarga bor...

Xo'sh, bora qol endi, tuning xayrli bo'lsin,

Ko'zim achishmoqda hadeb — yig'layman shekil.

¹ Shekspir davri xalq qo'shiqlarida majnuntol — sevgan yori rad etib, tashlab ketgan baxti qaro qiz ramzi sifatida raqin qilingan.

E m i l i y a

Qo'ysangiz-chi.

D e z d e m o n a

Shunaqa deb eshitganim bor.
O erkaklar, erkaklar! Ha, ayt, Emiliya,
Insof bilan rostini ayt, xotinlar ichra
Erlarnni aldab, shunday tahqirlaguvchi
Bevafolar bormi?

E m i l i y a

Bekam, nega bo'lmasin!

D e z d e m o n a

Gar dunyoni bersa, shunday qilarmiding sen?

E m i l i y a

O'zingiz-chi?

D e z d e m o n a

Yo'q, shu yorug' yulduzlar shohid.

E m i l i y a

Men ham qilmas edim yulduz yorug'ligida,
Ammo kecha qop-qorong'u bo'lsa, qilardim...

D e z d e m o n a

Gar dunyoni bersa, shunday qilarmiding, a?

E m i l i y a

Dunyo shunday bahaybat, yo'q degayman nahot,
Shunday kichik bir gunohga — buyuk mukofot.

D e z d e m o n a

Rostini aytsam, sen qilmasding.

E m i l i y a

Rostini aytsam, men qilardim. Qilib bo'lgach ustini xaspo'shlab, bekitardim. Albatta, bu ishni bitta uzukmi, bir kiyimlik chitmi, ko'ylaklar, yubkalar, shlyapalar yoki shunga o'xshash mayda-chuydalar uchun qilmasdim. Ammo dunyo uchun — qilardim. Erning boshiga toj qo'ndirish uchun uning oldiga poxol solish lozim ekan — kim qarab turadi, deysiz. Buning uchun men a'rofga tushishga ham rozi bo'lardim.

D e z d e m o n a

Menga la'nat bo'lsin, sangi malomat har dam,
Dunyo uchun shunday yomon yo'llarga yursam...

E m i l i y a

Buning nimasi yomon ekan; yomon bo'lsa, o'z dunyoyingizda yomon. Dunyoni mehnatingiz evaziga o'zingizniki qilib olgach, o'sha yomonni darhol yaxshilikka aylantirish o'z qo'lingizda.

D e z d e m o n a

Shunday xotin bormikin, yo'q, ishongim kelmas.

E m i l i y a

Bor, undaylar behisob. Va ular dunyoni deb har maqomga yo'rg'alashga tayyor.

Gar xotinlar zino qilsa, erlari aybdor,

Demak, ular yetarlicha etmas e'tibor.

Demak, burchlarini yomon ado etishar,

Xazinani begonaga eltib to'kishar.

Yoki rashk qilishar, hadeb zug'um qilishar,

Kaltaklashar. behudaga zulni qilishar.

Bizda ham topilar lekin ranj ila ozor,

Bizda ham g'urur bor, demak, o'ch bor, alam bor.

Ha, erkaklar bilib qo'ysin — na ortiq, na kam,

Sezgi bo'lar, tuyg'u bo'lar xotirlarda ham.

Nima bor ularga oshkor, bizga yashirin?
Ularga ne shirin bo'lsa, bizga ham shirin —
Ular ko'rsa, bizlarning ham ko'zimiz ochiq,
Ularga ne achchiq bo'lsa — bizga ham achchiq.
Boshqalarga borishadi. Xo'sh, ermakmi bu?
Shundoq bo'lsa kerak. Balki ishq degan tuyg'u?
Bu ham bo'lsa bordir. Balki irodasizlik?
Ehtimoldan yiroq emas. Xo'sh, bizda yo'qmi
Erkaklarda bo'lgan mayl, istak va orzu?
Bas, e'tibor bilan bizni kuzatsin ular,
Bizdan oldin o'zlarini tuzatsin ular...

D e z d e m o n a

Xayrli tun. Falak, o'zing bergaysan madad,
Yomonlikdan yaxshilikni o'rganay faqat!
Chiqadilar.

BESHINCHI PARDA

1-sahna

Qibris. Ko'cha Ya g o bilan R o d r i g o kiradi.

Ya g o

Shu ustunning orqasida yashirinib tur.
U keladi hozir. Qo'lda keskir qiliching —
Yalang'och, shay bo'lsin, aniq mo'ljal qilib ur,
Faqat tez bo'l, qo'rqma, men ham qavatingdaman.
Bu ish bor qiladi yoki yo'q qilar bizni,
Shuning uchun mardona bo'l, tetik bo'l, bardam.

R o d r i g o

Uzoqlashma, men shoshilib qolmayin tag'in.

Ya g o

Shu yerdaman, dadilroq bo'l, ha, o'rningda tur.
Bir chekkaga chiqadi.

R o d r i g o

Rosti, uncha hafsalam yo'q shu ishga, lekin
U ko'ndirdi meni talay dalillar bilan.
Ana, birov kelyapti. Qani, qilichim,
Shay bo'lib tur... Ha, kela qol, hozir o'lasan..

Y a g o

Men timdalab, qonatdim shu yangi yarani
Endi achishadi — va u jahlg'a minar,
Kassioni o'ldirar yo Kassio uni.
Shu o'rtada ikkisi ham o'ladi yoki —
Unisi ham, bunisi ham menga qo'l kelar.
Gar Rodrigo tirik qolsa, talab qiladi
Dezdemonaga deb bergan javohirlarni,
Bu ketmaydi... Gar Kassio tirik qolsa-chi,
Nuqul huzur-halovatda kechadi umri,
Bu ham menga xush kelmaydi. Buning ustiga
Arab ochib berar unga kirdikorlarim.
Bu judayam xatarlidir. Shuning uchun ham
U o'lmog'i kerak. To'xta, kelyapti u...

K a s s i o kiradi.

R o d r i g o

Yurishidan taniyman, bu — o'shaning o'zi,
Kalimangni o'gir, mal'un, ajaling yetdi!..

K a s s i o tashlanadi.

K a s s i o

Juda qattol dushmanimning hamlasidir bu.
Ey, bilib qo'y, mustahkamdir sovutim mening,
Sovutingni parchalayman lekin...
Qilichini yalang'ochlab Rodrigoni yaralaydi.

R o d r i g o

O, o'ldim!..

Yago orqadan pisib kelib, Kassioning oyog'iga qilich urib qochadi.

K a s s i o

Voy, oyoqdan ayrildim!.. Hoy, yordam beringlar!
Yiqiladi. Chekkaroqda Otello ko'rinadi.

O t e l l o

Kassioning ovozi bu, azamat Yago
Bergan va'dasiga vafo ayladi, mana.

R o d r i g o

O. men ablah, yaramasman!..

O t e l l o

Balli, so'zing chin.

K a s s i o

Hoy, yordam beringlar! Chiroq, jarroh keltiring!

O t e l l o

Xuddi o'zi. Barakalla, bahodir Yago!
Do'stning ahvoliga yonish bundoq bo'libdi.
Men ham saboq olay endi jasoratingdan.
Ha, oyimcha, ayrildingiz xushtoringizdan.
Qismatingni qarshilayver endi, fohisha!
Borayapman, yuragimdan yulib tashlayman
Uning ko'zlarini, sehru malohatini.
U hirs bilan to'shagini bulg'agan edi,
Iflos qoni bilan uni bo'yayman endi!
Chiqadi. L o d o v i k o bilan Grastiano kiradi.

K a s s i o

Hoy, qorovul! Hoy, o'tkinchi! Yordam beringlar!

G r a s t i a n o

Bir falokat yuz bermish!.. Ha, kimdir qichqirar...

K a s s i o

Yordam bering!

L o d o v i k o

Ana, eshit!

R o d r i g o

Yaramas, mal'un!

L o d o v i k o

Faryod-fig'on eshitilar ikki-uch yoqdan,
Dahshatli tun, bu bir hiyla-tuzoq bo'lmasin;
Soqchilar yo'q, boraverish balki xatarli...

R o d r i g o

Kim bor? Qonim oqib, tamom ado bo'ldim-ku...

L o d o v i k o

Ana!..

Ya g o mash'al ko'tarib qaytib kiradi.
Kimdir kelyapti mash'al, qurol ko'tarib,
Ko'ylakchan bir kishi.

Y a g o

Eh-ey, kim bor bu yerda?
Qorovul, kim deb qichqirar bunda?

L o d o v i k o

Bilmadik.

Y a g o

Eshitmadingizmi magar qichqiriqni ham?

K a s s i o

Hoy, bu yoqqa! Xudo haqi, yordam beringlar!

Y a g o

Nima bo'ldi?

G r a s t i a n o

Otelloning mulozimi-ku.

L o d o v i k o

Xuddi o'zi. U judayam dovyurak yigit.

Y a g o

Xo'sh, nima gap? Yordam so'rab qichqirgan sizmi?

K a s s i o

Yago? Meni chavaqlashdi mal'unlar yomon,
Menga yordam bering.

Y a g o

Evoh, aziz leytenant!
Qanday yaramaslar ekan, biloldingizmi?

K a s s i o

Shu atrofda bo'lsa kerak ulardan biri.
Yotibdi u, turolmaydi.

Y a g o

Voy, la'natilar!

(Lodoviko bilan Grastianoga)

Hoy, kimsizlar? Qani, kelib, yordam beringlar!

R o d r i g o

O, yordam beringlar!

K a s s i o

Mana, ulardan biri.

Y a g o
Shunaqami, O, sen iflos! Yaramas qotil!
Rodrigoga xanjar uradi.

R o d r i g o
O, la'nati Yago!.. Yovuz, quturgan ko'ppak!

Y a g o
Qorong'uda odamlarni o'ldirishibdi!
Xo'sh, qaydadir hozir o'sha qotil o'grilar?
Shahar jimjit. Qorovullar! Hoy, qorovullar!..
Sizlar kimsiz: do'stmisiz yo dushmanmisizlar?

L o d o v i k o
Siz sinchiklab qarang, bizni tanib olasiz.

Y a g o
Sinor Lodoviko?

L o d o v i k o
Xuddi o'zi, afandim.

Y a g o
Meni ma'zur tuting, chunki kecha qorong'u,
La'natilar Kassioni chavaqlashibdi.

G r a s t i a n o
Kassioni?

Y a g o
Ahvolingiz nechuk, leytenant?

K a s s i o
Oyog'im shart singan...

Y a g o

Yo'g'-ey, Xudo saqlasin!

Qani, endi chiroq tuting, menga, janoblar,
Yarasini bog'lab qo'yay ko'ylagim bilan.

B i a n k a kiradi.

B i a n k a

Nima janjal? Kim qichqirdi?

Y a g o

Qichqirgan -- mana!

B i a n k a

Oh, aziz Kassio! Mening jonim Kassio!

Oh, Kassio, Kassio!

Y a g o

Hey, shoshma, fohisha!

Kassio, ko'p afsus, sizni mayib qilishdi,

Xo'sh, biror kimsadan magar shubhangiz yo'qmi?

K a s s i o

Yo'q.

G r a s t i a n o

Sizni shu ahvolda ko'rib, taassufdaman,

Izlab yurgan edim...

Y a g o

Biror matoh beringlar,

Zambil keltiringlar, tezroq olib jo'naylik.

B i a n k a

Voy, hushidan ketib qoldi! Jonim Kassio!

Y a g o

Og'aynilar, taxminimcha mana shu ishga
Manov megajinning bir oz aloqasi bor.

Ha, ozgina sabr qiling, aziz Kassio.

Chiroq tuting, men bu yuzni taniymanmi — yo'q?

Evoh, bu jigarim, do'stim, vatandoshim-ku,

Rodrigo? Yo falak? Xuddi o'sha — Rodrigo.

G r a s t i a n o

Venetsiyalikmi?

Y a g o

Xuddi o'shaning o'zi,

Siz bilarmidingiz uni?

G r a s t i a n o

Balli, bilardim.

Y a g o

Ma'zur tuting meni, sinor Grastiano,

Xayolimni band etibdi qonli mojaro —

Sizni tanimabman.

G r a s t i a n o

Sizni ko'rib, xursandman.

Y a g o

Xo'sh, qalaysiz, Kassio? Hoy, zambil keltiring.

G r a s t i a n o

Rodrigo deng?

Y a g o

O'zi. Mana, zambil ham tayyor,

Qani endi ehtiyotlab olib jo'nanglar.

Generalning jarrohini topib shu zamon,
Ortingizdan men ham yetib boraman jadal.

(Biankaga)

Siz, oyimqiz, o'zingizni bosiqroq tuting...

(K a s s i o g a)

O'lgan yigit mening yaqin og'aynim edi,
Orangizda biror nizo o'tganmi edi?

K a s s i o

Yo'q, sirayam. Tanimasdim men uni hatto.

Y a g o

(Biankaga)

Xo'sh, rangingiz nega bunday oqarib ketdi?
Hoy, bo'linglar, uni tezroq olib jo'nanglar.
Kassio bilan Rodrigoni olib chiqishadi.
Hoy, to'xtanglar. Xonim, nega rangingiz o'chiq?
Ko'rasizmi ko'zlarining jovdirashini?
Unga qarab, bir gaplarni bilib olasiz?
Og'aynilar, o'tinaman, sinchiklab qarang,
Qalay, ko'ryapsizmi? Ha, tilsiz jinoyat
O'zni oshkor etar shunday so'zsiz, izohsiz.

E m i l i y a kiradi.

E m i l i y a

Ne hodisa bo'ldi o'zⁱ? Nima gap, Yago?

Y a g o

Rodrigo va allakimlar qorong'u tunni
Qulay qilib, Kassioqa hujum etmishlar,
Kassio yarador, lekin o'lmish Rodrigo.

E m i l i y a

Esizgina shunday yigit, esiz Kassio'

Y a g o

Sayoq yurgan tayoq yeydi, deganlari rost,
Emiliya, o'tinaman, surishtirib boq –
U qayerda ovqatlangan ekan bu oqshom?..

(Biankaga)

Xo'sh, siz nega titrayapsiz?

B i a n k a

Titraganim yo'q, Menikida ovqatlangan edi Kassio.

Y a g o

Shunaqami? Undoq bo'lsa, javob berasiz.

E m i l i y a

Tfu senga, fohisha!

B i a n k a

Men fohisha emas,
Xuddi sizdek pokizaman, haqorat etmang.

E m i l i y a

Xuddi mendek? Tfu senga!

Y a g o

Endi, yoronlar,
Borib, sho'rlik Kassiodan olaylik xabar.

(Biankaga)

Siz biz bilan yurishingiz kerak, oyimqiz,
Balki biror yangi ertak aytib berasiz.

Emiliya, yugur, darhol sen qasrga bor,
Otello va xotinini etgil xabardor.

(Chetga)

Oh bu kecha savdosini so'zlamog mushkul;
Yo bor etar meni yoki yo'q etar butkul...

Chiqadilar.

2-sahna

Qasrda xobgoh. Dezdemona to'shakda uxlab yotpbdp.
Sham yonib turadi. O t e l l o kiradi.

O t e l l o

Jonim, buning sababi bor, sababi tayin,
Siz eshitmay qo'ya qoling, shaffof yulduzlar.
Sababi bor. Men qonini to'kmayman uning,
Qordan ham oq, qabrdagi marmardan silliq!
Shu badanga solmagayman yara-jarohat.
Ammo-lekin o'lishi shart. Agar o'lmasa,
Xiyonatga borar yana boshqalar bilan.
Shamni puflay va o'chiray chirog'imni ham...
Ey har yonga shu'la sochib, yonayotgan sham!
Seni o'chirsamu keyin bo'lsam pushaymon,
Yana yondiraman, yana yoqa olurman...
Ammo seni so'ndirsam-chi, ravshan chirog'im,
Go'zal tabiatga makkor nusxa bo'lgan tan,
Bilolmasman, otashingni yondirmoq uchun
Prometey olovini qaydan olaman...
Gulni uzib gul bandidan, unga yangidan
Hayot tarovatini men nechuk bag'ishlay?
U so'ladi. Butog'ida bir hidlab olay...
Dezdemonani o'padi.
Yana bitta o'pay, yana birgina o'pay.
Jonim, o'limingga qadar qolaver shunday.
O'zim o'ldiraman, lekin yana sevaman,
Yana bir bor o'pay, yana, oxirgi marta.
Yo Xudoyim, bo'sa degan shunchalar shirin,
Shuncha mash'um va sitamkor bo'lar ekan-da!
Yig'layapman. Ko'z yoshlarim oqar beomon,
Samoviy bir ishorat bor bu alamlarda;
O'zi sevgan bandasini kuydirar osmon...
Evoh, u uyg'onib qoldi, ko'zini ochdi.

Ushbu misra G'.G'ulom tarjimasida berildi. (Tarj.)

Dezdemona
Kim? Otello, bu sizmisiz?

Otello
Ha, Dezdemona.

Dezdemona
Yotmaysizmi, begim?

Otello
Menga ayt, Dezdemona,
Bugun kechki ibodatni qilganmi eding?

Dezdemona
Qilgan edim.

Otello
Yaratganga xush kelmaydigan
Biror gunoh qilgan bo'lsang, yodingga tushir,
Shunga ma'zur so'rab, uzri-iltijo ayla.

Dezdemona
Men bu gapni tushunmadim: ne demoqchisiz?

Otello
Tazarru qil tezroq, bunda kutib turaman,
Azmi safar uchun hozir bo'lmagan jonni
Qandoq o'ldiraman, ruhing osiy ketmasin!

Dezdemona
O'ldiraman... dedingizmi?

Otello
Ha, o'ldiraman.

De z d e m o n a
Ey Xudoyim, o'zing asra.

O t e l l o
Ilohi omin!

De z d e m o n a
Shunday dedingizmi, demak, o'ldirmaysiz...

O t e l l o
Hmm!..

De z d e m o n a
Ammo qo'rqayapman sizdan — vajohatingiz
Dahshatlidir ko'zlaringiz olaygan mahal.
Nega endi qo'rqayapman — bilmayman o'zim,
Va bilmayman: aybim nima, gunohim nima?
Shunday bo'lsayamki: yana qo'rqayapman, ha...

O t e l l o
Gunohingni esla.

De z d e m o n a
Gunohim shu, u ham bo'lsa, sizni sevganim.

O t e l l o
Ha, ana shu sevging uchun o'lasan endi.

De z d e m o n a
Tabiatda sevgi uchun o'lim kelmaydi.
Voy, Xudoyim, labingizni tishlaysiz nechun?
Allaqanday g'azab sizni yondirmoqdadir.
Bular — mash'um alomatlar, lekin har tugul
Men sababchi emasdirman...

O t e l l o

Uningni o'chir!..

D e z d e m o n a

Xo'p, jim bo'ldim, ammo ayting, nima gap o'zi?

O t e l l o

O'zim sevib, sovg'a qilgan ro'molchani sen
Kassioga berding.

D e z d e m o n a

Yo'q, men qasam ichaman
Jonimni va hayotimni o'rtaqa qo'yib,
Yo'qsa, chaqirtiring uni, o'zi so'zlasin.

O t e l l o

Hoy, sen, jonim, qasamxo'rlik qilaverma ko'p,
Boshqa joyda emas — o'lim to'shagidasan.

D e z d e m o n a

Shu daqiqa o'lmasman-ku, axir...

O t e l l o

Yo'q, hozir.
Bas, shuning-chun gunohingga tavba qilaver.
Garchi qasam ichding, garchi iqror bo'lmading,
Lekin niyat o'zgarmaydi, qarorim qat'iy,
Garchi faryod chekayapman — ammo o'lasan.

D e z d e m o n a

Parvardigor, o'zing menga rahm ayla!

O t e l l o

Omin!

D e z d e m o n a

Siz ham jinday shafqat qiling! Axir men sira
Sizni ranjitmadim, zarra tahqir etmadim,
Kassioni sevganim yo'q, hurmat qilardim,
Biroq bermaganman unga biror-bir sovg'a.

O t e l l o

Osmon shohid, ro'molchani qo'lida ko'rdim,
Hoy, qasamxo'r! Yuragimni tosh qotirding sen.
Qurbonlik deb men yurakka tukkan shu ishni
Qotillik deb tan olmoqqa majbur etasan.
Ro'molchani ko'rdim!

D e z d e m o n a

Demak, topib olibdi.
Men hech qachon bermaganman. Kishi yuboring,
To'g'risini aytib bersin.

O t e l l o

U aytib bo'ldi.

D e z d e m o n a

Xo'sh, u nima dedi, begim?

O t e l l o

Nima ham derdi?
Aytib berdi sening bilan aysh qilganini.

D e z d e m o n a

Qanday? G'ayriqonuniymi?

O t e l l o

G'ayriqonuniy.

D e z d e m o n a

Yo'q, u bunday demaydi.

O t e l l o

Ha, nafasi o'chdi;
Sodiq Yago bu mushkulni oldi bo'yniga.

D e z d e m o n a

Evoh, o'sha qo'rquvlarim ro'yobga chiqdi!
Nima, u o'ldimi?

O t e l l o

O, har tola mo'yi bitta jon bo'lganda ham,
Hammasini qondirardi qasosim mening.

D e z d e m o n a

Evoh, sho'rlik aldanibdi, men ado bo'ldim!

O t e l l o

Yo'qol, fohisha!
Uyalmasdan uning uchun yig'layapsanmi?

D e z d e m o n a

Mayli, meni haydang, begim, ammo o'ldirmang!

O t e l l o

O'l, fohisha!

D e z d e m o n a

Ertaga o'ldiring, mayli, shu kecha yashay.

O t e l l o

Talashmoqchi bo'lasanmi hali men bilan!

D e z d e m o n a

Mayli, yarim soat!..

O t e l l o

Endi ortga surish yo'q.

D e z d e m o n a

Bittagina duo o'qiy!..

O t e l l o

Endi kech bo'ldi.

Uni bo'g'adi.

E m i l i y a

(Sahna ortidan)

Begim, hoy, begim! Begim, deyman, begim!

O t e l l o

Bu ne shovqin? O'ldimikin yo o'lmadimi?
Bag'ritoshman, lekin bordir rahmu shafqatim.
Shuncha azob chekkaning ham yetadi endi.
Mana, bo'ldi...

E m i l i y a

(Sahna ortidan)

Begim, deyman, begim! Hoy, begim!

O t e l l o

Kim u?

E m i l i y a

(Sahna ortidan)

Begim, oching tezroq, sizga gapim bor!

O t e l l o

Emiliya... Endi sekin bo'shatay. O'ldi.
Kassioning o'limini aytmoqchidir u.
Ko'p qiynaldi. Tamom! Boshqa qimirlamaydi
Endi jimjit yotar xuddi qabrdagiday.
Yana qimirladimi? Yo'q. Ne qilsam ekan?
Gaplashaman, deb qolsa-chi xotinim bilan.
Xotinim! O, xotinim! Ha, qaysi xotinim?

Endi xotinim yo‘q, o, men chidayolmayman!
Qanday qaro kun bu! Shundoq tuyuladiki,
Oy bilan quyoshni quyuq zulmat qoplagan,
Yer ham shu bo‘shliqda yolg‘iz qorayib mudhish,
Tebranib turibdi qo‘rquv-vahima ichra...

E m i l i y a

(Sahna ortidan)

O‘tinaman, oching, begim, aytar so‘zim bor.

O t e l l o

Seni unutibman. Qani, kir, Emiliya.
Shoshma, birpas sabr qil, men pardani tortay.
Qayoqdasan?

Eshikni ochadi. Emiliya kiradi.

Xo‘sh, nima gap? Senga ne qildi?

E m i l i y a

U yoqda-chi, begim, qonli mojaro bo‘ldi.

O t e l l o

Yo‘g‘-ey? Qachon? Shu topdami?

E m i l i y a

Xuddi shu topda.

O t e l l o

Ehtimolki, oy yo‘lidan adashib qolgan,
Erga yaqinlashib, sehri – tal’ati bilan
Odamlarni jinni qilgan.

E m i l i y a

Begim, Kassio
Venetsiyalik bir yigitni chavaqlab qo‘ydi,
Adashmasam, uning oti Rodrigo edi.

O t e l l o

Rodrigoni o'ldirishdi! Kassioni-chi?

E m i l i y a

Yo'q, Kassio tirik.

O t e l l o

Qotil shoshilibdi-da.

Demak qasos o'ti yana gurillar baland.

D e z d e m o n a

Oh, gunohsiz o'ldirildim...

E m i l i y a

Kimning ovozi?

O t e l l o

Mana shu ovozmi?

E m i l i y a

Evoh, bu qanday dahshat!

Malikamning ovozi-ku, axir, bu ovoz.

Hoy, yordam beringlar! Kim bor? Yordam beringlar!

O, biror so'z desangiz-chi, aziz malikam,

Go'zal Dezdemonna, mening mehribon bekam!

D e z d e m o n a

Men begunoh ketayapman...

E m i l i y a

Kim qildi buni?

D e z d e m o n a

Hech kim. Yolg'iz o'zim. Xayr, xayr, alvido,

Marhamatli Otelloga topshiring meni...

O'ladi.

O t e l l o

Ajab, nega endi uni o'ldirishibdi?

E m i l i y a

Tavba, kim biladi deysiz?

O t e l l o

Eshitdingiz-ku,

Hozirgina o'zi aytdi, men o'ldirmadim.

E m i l i y a

Shundoq dedi, men ham tasdiq etishim mumkin.

O t y e l l o

U munofiq hozir xuddi do'zaxga ketdi.

Uni men o'ldirdim.

E m i l i y a

Evoh, undoq bo'lsa-chi,

U — begunoh malak, ammo sen — qora shayton.

O t e l l o

U aynigan edi, iflos fohisha edi.

E m i l i y a

Unga tuhmat qilyapsan, la'nati iblis.

O t e l l o

Oqar suvdek u betiyiq, beqaror edi.

E m i l i y a

Shu so'zingda sen o't kabi hovliqma, nodon,

U osmondek toza edi, beg'ubor edi.

O t e l l o

Don olishib yurar edi Kassio bilan;
Sen eringdan so'ra buni. Surishtirmasdan,
Shunday og'ir bir chorani qo'llagan bo'lsam,
Mayli, xuddi jahannamga tusha qolay men.
Xullasi kalom, hamma gapni ering biladi.

E m i l i y a

Mening erimmi?

O t e l l o

Ha, sening ering.

E m i l i y a

Malikamning yomon yo'lga kirganini-ya?

O t e l l o

Ha, Kassio bilan. Agar sodiq bo'lsa-chi,
Falak qurib bersa hamki zabarjad dunyo,
Unga alishmasdim.

E m i l i y a

Ajab, mening erim-a?

O t e l l o

Ha, bu gapni menga avval o'sha yetkazdi;
U judayam halol inson, shuning uchun ham
Bunday harom qilmishlardan hazar qiladi.

E m i l i y a

Mening erimmi?

O t e l l o

Nega muncha takrorlaysan? Ering dedim-ku!

E m i l i y a

E Xudoyim, muhabbatni makr bulg'amish —
Erim shundoq degan bo'lsa.

O t e l l o

Ha, shundoq dedi,
Takrorlayman, ering... Endi tushungandirsan?
Sening ering, mening do'stim, nomusli Yago.

E m i l i y a

Shundoq degan bo'lsa uning yovuz yuragi
Har kun erib, qatra-qatra suv bo'lib oqsin.
U insofga tupuribdi, yolg'on aytibdi,
Bekam irkit qismatini sevar edi...

O t e l l o

A!

E m i l i y a

Gar qo'lingdan kelsa bundan battarini qil,
Malikamga sen munosib bo'lmaganingdek,
Munosibmas osmonga sening qilmishing.

O t e l l o

Jim! Sasingni o'chir!

E m i l i y a

Endi qo'rqitilmaysan,
Qilganingni qilding. So'tak! Yaramas! Nodon!
Hoy sen johil, ayt-chi, nima ish qilib qo'yding-
Menga pisand emas endi qiliching sening,
Birmas, yigirma bor jonim olganingda ham,
Qilmishingni fosh qilaman, elga yoyaman.
Hoy, yordam beringlar, yordam! Kim bor, odamlar!
Voy-dod, arab malikamni o'ldirib qo'ydi!
Voy-dod, yordam beringlar! Hoy!..

Montano, Grastiano, Yago va boshqalar kirishadi.

M o n t a n o

Xo'sh, nima gap? Nima bo'ldi, tinchlikmi, general?

E m i l i y a

Keldingizmi, Yago? Yaxshi, mana bu kimsa
Sizga to'nkayapti qilgan qotilligini.

G r a s t i a n o

Xo'sh, nima gap o'zi?

E m i l i y a

Erkak bo'lsang, chiqar buning sharmandasini;
Aytganmishsan, xotinini buzuq deb go'yo.
Men bilaman, aytmagansan, ablah emassan,
Gapir, yo'qsa, tars yorilar yuragim mening.

Y a g o

Men o'zimcha taxminimni aytganman, xolos,
U bo'lsa-chi, surishtirib, to'g'ri deb topdi.

E m i l i y a

Xotinini siz buzuq deb, aytganmidingiz?

Y a g o

Aytgan edim.

E m i l i y a

Siz bu gapni yolg'on aytgansiz,
Ont ichaman, uydirmabu, qi p-qizil yolg'on.
Kassioning o'ynashi ham deganmidingiz?

Y a g o

Ha, deganman. Tilingni tiy, yetar, vaysama.

E m i l i y a

Yo'q, tilimni tiyolmayman, aytishim darkor,
Bekam to'shagida o'lib yotibdi, axir.

H a m m a

Yo Rabbii!..

E m i l i y a

Bo'htoningiz bir sho'rlikka balo keltirdi.

O t e l l o

Ha, janoblar, ajablanmang, chin haqiqat bu.

G r a s t i a n o

Alamangiz haqiqat!

M o n t a n o

O, mash'um kirdikor!

E m i l i y a

O, razolat, razolat bu, mudhish razolat!..
Evoh, shundoq bo'lishini bilar edim men,
O'ylar edim, sezar edim: qanday qabohat!
Men alamdand o'ldiraman o'zimni endi,
O, razolat! Razolat!..

Y a g o

Nima! Jinni bo'ldingmi sen! Bor, uyga jo'na!

E m i l i y a

Ruxsat eting, aytib beray sizga, janoblar,
Unga bo'ysunaman doim, ammo hozirmas,
Ehtimolki, Yago, endi uyga qaytmasman.

O t e l l o

(O'zini to'shakka tashlab)

Oh!.. Oh!.. Oh!..

E m i l i y a

Sen to'shakka yotib olib, bo'kiraver, ha,
Ko'zi ko'kka hamishalik termulib qolgan
Shu begunohni o'ldirding...

O t e l l o

Buzuq edi u.

(G r a s t i a n o g a)

Sizni yaxshi tanimasdim uzr, amaki.
Jiyaningiz yotar bunda, uni men o'zim
Mana shu qo'llarim bilan bo'g'ib o'ldirdim.
Men bilaman, dahshatlidir ushbu qilmishim.

G r a s t i a n o

Evoh, sho'rlik Dezdemon! Xayriyat, otang
O'lib ketdi nikohingga chidayolmasdan:
Umr rishtasini uzdi sen solgan alam.
Agar tirik bo'lganda bu holingni ko'rib,
Xudodan ham, samodan ham yuz o'girardi,
Hammasiga la'nat aytib, osiy bo'lardi...

O t e l l o

Bu ish qayg'ulidir, lekin Yago biladi:
U ming marta zino qilgan Kassio bilan.
Kassio ham iqrar bo'ldi. Bu yetmaganday,
O'ynashining mehnatini mukofotlabdi –
Men sevgimning garovi deb ilk bora bergan
Tortig'imni Kassioğa eltib beribdi.
Men qo'lida ko'rdim. U bir ro'molcha edi,
Otam hadya etgan ekan onamga uni.

E m i l i y a .

Yo qudrati ilohiy! Yo falak!

Y a g o

Bas, jim bo'li!

E m i l i y a

Oh, azob bu, azob! Yana jim turaymi? Yo'q,
So'z aytishda men shamoldek biyron bo'laman.
Osmon, bashar, shayton bari qichqirsin, mayli,
Tortinmayman hammasini aytib beraman.

Y a g o

Esingni yig', uyga jo'na!

E m i l i y a

Yo'q, jo'namayman.
Yago Emiliyaga qilich urmoqchi bo'ladi.

G r a s t i a n o

Uyat! Qilich sirmaysanmi xotin kishiga!

E m i l i y a

Ahmoq arab! Sen aytgan u ro'molchani men
Tasodifan topib, keyin bunga berganman.
Shu arzimasi ro'molchani o'g'irlashimni
Ko'p martalab buyurgan u.

Y a g o

Iflos, fohisha!

E m i l i y a

Kassioga bergan emish malikam uni!..
Bo'lmagan gap! Uni o'zim topib olganman
Va erimga topshirganman.

Y a g o

Aljirama, hoy!

E m i l i y a

Xudo haqi, ishoningiz menga, janoblar;
Ey olifta qonxo'r! Qarang, shunday ahmoqqa
Shundoq xotin hayf emasmi?

O t e l l o

Tosh yog'dirmasang,
Nega muncha guldiraysan, falak? Ey mal'un!
Yagoga tashlanadi, Ya g o Emiliyaga qilich urib qochadi.

G r a s t i a n o

Oh, yiqildi... Xotinini halok etdi u...

E m i l i y a

Uh, yonma-yon qo'ying meni malikam bilan!..

G r a s t i a n o

Qochdi, lekin xotinini o'ldirib ketdi...

M o n t a n o

O, tengi yo'q muttaham u, mislsiz ablah.
Men arabdan tortib olgan shu qilich bilan
Siz eshikda turing, toki chiqa ko'rmasin,
Gar chiqishga jur'at etsa, aslo ayamang.
Men u iflos, ko'rnamakni tutishim kerak.
M o n t a n o bilan G r a s t i a n o chiqadi.

O t e l l o

Jur'at – jasoratim bari tugadi, bitdi.
Mishiqli ham qilichimni tortib oladi;
Nomus ado bo'lgan joyda ne qilsin sharaf?
Yo'q, hammasi ado bo'lsin, sovrulsin endi.

E m i l i y a

U qo'shiqning ma'nosiga tushundim, bekam!
Meni tinglaysanmi, jonim? Bir oqqush bo'lib

Charx uraman endi, kuylab-kuylab o'laman:
"O, majnuntol, majnuntol, go'zal majnuntol..."
Hoy, arab, u toza edi, nomusli edi,
Seni jondan sevar edi, bag'ritosh arab.
Aytganim chin. Jonim bilan qasam ichaman,
Qasam ichib, shu chin gapni aytib... o'laman.
O'ladi.

O t e l l o

Bu xonada mening boshqa yarog'im ham bor;
Muzli suvda sovutilgan ispan shamshiri.
Oh, mana u! Amaki, men chiqishim kerak.

G r a s t i a n o

(Tashqaridan)

Quroling yo'q, o'z joningga jabr aylama.

O t e l l o

Bo'lmasa, kir ichkariga, gaplash men bilan.
Unamasang, quROLSIZ ham chovut solaman.

G r a s t i a n o qaytib kiradi.

G r a s t i a n o

Nima deysan?

O t e l l o

Mana, qarang! Menda qurol bor.
Yonboshiga xuddi shundoq shamshirni taqish
Har qandayin askarga ham nasib etmagan.
Bir zamonlar shu qisqa qo'l, olmos tig' bilan
Ne-ne saflar, qatorlarni yorib o'tganman.
Unda g'ovlar mustahkamdi, to'siqlar baland.
Ammo-lekin bu manmanlik behuda endi,
Ayting menga: kim taqdirni tadbir etadi?
Endi undiq emas, tamom boshqaman, boshqa,
Mendan zarra qo'rqmang, garchi qo'limda shamshir.

Umr yo'lim — sayohatim haddiga yetdi,
So'ng manzilga yetib, kemam taqqa to'xtadi.
Siz orqaga chekinmang, bu — behuda qo'rquv,
Otelloning ko'kragiga qurol bilanmas,
Qamish bilan turtsangiz ham — gandraklaydi,
Ayting-chi, u qochib endi qayga boradi?
O, qalaysan endi, sho'rlik, baxtiqaro qiz?
Ranging o'chib, ustingdagi ko'yilagingdek oq!..
Uchrashamiz tong-la mahshar — qiyomat kuni,
Shunda bitta boqishingga bo'lsam muyassar,
Ruhim sapchib tushib, arshi samodan qular,
Keyin talash-talash qilib uni iblislar,
Jahannamga surar... Evoh, sovubsan, jonim,
Xuddi pokligingdek. Ey sen, mal'un, ko'rnamak!
Haydang meni bu dargohdan,
Haydang meni bu samoviy malak ustidan,
Bo'ronlarga uloqtiring, o'tlarga oting!
Cho'miltiring jahannamning to'lqinlarida!
Dezdemon! Dezdemon! Sen o'ldingmi, a?
Oh!.. Oh!.. Oh!..

L o d o v i k o bilan M o n t a n o kiradi. K a s s i o n i zambilda
olib kirishadi. Qo'lga tushgan Yago ofitserlar qurshovida.

L o d o v i k o

Es-hushini yeb qo'ygan u bechora qani?

O t e l l o

Sobiq Otellomi? Mana, men bu yerdaman.

L o d o v i k o

Xo'sh, gazanda qani? Uni beri keltiring.

O t e l l o

Oyog'iga boqsam, ajab, tuyog'i yo'q-ku,
Echkituyoq deganlari demakki — yolg'on.
O'ldiraman endi hatto iblis bo'lsang ham!
Yagoni yaralaydi.

L o d o v i k o

Uning qilichini oling!

Y a g o

Qonga botdim butkul, ammo tirikman hali...

O t e l l o

Men zarracha achinmayman, o'lish — senga baxt,
Agar o'lsang, qutularding unda bir yo'la.

L o d o v i k o

O, Otello, sen naqadar shavkatli eding,
Oxir, mana, shu badbaxtga o'yinchoq bo'lding.
Endi ne deb atay seni?

O t e l l o

Ixtiyor sizda.
Istasangiz, nomusli bir qotil deb atang.
Bu ishlarni g'azab ichra qilmadim, faqat
Or-nomusni deb qildim.

L o d o v i k o

Bu iqror bo'ldi —
O'zining bor iblisona qilmishlariga.
Kassioni o'ldirishni o'ylabmidingiz?

O t e l l o

Ha.

K a s s i o

Muhtaram general, sizni yerga urguvchi
Biror gunoh, nojo'ya ish qilganim yo'q-ku.

O t e l l o

Ishonaman va bosh egib, uzr so'rayman.
Ammo so'rab ko'ringiz-chi shu azozildan,
Nega olovlariga otdi jismu jonimni?

Y a g o

Ne bilsangiz — o'sha, boshqa aytar so'zim yo'q,
Endi og'iz ochmayman, bas, tamom-vassalom.

L o d o v i k o

O'lim oldi kalima ham o'girmaysanmi?

G r a s t i a n o

Qiynoqlarga solsak, tiling chiqadi hali.

O t e l l o

Balli, shundoq qilish kerak.

L o d o v i k o

Otello, endi

Voqif bo'ling voqeaning ildizlaridan.

O'ylaymanki, barcha gapdan xabaringiz yo'q.

O'ldirilgan Rodrigoning cho'ntagidan biz

Ikkita xat topib oldik. Birinchisidan

Chiqadigan ma'no shuki, o'sha Rodrigo

Kassioni o'ldirishni olmish bo'yniga.

O t e l l o

Voy, la'nati!

K a s s i o

Qanday vahshat, qanday qabohat!

L o d o v i k o

Ikkinchi maktubga kelsak, uni batamom

Jahl, asabiyat bilan bitmish Rodrigo.

Keyin shu maxluqqa uni yubormoq bo'lgan,

Ulgurmagan shunda Yago yetib kelganu

Uni chavaqlagan.

O t e l l o

O, shum, yaramas, olchoq!
Xo'sh, ayting-chi, xotinimga tegish ro'molcha
Qanday qilib sizga o'tib qoldi, Kassio?

K a s s i o

Men uyimdan topdim. Yago tan oldi o'zi,
Shum niyat-la uni eltib tashlamish, qarang,
O'sha niyatiga, mana, yetishdi iflos.

O t e l l o

Men ahmoqman! Men so'takman! Naqadar nodon!.

K a s s i o

Rodrigoning maktubida yana dashnom bor,
U Yagoni qoralaydi, qorovulda u –
Turganida menga qarshi qayragani-chun.
O'sha janjal tufayli men ishdan olindim.
Boyagina unsiz, jonsiz yotgan Rodrigo
Bir zumgina ko'zin ochdi, hushiga keldi.
Bu ishlarga meni nuqul boshladi Yago,
Keyin o'zi meni chopib o'ldirdi, dedi.

L o d o v i k o

Xo'sh, Otello, siz biz bilan yurasiz endi,
Bitdi rasmiy huquqingiz, vakolatingiz.
Qibrisning voliysi bo'lur endi Kassio.
Bu qul uchun shunday jazo topish kerakki,
Azoblari cho'zilgandan yana cho'zilsin,
Shu dunyoga kelganiga pushaymon bo'lsin.
Sizni esa biz hibsga olamiz, toki
Ishingizdan senat voqif bo'lgunga qadar.
O'shangacha siz qamoqda kuta turasiz.
Qani, olib chiqing.

O t e l l o

Jindak sabr qilinglar.

Ikki og'iz so'z aytaman ketish oldidan.

Yurtga bir oz xizmat qildim, bu endi ma'lum,

Balki aytish shart emasdir. Lekin so'rayman:

Bu qayg'uli savdolari xatga solarkan,

Qandoq bo'lsam — shundoq yozing: zarra kamaytmang.

G'azab ila bir nimalar qo'shmang. Aytingkim,

U bir jinni edi, lekin sevardi juda,

Rashkchi emas edi, lekin bir qo'zg'aldiyu

Jazavasi chegaradan oshdi o'shanda...

Podsholikka bermas noyob gavharini u

Bitta johil hindu kabi otdi bepisand.

Endi uning mo'ltiragan, mute ko'zidan —

Avval yig'lab ko'rmagandi, shundoq bo'lsa ham,

Arabiston daraxtining shifobaxsh, shaffof

Shirasiday yoshlar oqar... Ayting shularni...

Va aytingki, ko'rib qoldim bir kun Halabda

Qahri qattiq, sallali turk ayab-netmasdan

Savalardi Venetsiya fuqarosini.

Haqoratga ko'mar edi bizning senatni,

Xalqumidan xippabo'g'dim men o'shaitni.

Va mana shunday qilib... xanjar urdim!..

O'z-o'ziga xanjar uradi.

L o d o v i k o

Qonli yakun!

G r a s t i a n o

Afsus, zoye ketdi shuncha gap.

O t e l l o

O'pib turib, olgan edim joningni, sanam,

Dezdemonaning ustiga o'zini tashlaydi.

O'pib turib, beray endi jonimni men ham..

O'ladi.

K a s s i o

Ana shunday bo'lishidan qo'rqqan edim men,
Qurolsiz deb o'ylagandim uni har qalay.
Buyuk qalbi bor edi.

L o d o v i k o

(Yagoga)

O, Sparta iti!
Ochlik, vabo, dengizdagi bo'ron, po'rtana —
Bular bari nima emish sening oldingda?
Qarshingdagi dahshatli shu to'shakka qara,
Sening ishing! Qarashga ham botinmas kishi.
Ustlarini yopib qo'ying, Grastiano.
Bu uy mol-ashyosi bilan sizga o'tadi,
Siz arabga merosxo'rsiz. Muhtaram voliy,
Bu do'zaxiy ablah ishi — sizga havola:
Hukm qiling, qiynoqlarga soling, ayamang!
Men hoziroq; Venetsiya tomon qaytaman,
Bu qayg'uli mojaroni borib aytaman.
Chiqadilar.

MUNDARIJA

Hamlet	3
Otello	196

UDK: 821.512.133

BBK: 84 (4Ingl)

Adabiy-badiiy nashr

Vilyam Shespir

TANLANGAN ASARLAR

Muharrir	<i>Ibrohim Karimov</i>
Badiiy muharrir	<i>Ibrohim Jo'ra</i>
Texnik muharrir	<i>Tatyana Smirnova</i>
Musahhih	<i>Bibi Rohia' Saidova</i>
Sahifalovchi	<i>Ulug'bek Saidov</i>

Sh 42

Shespir, Vilyam.

Tanlangan asarlar / V.Shespir; ingliz tilidan tarj. J.Kamol. - T.:
Tamaddun, 2011. - 380 bet.

Litsenziya: AI №136. 27.04.2009-y.
Bosishga 24.10.2011-y. da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 ¹/₁₆.
Garnitura TimesUZ. Ofset usulida chop etildi. Shartli bosma t. 23,75.
Adadi 1501 nusxa. 129-raqamli buyurtina. Narxi shartnoma asosida.

«Tamaddun» nashriyoti, 100129. Toshkent sh., Navoiy ko'chasi-30.
Tel : (371) 244-42-65. Faks: (371) 244-42-54.

MChJ «IPAK YO'LI POLIGRAF» bosmaxonasida chop etildi.
Manzil. 100170. Toshkent sh., I.Mo'minov ko'chasi-9.

23.500 c

ISBN 978-9943-377-65-3



9 789943 377653